

RESEARCHBIB IMPAKT FACTOR: +12.45  
NASHR KO'RSATKICHI 1404



URGANCH  
INNOVATION  
UNIVERSITETI



# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

2026 (2)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

***INNOVATION AND PROGRESS***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy  
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational  
JOURNAL***

**2026-yil, 2-son  
2026, Issue 2**

**Bosh muharrir v.v.b.:**

*Sh.Ismoilov – Fizika matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

*S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas'ul kotib:**

*U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

*G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.*

*M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G'.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

*T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.*

*M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.*

*M.R.Xo'jamov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

*Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Ulug'bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*M.Qo'chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*O'.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

*Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

*M.K.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi.*

*Qozoqboy Yo'ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*I.A.Ishonxanova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*

*G.Sharipova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.*  
*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*B.T.Bayxonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
*A.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.*  
*M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.*  
*M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.*  
*O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).*  
*L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).*  
*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*  
*Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).*  
*H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).*

---

**Hamkor tashkilotlar:**

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyat bo'limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

---

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko'ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.  
 № 2 (37), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil.

## MUNDARIJA: TARIX

|                                                                                                                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ustoz xotirasi hamisha qalbimizda. ....                                                                                                                                | 6   |
| <b>M.ESHMURODOV.</b> Sharqshunoslikning dunyo ilm- fanida tutgan o‘rni.....                                                                                            | 7   |
| <b>A.XOLMATOV, M.XO‘JANAZAROV, H.HOSHIMOV, F.SUBXONOV, T.RO‘ZIBOEV, I.RASULOV, G‘.MUXTOROV.</b> Oqtog‘ tizmasi qoyatosh rasmlari va ularning chizilish texnikasi. .... | 17  |
| <b>SH.ISMOILOV.</b> Ilk turkiy xorazmshohlar – oltuntoshiylar tangalar zarb qilishganmi?.....                                                                          | 22  |
| <b>O.SHOMURODOV.</b> Xorazmshoh – Anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharlari.....                                                                                  | 34  |
| <b>J.YUSUPOV.</b> Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasi masalalari diskursi.....                                                                                    | 43  |
| <b>N.HAYOTOVA.</b> Sovet davrida Vobkent shahrining ijtimoiy-hududiy rivoji:tarixiy meros va yangi qurilishlar.....                                                    | 50  |
| <b>U.BEKMUHAMMAD.</b> Rahmat Majidiy: davr va qismat.....                                                                                                              | 59  |
| <b>R.RAHIMOV.</b> Sovetlarning Xorazmda zo‘rluk bilan o‘tkazgan quloqlarni surgun qilish jarayoni.....                                                                 | 66  |
| <b>H.RAXIMOV.</b> Qurbon Bereginning kollektivlashtirish arafasidagi jarayon aks ettirilgan asari.....                                                                 | 71  |
| <b>K.NURULLAYEVA, N.ABDOLNIYAZOVA.</b> Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta’minlash masalalari.....                       | 75  |
| <b>S.ABDUSALOMOVA.</b> Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yo‘l xo‘jaligi va transport tarmoqlarining ahvoli.....                        | 79  |
| <b>SH.RAXMONOV.</b> Mahalla va nuroniylar: avlodlararo meros va qadriyatlar uzluksizligi masalasi.....                                                                 | 832 |
| <b>G.TORENIYAZOVA.</b> Qishloq xo‘jaligida institutsional islohotlar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri (1997–2003 yy.).....                                 | 87  |
| <b>G.XOSHIMOVA.</b> XIX asr oxiri – xx asr boshlarida jadidchilik harakati va uning milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni.....                                           | 93  |
| <b>Y.XUSANBOYEVA.</b> Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining shakllanishi va uning ijtimoiy-ma’naviy hayotga ta’siri (X–XIV asrlar). ....                             | 99  |
| <b>G.BOBOJANOVA.</b> XX asr davriy matbuotida ateizm targ‘iboti (xorazm misolida).....                                                                                 | 106 |
| <b>G.NIYOZMETOVA.</b> Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyati.....                                                   | 118 |

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>B.KENJAYEV.</b> 1930-yillarda SSSR tarixi bo'yicha maktab darsliklarida Xorazm mavzusi.....                                                                     | 124 |
| <b>D.ATADJANOVA.</b> Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabining an'anaviy naqsh kompozitsiyalarini shakllantirishning tarixiy-etnografik asoslari va prinsiplari..... | 128 |
| <b>Z.EGAMBERDIYEVA.</b> Mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrda xorazmdagi jarayonlar.....                                                                            | 133 |
| <b>M.MATYAKUBOVA.</b> Xiva xonligida pul muomalasi va zarbxona faoliyati.                                                                                          | 139 |
| <b>D.JAMOLOVA.</b> Abdurauf Fitratning jadidchilik milliy siyosiy harakatida tutgan o'rni.....                                                                     | 146 |
| <b>SH.MATYAKUBOV.</b> Xiva xonligida davlat boshqaruvi va idora usuli. ....                                                                                        | 163 |
| <b>M.XO'JAMOV.</b> O'zbekiston ssrda aholini go'sht va sut ta'minotini yaxshilash borasida olib borilgan chora-tadbirlar. ....                                     | 169 |
| <b>N.BOTIROVA.</b> Antik davr o'rta osiyo xalqlarining harbiy jarayonlarda foydalangan qurollari.....                                                              | 172 |
| <b>E.TILAYEV.</b> Buxoro amirligining tashkil topishi va ilk mang'it hukmdorlarining taxtga kelishi.....                                                           | 177 |
| <b>N.MATYAKUBOV, G.BEKCHANOVA.</b> O'zbekistonda qishloq hududlarida zamonaviy uy-joylar qurish holati. ....                                                       | 184 |
| <b>T.PALVANOVA.</b> Mustaqillik yillarida Xorazmda matbuotning rivojlanishiga oid mulohazalar.....                                                                 | 190 |
| <b>K.ILXAMOV.</b> Xorazmda o'zbek xonligining barpo etilishi.....                                                                                                  | 196 |
| <b>F.JUMANIAZOVA.</b> Ikkinchi jahon urushi yillarida xorazm viloyatida madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli maqolalarni gazeta sahifalarida yoritilishi.....   | 200 |
| <b>D.RAJABOVA.</b> Xorazmda tarixiy jarayonlar va davlatchilikka oid mulohazalar (1917–1924-yillar). ....                                                          | 206 |
| <b>M.ABDULLAYEVA.</b> Ilk Sak- Massaget ko'chmanchi xalqlarining tarixiy manbalarda aks etishi .....                                                               | 211 |
| <b>IQTISODIYOT</b>                                                                                                                                                 |     |
| <b>A.XAYITBOYEV.</b> Mintaqada tadbirkorlik faoliyati orqali sanoat tarmog'ida ishchi kuchi samaradorligini oshirishni modellashtirish. ....                       | 216 |
| <b>M.BOLTAYEV.</b> Mintaqada sog'liqni saqlash tizimini joriy qilishning innovatsion yo'nalishlari. ....                                                           | 228 |
| <b>S.RAXMATULLAYEVA.</b> Transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. ....                                                  | 234 |

## USTOZ XOTIRASI HAMISHA QALBIMIZDA

Yoshlarning sevimli murabbiysi, Urganch innovatsion universiteti ta'rischisi va rektori, filologiya fanlari doktori, dotsent, Turon fanlar akademiyasi akademigi Madamin Eshmurodov 1964-yilda Gurlan tumanidagi Vazir qishlog'ida tug'ilgandi. Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) sharqshunoslik fakultetini bitirgan Madamin Eshmurodov 1987–88-yillarda sobiq ittifoqning Afg'onistonning Mozori Sharifdagi konsulxonasida tarjimon, keyinchalik Urganch davlat universitetida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent, filologiya fakulteti dekani, Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. 2022-yildan Urganch innovatsion universiteti rektori sifatida mehnat qilayotgandi.

Mohir pedagog, izlanuvchan olim va talabchan rahbar Madamin Eshmurodov sharqshunos, filolog va tarixchi sifatida “Sharqqa talpingan sharqshunoslar”, “Xorazm tarixidagi jarayonlar va tarixnavislik”, “Xorazm tarixiga oid manbalar tahlili va tarixnavislik”, “Avesto”da tabiat kultlari talqini”, “Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi”, “Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi”, “Xorazm turkiy tarixnavisligi davlatchilik terminologiyasining tarixiy ildizlari” singari monografiyalar, “X-XII asrlar Xorazm madaniyati Yoqut al Hamaviy talqinida”, “Ko'hna va Yangi Vazir” nomli risolalar, “Eski o'zbek adabiy tiliga oid arabiy, forsiy va turkiy so'zlarning etimologiyasini aniqlash usullari” uslubiy qo'llanmasi, “Iste'dod qirralari: til, tarix va tafakkur” nomli maqolalar to'plamini nashr ettirgan zahmatkash olim edi.

Madamin Jumaboevich Eshmurodovning nomi, uning ezgu faoliyati nafaqat uning oila a'zolari, sulolasi va qarindosh urug'lari, do'stlari, shogirdlari, universitet jamoasi, balki ilm-u fan namoyandalari xotirasida ham mangu barhayotdir.



## TARIX

### SHARQSHUNOSLIKNING DUNYO ILM- FANIDA TUTGAN O‘RNI



**Madamin  
ESHMURODOV,**

**Filologiya fanlari  
doktori, dotsent.  
Turon Fanlar  
akademiyasi  
akademigi**

**UO‘K 811.512.133’373.2:254.2-24**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharqshunoslik fani va uning dunyo ilm-fanida tutgan o‘rni tahlil etiladi. Dunyoda va Rossiya hududida sharqshunoslik fanining rivojlanishi, shuningdek O‘zbekistonda ushbu fan rivojiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyati ham yoritib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется наука востоковедения и её место в мировой науке. Также освещается развитие востоковедения в мире и в России, а также деятельность учёных, внёсших вклад в развитие этой науки в Узбекистане.

**Annotation:** This article analyzes the science of Oriental studies and its place in world science. The development of Oriental studies in the world and in Russia, as well as the activities of scientists who contributed to the development of this science in Uzbekistan, are also highlighted.

**Kalit so‘zlar:** Sharq, g‘arb, dunyo, sivilizatsiya, fan, jamiyat, Misr, Rossiya, O‘zbekiston, institut, olimlar, tadqiqotlar.

**Ключевые слова:** Восток, Запад, мир, цивилизация, наука, общество, Египет, Россия, Узбекистан, институт, ученые, исследования.

**The keywords:** East, West, world, civilization, science, society, Egypt, Russia, Uzbekistan, institute, scientists, research.

Sharq, xususan Osiyo va Afrikadagi davlatlar, ushbu hududdagi xalqlar hayoti, turmush tarzi, tarixi, iqtisodi, tili, adabiyoti, etnografiyasi, san‘ati, dini, falsafasi, moddiy va ma’naviy madaniyatini kompleks o‘rganuvchi fan sharqshunoslik deb ataladi.

Sharqshunoslikning misrshunoslik, assirologiya, semitologiya, arabshunoslik, eronshunoslik, turkshunoslik, xitoyshunoslik, mongolshunoslik, hindshunoslik, yaponshunoslik kabi sohalari mavjud. Vaqt o‘tib fanning rivojlanishi bilan sharqshunoslikning yangi hududiy shoxobchalari, ya’nikim shumerlogiya, ururtologiya, kumranistika, koreistika va boshqalar paydo bo‘la boshladi. Afrikashunoslik sharqshunoslikdan ajralib ham chiqdi. Ilm-fan



rivojlanishi va sohaga yetuk, iqtidorli tadqiqotchilarning kirib kelishi bilan sharqshunoslik kompleks fan sifatida rivojlanishda davom etmoqda.

Agar tarixga nazar solsak, sharq mamlakatlari va ularning tarixi mahalliy olimlar tomonidan qadimdan o'rganila boshlanganini kuzatish mumkin. Ya'ni, maftunkor sharqni o'rganish, tadqiq qilishni bevosita sharqliklar boshlab berishgan edi. Qadimgi va o'rta asr sharq olimlari yaratgan asarlar asosan tarixiy va geografik tafsilotlar xarakteriga ega bo'lib, bir hududda yashovchi sayyoh, savdogarlarning boshqa bir sharq mintaqasida o'z ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bayoni, tafsilotidan iborat edi.

Vaqt o'tib, bu asarlar sharqshunoslik fani uchun qimmatbaho manba darajasiga yetdi va ular hanuz boshqa manbalarga taqqoslab o'rganuvchi, o'z ahamiyatini yo'qotmagan memuarlar hisoblanadi.

Yevropada esa sharq va sharqliklar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar asosan yunon mualliflari yaratgan asarlarda uchraydi. Yunonlar dastlab Eronni, keyinchalik esa o'z yurtlaridan sharqda bo'lgan hududlarni sharq deya hisoblashgan. Yevropada esa taraqqiyot rivoji sabab Osiyo va Shimoliy Afrika bilan savdo, so'ngra siyosiy-diplomatik aloqalar o'rnatilishi bilan sharqqa bo'lgan qiziqish va istaklar, umuman olganda sharqqa talpinish kuchaya boshladi.

“12 asrdan boshlab Veniamin Tudelskiy (12 asr) va Marko Polo (13 asr) singari yevropalik savdogar va diplomatlarning Yaqin va O'rta Sharqqa qilgan sayohatlari to'g'risidagi safarnomalari esdalik-memuar tarzida yozila boshladi. Qolaversa, dunyoda xalqaro aloqalarning kengayishi, elchilik missiyalarining ko'payishi sharqni tanish, ushbu hudud bilan aloqa o'rnatish, uni tadqiq qilish hamda sharqshunoslikning fan sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

15-16 asrlarga kelib esa Yaqin Sharq mamlakatlari va jozibali, maftunkor Xitoy o'tmishiga doir asarlar paydo bo'la boshladi. Natijada Parij, Oksford universitetlarining Sharq tillari kafedralarida qadimgi yahudiy va arab tillari o'qitila boshladi” (1).

Xususan bu borada Rossiyada ham sharqqa qiziqish istagi kuchaya boshladi va XV asrda Rossiyada Afanasiy Nikitinning Hindiston to'g'risida, XVII asrda esa M.Petlin, rus elchilari F.I. Baykov va N.G.Spafariyning Xitoyga oid sayohatnomalari nashr qilindi.

XVII asrdan Yevropada sharq tillaridan fors, turk, xitoy tillarini o'rganish, ushbu xalqlar yashaydigan hududlarni tadqiq qilish kuchaya boshladi. Hatto ayrim sharq tillarining lug'atlari, sharqdagi mashhur ijodkorlar (asosan Sa'diy) asarlarining matni va tarjimalari chop etildi.

XVII asr oxiriga kelib esa elchilar, savdogarlar, sayyohlarning sharqqa borib olib kelgan asarlari sabab Leyden, Parij, Oksford universitetlarining kutubxonalarida sharq qo'lyozmalarini to'plash, ularni tadqiq qilish boshlandi. Qolaversa, bu paytga kelib Yevropadagi hukmdorlar saroylari, kutubxonalarida ham sharq hukmdorlarining sovg'a qilgan noyob miniatyura bilan bezak, jilo berilgan asarlari ko'payib ketgan edi. Ularni dastlab saroydagi muarrixlar, keyinchalik esa universitetlardagi tadqiqotchilar o'rgana boshlashi bilan birga, keng omma uchun ham nashr eta boshlashdi.

“Bu boradagi Yevropadagi dastlabki yutuqlardan biri 1667-yili Parijda D. Erbeloning “Sharq kutubxonasi” nomli to‘plami nashr etilganini olqishlash, e’tirof etish kerakdir. Rossiyada esa taraqqiyparvar, islohotchi hukmdor sifatida tarixda qolgan imperator Pyotr I ning 1700 va 1702-yillardagi farmonlariga ko‘ra sharq tillarini o‘rganish, o‘qitish joriy qilindiki, bu holat Rossiyada sharqshunoslikning rivoj topishiga sababchi bo‘ldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan sharqni ilmiy asosda, fundamental tarzda, keng qamrovda tadqiq qilish Yevropada rivojlana boshlandi. Bu borada ayniqsa, sharq filologiyasini tadqiq qilish taraqqiy qildi. 1711-yilda “Avesto”ning A.Dyuperron tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinishi esa sharqshunoslikda yangi sahifa ochdi.

Shuningdek, Yevropa tadqiqotchilari tomonidan Mix xatlari, Misr iyerogliflarini o‘qishga muyassar bo‘linishi ham dunyoda sharq va sharqshunoslikning dovuq tarqatishiga sababchi bo‘ldi. Kalkutta (1784), Parij (1822), London (1823), Leypsig (1845) singari dunyoning madaniy, ilm-fan taraqqiy qilgan shaharlarida bir necha Osiyo jamiyatlari, sharq tillarini o‘rganuvchi oliy o‘quv yurtlari tashkil etilgani ham sharqshunoslikning jadal rivojiga imkoniyat yaratdi.

Bu boradagi katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan dargohlardan Venadagi Sharq tillari akademiyasi (1754) hamda Parijdagi Jonli Sharq tillari maktab (1795) lariga asos solinishini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Aynan shu va boshqa dargohlarda esa sharq tarixi va uning madaniyatiga (asosan Qadimgi va o‘rta asr tarixiga) oid fundamental tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi” (2).

Bu davrlarga kelib Rossiyada ham G.S. Lebedov tomonidan 1801-yilda Yevropada birinchi bo‘lib sanksrit grammatikasiga oid asar yaratildi. XIX asrga kelib esa dunyodagi eng mashhur sharqshunoslardan biri N.Ya. Bichurin bo‘ldi. Shuningdek, Rossiya hududidagi universitetlarda sharq tillarini o‘qitishni mashhur olim M.V. Lomonosov taklif qilgandi.

Natijada asta-sekinlik bilan Rossiyadagi oliy o‘quv yurtlarida sharqni va sharqliklarni tadqiq qiladigan sharqshunos kadrlar tayyorlana boshlandi. Bu borada 1807-yildan Qozon universiteti, 1819-yildan Peterburg universitetlarida ilmiy salohiyatli sharqshunoslar tayyorlana boshlandi. 1818-yilda esa Peterburgda Osiyo muzeyi barpo etildiki, bu sharqshunoslik borasida Rossiyadagi eng katta qadam, rivojlanish bosqichi bo‘ldi.

Taniqli sharqshunoslar Bahrom Abduhalimov va Surayyo Karimovalar ta’kidlaganidek, “XVIII asrning 2-yarmidan sharqshunoslikni ilmiy asosda o‘rganish boshlandi. Mustamlakaga aylantirilgan Sharq mamlakatlaridan G‘arbga katta moddiy boyliklar bilan bir qatorda ko‘plab yozma yodgorliklar ham olib ketildi, Yevropaning Leyden, London, Parij, keyinchalik Peterburg kabi shaharlarida boy qo‘lyozma fondlari tashkil etildi. Ularda tarix, fan va madaniyat tarixi, dinshunoslik, huquq, falsafa, til va adabiyotga oid qo‘lyozma asarlar yig‘ilgan bo‘lib, ularni tarjima va tadqiq etish ilmiy sharqshunoslikning shakllanishiga zamin bo‘ldi. Ko‘p vaqtgacha ilmiy sharqshunoslikning asosiy va

yagona sohasi sharq filologiyasi edi. Yozma manbalarni ilmiy tavsiflash, kataloglashtirish, ularning tanqidiy matnlarini tuzish, manbaning kelib chiqishini aniqlash, tarjima qilish va ilmiy izohlash shu sohaning asosiy vazifalari hisoblangan. Keyinchalik qo‘lyozma manbalar yoniga epigrafik materiallar (qabr toshlari, metall idishlar va boshqalar buyumlardagi bitiklar) qo‘shilishi natijasida sharq epigrafikasi rivojlana boshladi.

Sharq filologiyasining o‘ziga xos xususiyati uning kompleksligidir. Zero unda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, din tarixi elementlari mujassamlashgan bo‘lib, yozma manbalar ustida ishlash o‘rganilayotgan mamlakat tili, tarixi va madaniyatini bilish barobarida shu manba mansub bo‘lgan soha bo‘yicha ham maxsus bilimlarni talab etadi. Farg‘oniy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi allomalarning aniq va tabiiy fanlarga oid bo‘lgan asarlarining rus va o‘zbek tiliga izohli tarjimalari bunga yorqin misoldir. Shu ma’noda sharq filologiyasi hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda, chunki hali o‘rganilmagan yozma manbalar juda ko‘p va ularni tadqiq etish kompleks bilimlarni talab qiladi”.

Haqiqatdan ham sharqshunoslik ushbu sohani tanlagan tadqiqotchidan zahmatli, biroq zavqli mehnatni talab qiladi.

19 asrning ikkinchi yarmidan Yevropadagi nufuzli kutubxonalarda saqlanayotgan sharq qo‘lyozmalari va kitoblarining kataloglari, sharq tillari lug‘atlari va eng hayratlanarlisi - to‘rtta tilda “Islom ensiklopediyasi” ham chop etila boshladiki, bu ham dunyodagi sharqshunoslikning yanada rivoj topishiga, bu esa bevosita maftunkor sharqning keng omma orasida ham shuhrati oshishiga olib keldi.

Sharqshunoslikning taraqqiy eta boshlashiga yana 1873-yildan har uch-to‘rt yildan o‘tkazila boshlangan xalqaro kongresslar fan uchun o‘ziga xos sarhisob va rejalarni muvofiqlashtirish borasidagi imkoniyat bo‘ldi. Shu bilan birga bevosita Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron va Usmoniylar saltanatida hamda boshqa Sharq hududlarida o‘zlarining ilmiy tomonlama yetuk tarixchi, filologlari yetishib chiqa boshladi. Ya’ni, sharqni sharqliklar, o‘zlarining sharqshunoslari ilmiy tomonlama keng qamrovda, tanqidiy uslublarda tadqiq qila boshlashlari keyingi davr olimlari uchun qiyosiy, taqqoslab o‘rganuvchi manba vazifasini o‘tadi.

Ma’lumki, Yevropa davlatlari, jumladan Rossiya imperiyasining ham sharqqa nisbatan mustamlakachilik siyosatini olib borishlari bilan sharqni sharqshunoslar bevosita hududga kelib o‘rgana boshlashdi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya sharqshunoslarining ilmiy faoliyatida yangi qadamlar tashlanib, ekspeditsiyalar tashkil qilina boshlandi. Shuningdek, P.Ya. Petrov, I.P. Minayev, N.A. Aristov, Dorji Banzarov, V.V. Bartold va boshqalar o‘z vatanlaridagi kutubxona, universitet fondlaridagi manbalar bilan tanishibgina qolmay, bevosita hududga tashriflari asosida asarlar yarata boshlashgan edi.

Natijada rus sharqshunoslari bu davrga kelib mazkur fanning turkshunoslik, kavkazshunoslik va boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha ham g‘oyatda salohiyatli asarlar yozdilar. Turkshunoslik bo‘yicha I.N. Berezin, M.K. Kozimbek,



V.V.Radlov va boshqa sharqshunoslar turkiy xalqlar tili, folklori va adabiyotiga oid keng qamrovdagi asarlar yaratishdi.

Shu singari mo'g'ul, eron, kurd, osetin va boshqa tillarga oid ilmiy asarlar ham nashr qilina boshladi. O.I. Senkovskiy, X.D. Fren, V.V.Rozen, G.S. Sablukov, A.V.Boldirev O'rta Osiyo, Sibir, Mongoliya, Xitoyning moddiy va diniy madaniyatiga oid manba hamda yodgorliklarni tadqiq qilib, nashr etishdi.

Bu davrga kelib dunyo ilm-fanida katta mavqe, qiziqish uyg'otgan Sharqiy Turkiston (Kuchon, Turfon)da topilgan budda, xristian va moniy adabiyotlari sharqshunoslik borasidagi istiqbolga xizmat qildi. Shuningdek, rossiyalik V.V. Velyaminov-Zernov, N.V.Xanikov, V.V.Grigorev, N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold va boshqa sharqshunoslar bu paytga kelib O'rta Osiyo tarixi, geografiyasiga oid juda ko'plab g'oyatda ilmiy salohiyatli asarlar yaratdilar, ular har qanday davrda ham o'z ilmiy ahamiyatini, nufuzini yo'qotmaydi.

Ayniqsa Qozon, Peterburg, Moskva universitetlari, Moskvadagi Lazerev Sharq tillari instituti, Odessadagi Rishel litseyi, Vladivostokdagi Sharq instituti va boshqa bir qancha o'quv yurtlari XX asrga kelib jamiyat, fan uchun yetuk sharqshunoslarni tayyorlab yetishtirgan edi.

Qolaversa, sharqshunoslarning tadqiqotlarini chop etadigan nashrlar ham bu paytda nafaqat Rossiyada, balki dunyoda o'z nufuziga ega edi. Bunga misol sifatida "Азиатский вестник" (1825-1827), "Записки восточного отделения русского археологического общества"(1887-1921), "Мир ислама" (1912-1913) jurnallarini misol qilib keltirish mumkin.

1921-yilda esa Butun Rossiya Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasining tashkil etilishi ko'plab rus sharqshunoslarning ushbu tashkilotda faoliyat ko'rsatishiga, ularning asarlari yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

N.Ya.Mar, S.F.Oldenburger, F.I. Sherbatskiy, V.V.Bartold, I.Yu.Krachkovskiy, V.V.Struve va boshqalarning yaratgan salohiyatli, dunyo ilm-fani, olimlarida qiziqish uyg'otgan asarlari aynan o'sha davr bilan bog'liqdir. 1930-yilda esa sobiq ittifoqdagi Osiyo muzeyi, Sharqshunoslar kollegiyasi, Budda madaniyati instituti va Turkshunoslik kabineti va boshqa Sharqshunoslik tashkilotlari asosida Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti tashkil etildi.

Vaqt o'tib, sobiq ittifoq respublikalarida ham sharqshunoslik institutlari faoliyat ko'rsata boshladi. Aynan shu davrlarda faoliyat ko'rsata boshlagan Toshkentdagi Sharqshunoslik instituti ham o'z tarixiga ega bo'lib, ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar boshqa respublikalar va xorijlik sharqshunoslarning ham e'tiborini tortdi.

1944-yilda Toshkentda Respublika Davlat kutubxonasining "Sharq bo'limi" negizida "Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti" nomi bilan ilmiy muassasaga asos solindi. 1950 -yildan ushbu muassasa Sharqshunoslik deb ataldi va 1957-yilda unga Abu Rayhon Beruniy nomi berildi.

Institutda A.A.Semyonov, A.Murodov, A.K.Arends, A.Rasulov, S.Mirzayev, M.A. Sale, I. Odilov, 2-jahon urushi davridagi evakuatsiya tufayli

Toshkentga kelgan Ye.E.Bertels, I.P.Petrushevskiy, V.I. Belyaev, O.I. Smirnova, I.D.Mikluxo-Maklay, A.N.Kononov, N.V. Dyakonova singari o'z davrining va hozirda ham mashhur sharqshunoslari faoliyat ko'rsatishgan.

O'zbekistonda sharqshunoslikning shakllanishi va uning jahonga tanilishiga turli davrlarda A. K. Arends, A. Ahmedov, S. Azimjonova, B. Ahmedov, B. Bobojonov, P. G. Bulgakov, N. Ibrohimov, A. Irisov, U. I. Karimov, S. Mirzayev, A. Mo'minov, M. A. Sale, A. A. Semyonov, M. M. Xayrullayev, A. Xo'jayev, Sh. Shomuhamedov, A. O'rinboyev, A. Qayumov, A. Hayitmetov, A. Rustamov, A. Muhammadjonov, M. B. Baratov, I. Abdullayev, P. Qodirov, Mirsodiq Ishoqov, Bahrom Abduhalimov, Surayyo Karimova, G'ulom Karim kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hozir O'zbekistonda sharqshunoslik bo'yicha "Sharqshunoslik" almanaxi (1991-yildan), "Sharq mash'ali", "Mayak Vostoka" va "Imom Buxoriy saboqlari" kabi jurnallar chop etilmoqda.

Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida tarixning turli davrlariga oid arab, fors, tojik, turkiy va boshqa tillarda yozilgan eng noyob manbalar mavjud bo'lib, ushbu asarlar fanning turli sohalariga oiddir. Institut o'tgan turli davrlarda ko'plab asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi, nashr ettirib bordi va bormoqda. Institut olimlari mavjud qo'lyozmalar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, "Собрание восточных рукописей" ("Sharq qo'lyozmalari to'plami")ning 1952-75-yillarda 10 tomini nashr ettirgan edi va bu to'plam hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. 1991-yilda istiqlolning dastlabki davrida esa maxsus "Sharqshunoslik" nomli to'plamni ham chop qildirish yo'lga qo'yildiki, bu sharqshunoslar uchun o'ziga xos ilmiy minbar vazifasini o'tadi.

Garchi shu va boshqa ilmiy muassasalar o'sha davrdagi mafkura ta'sirida ilmiy ishlar, kitoblar, to'plamlar, darsliklar nashr etishgan bo'lsalar-da, olimlarning o'z kasbiga bo'lgan mehri, ilmiy salohiyati tufayli sharq xalqlari, ularning tarixi, tili, madaniyati, adabiyoti va san'atini tadqiq qilib, keng ommaga targ'ib qila oldilar.

Bahrom Abduhalimov va Surayyo Karimovalar ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda Sharqshunoslikning rivojlanishi, asosan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Toshkent Sharqshunoslik instituti (hozirda sharqshunoslik universiteti) va Toshkent Islom universiteti faoliyati (ayni paytda O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazlari ham shavrqshunoslik fanining yuksalishiga katta hissa qo'shmoqda- M.E.) bilan bog'liq. Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining ilmiy yo'nalishi institut fondida to'plangan o'n minglab qo'lyozma asarlarni chuqur o'rganish, kataloglar hamda O'rta Osiyo va qo'shni Sharq xalqlarining fani va madaniyati tarixiga oid nodir yozma manbalarni nashrga tayyorlab, ularda mavjud bo'lgan tarixiy ma'lumotlar asosida ilmiy tadqiqot ishlarini yaratish, Sharq xalqlarining o'tmishda jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissalarini yaqqol ko'rsatishni tashkil qiladi. Toshkent Sharqshunoslik universitetida sharqshunos kadrlar tayyorlash bilan birga Sharq xalqlari adabiyoti, tilshunoslik, iqtisod va siyosatshunoslikka oid ilmiy-tekshirish ishlari ham olib boriladi. Toshkent Islom universitetida islom dini tarixi, iqtisodi, huquqshunosligi, arab tili va boshqalar bo'yicha mutaxassislar

tayyorlanadi va mazkur sohada ilmiy tekshirish olib boriladi. Islom dini va u bilan bog‘liq masalalar sharqshunoslikning muhim yo‘nalishi hisoblanadi”.

Moskva, Leningrad, Toshkent, Tbilisi, Dushanbe, Boku, Yerevan, Qozon va boshqa shaharlardagi institutlarda olimlarning sa’y-harakati, fidoyiligi bilan sharq qo‘lyozmalarining g‘oyatda boy fondlari yuzaga keldi. Shuningdek, Moskva, Qozon, Leningrad, Toshkent, Boku davlat universitetlarining sharqshunoslik fakultetlari o‘zlarining ilmiy salohiyati, tadqiqot ishlari bilan nafaqat sobiq ittifoqda, balki dunyo bo‘yicha ham katta nufuzga ega bo‘lishdi.

1955-57-yillarda O‘zbekistonga rahbarlik qilgan fidoyi shaxs Nuritdin Akramovich Muhitdinovning tashabbusi, sa’y-harakatlari bilan Toshkentda Butunittifoq sharqshunoslarining 1-konferensiyasi bo‘lib o‘tdiki, ushbu tadbir qilingan ishlarning sarhisobi, qilinajak ishlarning dasturiy loyihasi tarzida o‘tdi, bu ham sharqshunoslikning taraqqiy qilishiga sababchi bo‘ldi.

Nuritdin Muhitdinov “Kremlda o‘tgan yillarim” nomli memuarida ushbu konferensiyaning o‘tkazilishi bilan bog‘liq xotiralarini quyidagicha qayd etib o‘tgandi: “...Bunday anjumanni o‘tkazishning foydali ekanligi haqida 1957-yil apreldayoq Markaziy Komitetga taklif kiritgandik. Pekinda Mao sze-Dun bilan, Pxenyanda Kim Ir Sen bilan, Javoharlar Neru, shahzoda Sianuk, Sukarno, Zohirshoh, shohanshoh Pahlaviy bilan Toshkentda, Moskvadagi XIX va XX qurultoylarda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidan ishtirok etgan delegatsiyalar a‘zolari bilan uchrashuvlar chog‘ida, shuningdek, Moskva, Leningrad, Bokuda Sharq olami bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarining ahvoli, o‘quv yurtlarida sharqshunos mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy Sharq mamlakatlarida yangi davlat idoralarining amaliy faoliyati bilan tanishgach, bu g‘oya paydo bo‘lgandi.

Hammaga ma’lumki, Rossiya dunyodagi eng yirik sharqshunoslik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Sharq xalqlarining tarixi, madaniyatini o‘rganishga o‘z hayoti, ijodiy faoliyatini bag‘ishlagan rus olimlarining nomi dunyoning hamma burchaklarida hurmat bilan tilga olinardi. Bular - I.Bichurin, I.P. Minayev, A.V. Turayev, V.V.Radlov, V.V.Rozin, N.K.Rerix, V.V.Bartold, I.Yu. Krachkovskiy, F.I. Shcherbiskiy, B.Ya.Vladimirsev va boshqalar. Xuddi shuningdek, o‘tmishda sharqshunoslik markazlari mavjud bo‘lgan O‘zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Turkmaniston va boshqa respublikalarda yirik sharqshunos olimlar bo‘lgan, ular hozir ham bor.

Sharq xalqlarining o‘ziga kelsak, ularning katta ko‘pchiligi qadimiy, boy tarixga, o‘ziga xos madaniyatga ega. Biroq Yevropa davlatlarining mustamlakachilik hukmdorligi uch asr mobaynida bu xalqlar faqat og‘ir hayot kechirib, zamonaviy madaniyatdan orqada qolishlari uchungina emas, balki o‘zlarining go‘zal o‘tmishlarini unutishlari uchun ham qo‘lidan kelgan hamma ishni amalga oshirdi. Ulardan har qaysisining mustamlakachilik zulmidan qutulish uchun qilgan har qanday urinishlari o‘q va qilich bilan bostirilardi.

XX asrda, ayniqsa, uning o‘rtalariga kelib, butun Sharq uyg‘ondi. Biroq bizning sharqshunoslik fanimiz uyquda yotgandek tuyulardi kishiga. Tarixiy jihatdan qisqa vaqt - bir necha o‘n yil ichida yuzdan ortiq mustaqil davlatlar

vujudga kelgan bo'lsa-da, biz to hanuz ularga nisbatan o'z strategiya va taktikamizni aniqlay olganimizcha yo'q edi. ...

...Butun dunyodagi vaziyat, sharqdagi yangi davr, tabiiyki, yuz bergan hodisalarni qayta anglash, mamlakatimizning Sharq mamlakatlaridagi siyosatini hamma yo'nalishda - ilmiy tadqiqotlardan tortib, diplomatik munosabatlargacha aniqroq ishlab chiqishni taqozo qilardi.

Bu haqda Markazkom Prezidiumiga axborot berganimda, birov bunga shubha bildirdi, birov biz milliy-ozodlik harakatini quvvatlaymiz, ularga yordam beramiz desa, yana biri bu yerda Sharqni G'arbga qarshi qo'yishga intilish yo'qmi, deb xavotir izhor qilgandi. Prezidium a'zolaridan biri shunday savol berdi:

-Sizningcha, Sharq nima o'zi?

Boshqasi shunday dedi:

-Nega endi konferensiyani Toshkentda o'tkazish kerak? Agar zarur bo'lsa, uni Moskvada yoki Leningradda o'tkazish mumkin.

Men tushuntirdim. Shu o'rinda N.S.Xrushchyovga tan berishim kerak: meni to'la quvvatlab chiqdi. M.A.Suslov, V.V.Kirillinga Fanlar Akademiyasi va boshqa ittifoq idoralari bilan birga to'la yordam berishni tayinladi. Ijzat olib, ishni qizitib yubordik.

Mixail Andreyevich Suslovning kabinetida to'plandik. Men konferensiyani tayyorlash va o'tkazishni qanday tasavvur qilishimizni so'zlab berdim. Akademiya vitse-prezidenti K.V. Ostorvityanov boshchiligida tashkiliy komitet tuzishni taklif etdim. Rozi bo'lishdi. Tashkiliy komitetga O'zbekistondan respublika markazkomi kotibi Zuhra Rahimboboyevani, Ministrlar Soveti Raisi o'rinbosari G'ani Sultonovni, O'zbekiston fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Ibrohim Mo'minovni kiritdik. Konferensiyadagi asosiy ma'ruzalarni V.G.Jukov va Moskvadagi Sharqshunoslik instituti direktori B.G'.G'afurov o'qisin, deb iltimos qildim. Ma'qullashdi. Shuningdek, faqat hamma respublikalardangina emas, balki bir qator xorijiy davlatlardan ham olimlar taklif qilish haqidagi fikrimizni ma'qullashdi.

Konferensiya 1957-yil 11-13-iyun kunlari Toshkentda bo'lib o'tdi. Unda Moskva, Leningrad, Ukraina, Ozarbayjon, Tojikiston, Gruziya, Qozog'iston, Armaniston, Dog'iston, Tataristondan delegatsiyalar qatnashdi. Xitoy, Polsha, Chexoslovakiya, KXDR, Mo'g'uliston, Vetnam, Ruminiya olimlari ham konferensiya ishida qatnashdilar va nutq so'zladilar.

Mazmunli va ko'p qirrali muhokama bo'ldi. Umarov, Choriyev, Sumbatzoda, Azimjonova, Nersesyan, Avezov kabi taniqli sharqshunos olimlar qiziqarli nutq so'zlashdi. Ilmiy tadqiqotlarning ulkan yo'nalishlari, mutaxassislar tayyorlash, Sharq mamlakatlari bilan hamkorlik qiluvchi turli idoralarning siyosiy va amaliy faoliyati bo'yicha bir qancha seksiyalar tuzdik.

Shuningdek, Sharq masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot ilmgohlari, oliy o'quv yurtlari uchun, ayniqsa, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturlar va mavzuiy rejalar ishlab chiqdik. Erishilgan natijalar yuzasidan bir qator muayyan takliflar tayyorladik. Mazkur takliflar



Markazkom tomonidan ma'qullandi va barcha respublikalarga yuborildi. Konferensiya oxirida so'zlashimga to'g'ri keldi...(3).

Nuritdin Muhitdinovdek dunyoga taniqli o'zbek davlat arbobi, diplomatining sharqshunoslik bo'yicha konferensiya to'g'risidagi hikoyasini batafsil keltirishdan maqsad, aynan ushbu tadbir sharqshunoslik fanining keyingi istiqbolida muhim o'rin tutgan edi.

Natijada, A.A.Guber, Yo.M.Jukov, I.M.Mayskiy, A.P.Okladnikov, G.V.Seereteli, A.N.Kononov, M.N.Bogolyubov, A.K.Borovkov va boshqa dunyoga mashhur sharqshunoslarning olib borgan tadqiqotlari tufayli 1950-60-yillarda "Jahon tarixi"ning Sharq tarixi bo'limlari, shuningdek sharq davlatlari, ularning yangi tarixiga bag'ishlangan ko'plab darslik, qo'llanma, kitoblar chop etildi. Shuningdek, I.M. Rkysner, B.N.Zaxoder, Ye.A.Belyaev, V.B. Luskiy, A.L.Galperin, A.A. Semyonov, Yu.V.Gankovski, L.I. Duman, I.M.Dyakonov, I.P.Petrushevskiy va boshqa olimlarning ham sharqshunoslikka oid ko'plab asarlari yaratildiki, ular xorijdagi boshqa sharqshunoslarning ham e'tiborini tortgan ilmiy salohiyatli asarlar sifatida e'tirof etildi. Shu va boshqa sharqshunoslarning tadqiqotlari tufayli "Sharq adabiyoti" turkumida ko'plab dunyoga mashhur ijodkorlarning asarlari katta nusxalarda, qayta-qayta nashr etildi.

Sobiq ittifoq davridagi sharq respublikalari ichidagi olimlar orasidan o'z aqlu zakovati, ilmiy tafakkuri bilan dunyoga mashhur sharqshunoslar yetishib chiqdiki, ularning yaratgan asarlarisiz fanning bu sohasini tasavvur qilish qiyin. Ozarbayjonlik A.Alizoda, Armanistondan Ya.A. Manandyan, S.T. Yeremyan, Tojikistondan B.G'ofurov, Gruziyadan I.A. Javaaxishvili, G.A.Melikishvili, O'zbekistondan B.Ahmedov, U.Karimov, S.Azimjonova, S.G'aniyeva, M.Ishoqov, B.Abduhalimov va boshqalar yaratgan monografiyalar nafaqat sobiq ittifoqda, balki dunyoda ham katta obro'-e'tibor qozondi.

Shuningdek, sharqqa oid qo'lyozmalarni tadqiq qilish, turk, kavkaz, mo'g'ul, fors, somiy, va boshqa tillar bo'yicha ilmiy grammatikalar, lug'atlar va ularga doir asarlar, dialektologiya tadqiqi bo'yicha ham asarlar yuzaga keldiki, bu yosh sharqshunoslar, umuman sharqqa qiziqqan keng omma uchun ham eng kerakli qo'llanma darajasiga yetdi.

Umuman olganda, XX asr nafaqat O'zbekiston, Rossiya va boshqa hududlarda, balki dunyo bo'ylab sharqshunoslikning rivojlanish davri bo'ldi va jahonda nufuzli ilmiy markazlar yuzaga keldi, ular tomonidan ko'plab konferensiyalar o'tkazildi. Bu borada 1967-yilda AQSh, 1971-yilda Avstraliyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda sharqshunoslik bo'yicha ko'plab ilmiy muammolar ko'tarilganini, ularning yechimini izlash, tadqiqotlar olib borish borasidagi hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishilganini mamnuniyat bilan aytish mumkin. Shu kabi London universitetining Sharq va Afrika tadqiqot maktabi, Buyuk Britaniya Markaziy Osiyo jamiyati, Berlin sharqshunoslik instituti, Vetnam tarixi instituti, Hindistondagi Bengaliya-Osiyo jamiyati, Italiyadagi O'rta va Uzoq Sharq instituti, Gollandiyadagi Yaqin Sharq instituti,

Polshadagi Sharqshunoslar jamiyati, AQShdagi Osiyo tadqiqotlar assotsiatsiyasi, Finlandiya Sharqshunoslar jamiyati, Fransiya Uzoq Sharq maktabi, Bonndagi Sharqshunoslik jamiyati, Chexiyadagi Sharqshunoslik instituti singari dunyoning turli hududlaridagi nufuzli ilmiy muassasalar tomonidan yaratilgan asarlar, tashkil qilingan konferensiyalar sharqshunoslikning dunyo bo'ylab taraqqiy qilishi, xalqaro hamkorlik va bu borada qilinayotgan ishlarning umumlashtirilishiga ham sabab bo'ldi.

Shu va boshqa ilmiy muassasalarning sa'y-harakati bilan qadimgi sharq tillari - shumer, xet, ururtu, ugarit, xatt, elam, toxar tillarini tadqiq qilish, ahamoniylar davriga oid manbalar, pahlaviy, so'g'd, xo'tan, kumron, toxar tillarida yozilgan matnlar to'plami chop qilindi. O'rta asr adabiyoti, fani va madaniyatiga oid yodgorliklarni to'plash, o'rganish va nashr etish bo'yicha xalqaro hamkorlik katta ilmiy natijalar berdi.

Xullas, sharqshunoslik fani yillar, asrlar davomida soha fidoyilarining samarali mehnati bilan shakllanib, hozirgi davrda yuqori bosqichga erishdi hamda o'zining serqirra faoliyati bilan dunyo ilm-fanining rivojida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. Ushbu rivojlanish va nufuzda esa "Sharq mash'ali" deya dovuq taratgan O'zbekiston sharqshunoslarining ham alohida o'rni borligi yanada iftixorlidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.M.Eshmurodov,U.Bekmuhammad. "Sharqqa talpingan sharqshunoslar", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2023 yil, 14 -bet.
- 2.M.Eshmurodov,U.Bekmuhammad. "Sharqqa talpingan sharqshunoslar", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2023 yil, 14 -bet.
- 3.N.Muhitdinov. "Kremlda o'tgan kunlarim", "O'zbekiston" nashriyoti, Toshkent-1995 yil, 347,348,349,350-betlar.

## TARIX

### OQTOG‘ TIZMASI QOYATOSH RASMLARI VA ULARNING CHIZILISH TEXNIKASI

**Xolmatov Azbiddin**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, Ilmiy ishlar  
bo'yicha direktor  
o'rinbosari, PhD*

**Xo'janazarov Muxiddin**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, etakchi ilmiy  
xodim, t.f.n.*

**Hoshimov Hikmatillo**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, katta ilmiy xodim,  
PhD*

**Subxonov Feruz**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, katta ilmiy xodim.*

**Ro'ziboev Timur**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, kichik ilmiy xodim.*

**Rasulov Ixtiyor**

*Samarqand arxeologiya  
instituti, kichik ilmiy xodim.*

**Muxtorov G'ayratxon**

*Milliy arxeologiya markazi,  
kichik ilmiy xodim.*

**UO'K 907.31**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oqtog' tizmasi janubiy yonbag'rida joylashgan qoyatosh rasmlarini chizishda qadimgi rassomlar tomonidan foydalanilgan texnika-texnologiya va turli ishlanish uslublari hamda ular tadqiqoti borasida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о техниках и технологиях, применявшихся древними мастерами при создании наскальных изображений, расположенных на южном склоне хребта Октаг, а также о различных приёмах их исполнения и результатах их научного изучения.

**Annotation:** This article presents data on the techniques and technologies employed by ancient artists in the creation of rock engravings located on the southern slope of the Oqtog ridge, as well as on the various methods of execution and the current state of their scholarly investigation

**Kalit so'zlar:** Oqtog' tizmasi, Zarafshon, Oqsoqolotasoy, Sangijumonsoy, Tegirmonsoy, tabiiy oxra.


**Ключевые слова:** хребет Октаг, Зарафшан, Аксакалатасай, Сангиджумансай, Тегирмонсай, природная охра.

**Key words:** Oqtog Ridge, Zarafshan, Oqsoqolotasoy, Sangijumonsoy, Tegirmonsoy, natural ochre.

Oqtog' tizmasi Janubiy Nurota tog'ida joylashgan bo'lib, tabiiy geografik jihatdan hozirgi Samarqand va Navoiy viloyatlari hududi tarkibiga kiradi. Bu tog' tizmasi joylashuviga ko'ra janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon cho'zilgan bo'lib, uning umumiy uzunligi 120 km ni tashkil etadi. Uning sharqiy tomoni Qaroqchitog' tizmasi bilan g'arbiy tomoni esa Qizilqum cho'liga tutashgan bo'lsa, shimdan Nurota botig'i va janubi-g'arbda Qoratog' tizmasi bilan chegaradosh hisoblanadi. Oqtog' tizmasining o'rtacha balandligi 1000 metrdan 1200 metrgacha bo'lib, shimoli-g'arbga tomon yo'nalishda tizma asta-sekin pasayib Qizilqum cho'liga singib ketadi. Uning shimoliy tomoni deyarli tik kesilgan bo'lsa, janubiy qismi qiya cho'zilib Zarafshon vodiysiga tutash bo'lib, ko'plab kichik daryo va soylar kesib tushgan. Oqtog' tizmasidagi Zarbandsoy,

Quruqsoy, Andoqsoy, Burgansoy, Tasmachisoy, Maydonsoy, Oqsoqolotasoy, Oltinsoy va boshqa shu kabi soylardan Zarafshon daryosining o'ng irmoqlari suv oladi. Bu soylar mana shu tog' tizmasidagi yirik buloqlar va yomg'ir, qor suvlaridan to'yinadi (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2006 y. 322-bet). Mazkur hudud keng yaylovlarga ega bo'lib, qadimdan o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lgan shu jihatdan bu yerlar qadimgi ovchi va dasht ko'chmanchi chorvador qabila vakillarining yashashi uchun juda qulay o'lkalardan biri bo'lganligi shubhasizdir. Buni Oqtog' tizmasi janubiy yon bag'rida olib borgan dala arxeologik tadqiqotlar jarayonida ro'yxatga olingan turli arxeologik yodgorliklarning ko'pligidan ham bilish mumkin.

Mana shunday yodgorliklar sirasiga kiruvchi qoyatosh rasmlar Oqtov tizmasining janubiy va shimoliy yon daralarida ko'plab aniqlangan bo'lib, ular mazkur hududda yashagan qadimgi ovchi va dasht ko'chmanchi chorvador qabila va elatlar tomonidan chizilib, bugungi kungacha saqlanib qolgan madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi. Bu qoyatosh rasmlarini tadqiq etish natijasida



qadimgi ajdodlarimiz ma'naviy hayoti, diniy tushunchalari, san'ati hamda qadimgi davr hayvonot va nabotot olami to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'lga

### 1-rasm. Oqtog' tizmasi qoyatosh rasmlari yodgorliklari.


kiritish mumkin.

Shu nuqtai nazardan Janubiy Nurota tog'lari Oqtog' tizmasi janubiy yonbag'ridan oqib tushuvchi yirik soylar va ularning yon qayirlarida amalga oshirilgan dala arxeologik qidiruv tadqiqotlari natijasida ko'plab qoyatosh rasmlari ro'yxatga olinib, xujjatlashtirildi (1-rasm). Bu tadqiqotlar jarayonida 500



ga yaqin qoyatosh sathlarida va tosh ayvonlar devorlarida minglab turli syujetlardan iborat qoyatosh rasmlari borligi aniqlandi. Ular qadimgi rassomlar tomonidan turli qurollar yordamida urib-cho‘kichlab yoki turli tabiiy minerallar (oxra) hamda boshqa aralashmalar yordamida tayyorlangan bo‘yoqlarda chizib ishlangan. Demak, qadimgi rassomlar qoyatosh rasmlarini chizish texnikasida ikki xil usuldan foydalangan. Birinchi usul tabiiy bo‘yoq bilan tosh ayvon devorlariga surtish orqali chizgan bo‘lsa, ikkinchi usul tosh, metall va boshqa materiallardan yasalgan turli qurollar yordamida urib-cho‘kichlash, ishqalash, tirnab-kesib chizish texnikalarida ishlangan.

Qadimgi rassomlar tomonidan qoyatosh rasmlarini, ya’ni petrogliflarni chizishda foydalanilgan birinchi uslubda ishlangan tasvirlar Oqtog‘ tizmasining janubiy yonbag‘ridan oqib tushuvchi Oqsoqolotasoy, Sangijumonsoy, Tegirmonsoydagi tosh ayvonchalar shift va devorlarida aniqlanib, ro‘yxatga olingan. Bu soylardagi tosh ayvonlar devorlarida qadimgi rassomlar tomonidan to‘q qizil va qizil ranglardagi tabiiy bo‘yoq oxrada chizilgan turli tasvirlar mavjud




**2-rasm. Tabiiy bo‘yoq oxrada chizilgan tasvirlar (Oqsoqolotasoy).**

bo'lib, ular orasida odam, qo'l panjalari, yovvoyi hayvonlar hamda turli geometrik shakldagi suratlar uchraydi (2-rasm).

Bu tasvirlar chizilish texnikasiga ko'ra juda oddiy bo'lsa-da, unda ishlatiladigan bo'yoqni tayyorlash texnologiyasi anchayin qadimiy va shu bilan birgalikda murakkab hisoblangan. Agar bu tabiiy bo'yoq tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning asosini qizil oxra – tuproq minerallari hamda turli stexiometriyadagi temir oksidlari va gidroksidlar jamlanmasidan iborat bo'lib, ular asosan  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  (gematit),  $\text{FeOOH}$  (getit/lepidokrotsit) va gidratlardan tashkil topgan. Tabiiy oxra tadqiqotchilar fikriga ko'ra yer yuzasiga yaqin temirga boy tog' jinslarining aralashishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday tabiiy tuproq aralashmalarini temir konlariga yaqin hududlarda uchratish mumkin. Olcha rang qizil tabiiy bo'yoq tarkibi gematit va  $\text{Fe}^3$  kimyoviy elementlarga boy bo'lsa, sariq hamda to'q-sariq rangdagi oxralar tarkibida  $\text{H}_2\text{O}$  yoki HO guruhlaridagi suv miqdorining ko'pligi hamda temir gidroksidlari va gidratlarining mavjudligidan hosil bo'lishi tadqiqot natijalarida isbotlangan. Bu tadqiqotlar natijasida shu narsa e'tiborliki, tabiiy bo'yoq oxrani tayyorlash texnologiyasi insoniyat olamiga bundan yuz ming yil oldin ma'lum bo'lgan. Buni Janubiy Afrikaning Blombos g'oridan topilgan engi qadimgi bo'yoq tayyorlash ustaxonasining aniqlanishi isbotlaydi (Vlasov, 2019; Christopher S., Henshilwood., et al. 2011. 219-222).

Shuningdek, Oqtog' tizmasida aniqlangan turli qoyatosh rasmlari yodgorliklaridagi tosh yuzalarida qadimgi rassomlar tomonidan tosh, suyak (shox) va metall buyumlar yordamida o'yish, urib-cho'kichlash, tirnab chizish, ishqalash usullarida



**3-rasm. Urib cho'kichlab chizilgan tasvir  
(Maydonsoy)**



ishlangan tasvirlar ham keng tarqalgan. Bunday chizilish uslubida ishlangan rasmlar respublikamiz hududida joylashgan barcha tog‘ tizmalari qoyatoshlarida uchraydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jumladan, Oqtog‘ tizmasi janubiy etaklarida joylashgan Kuyukdara, Burgansoy, Andoqsoy, Maydonsoy, Yonboshsoy, Jizmonsoy, Ko‘ksaroysoy kabi bir qancha soy va daralar qoyatosh yuzalarida urib-cho‘kichlab ishlangan ko‘plab tasvirlar ro‘yxatga olinib o‘rganildi (3-rasm). Tadqiqotlarimiz jarayonida bu yodgorliklardagi qadimiy rasmlarda qolgan qurol izlari qo‘pol ko‘rinishda bo‘lib, ular ancha yirik va sayoz, ammo, zich urib-cho‘kichlangan. Ularda tosh va bronza davrlariga tegishli tasvirlar yuzasidagi urib cho‘kichlangan qurol izlari keyingi davrlarga oid tasvirlardagiga nisbatan biroz yirik va qo‘polroq ko‘rinishda bo‘lib, ya’ni ular diametri 4-5 mm, chuqurligi esa 1-3 mm ni tashkil etadi. Qurollardan qolgan izlar vaqt o‘tishi va tabiat hodisalari natijasida buzilib ketgan yoki keyingi davr rassomlari tomonidan qayta urib-cho‘kichlab yangilangan. Ularning birlamchi holatini kuzatish hamisha ham juda qiyindir. Shuning uchun ham har bir rasmdagi qurol izlarini dala sharoitida alohida kuzatishga e’tibor berdik. Ularni foto rasmlarga maxsus tushirib, laboratoriya sharoitida bu izlar boshqalari bilan solishtirib chiqildi. Bu kuzatishlar har xil qurol izlarini ajratishimizga yordam berdi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qoyatosh rasmlari ishlanish texnikasi borasidagi tadqiqotlar o‘z davri rassomlarining tasvirlarni chizishda foydalangan texnologik usullarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining “O‘rta Zarafshon havzasi qoyatosh rasmlari albom-katalogini yaratish” mavzusidagi AL-9224104797 raqamli amaliy loyiha doirasida tayyorlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-2006-y.
2. Christopher S., Henshilwood., Francesco d’Errico., Karen L., van Niekerk., Yvan Coquinot., Zenobia Jacobs., Stein-Erik Lauritzen., Michel Menu., Renata García-Moreno. A 100,000 Year Old Ochre Processing Workshop at Blombos Cave, South Africa // Science. Vol 334, 14-oktober 2011.
3. Kirill Vlasov. Kraski Drevnego mira: krasnaya oxra // «Elementy» 14.06.2019.

**TARIX****ILK TURKIY XORAZMSHOHLAR – OLTUNTOSHIYLAR  
TANGALAR ZARB QILISHGANMI?**

**Ismoilov  
Shohruxmirzo,  
Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, PhD**

**UO'K 907.31**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazmshoh Oltintoshiylar davlati tarixi hamda ular tomonidan zarb qilingan deb taxmin qilinayotgan tangalar masalasi yoritiladi. Tadqiqotda sulolaning numizmatik merosi mavjudligi ehtimoli ilmiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история династии Алтынтошидов из Хорезмшаха и монеты, предположительно отчеканенные ею. Исследование анализирует возможность существования нумизматического наследия династии на основе научных данных.

**Annotation:** This article examines the history of the Khorezmshah Altyntoshid dynasty and the coins supposedly minted by them. The study examines the possibility of the dynasty's numismatic heritage based on scientific analysis.

**Kalit so'zlar:** Xorazmshoh, avers, revers, tanga, Oltintoshiylar, Ma'muniylar.

**Ключевые слова:** Хорезмшах, аверс, реверс, монета, Алтинтошиды, Мамуниды.

**Key words:** Khorezmshah, obverse, reverse, coin, Altintoshiids, Mamunids.

Xorazm azaldan savdo-sotiq rivojlangan, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, shimoliy va janubiy hududlarni o'zaro bog'lovchi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan zamin sifatida ma'lum. O'rta Osiyoning shimoli-g'arbiy mintaqasida Orol ko'lining janubida joylashgan mintaqada savdo aloqalari rivojlanganligi sababidan turli millat va elatlar yashab kelishgan bo'lib, ular orasida turkiy qavmlar salmoqli o'rinni egallar edilar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm hududiga Iskandar davridan 980 yil oldin Siyovush ibn Kayxusrav kelib, "tur" nomli qabilalar ustidan hukmronlik o'rnatgan<sup>1</sup>. Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda bu qabilalar aynan turkiy qabilalar bo'lgan, degan taxminlar bildiriladi. Bundan tashqari, ilk o'rta asrlardan boshlab Turk hoqonligi tarkibiga kirgan va undan mustaqil bo'lib chiqqandan so'ng ham uzoq yillar ko'chmanchi o'g'uz turklari davlatiga chegaradosh davlat sifatida yashab kelgan. Yuqoridagi fikrlarga mos

<sup>1</sup> Ebû Reyhan El-Birûnî, The Chnoroology of Ancient Nations, çev. C. Edward Sachau, London 1879, s, 41-42; Ebû Reyhan El-Birûnî, Maziden Kalanlar (El-Âsâr el-Bâkiye), çev. D. Ahsen Batur, İstanbul 2011, s. 77.



ravishda X asrdagi Xorazmning iqtisodiy munosabatlari haqida “Hudud al-olam” asarida quyidagi fikrlar keltirilgan: “*Xorazm Movarounnahrning g‘arbida. Kat Xorazmning poytaxti, O‘g‘uz Turkistonining eshigidir. Turkning, Turkistonning, Movarounnahr va Hazarning bozori, tijorat yeridir*”<sup>1</sup>. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotchilardan A. O‘zbayraktar Ibn Fadlan ma’lumotlariga asoslanib shunday deydi: “*Musulmon savdogarlar o‘g‘uz do‘stlari ehtiyojlari uchun ularga sovg‘a-salom olib borishar, buning evaziga tunash uchun joy, ovqat uchun qo‘y olishar edi. Agar biror narsaga ehtiyojlari bo‘lsa, yoki safar hayvonlari yura olmas holga kelgan bo‘lsa, uning o‘rniga boshqa hayvonni omonat sifatida olishib, safarlarini davom qildirishar edi. O‘g‘uzlar ham Xorazmga safar qilganlarida ayni bu holat takrorlanar edi. Savdoga endi kirgan savdogarlar o‘g‘uzlar yurtga kelishi bilan tanishlari orqali o‘g‘uzlardan birortasi bilan do‘stlashib olishga intilganlar. Xorazmlik savdogar omonatlarni topshirmasdan vafot etgudek bo‘lsa, o‘g‘uz savdogar mollari orasida o‘zi topshirgan omonatlarni topib olishga haqqi bor edi. Savdogarning qolgan mollarini esa, xorazmlik savdo karvonlari orqali uning yurtiga yuborar edi. Agar o‘g‘uz Jurjoniya xorazmlik do‘stida uning aybi bilan vafot etsa, uning do‘sti u savdogarni topar va uni o‘ldirib intiqomini olar edi. O‘g‘uzlar Jurjoniya safarida shu ko‘rinishda o‘z xavfsizligini ta’min qilar, xorazmliklar ham o‘g‘uzlar orasida o‘zini bexavotir his qilar edi*”<sup>2</sup>. Lekin bu bilan turkiy qabilalar Xorazmda faqat iqtisodiy faoliyat bilan shug‘illanishgan, deyish qiyin. Chunki mahalliy hukmdorlar o‘z davlatini himoya qilish uchun tuzilgan harbiy qo‘shinini asosan turkiy qabilalardan kelgan jangchilar hisobiga to‘ldirib borishgan. Masalan, Xorazmda hukmronlik qilgan oxirgi mahalliy sulola Ma’muniylar qo‘shini tarkibida Alp Tegin Buxoriy, Humortosh Sharobiy, Shod tegin Xoniy ismli turk sarkardalari xizmat qilgan<sup>3</sup>. Ularning nafaqat harbiy, balki siyosiy ta’siri ham kuchli bo‘lib, oxirgi Ma’muniy Xorazmshohlardan bo‘lgan Ma’mun ibn Ma’munga (1008/399-1017/407)<sup>4</sup> suiqasd uyushtirib uni o‘ldirishadi va amalda butun Xorazm ustidan nazorat o‘rnatishadi.

<sup>1</sup> حدود العالم من المشرق إلى المغرب. محقق ومترجم: السيد يوسف الهادي. – القاهرة: الدار الثقافية. 1999 م. – ص 122

<sup>2</sup> Özbayraktar A. Me’mûniler devrinde Harezm. Dok.tezi. Selçuk Üniversitesi. – Konya. 2021. – S 115.

<sup>3</sup> Xo‘ja Abul Fazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Tarj:Abdukurimov L. – T.: Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – B. 15.

<sup>4</sup> [Bosvort K. E. Musulmon sulolalari \(yilnoma va shajaralar bo‘yicha ma’lumotnoma\).](#) Tar: Asror Samad. – T.: “Fan”, 2007. – B. 84

Bu ma'lumotlardan turkiy xalqlar Xorazm bilan qadimdan yaqin munosabatlar asosida yashab kelganligini va Xorazmning siyosiy, iqtisodiy hayotida naqadar muhim o'rin tutganligini bilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, Xorazmda uzoq yillardan buyon mahalliy sulola vakillari hukmronlik qilar edilar. Masalan, milodiy 305-yildan 995-yilgacha bo'lgan davrda Afrig'iylar hukmronlik qilishgan bo'lsa, 967-1017-yillar davomida Xorazmning bir qismida Ma'muniylar davlati tashkil etiladi. Zakiy Validiy To'g'on Ma'muniylarning hukmdorlikka kelishi haqida shunday deydi: *"Somoniylar davlatining iqtisodiy qudrati ortar ekan, Jurjoniyaning boshqaruvini o'zlariga tobe bo'lgan mahalliy xalqdan kelib chiqqan voliylarga topshirishdi. Shunday voliylardan birinchisi Abul Abbos Ma'mun ibn Muhammad bo'lib, sulolasi uning nomi bilan atala boshlandi. Ma'muniylar katta ehtimol bilan turkiylarning Baranli urug'idandirlar"*<sup>1</sup>. Lekin bu fikrlar haligacha o'z isbotini topmagan. Qolaversa, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda Ma'muniylarning mahalliy sulolaga mansubligini isbotlovchi bir qator asosli fikrlar bildirib kelinmoqda<sup>2</sup>.

Xullas, bizga hozirgacha ma'lum bo'lgan Xorazm tarixida Xorazmshoh unvonini qo'lga kiritgan ilk turkiy sulola bu Oltuntoshiylardir. Ushbu sulola hukmronligining boshlanishi bilan Xorazmda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan mahalliy sulolalar hukmronligi an'alariga chek qo'yildi. Qiziq tomoni, ushbu sulola Xorazmda 20 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bugungi kungacha ularning birorta tangasi tadqiq qilinmagan. Vaholanki, yuqorida aytib o'tganimizdek, tangalar davlatning mavjudligining eng asosiy belgilaridan biridir. Shu o'rinda "Oltuntoshiylar kim edi?", "ular qanday qilib Xorazm taxtiga ega chiqishdi?", "umuman ular bu unvon olgunigacha qanday yo'llarni bosib o'tishgan?", degan savol tug'iladi.

### **Oltuntoshiylar kim edi?**

Oltuntoshiylar sulolasining asoschisi hisoblangan Oltuntosh aynan qaysi turkiy qabilaga mansubligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q bo'lsa-da, uning turkiy ekanligi va G'aznaviylar davlati asoschilaridan biri Nasriddin Sabuktegin xizmatida bo'lganligi haqida manbalarda ma'lumotlar uchraydi. U haqidagi ilk tarixiy ma'lumot 997-yillar atrofida Xurosonda uzoq yillar hukm surgan Qobus ibn Vashimgirga siyosiy dastak berish asnosida tashkil qilingan 10 ming kishilik otliq qo'shinga rahbarlikka tayinlanishi asnosida uchraydi. Hijriy 391-yilga (mil.

<sup>1</sup> Togan, Zeki Velidi, "Hârizm", İslam Ansiklopedisi, İstanbul 1987, C. V/1, s. 243

<sup>2</sup> Ismailov Sh. Xorazmshoh Ma'muniylar davlati. – Buxoro; "Durdona", 2024. – B. 87

1000-1001-yil) kelib u Hirot voliysi sifatida tayinlanadi <sup>1</sup>. Shu vaqtda Somoniylarning oxirgi amiri Ismoil al-Muntasir Sulton Mahmudning ukasi Nasr hukmdorlik qilayotgan Nishopurga hujum qiladi. Shahar mudofaasi uchun kechgan jangda Nasr tomonida G‘aznali Mahmud tomonidan yuborilgan harbiy birlik rahbari sifatida Oltuntosh ham qatnashadi. 1003-yildagi Sulton Mahmudning Seyiston safarida ham qo‘shin tarkibida Oltuntoshni ko‘rish mumkin edi <sup>2</sup>. Shuningdek, u Sulton Mahmudning Hindistonga yurushidan foydalanib Xurosonga hujum qilgan Qoraxoniylarni mag‘lub etishda ham mashhur sarkardalardan Arslon Jazib bilan birga jonbozlik ko‘rsatadi. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng Qoraxoniylardan Iligxon 1006-1008-yillarda Balx va Amudaryo janubidagi yerlarga hujum qiladi. Iligxonga qarshi bu ikkala jangda ham Oltuntosh G‘aznaviylar qo‘shinining o‘ng qanoti qomondoni sifatida g‘alabaga munosib hissa qo‘shadi <sup>3</sup>. Xuroson hududidagi g‘alabalardan so‘ng sultonning Hindiston safarlarida hamrohlik qilib, Garchistonni egallanishi, G‘uriy maliklarini mag‘lub etishi va Hind rojalariga qarshi Nardin jangida qo‘shinning markaziy qismidan joy olib, G‘aznaviylar qo‘shini g‘alabasini ta‘minlaydi <sup>4</sup>.

G‘aznaviylar hukmdori Sulton Mahmud tomonidan Xorazm hududi 408-yilda (mil.1017) egallangach, u yerga noib etib eng sodiq sarkardasi bo‘lgan Oltuntoshni tayinlaydi <sup>5</sup>. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, Oltuntoshga Xorazmshoh unvonining berilishi bu shunchaki tasodif emas, uning aql-zakovati va harbiy qomondonlik qobiliyatining mevasi, deb ko‘rsatish mumkin. Uning boshqaruvchilik qobiliyati o‘sha davrdagi mashhur sarkardalar Arslon Jazib, Oshiq Tegin, Inal teginlardan ustun ko‘rilib, Xorazmshoh unvoni unga beriladi.

Oltuntash G‘aznaviylar saltanatining eng yirik arboblardan biri bo‘lgan va Sulton Mahmud G‘aznaviyni tajribali hamda sinovdan o‘tgan xizmatkorlaridan sanalgan. U yangi lavozimida ham unga bildirilgan ishonchni to‘liq oqlagan va hayotining oxirigacha o‘z hukmdoriga sodiq qolgan.

<sup>1</sup> F. Sümer. Gazneliler devrinde büyük bir türk beyi: Harizm valisi Altuntaş // Türk dünyası araştırmaları. Sayı 50, 1987. – S 109.

<sup>2</sup> ابن الاثير: الكامل في التاريخ. راجعه وصححه: محمد يوسف الدقاق مخطات. – بيروت: دار الكتب العلمية, 1987, ص 144

<sup>3</sup> F. Sümer. Gazneliler devrinde büyük bir türk beyi: Harizm valisi Altuntaş // Türk dünyası araştırmaları. Sayı 50, 1987. – S 110.

<sup>4</sup> C. Erdoğan. Harezm’de gazneli hâkimiyetinin tesisi ve Altuntaşlar dönemi (1017-1041) // Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 50, 2023. – S 158.

<sup>5</sup> Sümer F. Gazneliler devrinde büyük bir türk beyi: Harizm valisi Altuntaş // Türk dünyası araştırmaları. Sayı 50, 1987. – S 109.

Uning Xorazm taxtiga kelgandagi dastlabki ishi - hududda chiqishi mumkin bo'lgan isyonlarni bostirish bo'lgan. Tarixchi Abu Fazl Bayhaqiy ma'lumotiga ko'ra, Xorazmshoh Abul Abbos Ma'munning qaynotasi bo'lgan Abu Ishoq ismli shaxs xorazmliklar qo'shinlarini qayta birlashtirib, G'aznaviylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga erishadi. Biroq, bu qarshilik harakati Arslan Jazib bilan birga bostiriladi<sup>1</sup>.

Oltuntosh o'z faoliyati davomida Sulton Mahmud va uning o'g'li Sulton Ma'sudga ham sodiq qoldi. Sulton Ma'sud otasining vafotidan so'ng Hirot shahriga keladi va bu yerga davlatning eng oliy amaldor va qomondonlari yig'iladi. Ular orasida Xorazmshoh Oltintosh ham keladi. Taxtga o'tirish marosimi tugagach, tashkil qilingan majlisda Oltintosh sultonning o'ng tomonida o'tiradi va Sultonga qarata: *“xizmatigizga loyiq bo'lgan qullaringiz bo'lsa-da, ularning bir qanchasi allaqachon xizmatigizda va hali yana yetishib chiqishadi. Bu yerda Sulton Mahmud xizmatida umr kechirgan bir qancha oqsoqollar bor. Agar sizga ma'qul bo'lsa, bu oqsoqollarga e'tibor qaratilsin. Zero, bu oqsoqollar Sulton xazinasidir. Buni qulingiz o'zi uchun aytmadi. Meni bir necha kunlik umrim qolgan. Buni nasihat sifatida qabul qiling”*, – dedi. Sulton ham unga javoban, *“Xorazmshohning so'zi ota so'zi kabi. Uni mamnuniyat bilan tinglaymiz va nasihatlarini qabul qilamiz”* – dedi va unga Xorazmga qaytishga ruxsat beradi<sup>2</sup>. Bu orqali Sulton Ma'sud davrida ham ilgari obro'sini yo'qotmaganligini ko'rish mumkin. Ammo shuni aytish kerakki, Xorazmshoh hukmronligining so'nggi yillarida Sulton bilan munosabatlari buzuladi. Lekin, shunda ham Xorazmshoh Sulton bilan munosabatlarini yaxshilashga harakat qiladi va Movarounnahr hududida G'aznaviylarga qarshi harakat qilayotgan Qoraxoniylar vakili Ali Teginga qarshi safarga chiqadi. 423-yilda (mil. 1032) ikki orada yuzaga kelgan Dabusya jangidan so'ng Xorazmshoh Oltintosh vafot etadi<sup>3</sup>.

Shundan so'ng navbati bilan Xorazm taxtiga o'g'illari Horun (hij. 423-425/mil. 1032-1034) va Ismoil (hij. 425-432/mil. 1034-1041) o'tiradi<sup>4</sup>. Oltuntoshlardan Horun va Ismoil davrida G'aznaviylar davlatidan mustaqil bo'lib chiqishga intilish harakatlari bo'ldi va qaysidir ma'noda hukmdorlar bu ishni

<sup>1</sup> Xo'ja Abul Fazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Tarj:Abdukarimov L. – T.: Sharq ma'rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – B. 29.

<sup>2</sup> C. Erdoğan. Harezm'de gazneli hâkimiyetinin tesisi ve Altuntaşlar dönemi (1017-1041)// Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 50, 2023. – S 162.

<sup>3</sup> Xo'ja Abul Fazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Tarj:Abdukarimov L. – T.: Sharq ma'rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – B. 45.

<sup>4</sup> [Bosvort K.E. Musulmon sulolalari \(yilnoma va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma\)](#). Tar: Asror Samad. – T.: Fan, 2007. – B. 84.



uddalashadi. Bu vaziyatda ko‘p jihatdan Sulton Ma’sudning aybi bor edi. Gap shundaki, Sulton Mahmud (hij. 388-421/mil. 998-1030) vafotidan so‘ng saltanat taxtiga vasiyatga ko‘ra Sulton Muhammad (hij. 421-/mil. 1030)<sup>1</sup> chiqadi. U otasi davrida shuhrat qozongan va unga sodiq bo‘lgan tajribali amirlarni birma-bir yo‘q qilib, o‘rniga o‘z odamlarini qo‘yishga intiladi<sup>2</sup>. Xorazmshoh Oltintosh bu vaziyatni bilsa-da, o‘z sodiqligida davom etgan edi. Bu holat uning vorislari davrida ham davom etadi. Faqat, Xorun va Ismoil bu holatga jim qarab turmay o‘z mustaqilliklarini e’lon qilib, G‘aznaviylarga qarshi kurashda o‘sha paytda hali ko‘chmanchilikda hayot kechirayotgan va o‘z hududlari bo‘lmagan Saljuqiylardan foydalanishni maqsad qilishadi. Xorazmshoh Xorun davrida ularni Xorazmga yondosh hududlarga joylashtirib, ot, qurol va yer bilan ta’minlaydi.

Bayhaqiy ma’lumotlariga ko‘ra, Jand va Yangikent hukmdori Ali al-Jandiyning o‘g‘li Abu-Favoris Shohmalik al-Baraniy saljuqiylarning dushmani bo‘lib, 1034-yilda Xorazmdagi Saljuqiylarga zarba berib, yetti mingdan ziyod aholini qirib tashlaydi<sup>3</sup>. Xorun Oltuntosh unga qarshi hech qanday chora ko‘rmaydi. Shundan so‘ng, Xorun Xurosonga yurishi arafasida o‘zining xoin g‘ulomlari tomonidan o‘ldiriladi va taxtga Ismoil Oltuntosh chiqadi. 1038-yilda (hij. 429) Sulton Ma’sud Xorazmni Jand hukmdori Shohmalikka berishga qaror qiladi<sup>4</sup>. Shohmalik esa, faqatgina 432-yilning Jumad ul-oxirning 6-kunida (mil. 1041-yil fevral oyi) Xorazmga yurish qiladi. Bu yurishda Xorazmshoh Ismoil qo‘shinlari mag‘lub bo‘ladi va shahar Shabon oyining 15-kunida egallanadi<sup>5</sup>. Shu tariqa uchinchi Xorazmshohlar sulolasi ham tarix sahnasidan tushadi.

Yuqorida eslanganidek, tadqiqotlar davomida ushbu sulola tarixiga oid bironta ham tanga aniqlanmadi. Ya’ni, Ma’mun ibn Ma’munning 405-yilda (mil. 1014) zarb qilingan kumush tangasidan so‘ng, hijriy 434-yilgacha (mil. 1042) Xorazm hukmdorlari tomonidan bironta tanga zarb qilinmagan, deyish mumkin. Bundan ikki xil xulosaga kelishimiz mumkin. G‘aznaviylar Oltuntoshlarga vassallari sifatida qarab, ularga tanga zarb qilishga ruxsat berishmagan. Yoki,

<sup>1</sup> [Bosvort K.E. Musulmon sulolalari \(yilnoma va shajaralar bo‘yicha ma’lumotnoma\).](#) Tar: Asror Samad. – T.: Fan, 2007. – B. 133.

<sup>2</sup> Sümer F. Gazneliler Devrinde Büyük Bir Türk Beyi: Harizm Vâlisi Altun Taş. Türk Dünyası Araştırmaları, S. 50. –İstanbul, 1987. – S 112

<sup>3</sup> Авторский коллектив. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013. – С. 120.

<sup>4</sup> Barthold V. V. Moğol İstilasına Kadar Türkistan. zev. H. D. Yıldız.–Ankara: TTK, 1990. – S. 322.

<sup>5</sup> Ergin A. Selcukluların Şahmelik ile macerası ve Harezm’i fethi // Türkiyat araştırmaları dergisi. C 1, Sayı 2. – Marmara, 2014. – S 33.

Oltuntoshlarning tangalari zarb qilingan bo'lsa-da, bugungi kungacha o'rganilmagan.

Ushbu taxminlar orasidan ikkinchisi haqiqatga yaqinroq bo'lib, o'rta asrlar an'analariga ko'ra har bir hukmdor taxtga chiqqanidan so'ng o'z nomidan mayda mis tanga bo'lsa-da, albatta zarb qildirar edi. Shu bois, O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan, siyosiy markazlardan biri bo'lgan Xorazmda 20 yildan ko'proq hukmdorlik davrida birorta ham tanga zarb qilinmasligi haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Xuddi Ma'muniylar davrida bo'lgani kabi G'aznaviylar hukmronligi ostidagi Xorazmning siyosiy ahamiyati yo'qolmagan edi.

Xorazmshoh Oltintoshiylar davrida zarb qilingan tangalar bugungi kungacha aniqlanmagan bo'lsa-da, X-XI asrlarga oid bir qancha tangalar borki, ulardan ba'zilarini Oltintoshiy hukmdorlarga tegishli deb taxmin qilish mumkin. Bunday tangalarga misol sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi tanga bezalish uslubiga ko'ra X-XI asrlarga oid tangadir. Ushbu tanga 1973-yilda Sadvar hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda topilgan<sup>1</sup>.



**1-RASM. X-XI ASRLARGA OID  
XORAZMSHOH TANGASI**

Tanganing old tomoni markazi shikastlanganligi bois matnni o'qish imkoni yo'q. Bu qismda faqat لا "...ال ya'ni "...Iloh yo'q..." so'zlari saqlanib qolgan (1-rasm). Biroq bu yerda tavhid kalimasi yozilgan deb taxmin qilish mumkin. Tanganing gardishidagi jumlaning o'qib bo'lmaydi. Tanganing orqa tomoni

markazida " [تا] ج الامة [سر] اج الملة اخوارزم شاه " ya'ni, "*Ummatning toji va millatning quyoshi*" jumlasini yozilgan<sup>2</sup>. Tanganing gardishidagi matnni o'qish imkoni yo'q.

Tanganing og'irligi 5,57 grammni, diametri 30 millimetrdan tashkil qiladi. O'lchamlarga ko'ra, tangani dirham deb faraz qilish mumkin. Ammo, tanga kimga va hattoki qaysi sulolaga tegishli ekanligi aniq emas. Biz oldingi tadqiqotlarimizda ushbu tanga Ma'muniylar vakili Xorazmshoh Alining o'sha davrda tutgan siyosiy mavqeyi va o'sha davrda Abbosiylar xalifasi tomonidan

<sup>1</sup> Гончаров Е. Ю., Армарчук Е. А. Монеты средневекового Садвара в Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – М., 2020. – С 168.

<sup>2</sup> <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=99998>

Xorazmshohlarga berilgan unvon asosida Ma'muniylarga tegishli deb taxmin qilgan edik. Biroq bu fikr yakuniy bo'lmasdan, Oltintoshiylar tomonidan zarb qilingan bo'lishi mumkin. Ya'ni tangada qayd qilingan unvon Oltintoshga Mahmud G'aznaviy tomonidan uning davlat va hukmdor oldidagi ulkan xizmatlari uchun taqdim qilingan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Xorazmshoh Oltintoshiylar davriga tegishli ekanligi taxmin qilinayotgan 2-tanga fals nominalida bo'lib, uning hanuzgacha aynan kimga tegishli ekanligi to'g'risida yakdil xulosa yo'q. Chunki, tanganing har ikki tomonida ham hukmdor nomi keltirilmagan yoki saqlanib qolmagan. Tanganing old tomoni markazida chap tomonga qaratib tasvirlangan burgut tasviri mavjud bo'lib, ustki qismida uch nuqtali bezak ishlatilgan. Tanganing qirrasi bo'ylab zarb joyi haqidagi ma'lumotlar yozilgan. Biroq, matnni to'liq o'qish imkoni yo'q. Shu sababdan tadqiqotchilar turli fikrlarni ilgari surishgan. Jumladan, tadqiqotchi Sharif Yaxyo bu tanganing matnini "بسم الله ضرب هذا الفلّس بخوارزم بأمر الأمير" ya'ni, "Alloh nomi va amir buyrug'i bilan bu fals Xorazmda zarb qilindi" shaklida o'qigan va Ali ibn Ma'munga tegishli deb ta'kidlagan <sup>1</sup>. Tanganing orqa tomoni markazida



**2-RASM. X-XI ASRLARGA OID BURGUT  
TASVIRLI XORAZMSHOH TANGASI.**

"خوارزمشاه" so'zi mavjud (2-rasm). Lekin yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu tanganing bugungi kungacha aniqlangan nusxalarida uning muallifini bildiruvchi matnlarni to'liq o'qish imkoni yo'q. Shu sababdan, bu tangani ham Oltintoshiylar davriga tegishli deb taxmin

qilinuvchi tangalar qatoriga qo'shish mumkin. Bundan tashqari, tangalarda bunday qush tasvirining zarb qilinishi na Ma'muniylar, na Afrig'iylar davri an'analarga mos keladi. Shuningdek, tangada keltirilgan "Amir" unvoni ham Xorazm boshqaruvchisining aslida qaysidir hukmdorga tobe amir ekanligi va "Xorazmshoh" unvoni unga taqdim qilinganligini taxmin qilish mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, boshqa bir tadqiqotchi A. Ataxo'jayev esa, yuqoridagi matnni "بسم الله ضرب هذا الفلّس بخوارزم شاه ملك" ya'ni, "Alloh nomi bilan bu fals

<sup>1</sup> نقود خوارزم منذ بداية العصر العباسي وحتي نهاية عصر الخانيات (م 749-1918هـ\1327-1337). القاهرة، 2020. - ص. 63.

Xorazmda zarb qilingan. Shohmalik” shaklida o‘qilgan<sup>1</sup>. Uning atrofi dastlab nuqtali, keyin to‘lqinsimon chiziqlardan iborat aylana bo‘ylab o‘rab olingan. Ushbu tipdagi tanga 18 gramm og‘irlik 25,5 millimetr uzunlikga ega<sup>2</sup>.

Yuqoridagi tangaga o‘xshash yana bir turdagi tangalar mavjudki, ularda burgut tasviri o‘rnida sher tasvirini uchratish mumkin (*3-rasm*). Tanganing bir nusxasi 1989-yilda Samarqandda Qo‘ychilitepa xazinasidan topilgan<sup>3</sup>. Umuman, sher yoki shunga o‘xshash hayvon tasviri Xorazm tangalari uchun begona emas. Chunki aynan X asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Afrig‘iylar sulolasiga mansub hukmdor Ahmad ham “Xorazmshoh” unvoni bilan yo‘lbars tasvirli tangalar zarb qilganligini unutmaslik lozim<sup>4</sup>. Qolaversa, Xorazm madaniyatiga oid bo‘lgan va aynan X-XI-asrlarda barpo qilingani taxmin qilinadigan Belovli karvonsaroyi peshtoqlarida ham sher tasvirini uchratishimiz mumkin<sup>5</sup>. Bu tangada keltirilgan matnlar burgut tasvirli tangalarda kelgan matnni takrorlaydi. Faqat bu turdagi tangalarning reversidagi “Xorazmshoh” so‘zi atrofida matn keltirilgan bo‘lib, "... محمد رسول الله ..." ya’ni, "... Muhammad Allohning elchisidir ..." jumlasini ko‘rinib turibdi. Lekin, bu matnni ham to‘liq o‘qish imkonsiz ekanligi bois tanganing muallifi nomi ham hanuzgacha noma’lumligacha qolmoqda.

<sup>1</sup> Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. №5. – Самарканд, 2020. – С. 338.

<sup>2</sup> <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=53287>

<sup>3</sup> Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. №5. – Самарканд, 2020. – С. 342.

<sup>4</sup> Ismoilov Sh. Xorazmshohlar davri tangalari (VIII-XIII asr boshlarida). – Buxoro: “Durdona”, 2025. – B. 49.

<sup>5</sup> С.П.Толстов. По следам древне хорезмийской цивилизации. – М.; Издательство Академии наук СССР, 1948. – с. 264





**3-RASM. X-XI ASRLARGA OID SHER TASVIRLI XORAZMSHOH TANGASI**



**4-RASM. X-XI ASRLARGA OID OLTI QIRRALI YULDUZ TASVIRLI TANGA**

Keyingi turdagi tanga anonim tanga bo'lib, fals nominalida Kat shahrida zarb qilingan. Bu tipdagi tangalar 1975-yilda Xorazmning qadimiy Sadvar shahri hududida olib borilgan qazishmalar chog'ida ja'mi 6 ta nusxasi topilgan<sup>1</sup>. Tanganing old tomonida chiziqli doira ichida tavhid kalimasi "لا اله الا الله محمد رسول الله" shaklida yozilgan.

Tanganing orqa tomonida olti qirrali yulduz tasvirlangan bo'lib, uning markazida zarb qilingan joy "كاث" ya'ni, Kat shahri nomi yozilgan (4-rasm). Ayrim tadqiqotchilar tomonidan bunday tangalar Ma'muniylar tomonidan zarb

qilinganligini ta'kidlasa-da, zarb qilinishi va bezalish uslubiga ko'ra, Jandda zarb qilingan Abu Favoris Shohmalikning otasi Ali al-Jandiyning tangalariga juda o'xshash<sup>2</sup>. Biroq, bu tangalar o'g'uz hukmdorlari tomonidan zarb etilgan deb ishonch bilan aytishga hech qanday asos yo'q. Ya'ni, bu tangani ham Oltintoshiylar davriga tegishli deb taxmin qilish mumkin bo'lgan tangalar qatoriga qo'shish mumkin. Sadvar hududidan topilgan olti qirrali yulduz tasvirli tangalar orasida eng yirigi 2,45 gramm og'irlik va 22,5 millimetr diametr<sup>3</sup>.

### Xulosa

Xorazm tarixida ilk turkiy sulola bo'lgan Oltintoshiylar sulolasi o'zining butun faoliyati davomida siyosiy jihatdan G'aznaviylar davlatiga vassal sifatida faoliyat yuritgan bo'lsada, Xorazmda alohida davlat sifatida mutlaqo o'z nomidan tangalar zarb qilishgan. Ammo hozirgi kungacha ularning nomi qayd qilingan birorta tanga arxeologik qazishmalar davomida aniqlanmagan. Buni mazkur sulola

<sup>1</sup> Гончаров Е. Ю., Армарчук Е. А. Монеты средневекового Садвара в Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – М., 2020. – С. 168.

<sup>2</sup> <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=5294>

<sup>3</sup> <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=170229>

son jihatdan nisbatan kamroq tangalar zarb qilganligi, savdo-sotiqda esa asosiy muomala vositasi sifatida Gʻaznaviylar davlati tangalaridan yoki oldin hududda zarb qilingan tangalardan foydalanilganligi bilan izohlash mumkin. Lekin shuni qayd qilish kerakki, Xorazm va unga yondosh hududlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida Gʻaznaviy hukmdorlarga tegishli tangalar deyarli aniqlanmagan. Demak, hudud aholisi oldindan mavjud boʻlgan tangalardan koʻproq foydalanishgan. Yana bir taxmin esa, biz yuqorida sanab oʻtgan tangalar Oltintoshiylar davrida asosiy muomalada boʻlgan. Qayd etish joizki, yuqorida qayd qilingan tangalar ham arxeologik jihatdan nihoyatda kam oʻrganilgan. Bu maʼlumot ushbu tangalarning juda qisqa davr davomida zarb qilinganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Xorazmning rivojlangan oʻrta asrlar davri tarixi boʻyicha koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu sababdan yuqorida keltirilgan fikrlar va bildirilgan taxminlar yakuniy fikr, deb qaramaslik kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ebû Reyhan El-Birûnî, The Chronology of Ancient Nations, çev, C. Edward Sachau, London 1879
2. [Гончаров Е. Ю., Армарчук Е. А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН, 2 \(12\). – М., 2020.](#)
3. С.П.Толстов. По следам древне хорезмийской цивилизации. – М.; Издательство Академии наук СССР, 1948.
4. Ismoilov Sh. Xorazmshohlar davri tangalari (VIII-XIII asr boshlarida). – Buxoro: “Durdona”, 2025.
5. Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. №5. – Самарканд, 2020.
6. شريف يحيى. نقود خوارزم منذ بداية العصر العباسي و حتي نهاية عصر الخانيات (م 749 - 1918\هـ 1337-132). - القاهرة، 2020. - ص 63.
7. Ergin A. Selcuklularin Şahmelik ile macerasi ve Harezmi fethi // Türkiye tarih araştırmaları dergisi. C 1, Sayı 2. –Marmara, 2014.
8. Barthold V. V. Moğol İstilasına Kadar Turkistan. zev. H. D. Yıldız.– Ankara: TTK, 1990.
9. Авторский коллектив. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013.

10. Sümer F. Gazneliler Devrinde Büyük Bir Türk Beyi: Harizm Vâlisi Altun Taş. Türk Dünyası Araştırmaları, S. 50. –İstanbul, 1987.
11. [Bosvort K.E. Musulmon sulolalari \(yilnoma va shajaralar bo'yicha ma'lumotnoma\).](#) Tar: Asror Samad. – T.: “Fan”, 2007.
12. Xo'ja Abul Fazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Tarj:Abdukarimov L. – T.: Sharq ma'rifati nashr-matbaa uyi, 2020.
13. Erdoğan C. Harezm'de gazneli hâkimiyetinin tesisi ve Altuntaşlar dönemi (1017-1041)// Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. Sayı 50, 2023
14. Ismailov Sh. Xorazmshoh Ma'muniylar davlati. – Buxoro: “Durdona”, 2024.
15. ابن الاثير: الكامل في التاريخ. راجعه وصححه: محمد يسوف الدقاق مخلصات. – بيروت: دار الكتب العلمية, 1987
16. Togan, Zeki Velidi, “Hârizm”, İslam Ansiklopedisi, , C. V/1. İstanbul 1987.
17. حدود العالم من المشرق إلى المغرب. محقق ومترجم: السيد يوسف الهادي. – القاهرة: الدار الثقافية, 1999 م
18. Özbayraktar A. Me'mûnîler devrinde Harezm. Dok.tezi. Selçuk Üniversitesi. – Konya. 2021.

**TARIX****XORAZMSHOH – ANUSHTEGINIYLAR DAVRI XORAZM VOHASI SHAHARLARI**

**Otajon Shomurodov,**  
**Urganch Innovatsion**  
**universiteti tarix fani**  
**o'qituvchisi**

**UO'K 907.31**

**Annotatsiya:** Anushteginiylar davri shahrlari to'g'risidagi ma'lumotlar yozma manbalarda juda kam aks etgan bo'lib, mavjud ma'lumotlar ham asosan, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq ravishda eslatib o'tiladi xolos. Bu o'rinda asosiy e'tibor arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlariga e'tibor qaratilib, oz sonli yozma manbalar ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish lozim. Shu jihatdan olganda mazkur maqola dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlangan.

**Аннотация:** Сведения о городах периода Ануштегинидов в письменных источниках весьма скудны, а имеющиеся сведения упоминаются преимущественно в связи с политическими процессами. В связи с этим основное внимание следует уделить данным археологических исследований, а также провести сравнительный анализ с данными небольшого числа письменных источников. В связи с этим данная статья посвящена одной из актуальных тем.

**Annotation:** Information about cities during the Anushteginid period in written sources is very limited, and what information exists is mentioned primarily in connection with political processes. Therefore, primary attention should be paid to archaeological research, as well as a comparative analysis with the limited number of written sources. Therefore, this article addresses one of these pressing issues.

**Kalit so'zlar:** Anushteginiylar, shahrsozlik madaniyati, Gurganch, Darg'on, Kat, Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Ardaxushmisan, Madminiya, Nuzkat, Nukfag, Zamaxshar.

**Ключевые слова:** Ануштегиниды, градостроительная культура, Гурганч, Дарган, Кат, Миздахкан, Хива, Хазорасп, Ардахушмисан, Мадминия, Нузкат, Нукфаг, Замахшар.

**Key words:** Anushteginids, urban planning culture, Gurganch, Dargan, Kat, Mizdahkan, Khiva, Hazorasp, Ardakhushmisan, Madminiyya, Nuzkat, Nukfag, Zamakhshar.

Anushteginiylar davri (1097-1231 yillar) Xorazm vohasi shaharlari ijtimoiy-iqtisodiy hayoti masalasi juda sust o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Aslida bu holat butun musulmon dunyosi shaharlariga ham tegishli.



Jumladan, shu davr shaharlarida ijtimoiy hayot, shahar aholisi ijtimoiy turmush tarzi kabi masalalar mazkur davrlar yozma manbalarida juda kam aks etgan. Jumladan, Anushteginiylar davri shaharlari xususida eng ko‘p ma’lumotlar berib o‘tgan Yoqut al-Hamaviy shaharlar ro‘yxatida ham faqat shaharlar mudofaa tizimi va ikkinchi navbatda jamoaviy inshootlar (karvonsaroylar, bozorlar va hk.) haqida ma’lumotlar keltirilib o‘tilganki, mavjud ma’lumotlar ham shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida deyarli ma’lumotlar bermaydi. Umuman olganda mazkur kamsonli ma’lumotlarni ham mazkur shahar xarobasi yoki o‘rnida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Anushteginiylar sulolasi davri Xorazm vohasi shaharlari ijtimoiy hayoti masalalari asosan Yoqut Hamaviyning shu davr Xorazm shaharlariga berib o‘tilgan qisqa sharhlardan iborat xolos. Shu jihatdan olganda, Xorazmshoh – anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharsozligining o‘ziga xos jihatlari mavzusi tadqiqotlarda ham to‘la-to‘kis aks etmagan. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu o‘rinda eng avvalo 1219 yilda Xorazmda bo‘lgan arab sayyohi Yoqut al-Hamaviyning “Muj’am al-buldon” (“Mamlakatlar ro‘yxati”) nomli asarini alohida ta’kidlash lozim. Zero, u Xorazmshoh-Anushteginiylar davri shaharlarida shaxsan bo‘lib, ular haqida qisqa bo‘lsada, juda qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan [8; 409-438.]. Boshqa yozma manbalarda xorazmshoh – anushteginiylar davlati shaharlari haqida batafsil ma’lumotlar uchramaydi yoki ma’lumotlarni juda oshirib yuborish holatlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, XVIII – XIX asrlar Xiva xonligi tarixchisi Niyozmuhammad ibn Eshmuhammadning 1747 yilda yozilgan “Ta’rifi shahri Xorazm” asarida Xorazm shaharlariga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Ammo, bu asar o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan, Z.M. Buniyodov o‘zining Xorazmshoh-Anushteginiylar davri tarixiga bag‘ishlangan asarida qisqacha ma’lumotlar berilib o‘tilgan [3; 151-153.].

Zamonaviy tadqiqotchilarning ko‘pchiligi xorazmshohlar mavzusi bilan bog‘liq voqea va jarayonlarda eslatilgan shaharlar xususidagi yuzaki ma’lumotlarni keltirib o‘tish bilan cheklanadilar xolos. Mazkur mavzu yuzasidan hozircha Xorazmshoh – anushteginiylar davlati shaharlari tuzilishi, hajmi va eng asosiysi ularning savdo aloqalaridagi alohida o‘rni masalasiga V.V. Bartold [1: 411-416], S.P.Tolstov [10: 324; 11: 324], N.N. Vakturskaya [6: 150-167; 5: 41-54], O.A.Vishnevskaya [7: 54-73], Ye.E. Nerazik [9: 219-227], A.M. Belenitskiy, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakov [2: 389], Z.M. Buniyodov [3: 256; 4: 247] kabi tadqiqotchilarning asarlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Shaharlarning o‘sishi mamlakat umumiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim tomonlaridan biri bo‘lib, yangicha asosda yuksala boshlagan Anushteginiylar

davri Xorazm shahar sivilizatsiyasining atrofdagi dashtlar va uzoqroqdagi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar mustahkamlanayotganidan va kengayayotganidan dalolat beradi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Anushteginiy-Xorazmshohlar davri yodgorliklaridan ko‘plab xitoylik ustalar tayyorlagan chinni idishlar parchalarining topilishi ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi.

Tashqi va ichki savdo yo‘llari kesishgan joyda va muhim, qulay mavqega ega bo‘lgan xorazmshohlar poytaxti Gurganj (Jurjoniya) bu davrda nafaqat Movarounnahr, balki yalpi o‘rta asrlar Sharqining eng yirik shaharlaridan biriga aylandi. 1219 yilda Gurganjda bo‘lgan Yoqut Hamaviy: “Men Gurganj kabi buyuk, boy va go‘zal shaharni ko‘rmadim”, - deb yozadi [8; 419].

Zakariyo Qazviniy esa Gurganj haqida so‘z yuritar ekan, uni Jayxun daryosi bo‘yidagi juda katta shahar, aholisi juda ko‘p, deb ta’riflaydi va: “jannatdagi shaharni va chimildiqdagi kelinchakni qo‘riqlaganday, farishtalar qo‘riqlaydi”, -deb yozgan edi [3: 135].

Gurganjda o‘sha zamonlardagi barcha kasb-hunarlar taraqqiy etgan edi. Yana o‘sha Zakariyo Qazviniyning yozishicha, Gurganjda mohir ustalar, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqa hunar egalari o‘z kasbida barkamol edilar. Gurganj naqqoshlari fil suyagidan va sandal daraxtidan ajoyib naqshlar yasalar edilar. Gurganj ayollari chevarlikda mohir edilar, ipakchilar tabiiy ipakning oliy navini yetishtirgan. Binokor-quruvchilar tol og‘ochidan shunday yengil (sinchli) binolar qurardilarki, bu yerda tez-tez bo‘lib turadigan zilzila paytida tosh va g‘ishtin uylar qulasa ham, sinchli uylarga ziyon yetmas edi. Gurganjda aholi ko‘pligidan ko‘chalar, bozorlarda odamlar bir-biriga urilar, o‘tish qiyin ediv[3: 135].

Gurganj savdogarlari dunyoning ko‘pgina mamlakatlariga o‘z mollarini eltib sotar, Gurganjga ham ko‘p xorijiy mamlakatlarning savdogarlari mol olib kelar edilar. Gurganj bozorlarining ko‘pligi, turli-tuman mollarga seroblighi bilan ham mashhur edi. Bozorlarda juda qat’iy tartib o‘rnatilgan edi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, savdo-sotiqni muxtasib (nazoratchi) nazorat qilgan. Muxtasiblik lavozimiga ishonchli odamlar yoki imomlar qo‘yilardi. SHahar mo‘g‘ullar tomonidan 1221 yilda bosib olinib qattiq vayron qilingan. Manbalarda Xorazmning boshqa savdo shaharlari to‘g‘risida ham ko‘p ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Ardaxushmisanda 1219-1220 yillarda bo‘lgan Yoqut Hamaviy, u haqda yozib, bozorlari, mahalliy mollari ko‘pligi, aholisi badavlat bo‘lganligini ko‘rsatadi, uni Suriyaning yirik shaharlaridan Nisibin bilan tenglashtiradi, ammo Ardaxushmisan undan aholisi ko‘proq va muhtashamroq ekanligini ta’kidlaydi [8; 410].

1219-1220 yillarda Xorazmda bo'lgan Yoqut Hamaviy Hazoraspni mustahkam qal'a, go'zal va bozorlari, rastalari ko'p bo'lgan yirik savdo shahri sifatida eslatib o'tgan [8; 419].

Dovdon havzasi bo'yida joylashgan va yirik Madra (G'azovot) kanali bilan sug'orilgan Zamaxshar hududi XII-XIII asrlarda Xorazmning dehqonchilik eng rivojlangan va aholisi zich joylashgan markazlardan biriga aylangan. Zamaxsharning X asrdayoq yirik hunarmandchilik markazi bo'lganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Umuman, Dovdon havzasidan to Daryolik o'zanigacha bo'lgan hududlar va ulkan Chermoneyop kanali atroflari (Zamahshar, Dovdonqal'a, Yorbakirqal'a, Shoxsanam, Ko'hna Uaz shaharlari joylashgan hududlar kiradi) xorazmshohlar davrida nafaqat Xorazmning, balki Movarounahrning ham aholi eng zich joylashgan hududlari jumlasiga kirib, hatto hozirgi kun darajasidan ham ortiq bo'lgan. Agar buni taqqoslaydigan bo'lsak, hozirgi kunda Xorazm viloyatida har bir kv.km ga 190,2 kishi to'g'ri kelgani holda, yuqorida keltirib o'tilgan hududda har bir kv.km ga 400-500 kishi to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich, hatto O'zbekistonning hozirgi kundagi aholi eng zich joylashgan hududi, Andijon viloyati ko'rsatkichi bilan tengdir (Andijon viloyatida har 1 kv.km ga 475 kishi to'g'ri keladi). O'ng qirg'oq Xorazmning Xorazmshohlar davridagi aholi eng zich joylashgan hududi – Qavatqal'a hududida esa bu ko'rsatkich har 1 kv.km ga 200-250 kishini tashkil qilgan [7: 67].

Ko'hna Urganchdan Zamaxshargacha bo'lgan hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu shaharlar oralig'idagi o'nlab kilometrlar boshdan oxirigacha imoratlarning izlari, g'isht, sopol parchalari va hokazolar bilan qoplanganini, yuksak darajada taraqqiy qilgan dehqonchilik rustoqlari, kanallar izlarining mavjudligini ko'ramiz. Bu haddan tashqari katta o'ziga xos xarobazorning mavjudligi Yoqutning yuqorida eslatib o'tgan fikrini, ya'ni: "Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi – buning farqi yo'q. O'ylaymanki, Xorazm singari bepoyon va keng yer, shu singari aholisi ko'p yurt dunyoda bo'lmasa kerak..." -degan so'zlarini to'la-to'kis tasdiqlaydi.

Ko'hna Urganchdan 60 km janubi-g'arbda joylashgan Yorbakirqal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yodgorlikning xoazmshohlar davriga oid juda katta savdo markazi bo'lganligi aniqlandi. Bu yerdan tugallanmagan juda katta – 750 xona, 250 turar joyi bo'lgan va tomonlari 200 metrga cho'zilib ketgan karvonsaroyning topib o'rganilishi yuqoridagi fikrning to'la isbotidir. Karvonsaroy, aftidan, mo'g'ul bosqini oqibatida tugallanmay qolgan [5: 41-54; 7: 54-73].

Ko'hna Urganchdan 90 km janubi-g'arbda joylashgan yana bir yirik savdo markazi bu SHaharlik shahridir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu o'rta asrlar

manzilgohining gir atrofini shimoli-g'arbda Oqqal'a (Adoq)gacha, janubi-sharqda esa to Yorbakirqal'agacha bo'lgan hududni dehqonchilik maydonlari, qishloq qoldiqlari (bilan) o'rab olganligi aniqlandi. Demak, bu katta dehqonchilik rustog'i bo'lib, Shaharlik uning markazi bo'lgan. Shaharlikning maydoni 15 gektar bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, u mudofaa devoriga ega emas. Ammo arxeologik qazuv ishlari davomida uning hududidan topilgan ko'pdan-ko'p kulolchilik, shishagarlik, tikuvchilik, temirchilik va boshqa hunarmandchilik ustaxonalari, karvonsaroy qoldiqlari hamda ko'plagan tangalarning topilishi, mudofaa tizimisiz ham, bu shahar katta savdo-hunarmandchilik markazi bo'lganini ko'rsatadi [5: 53].

Chap qirg'oq Xorazmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va xorazmshohlar davriga oid manbalarda yuqoridagi shaharlardan tashqari: Suburna (SHohsanam), Jigarband, Sadvar, Safardiz, Kardaronxos (Qal'ajiq, Dovudqal'a), Sarakusta, Mangqishloq, Nuzvor (Buldumsoz), Sovkan (Olmaotishgan), Vargada (Varagdax, Munchoqli), Qudjag (Tuproqqal'a), Madminiya (Bug'roxon), Git (Puljoy), Qal'alik kabi savdo markazlari bo'lgan.

Suburna (Shohsanam), Sovkan (Olmaotishgan) savdo markazlari Yoqut Hamaviy asarlarida Movarounnahr va Xuroson bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlarida asosiy rol o'ynovchi obod shaharlar bo'lganligi ta'kidlanadi [8; 423-424]. Munchoqli shahriga IX-X asrlarda asos solinib, bu yerda hayot uzluksiz to XIV asrgacha davom etgan. Har xil sopol idishlar va boshqa turli arxeologik buyumlar qoldiqlarining topilishi bu manzilgoh xorazmshohlar davrida yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo'lganligini, atroflaridan esa juda keng maydonlarda qishloq izlari, kanallar va sug'orish inshootlari qoldiqlarining topilishi uning yirik dehqonchilik rustog'ining markazi bo'lganligini ham ko'rsatadi. Uning hozirgi umumiy maydoni 20 gektardan ko'proq. Bu manzilgoh arab geografi Ibn Rusta eslatib o'tgan, Jurjoniyanidan 4 farsax (24-32 km) quyida joylashgan Vargada (Varagdag') qishlog'iga to'g'ri keladi [12: 77-79].

Munchoqli manzilgohidan 48 km shimoli-g'arbda joylashgan Qal'alik, undan 20 km shimolda joylashgan Tuproqqal'a harobalarini o'rganish davomida ikkala manzilgoh ham, eng avvalo, yirik dehqonchilik rustoqlarining markazlari bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Ya.G'.G'ulomov va V.N.Yagodinlar Tuproqqal'ani arab geografi Al-Istaxriy eslatib o'tgan Kudjag shahri bo'lsa kerak, degan fikrni bildirganlar [12: 83; 13:161]. Bundan tashqari, ikkala hududdan ham turli ixtisoslikka mo'ljallangan juda ko'p ustaxonalarning (ayniqsa, kulolchilik va shisha yasash ustaxonalari ko'pchilikni tashkil qilgan) topilishi ularning kichikroq savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lganligini ko'rsatadi.

Tuproqqal'a (Kudjag)dan 20-23 km shimoli-sharqda va hozirgi Qo'ng'irot shahridan 17 km shimolda joylashgan Bug'roxon shahar harobasini o'rganish



natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu yodgorlik ark, shahriston va raboddan iborat juda katta savdo markazi bo'lgan. Buni shu yerdan topilgan turli xil arxeologik buyumlar va bozor o'rni qoldiqlari tasdiqlaydi. Uning shahristonining maydoni 4 gektar, rabodniki esa 25 gektardan iborat. IX asrda vujudga kelgan bu shahar Volgabo'yi, SHarqiy Yevropa va ko'chmanchilar bilan bo'ladigan muhim savdo yo'lida joylashganligidan juda tez o'sgan.

Bu yodgorlikni arxeologlar Al-Istaxriy, al-Maqdisiy asarlarida va "Hudud al-Olam" asarida eslatib o'tilgan Madminiya (Mazminiya, Madkaminiya yoki Badminiya) shahri bo'lsa kerak, degan fikrni bildiradilar. Bundan tashqari, Madminiya - ibn Rusta asaridagi Berabid shahri bo'lsa kerak, degan taxmin ham bor [12: 90; 13:158]. Bug'roxon shahridan 36-37 km g'arbda yana bir yirik o'rta asr shahri Puljoy qoldiqlari topib o'rganildi. Arxeologik tadqiqotlar bu yodgorlikning IX-XI asrlarda vujudga kelganini, xorazmshohlar davrida esa (XII-XIII asrlar) bu yodgorlik ham chegara istehkomi, ham Xorazmning Volgabo'yi va SHarqiy Yevropa bilan bo'ladigan savdo yo'lida joylashgan yirik savdo markazi bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu savdo markazining ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdo munosabatlaridagi o'rni beqiyos bo'lgan. Ya.G'.G'ulomov va V.N.Yagodinlar bu savdo markazini arab manbalarida eslatilgan Git shahri bilan taqqoslaydilar [12: 96; 13:159].

Chap qirg'oq Xorazmda bu shaharlardan tashqari, yana arab manbalarida eslatilgan Daskoxonxos, Ruzund, Vazarmand va boshqa shu kabi shaharlar ham mavjudki, ularning o'rnini taxminan bo'lsa-da, aniqlash qiyin bo'lmoqda.

Mo'g'ullar istilosi arafasida o'ng qirg'oq Xorazmning Gavxore kanali atroflarida joylashgan hudud ham ancha gullab-yashnagan edi. Arab yozma manbalarida X asrda eslatib o'tilgan Mizdahqon, Nuzkat, Nukfag, Kardor, Barategin, Juvakin, Sho'roxon shaharlari, arxeologik qidiruvlar natijasida o'rganilgan Norinjon, Guldursun, Janpiqqal'a, Qavatqal'a shaharlari XII-XIII asrlarda yanada kengaygan va rivojlangan.

O'ng qirg'oq Xorazmning eng aholi zich joylashgan hududi Qavatqal'a shahri atroflari bo'lib, bu yerda yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir kv.km ga 200-250 kishidan to'g'ri kelgan. Qavatqal'a atroflaridagi juda keng maydon dehqonchilik rustoqlari bilan qoplangan. Qavatqal'adan topilgan har xil buyumlar bu shahar dehqonchilik rustog'i markazi bo'lishi bilan birga, yirik savdo va hunarmandchilik markazi ham bo'lganligini ko'rsatadi. U Movarounnahr bilan Qizilqum orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'lining kichik tarmog'i orqali savdo munosabatlari olib borgan.

O'ng qirg'oq Xorazmning yana bir yirik savdo markazi SHO'roxon bo'lib, u Movarounnahrardan keladigan savdo yo'lidagi eng yirik shahar bo'lgan. Gavxore

kanali vohasidagi dehqonchilik qilinadigan yerlar ham SHo'roxon shahridan boshlangan. SHo'roxon Xorazmni Movarounnahr bilan bog'lovchi butun o'rta asrlarda mashhur bo'lgan Sepoya (Uch O'choq) savdo yo'lida joylashganligini hisobga oladigan bo'lsak, u ancha erta shakllangan va to mo'g'ullar istilosigacha ham Xorazmning eng muhim savdo markazi sifatida faoliyat olib borgan. Umuman, Gavxore kanali atroflari Xorazmning eng obod o'lkalaridan bo'lib, yozma manbalarda juda ko'p tilga olingan. Arxeologik ma'lumotlar ham bu yerda juda ko'p o'rta asr qal'alari, shaharlari qoldiqlarini, rustoqlar izlarini topib o'rganish asosida buni to'la tasdiqlaydi. Gavxore kanali juda katta uzunlikka – 12 farsax (72 km)ga teng bo'lgan (manbalarga ishonadigan bo'lsak, unda kemalar ham qatnagan). Ushbu kanalning o'zanlarida joylashgan Norinjon va Guldursun shahar hamda qal'alari to'g'risida yuqorida fikr yuritgan edik. Ushbu savdo markazlari bu davrda ham taraqqiy qilgan.

O'ng qirg'oq Xorazmning yana bir yirik savdo markazi Mizdahqon bo'lib, X asrda Maqdisiy qadimda o'ng qirg'oq Xorazmdan o'tgan uchta asosiy savdo yo'li ham Mizdahqonga olib borganligini keltirib o'tadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Mizdahqon X asrdan boshlab, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, faqat yirik rustoq markazi bo'lishi bilan birga, o'ng qirg'oq Xorazmning X-XIII asrlardagi eng yirik savdo markazi hisoblangan. Movarounnahrning boy savdo shaharlari bilan bog'lovchi uchta savdo yo'li Mizdahqonda birlashib, keyinchalik Amudaryodagi asosiy kechuv yo'li orqali Gurganjga borgan. Mizdahqon yana o'zining geografik o'rniga ko'ra ko'chmanchilarga (ayniqsa, o'g'uzlarga) yaqin joylashganligiga ko'ra uning ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdoda ham, eng muhim markazlardan biri bo'lgan deyishimizga ham asos bor.

Maqdisiy keltirib o'tgan Nuzkat, Nukfag, Barategin va Juvakin shaharlari to'g'risida XI-XIII asr manbalarida deyarli hech qanday so'z yuritilmasa-da, shu asrlardagi iqtisodiy taraqqiyotning yuqori bo'lganligiga, ayniqsa, savdo-sotiqning ancha rivojlanganligiga qarab fikr yuritadigan bo'lsak, bu shaharlar ham Xorazmning yirik savdo markazlari bo'lganligini ishonch bilan aytish mumkin. Faqat Yoqut Hamaviy XIII asr boshlarida Nuzkatni Gurganj yaqinidagi shaharcha sifatida eslatib o'tadi [8: 436]. Ya.G'.G'ulomov uni hozirgi Jumirtov etagidagi Jumirqal'a harobasi o'rnida bo'lgan, degan taxminni bildiradi [13:156-158]. Ya.G'.G'ulomov yana Juvakinni hozirgi kundagi Quyuqqal'a yodgorligi, Nukbog' (Nukfag)ni Eski Porsu yodgorligi, Barateginni esa hozirgi Qizqal'a yodgorliklari o'rniga to'g'ri kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Agar shu yodgorliklar ham to'liq o'rganilsa, Xorazmning boshqa savdo markazlari to'g'risida, yoki agar Ya.G'.G'ulomovning fikrining to'g'riligi tasdiqlansa, Juvakin, Nukbog (Nukfag) va Barategin shaharlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'lar edi.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlari XI – XIII asrlar davomida taraqqiyoti, shaharlar ijtimoiy ahvoli hamda ularda kechgan ijtimoiy jarayonlar masalasini o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, eng avvalo, Xorazm vohasining shu asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixining ham ko'pgina qirralarini ochib beradi. SHu jihatdan olganda, Anushteginiylar davri Xorazm vohasi shaharlarida kechgan ijtimoiy hayot masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1). Yuqoridagi savdo markazlari hayoti bilan tanishish davomida, XII asr o'rtalaridan – XIII asr boshigacha bo'lgan davr, ya'ni xorazmshoh-anushteginiylar davri, haqiqatan ham, Xorazm savdo markazlarining eng gullab yashnagan davri ekanligiga yaqqol ishonch hosil qilish mumkin. Buni shu davr manbalari ham, arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

2). Xorazm vohasida Anushteginiylar davrida poytaxt Gurganchdan tashqari, Mizdahqon, Darg'on, Git, Safardiz, Ardaxushmisan, Puljoy, Kat, Kardor, Kardoronxos kabi shaharlar ijtimoiy hayotini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bu shaharlar ham na arxeologik, na manbaviy jihatdan o'rganilmagan. Bu shaharlarni tadqiq qilish orqali esa, Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlarida ijtimoiy hayot qanday kechganligi, qolaversa, Anushteginiylar davlatida kechgan ijtimoiy jarayonlar masalasi o'z yechimini topgan bo'lardi.

3). Umuman olganda, arxeologik manbalar Xorazm vohasining Anushteginiylar davri shaharlari ijtimoiy hayoti masalasini to'liq ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda musulmon dunyosi shaharlarida kechgan ijtimoiy jarayonlar xususida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:**

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского завоевания. -Сочинения. Т.24.2. –М.: «Наука», 1964. – 657 с.
2. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. –Л.: «Наука», 1973. – 389 с.
3. Буниёдов З. Ануштагин-Хоразмшоҳлар давлати (1097-1235 й.й.) –Т.: «Адабиёт ва санъат» нашриёти, 1997. – 256 б.

4. Бунятов З. М. Государство хорезмшахов-Ануштегинидов, 1097-1231. – Москва: Наука, 1986. – 247 с.
5. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Т. II, Вып. 7, 1963. – С. 41-54.
6. Вактурская Н.Н, Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов (XII-начало XIII вв.) //МХЭ., вып.1, -М.: Изд-во Ан СССР, 1959. – С.150-167.
7. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма. // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Т. II, Вып. 7, 1963. – С. 54-73
8. Йакут ал-Хамави. Му'жам ал-булдан // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.409-438.
9. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма //Вкн.: Культура и искусство древнего Хорезма. - М.: «Наука», 1986. – С.219-227.
10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во вост.лит., 1964. – 324 с.
11. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. - М.: Изд-Во Ан СССР, 1948. – 324 с.
12. Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования левобережной части Приаральской дельты Аму-Дарьи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1958-1961 гг. Т. II, Вып. 7, 1963. – С. 77-79.
13. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1959. – 324 б.



## TARIX

### IJTIMOY TARMOQLARDA XORAZM ETNOLOGIYASI MASALALARI DISKURSI



**Yusupov Jaloladdin,  
Mustaqil tadqiqotchi**

**UO‘K 907.31**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasiga oid masalalarning yoritilishi va ularning diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli media muhitida milliy an‘analar, urf-odatlar, marosimlar, etnik o‘zlik va madaniy merosga doir fikrlar qanday shakllanayotgani hamda jamoatchilik ongida etnologik bilimlarning interpretatsiya qilinishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan mulohaza, bahs va representatsiya jarayonlari asosida Xorazm etnomadaniy makonining zamonaviy diskursiv qiyofasi ochib beriladi.*

***Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы отражения проблем этнологии Хорезма в социальных сетях и их дискурсивные особенности. В исследовании рассматривается, каким образом в цифровом медиaprостранстве формируются представления о национальных традициях, обычаях, обрядах, этнической идентичности и культурном наследии, а также как интерпретируются этнологические знания в общественном сознании. Кроме того, на основе анализа процессов коммуникации, обсуждения и репрезентации в социальных сетях раскрывается современный дискурсивный облик хорезмского этнокультурного пространства.*

***Annotation:** This article analyzes the representation of issues related to Khorezm ethnology in social networks and their discursive characteristics. The study examines how perceptions of national traditions, customs, rituals, ethnic identity, and cultural heritage are formed within the digital media space, as well as how ethnological knowledge is interpreted in public consciousness. Furthermore, based on the analysis of communication, discussion, and representation processes in social networks, the contemporary discursive image of the Khorezm ethnocultural space is revealed.*

**Kalit soʻzlar:** *Xorazm etnologiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, etnomadaniy diskurs, raqamli kommunikatsiya.*

**Ключевые слова:** *этнология Хорезма, социальные сети, этнокультурный дискурс, цифровая коммуникация.*

**Key words:** *Khorezm ethnology, social networks, ethnocultural discourse, digital communication.*

Bugungi raqamli kommunikatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar Xorazm etnologiyasiga oid bilim va tasavvurlar shakllanadigan, bahs-munozaralar kechadigan va madaniy meros qayta talqin qilinadigan muhim maydonga aylandi. Ushbu makonda anʼanaviy urf-odatlar, marosimlar, etnik identifikatsiya va hududiy madaniy belgilar turli auditoriyalar tomonidan turlicha izohlanmoqda hamda ommaviy muhokama orqali yangi maʼno kasb etmoqda. Shu jihatdan, ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan diskursni tahlil qilish Xorazm etnomadaniy voqeligining zamonaviy talqinlarini, stereotiplar va transformatsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda *diskurs-tahlil usuli* asosiy metodologik yondashuv sifatida qoʻllanildi. Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasiga oid postlar, sharhlar, muhokamalar va media materiallar mazmunan va semantik jihatdan tahlil qilinib, ularda qoʻllanilayotgan tushunchalar, ramzlar va interpretatsiya shakllari aniqlandi. Shuningdek, *kontent-tahlil usuli* orqali maʼlum vaqt oraligʻidagi materiallar saralanib, ularning mavzuviy yoʻnalishi, takrorlanish darajasi va auditoriya reaksiyasi oʻrganildi. *Qiyosiy tahlil* yordamida turli ijtimoiy platformalardagi diskursiv farqlar solishtirildi. Tadqiqot jarayonida *ilmiylik, xolislik va manbalarni tanlashda reprezentativlik tamoyillariga* amal qilindi.

Mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, etnologiya va raqamli kommunikatsiya kesishmasidagi tadqiqotlar soʻnggi yillarda faol rivojlanmoqda. Jumladan, Manuel Castellsning [1] tarmoq jamiyati kontseptsiyasi raqamli muhitda ijtimoiy munosabatlar va identifikatsiya jarayonlarini tushunishda nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Diskurs tahlili metodologiyasi esa Michel Foucault [2] hamda Teun Van Dijk [3] ishlarida atroflicha yoritilgan boʻlib, ommaviy axborot va media matnlarini tahlil qilishda muhim ilmiy yondashuv sifatida qoraladi.

Oʻzbek etnologiyasida hududiy madaniyat, anʼana va etnik identifikatsiya masalalari keng oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi aks etishi alohida tadqiqot obʼekti sifatida etarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolada anʼanaviy ilmiy manbalar bilan bir qatorda internet saytlari, onlayn nashrlar va

ijtimoiy tarmoq sahifalari materiallaridan foydalanildi. Bu esa zamonaviy raqamli makonda shakllanayotgan etnomadaniy diskursni bevosita manba asosida tahlil qilish imkonini berdi.

Zamonaviy bolalar va o'smirlar, Z- avlod vakillariga ijtimoiy tarmoqlar ko'plab imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bular aloqaning masofaviy tabiati, suhbatdoshlarni tanlash huquqi, turli xil, shu jumladan taqiqlangan ma'lumotlarga kirish orqali masofalarni yengib o'tish imkoniyatlari ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga hal qilinmagan vazifalar va umidsizlikka uchragan ehtiyojlarni qoplashga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlar o'zini namoyon qilish va ijodkorlik uchun noyob vositalar bilan to'ldirilgan, xususan, personifikatsiya qilish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

Hozirgi kunda etuk mansublik nuqtai-nazaridan keksa odamlar ham muloqot qilish, kundalik vazifalarni bajarish uchun onlayn xizmatlardan faol foydalanmoqdalar. Muloqot qilish, shuningdek xaridlar, xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishga bir nechta soniya kifoya qiladi. Albatta, ushbu tendentsiyalar foydalanuvchilarning kiber makonda bo'lish vaqtini ko'payishiga va ularni turli mavzularga bog'lanib qolishiga olib keladi [4].

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining virtual identifikatori etnografik hodisa sifatida ijtimoiy tuzilishga ega bo'lib, virtual foydalanuvchi identifikatorining xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarda muhokama etilayotgan mavzularning ijtimoiy, siyosiy, etnik va geografik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, Ijtimoiy media foydalanuvchilarining virtual identifikatsiyasini tadqiq etish foydalanuvchilarining virtual identifikatori va ularning haqiqiy kimligini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Turli darajadagi virtual identifikatsiya va kommunikativ xulq-atvor xususiyatlariga ega ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining Internet faoliyati va submadaniyati ularining shaxsiy xususiyatlarini anglashga olib keladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida virtual makon omillari ta'sirida shakllanadigan shaxsning ego o'ziga xosligi va xususiyatlari ularning submadaniyatiga ta'sir o'tkazadi, bu ta'sir ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda 2017-2025 yillarda Internet foydalanuvchilari soni 14,7 mln.dan 32,7 mln.ga oshgan. Eng ommabop platformalar: "Telegram"da 28 mln., "Odnoklassniki"da 19,2 mln., "Facebook"da 2,3 mln., "VKontakte"da 1,5 mln., "LinkedIn"da 850 ming, "Twitter"da 250 ming nafar o'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud [5].

Ijtimoiy tarmoqlardagi Xorazm etnologiyasi masalalari tematikasi amaliy etnologiya masalalariga qaraganda nihoyatda xilma-xil. Materiallarga boy va tahlillardan ko‘ra turli-tuman fikrlarga to‘la.

Interenet tematikasini Xorazm miqyosidagi eng ko‘p sonli va ko‘proq obunachilarga ega bo‘lgan “Xorazm va xorazmliklar” kanali [6]. misolida ko‘rib chiqamiz. U 2018 yil 20 iyulda tashkil etilgan. "Xorazm va xorazmliklar" guruhining "Guruh qoidolari"da “ Bu guruh xorazmliklar, ularning do‘stlari, Xorazm va uning xalqini sevuvchi barcha xalq vakillari uchun ochiq. 2. Guruhning maqsadi Xorazm va xorazmliklar haqida, ularning tarixi, madaniyati, tsivilizatsiyasi, san’ati, fani va bu qadimiy xalqni ulug‘lovchi barcha sohalarda o‘zaro fikr va bilimlar almashishdir. 3. Guruhning tili o‘zbek tili va Xorazm shevasidir. Lekin zarur bo‘lganda rus tilida muomala qilishga ruxsat beriladi. Ingliz, frantsuz, nemis va ispan tillarida materiallarni tarjimasiz yuklash yoki saytga ssilka berishga ruxsat etiladi” deb yozilgan. ” Tili o‘zbek tili va Xorazm Shevasidir” degan jumlar vohaning lokal xususiyatini yaqqol aks ettiradi. Bu guruh Facebook, YouTube, Instagram, Telegram, Odnoklassniki.ru va Twitterda o‘z faoliyatini yuritadi. Telegramdagi a‘zolar 1529 kishini, Facebookdagi obunachilar soni 52 ming 300 kishi, YouTube 15 ming 100 kishi (91 video joylangan), Odnoklassniki.ru 6 ming 922 a‘zosi (5242 mavzu muhokamaga qo‘yilgan, 7013 sur‘at, 453 ta video joylangan), Tvitterda uning 11ta o‘quvchisi va 8 ta post bor xalos.

Tadqiqot davomida “Xorazm va xorazmliklar” Odnoklassniki guruhidagi materiallar sistemali tahlil qilindi. Guruh 7 000 dan ortiq ishtirokchiga ega bo‘lib, turli platformadagi kontent kabi — video, foto va tekst — shaklida tarqatilmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, asosiy mavzular quyidagilardan iborat:

Madaniy ijod va musiqa – surnay, lazgi va boshqa an‘anaviy musiqiy materiallar. Bu postlar auditoriyada eng yuqori qiziqish uyg‘otadi, milliy madaniyatning vizual va audial reprezentatsiyasi sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy hayot va voqealar – guruhning tashriflari, mahalliy ijtimoiy tadbirlar haqidagi postlar jamoaviy muhokama va interaktivni rag‘batlantiradi.

Tarixiy ma‘lumotlar va xotira – guruhning tashkil etilishi va rivojlanishi, tarixiy shaxslar haqidagi qisqa ma‘lumotlar orqali ishtirokchilarda jamoaviy identifikatsiya kuchayadi.

Zamonaviy xorazmlik obrazi va yumor – shevaga xos memlar va yumoristik videolar auditoriyani jalb qiladi hamda etnik identifikatsiyani zamonaviy usulda taqdim etadi.



Kontent tahlili shuni ko'rsatdiki, Odnoklassniki guruhi faqat ma'lumot tarqatuvchi maydon emas, balki jamoaviy identifikatsiya va etnomadaniy diskurs shakllanadigan muhim platforma hisoblanadi. Video va foto materiallar orqali Xorazm madaniyati va urf-odatlarini vizual ravishda taqdim etilmoqda, bu esa madaniy merosni saqlash va auditoriyada milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yumor va memlar orqali shakllangan stereotiplar ham bor, bu raqamli muhitda etnografik tahlil uchun qiziqarli ob'ekt hisoblanadi.

Shuningdek, turli platformalarda kontentning tarqalish xususiyatlari (misol uchun, video — YouTube va Instagramda, muhokama — Facebook va Telegramda) raqamli etnologiyani o'rganishda platforma xususiyatlari va auditoriya munosabatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Odnoklassniki guruhi Xorazm etnologiyasi va madaniy merosning zamonaviy diskursiv reprezentatsiyasini tadqiq qilish uchun foydali manba hisoblanadi va shu tarzda ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan etnologik bilimlarning onlayn mexanizmlari ilmiy ravishda o'rganilishi mumkin.

“Xorazm va xorazmliklar” guruhining 2025 yilning yanvar va mart oylaridagi tematik kategoriyalar jadvali

| <b>№</b> | <b>Tematik kategoriya</b>  | <b>Postlar soni (n)</b> | <b>Ulushi (%)</b> | <b>Auditoriya reaksiyasi (o'rtacha layk 'izoh)</b> | <b>Izoh</b>                          |
|----------|----------------------------|-------------------------|-------------------|----------------------------------------------------|--------------------------------------|
| 1        | Urf-odat va marosimlar     | 25                      | 20%               | 350 layk<br>45 izoh                                | Nikoh, sunnat, milliy taomlar        |
| 2        | Tarix va tarixiy shaxslar  | 18                      | 14%               | 280 30                                             | Mahalliy qahramonlar, tarixiy xotira |
| 3        | Xorazm shevasi va til      | 22                      | 18%               | 410 60                                             | Shevaga oid videolar va yumor        |
| 4        | Madaniy meros              | 20                      | 16%               | 300 28                                             | Me'moriy yodgorliklar, an'analar     |
| 5        | Zamonaviy xorazmlik obrazi | 15                      | 12%               | 500 75                                             | Regional g'urur, identifikatsi       |

|   |                             |    |     |           |                        |
|---|-----------------------------|----|-----|-----------|------------------------|
| 6 | Yumor va etnik stereotiplar | 24 | 20% | 620 G' 90 | Memlar, qisqa roliklar |
|---|-----------------------------|----|-----|-----------|------------------------|

## Diskursiv kodlash

| Diskursiv element | Mavjudligi (QG'-) | Qisqacha tavsif                     |
|-------------------|-------------------|-------------------------------------|
| “Biz” kontsepti   | Q                 | Xorazmliklarni birlashtiruvchi nutq |
| Regional g'urur   | Q                 | Madaniy ustunlik ta'kidi            |
| Stereotip         | Q-                | Yumor orqali shakllantirilgan obraz |
| An'anaviylik      | Q                 | Qadriyatlarga urg'u                 |

Tadqiqot doirasida “Xorazm va xorazmliklar” tarmog'ining turli platformalarida ma'lum vaqt oralig'ida joylashtirilgan materiallar kontent-tahlil asosida o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, kontent asosan olti yo'nalishda shakllangani aniqlandi: urf-odat va marosimlar, tarixiy xotira va shaxslar, Xorazm shevasi, madaniy meros, zamonaviy xorazmlik obrazi hamda yumor va etnik stereotiplar.

Eng yuqori ulush yumor va etnik stereotiplarga oid materiallarga to'g'ri keldi. Bunday kontent, odatda, qisqa video, mem va shevaga xos ifoda orqali auditoriyada katta rezonans uyg'otgan. Ikkinchi o'rinda urf-odat va marosimlarga bag'ishlangan materiallar qayd etildi. Bu postlarda milliy taomlar, to'y marosimlari, an'anaviy liboslar kabi etnomadaniy elementlar faol tarzda namoyon etilgan.

Diskursiv tahlil shuni ko'rsatdiki, materiallarda “biz” kontsepti orqali hududiy birlik va regional g'urur kuchli ifodalanadi. Xorazmlik obrazi ko'p hollarda mehmondo'st, hazilkash va an'anaga sodiq jamoa sifatida taqdim etilgan. Shu bilan birga, ayrim hollarda yumor orqali shakllangan stereotiplashtirish elementlari ham kuzatildi.

Platformalararo qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, vizual va emotsional ta'sirga ega kontent (ayniqsa video format) YouTube va Instagramda faolroq tarqalgan bo'lsa, muhokama va fikr almashish jarayonlari Facebook va Telegramda ko'proq namoyon bo'lgan. Bu holat raqamli muhitda etnomadaniy diskursning platforma xususiyatlariga mos holda transformatsiyaga uchrayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasiga oid mavzular faqat axborot xarakterida emas, balki identifikatsiya, madaniy xotira va jamoaviy g'ururni mustahkamlovchi diskursiv maydon sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda Xorazm etnologiyasi masalalari tematikasi amaliy etnologiya masalalaridan muayyan jihatlari bilan farqlanadi, garchi ular o'zaro bog'liq bo'lsa-da obyekt, muhit, maqsad va metodologik jihatdan farq qiladi. Xususan, ob'ekt va muhit jihatidan farqi shundaki, ijtimoiy tarmoqlardagi etnologik masalalar raqamli muhitda shakllanayotgan tasavvurlar, bahslar va reprezentatsiyalarni o'rganadi. Bu erda asosiy e'tibor media-diskurs, auditoriya fikri va onlayn interpretatsiyaga qaratiladi. Amaliy etnologiya esa bevosita jamoa

ichidagi ijtimoiy jarayonlar, madaniy amaliyotlar masalan, madaniy merosni saqlash, etnik munosabatlarni tartibga solish, mahalliy loyihalar va ularning muammolarini hal etishga yo‘naltiriladi.

Maqsad jihatidan farqi esa ijtimoiy tarmoqlar kontekstida tadqiqot ko‘proq tahlil va Xorazm etnomadaniy merosi qanday taqdim etilmoqda, qanday stereotiplar yoki yangi ma’nolar shakllanayotganining interpretatsiyasiga qaratilgan. Amaliy etnologiya esa natijaviy xarakterga ega: tavsiyalar ishlab chiqish, madaniy siyosatni takomillashtirish, jamoaviy muammolarga echim topish kabi vazifalarni bajaradi

Metodologik jihatdan farqi shundaki, ijtimoiy tarmoqlar tahlilida diskurs-tahlil, kontent-tahlil va raqamli etnografiya qo‘llaniladi. Amaliy etnologiyada esa ekspeditsiya, kuzatuv, intervyu va ishtirokchi kuzatuv usullari ustuvor hisoblanadi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.The Network Society From Knowledge to Policy. Edited by Manuel Castells. Washington, DC: Johns Hopkins Center for Transatlantic Relations, 2005. Pg. 460

2. M Foucault The Will to Knowledge: The History of Sexuality Volume 1 (1976) (trans. R Hurley, 1998).

3. TA van Dijk. Discourse, Power and Access. Routledge. 1996

4.Berdieva Q. Bugungi ijtimoiy tarmoq hamda uning yutuq va kamchiliklari// Экономика и социум. №9 (112) 2023.-Б. 70-74

5. O‘zbekistonda qancha odam Telegram’dan foydalanishi ma’lum bo‘ldi// <https://aniq.uz/yangiliklar/>

Facebook: <https://www.facebook.com/groups/khorezmian>

YouTube :

<https://www.youtube.com/channel/UCjaGuOWM69juMXAWqmucn3Q>

Instagram : [http://www.instagram.com/xorazm\\_va\\_xorazmliklar](http://www.instagram.com/xorazm_va_xorazmliklar)

Телеграм : [https://t.me/xorazm\\_va\\_xorazmliklar](https://t.me/xorazm_va_xorazmliklar)

Одноклассники.ру : <https://ok.ru/group/56642336850002>

Twitterда : [http://www.twitter.com/X\\_](http://www.twitter.com/X_)

## TARIX

### SOVET DAVRIDA VOBKENT SHAHRINING IJTIMOIIY-HUDUDIIY RIVOJI: TARIXIY MEROS VA YANGI QURILISHLAR



**Hayotova Nafisa,**  
Buxoro texnika  
universiteti  
“Ijtimoiy fanlar va  
jismoniy  
madaniyat”  
kafedrasi dotsenti.  
Tarix fanlari  
bo'yicha falsafa  
doktori

**UO'K 907.31**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro vohasidagi qadimiy shaharlar tizimiga kiruvchi Vobkent shahrining sovet davridagi urbanistik va infratuzilmaviy rivojlanish jarayonlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada shaharning o'rta asrlarda shakllangan tarixiy makoni, an'anaviy rejalashtirish tizimi hamda ularning sovet shaharsozlik siyosati ta'sirida o'zgarib borishi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ урбанистических и инфраструктурных процессов развития города Вабкента, входящего в систему древних городов Бухарского оазиса, в советский период. В статье особое внимание уделяется историческому городскому пространству, сформировавшемуся в средние века, традиционной системе планировки, а также изменениям, происходившим под воздействием градостроительной политики советского периода.

**Annotation:** This article provides a scholarly analysis of the urban and infrastructural development processes of the city of Vabkent, which is part of the system of ancient cities of the Bukhara Oasis, during the Soviet period. Special attention is paid to the historical urban space formed in the Middle Ages, the traditional planning system, as well as the transformations that occurred under the influence of Soviet urban planning policies.

**Kalit so'zlar:** Vobkent shahri, shahar makoni, ijtimoiy infratuzilma, minora, shaharsozlik tarxi, qo'rg'on, Komot, tor ko'chalar.

**Ключевые слова:** город Вабкент, городское пространство, социальная инфраструктура, минарет, градостроительная планировка, крепост, Комот, узкие улицы.

**Key words:** Vabkent city, urban space, social infrastructure, minaret, urban planning layout, fortress, Komot, narrow streets.

Buxoro vohasi tarixan O'rta Osiyodagi qadimiy va barqaror shaharsozlik an'analari shakllangan hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu vohada shakllangan shaharlar asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy jarayonlarning



o'zaro ta'siri asosida rivojlanib, o'ziga xos shahar muhitini vujudga keltirgan. Buxoro shahri bilan bir qatorda vohadagi boshqa shaharlar ham mazkur jarayonlarga faol ishtirok etib, hududiy ahamiyatga ega ma'muriy va madaniy markazlar sifatida shakllangan.

O'rta asrlarda shakllangan bunday shaharlar o'zining ichki tuzilishi, aholi joylashuvi va ijtimoiy infratuzilmasi orqali ma'lum shaharsozlik an'analarini namoyon etgan. Shunday shaharlardan biri-Vobkent bo'lib, u so'nggi o'rta asrlar davrida Buxoro vohasining shaharsozlik an'analariga xos tuzilish jihatlari borligi bilan ajralib turadi. Geografik joylashuvi, suv manbasiga yaqinligi va Buxoro bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarining barqarorligi Vobkentning shahar sifatida rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Vobkent asrlar davomida nafaqat aholi yashash makoni, balki ma'muriy, diniy va iqtisodiy funktsiyalarni birlashtirgan mahalliy markaz bo'lib kelgan.

Vobkentning ichki shaharsozlik tarhi - devor bilan o'ralgan qo'rg'on, markaziy masjid, madrasa, minora, hammom, bozor va hunarmandchilik mahallalari kabi elementlar-uning to'laqonli shahar tizimiga ega bo'lganidan dalolat beradi. Bu tuzilish Buxoro shahrininig ichki shaharsozlik modelini takrorlagan holda, vohadagi ikkinchi ahamiyatli ma'muriy-diniy hamda iqtisodiy markaz sifatida xizmat qilgan. Vobkent qo'rg'oni taxminan XII asrdan boshlab, ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb eta boshladi [1;200]. Aynan shu davrda Zarafshon daryosining yo'nalishining o'zgarishi natijasida Buxoro vohasining qadimiy Varaxsha, Poykent shaharlari inqirozga yuz tutadi. Bu holat aholining ommaviy ko'chish jarayonlarini keltirib chiqarib, bir qismi So'g'd hududlari tomon, ikkinchi qismi esa Zarafshon daryosiga yaqin yerlarga ko'chib o'tadi. Bunday demografik va geografik o'zgarishlar sharoitida Vobkent qo'rg'oni shakllanib, yangi aholi joylashuvi hamda ijtimoiy-madaniy markaz sifatida rivojlanib bordi.

Atrofi devor bilan chegaralangan qo'rg'on Vobkentning mudofaa funktsiyasini ta'minlagan bo'lsa, minora shaharning diniy hamda ma'rifiy markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlagan. 1196-1197 yillarda barpo etilgan [2;79] va o'ta mukammal me'moriy yechimga ega bo'lgan Vobkent minorasi shaharning islom sivilizatsiyasi doirasidagi rolini kuchaytirgan. Minora Buxorodagi barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ustidan nazorat o'rnatgan diniy sulola-Burhoniylar sulolasi vakillaridan Abdullaziz II davrida bunyod etilgan [3;14] bo'lib, o'rta asr minoralari orasida ixchamligi va estetik jihatdan mukammal yechimlari bilan

ajralib turadi. Minoraning umumiy balandligi 40,3 metrni tashkil etadi, pastki qismi diametri 6,19 metr, yuqori qismi esa 2,81 metrga teng. Minora atrofida shakllangan shahar hududi taxminan 10-12 gektarni tashkil etgan bo'lib, u o'lchami jihatidan Buxoro shahristonlaridan birining hududiy ko'lamiga yaqin keladi. Minora bilan yonma-yon joylashgan madrasa va masjid shaharning diniy-ma'rifiy markaz sifatidagi o'rnini mustahkamlagan bo'lib, bu binolarning mavjudligi Vobkentdagi shahar hayotining yuqori darajada tashkil etilganini ko'rsatadi. Ibodat maskanlari, tazarlar bilan ta'minlangan hammomlar, qo'rg'on ichidagi mozorlar, bozor, hunarmandchilik rastalari va zich aholi yashaydigan guzarlar shaharning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funktsiyalari bir butun tizim sifatida shakllangani Vobkentga o'rta asrlar shahri maqomini berishga asos bo'ladi.

Vobkentning o'z atrofidagi qator qishloqlarni birlashtirgan ma'muriy markaz sifatida shakllanishi XVI-XVII asrlarda yuz berib, keyingi asrlarda ushbu jarayon yanada jadallashgani va XX asr boshlarigacha davom etganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, XVI asrda katta iqtisodiy va siyosiy qudratga ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari xo'jaliklarining yer sotib olish to'g'risidagi hujjatlarida Vobkent atrofidagi yerlar qayd etilgan bo'lib, xususan Xo'ja Sa'd (1530-1589) tomonidan Vobkentga yaqin yerlar sotib olingan [3;16]. Shuningdek, Vobkent atrofida joylashgan Qasri Xalifa, Anjir Fag'na, Hariyon kabi qishloqlarning nomlari ham tilga olingan. XVI asrdan boshlab Vobkent ikki nom bilan - Vobkana va Komot atamaları orqali yuritilgan. Jumladan, "Komot" atamasi ma'muriy-hududiy birlikni, ya'ni muayyan hududni o'z ichiga olgan tuman darajasidagi boshqaruv markazini anglatgan [3;16].

O'rta asr shaharsozligiga xos jihatlardan yana biri, bu Vobkentda Buxoroning eski shahar ko'chalari kabi ko'cha ustiga qurilgan dolonlardir. Joy tanqisligi va hududdan samarali foydalanish, tor ko'chalarni yomg'ir va qor ta'siridan himoya qilish maqsadida ko'chalar ustiga kichik honadan iborat dolonlar barpo etilgan. Bunday dolonlar ostidan erkin harakatlanish mumkin bo'lgan bo'lsa, ularning o'zi aholi istiqomati uchun ham xizmat qilgan. Bu kabi me'moriy yechimlar Vobkent shahrida o'rta asr shaharsozlik an'alarining amaliy va funktsional jihatlarini namoyon etadi.

XX asr boshlarida Vobkent Buxoro amirligi tarkibidagi tumanlardan biri hisoblanib, shaharning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Manbalarda keltirilishicha, mazkur tuman amirlikdagi maydoni jihatidan nisbatan kichik ma'muriy birliklardan biri bo'lib, uning umumiy hududi 58 285 tanobni tashkil

etgan [4;23]. Tuman aholisi soni 1914 yilda 20 030 nafar kishini tashkil etgan bo'lsa, 1924 yilga kelib bu ko'rsatkich 271 530 nafarga yetgan [5;189].

1924 yil 1 oktyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy islohotlar natijasida respublika hududi okruglar, tumanlar va kentlarga bo'linadi [6]. Ushbu islohotlar doirasida tashkil etilgan Zarafshon okrugi 8 tumandan iborat bo'lib, mazkur tumanlar qatorida Vobkent ham kiritildi. Vobkent tumani tarkibida Shofirkon, Laglaka, Zandana va Kumushkent kentlarining birlashtirilishi shaharning ma'muriy funksiyalarini sezilarli darajada kuchaytirdi. Natijada Vobkent sovet davrida tuman markazi sifatida shakllanib, atrof hududlar uchun boshqaruv, xo'jalik va ijtimoiy xizmatlarni jamlovchi hududga aylandi.

1930 yilga kelib ma'muriy boshqaruvni takomillashtirish maqsadida okruglar tugatilib, faqat tuman va qishloq kengashlari tizimi saqlab qolingan. Bu davrda Vobkent tumani to'g'ridan-to'g'ri respublikaga bo'ysunadigan ma'muriy hududlar qatoriga kirgan [7;24]. Vobkentning ma'muriy-hududiy tuzilishida yuz bergan o'zgarishlar bevosita Vobkent shahrining shaharsozlik rivoji, fazoviy kengayishiga ta'sir ko'rsatdi.

1926-1938 yillarda Vobkent tumanining mustaqil ma'muriy birlik sifatida shakllanishi shaharda davlat boshqaruv organlari, ta'lim, sog'likni saqlash va moliya muassasalarini joylashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu holat tarixiy shahar markazi atrofida yangi ma'muriy va ijtimoiy binolar barpo etilishiga sabab bo'ldi. Natijada Vobkent shahrida an'anaviy o'rta asr shahar tuzilishiga qo'shimcha ravishda sovet davriga xos yangi funktsional markazlar shakllana bordi. Xususan, shahar hududida va unga yaqin masofalarda yangi tipdagi zamonaviy binolar barpo etila boshlandi. Bu yillarda Vobkent shahrida ijtimoiy infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi sifatida tibbiyot tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, o'rta asrlarda Vobkentda aholi sog'ligini saqlash asosan xalq tabobati, muqaddas buloqlar, masjid va ziyoratgohlar atrofida shakllangan an'anaviy usullar orqali amalga oshirilgan bo'lib, XX asrning - 20 yillaridan boshlab bu sohada institutsional tibbiy xizmat tizimi vujudga kelgan. 1924 yildan Vobkentda zamonaviy tibbiyot xizmatlari tashkil etilib, dastlab Vobkent minorasi yaqinidagi Abdurafi Bazzozning hovlisida ambulatoriya tashkil etilgan [8;93]. Ilk tibbiy muassasalar shahar markazida, aholi uchun qulay bo'lgan xududda joylashtirildi. 1928 yilda Vobkent shahrining shimoliy-sharq qismida Yevropa me'morchiligi an'analari asosida tuman shifoxonasi bunyod

etiladi. Bir qavatli g'ishtdan qurilgan mazkur bino shaharda zamonaviy sog'likni saqlash infratuzilmaning shakllanishida muhim qadam bo'ldi. Mazkur bino hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, shaharning ilk sovet davridagi qurilish siyosatiga oid muhim namuna hisoblanadi. Keyinroq shifoxonaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, o'rinlar soni bosqichma-bosqich oshirildi va u 18 o'rinli tibbiy muassasa sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. 1929 yilda Vobkentda sog'likni saqlash bo'limi tashkil etildi. 1934 yilda minora oldida joylashgan Nurboyvachcha hovlisida dorixona faoliyat boshladi [8;93]. 1936-1940 yillar mobaynida Kumushkent, Qipchoq, Rohkent, Xargo'sht hududlarida qishloq feldsher-akusherlik punktlari ochildi. 1940 yildan boshlab Vobkent markaziy kasalxonasi tarkibida tibbiy bo'limlar soni kengaydi, bosh vrachlik shtati joriy etildi. Shu davrdan boshlab, markaziy shifoxonada terapiya, jarrohlik va yuqumli kasalliklar bo'limi, tug'ruqxona, poliklinika, rentgen xonalari faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur davrda Penza viloyatidan kelgan mutaxassis Yarigin Nikita Yermeevich Vobkent markaziy kasalxonasida bosh shifokor lavozimida faoliyat olib borgan [9].

1950-1980 yillarda Vobkent shahrida tibbiyot tizimi rivojlanib, sog'likni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Ushbu davrda markaziy kasalxona binosi qayta qurilib, uch qavatli tibbiy majmua sifatida shakllantirildi. Shu yillarda shahar markazida, Lenin ko'chasi yo'nalishida, "Selxozsnabjenie" hamda Vobkent paxta punkti oralig'ida alohida Yuqumli kasalliklar shifoxonasi barpo etildi. Ushbu muassasaning qurilishi tasodifiy bo'lmay, mahalliy aholi xotiralariga ko'ra, XX asr o'rtalarida Vobkentda yuqumli kasalliklarning ko'payishi, avvalo shaharning suv ta'minoti bilan bog'liq muammolari natijasida yuzaga kelgan. Xususan, Stalin ko'chasida hududida joylashgan bog' ichida ochiq hovuz mavjud bo'lib, undagi suv oyiga bir marotaba to'ldirib turilgan. Ushbu hovuzdagi suv uzoq vaqt saqlanishi natijasida ifloslanib, aholi suvni to'r-sita orqali sizib, tindirib, so'ngra ichganlar[10]. Bu esa sanitariya-gigiena talablariga javob bermagan holda turli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lgan. Ana shu epidemiologik vaziyat sharoitida infeksiyon kasalliklar shifoxonasining qurilishi shaharning ijtimoiy ehtiyojlariga javob sifatida namoyon bo'ladi.

1920-yillardan boshlab, sovet maorif siyosati doirasida Vobkent shahrida yangi tipdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Eski maktab va madrasalarning faoliyati cheklanib, ularning o'rnida yangi boshlang'ich maktablar, savodxonlik kurslari va o'qituvchilarni tayyorlash tizimi o'z faoliyatini boshladi. 1922 yili



Vobkentda Saidmaxsum oqsoqolning hovlisida arab alifbosida o'qitiladigan bitta sinf ochilishi, 1926 yilda tuman xalq maorifi bo'limining tashkil etilishi ta'lim sohasidagi institutsional o'zgarishlarning dastlabki bosqichi edi [8;88]. 1928 yilda tuman markazida Yusuf nonvoyning hovlisida boshlang'ich maktab tashkil etiladi [8;88]. Vobkentda ta'lim infratuzilmasi, avvalo, shahar markazida joylashgan ikki asosiy umumta'lim maktabi faoliyati orqali shakllangan. 1940 yilga kelib mazkur maktablar 7 yillik to'liqsiz o'rta maktab maqomini olgan [11] bo'lib, bu holat shaharda ta'lim tizimining institutsional jihatdan mustahkamlana boshlaganini ko'rsatadi. Shahar markazida o'zbek va rus tillarida ta'lim beruvchi ikki maktabning barpo etilishi Vobkent aholisining madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, xususan 1-sonli Kirov maktabi va 2-sonli Chkalov nomidagi maktab faoliyat ko'rsatgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Kirov nomidagi 1-sonli maktabi 1938-yilda bunyod etilgan bo'lib, 7 yillik to'liqsiz o'rta maktab sifatida faoliyat yuritgan [12]. Bino 1 qavatli, pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, o'sha davr uchun xos bo'lgan sodda me'moriy yechimlarga ega edi. Sinf xonalarini isitishda dastlab chugun pechlardan foydalanilgan bo'lsa, 1960-yillar o'rtalariga kelib isitish "golland pechlari" orqali amalga oshirilgan [13]. Gaz ta'minoti mavjud bo'lmagan davrlarda mazkur pechlarda asosan ko'mir va o'tin yoqilgan. Mahalliy xotiralarga ko'ra, isitish uchun zarur bo'lgan o'tinlarni o'quvchilar tomonidan olib kelinishi amaliyoti ham mavjud bo'lgan.

1952 yilda Chkalov nomidagi 2-sonli rus tiliga ixtisoslashgan maktabning faoliyatini boshlanishi ta'lim infratuzilmasining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Maktabda barcha fanlarning rus tilida o'qitilishi, shuningdek, asosan rus millatiga mansub o'qituvchilarning jalb etilishi sovet hokimiyatining ruslashtirish siyosati bilan bog'liq edi. Maktab K.Marks (hozirda F.Xo'jaev) nomi bilan atalgan ko'chada joylashgan bo'lib, uning atrofida muhim ma'muriy inshootlar shakllangan. Xususan maktab binosi sud idorasi va nashriyot binosi o'rtasida joylashgan bo'lib, Sud idorasi orqa tomonida Lenin maydoni tashkil qilingan. Maktab orqa tomonida Pochta binosi, o'ng tomoni yo'l yoqasida Harbiy komissariat idorasi barpo etilgani mazkur hududning shahar ma'muriy-siyosiy markazi sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Hozirda Xarbiy komissariat binosida (F.Xo'jaev ko'chasi) Vobkent tuman Davlat arxivi faoliyat ko'rsatmoqda. 1953 yil 16 fevralda maktab huzurida harbiy xizmat yoshidagi yoshlarni tayyorlash uchun maxsus sinf tashkil etilgan bo'lib, mashg'ulotlar har kuni soat 17.00dan 20.00 gacha olib borilgan[14]. Mazkur sinfning faoliyati sovet

davrida ta'lim muassasalari orqali aholini harbiy-siyosiy tayyorgarlikka jalb etish siyosati amalga oshirilganini ko'rsatadi. 1970 yillar oxirida aholi ko'payishi bilan maktab O'bako'kalon ko'chasidagi 1-uyga ko'chiriladi.

Ta'lim muassasalari bilan bir qatorda, ijtimoiy infratuzilmaning muhim bo'g'ini sifatida 1950-yillarda shahar markazida bolalar maktabgacha tarbiya muassasasi ham faoliyat yuritgan. Xususan, u davrda Stalin ko'chasining o'ng tomonida joylashgan, Pioner ko'chasi deb atalgan hududda 1-sonli "Hilola" nomi bilan qayd etilgan bolalar bog'chasi tashkil etilgan [15]. Maktablar va bolalar bog'chasining shahar markazida joylashgani ta'lim muassasalarini ma'muriy va turur-joy hududlari bilan uyg'un holda rivojlantirish tamoyiliga muvofiq kelgan. Bu holat Vobkentda sovet davrida ijtimoiy infratuzilmaning bosqichma-bosqich kengayib borganini, aholini turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan shaharsozlik siyosati amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Vobkent tuman markazi sifatida transport, mexanizatsiya va axborot tarqatish infratuzilmasining shakllanishida muhim o'rin tutgan. 1929 yilda markazda dizel va neft dvigatellari asosida ishlovchi elektr uskunolari o'rnatilib, ma'muriy idoralar va ayrim jamoat binolari elektr yoritishi bilan ta'minlangan [8;84]. Keyingi yillarda elektr ta'minoti tizimi takomillashib, shahar markazida joylashgan tashkilotlar va aholi turar-joylariga elektr energiyasi uzluksiz yetkazib berila boshlandi. 1930-yillar boshlarida tuman markazida birinchi telefon stantsiyasi o'rnatilib, ma'muriy idoralar o'rtasida aloqa yo'lga qo'yildi. 1960-1980 yillar tumanda elektr texnika aloqa bog'lanmasi tashkil etilishi bilan telefon va telegrafdan foydalanish yaxshilanib, tuman bo'yicha telefon nuqtalari soni 800 taga yetdi [8;84]. Bu jarayon shaharning Buxoro vohasidagi mahalliy markaz sifatida shakllanishi va shahar muhitining zamonaviylashuvida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Vobkent va uning atrofidagi qishloqlar aholisi qadim zamonlardan ariq va hovuzlar hamda tosh quduqlardan foydalanib kelganlar. Inqilobga qadar ham Vobkent hududida irrigatsiya tarmoqlari mavjud bo'lib, shahar va uning atrofidagi qishloqlar aholisi asosan Vobkent va Qorako'l daryolaridan qazilgan kanallar orqali suv bilan ta'minlangan. 1954-55 yillardan boshlab yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida 6-8 metr chuqurlikda quduqlar qazilib, ularga nasos (kachalka) o'rnatish amaliyoti keng tarqala boshladi. Natijada aholining katta qismi yer osti suvlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1961 yilda Vobkent shahrida markazlashgan suv ta'minoti tizimiga o'tilgan. Shu yili shaharda umumiy uzunligi 5 km bo'lgan vodoprovod quvuri yotqizilib, aholi ilk

bor markazlashgan vodoprovod suvidan foydalana boshladi [7;91]. Keyingi yillarda ushbu tizim bosqichma-bosqich kengaytirilib, 1980 yilga kelib vodoprovod quvurlarining umumiy uzunligi 18 km ga yetdi.

Vobkent shaharchasining sovet davridagi rivoji, avvalo, eski shahar atrofida shakllangan bufer, ya'ni muhofaza hududlari orqali namoyon bo'ladi. Mazkur hududlarda qurilgan yangi inshootlar shaharning o'rta asrlarga xos ichki tuzilishiga nisbatan funksional jihatdan farq qilib, ma'muriy, ijtimoiy va xo'jalik ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan edi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Vobkent shahri so'nggi o'rta asrlarda Buxoro vohasiga xos bo'lgan an'anaviy shaharsozlik tizimi asosida shakllangan bo'lib, uning ichki fazoviy tuzilishi- guzurlar, madrasa, masjidlar, bozor va minora atrofida jamlangan ma'muriy-ijtimoiy muhit orqali namoyon bo'ladi. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng esa ushbu tarixiy shahar muhiti yangi mafkuraviy, ma'muriy va iqtisodiy siyosat ta'sirida qayta shakllantirildi. Aytish joizki, sovet davri siyosati Vobkent shaharsozligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Ijobiy jihatdan qaraganda, shaharda tibbiyot, ta'lim, maishiy xizmat, transport va sanoat infratuzilmasining shakllanishi aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qildi. Markaziy kasalxona, ambulatoriyalar, maktablar, bolalar bog'chasi, madaniyat uyi kabi ijtimoiy ob'ektlarning barpo etilishi Vobkentning ma'muriy markaz sifatidagi mavqeini mustahkamladi. Biroq salbiy jihatdan, sovet davrida amalga oshirilgan mafkuraviy qayta nomlash siyosati, shaharning tarixiy xotirasiga jiddiy zarar yetkazdi. O'rta asrlardan shakllangan guzar nomlari, mahalliy toponimlar va tarixiy joy nomlari o'rniga sovet mafkurasi bilan bog'liq shaxslar va voqealar nomlari joriy etildi. Bu jarayon shaharning madaniy-tarixiy o'zligini zaiflashtirdi va avlodlar o'rtasidagi xotira uzviyligini susaytirdi. Mustaqillik yillarida Vobkent shahar mahalliy kengash deputatlari yoki hokimiyat tashabbusi bilan ko'plab ko'cha va hudud nomlari qayta ko'rib chiqilib, sovetcha nomlardan voz kechildi. Xususan sovet davrida Lenin deb nomlangan ko'cha, keyinroq Kalinin, mustaqillik yillarida Sattor Yarash, hozirda Al-Buxoriy deb nomlanib kelinmoqda. Biroq mazkur jarayonda ilmiy asoslangan yondashuvning yetishmasligi, tarixiy manbalarga emas, balki ayrim hollarda sub'ektiv takliflarga tayanilgan holda ko'cha nomlari qayta-qayta o'zgartirilgan. Natijada o'rta asrlarda mavjud bo'lgan guzar va mahalla nomlarini tiklash imkoniyati yanada qiyinlashdi. Xususan, Vobkentdagi ko'plab guzarlar nomlari manbalarda qayd etilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning zamonaviy shahar makonidagi aniq

joylashuvini belgilash mushkuldir. Bu holat shahar tarixini ilmiy rekonstruktsiya qilishda, ayniqsa o'rta asr shaharsozlik tizimini tiklashda ma'lum bir noaniqliklar keltirib chiqarmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raev H. Buxoro toponimikasi. Buxoro: "Durdona", 2021. -B.200.
2. Vaxitov M. "Vobkent minorasi tarixi va uning hozirgi texnik holati". Vobkent tarixi: o'tmishdan bugungacha (ilmiy-ommabop to'plam). Buxoro: "Durdona". 2022. -B.79.
3. To'raev H. "Vobkent tumanining manbalarda aks etgan muxtasar tarixi". Vobkent tarixi: o'tmishdan bugungacha (ilmiy-ommabop to'plam). Buxoro: "Durdona". 2022. -B.14.
4. Астанова Г.Ю. Землевладение и аграрные отношения в Западной Бухаре во второй половине XIX - начале XIX в. (по документальным источникам). Диссертация на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Т., 1981. -С.23.
5. Abduvahobova M. Vobkent tumanining ma'muriy-hududiy tuzilishi (XIX-XX asr boshlari). Vobkent tarixi: o'tmishdan bugungacha (ilmiy-ommabop to'plam). Buxoro: "Durdona". 2022. -B.189.
6. O'zMA. 47-jamg'arma, ro'yxat-1, 186-yig'ma jild, 284-bet.
7. Rizaev X. Vobkentnoma. Buxoro: "Buxoro". -B.24.
8. Rizaev H., Olim S., Gadoev K., To'raev H., Olimov M. Vobkent tumani. O'tmishi, buguni, kelajagi. T: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti". 2002. -B 93.
9. Vobkent tuman tibbiyot birlashmasi (Vobkent TTB) joriy arxiv hujjatlari ma'lumoti.
10. Vobkent tuman Madaniyat bo'limi xodimi Abdullaev G'. suhbat ma'lumotlari.
11. Vobkent tuman davlat arxivi. S-5-jamg'arma, 1- ro'yxat, 325-yig'ma jild, 33-varaq.
12. Vobkent tuman davlat arxivi. S-5-jamg'arma, 1- ro'yxat, 327-yig'ma jild, 194-varaq.
13. Vobkent shahar 2-maktabda tahsil olgan Arslanova N.M. (hozirda nafaqaxo'r), 10-maktabda rus tili o'qituvchisi suhbat ma'lumotlari.
14. Vobkent tuman davlat arxivi. S-5-jamg'arma, 1- ro'yxat, 330-yig'ma jild, 12-varaq.
15. Vobkent tuman davlat arxivi. S-5-jamg'arma, 1- ro'yxat, 327-yig'ma jild, 194-varaq.

## TARIX

### RAHMAT MAJIDIY: DAVR VA QISMAT



**Umid  
BEKMUHAMMAD,**  
Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

UO'K 94(575.171)"1900/1924"

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rahmat Majidiyning ijodkor va olim sifatidagi faoliyati u yashagan davr bilan bog'langan holda yoritib beriladi. Majidiyning qatag'on davrdagi qismati alohida tadqiq etiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творчество Рахмата Маджиди как писателя и ученого в контексте эпохи, в которой он жил. Особое внимание уделяется судьбе Маджиди в период репрессий.

**Annotation:** This article examines Rahmat Majidi's work as a writer and scholar in relation to the era in which he lived. Majidi's fate during the period of repression is examined in particular.

**Kalit so'zlar:** Xiva, Toshkent, Moskva, adabiyot, gazeta, Yozuvchilar uyushmasi, qatag'on davri, filologiya, dissertatsiya.

**Ключевые слова:** Хива, Ташкент, Москва, литература, газета, Союз писателей, период репрессий, филология, диссертация.

**Key words:** Khiva, Tashkent, Moscow, literature, newspaper, Writers' Union, period of repression, philology, dissertation.

U "O'zbek sho'ro adabiyoti" jurnaliga bosh muharrir qilib tayinlangan, 1932-yilda endigina 26 yoshga kirgan yigit bo'lsa-da, o'zbek matbuoti, adabiyoti va ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni katta edi. Shu bois uning muharrirlik davrida jurnal tahririyatida o'ziga xos yuksak ijodiy muhit yuzaga keldi. Garchi bu davrda boshqa nashrlar ham O'zbekistonda ko'pchilikni tashkil qilsa-da, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Shokir Sulaymon, Abdurahmon Sa'diy, Miyon Buzruk kabi taniqli ijodkorlar yangi yozgan ijod namunalarini Rahmat Majidiy muharrirlik qilayotgan jurnalda chop ettirishni ma'qul ko'rishardi.

Ha, Rahmat Majidiy tashkilotchi rahbar sifatida shu davrda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan Abdulla Qahhorning "Sarob" romani, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Maqsud Shayxzoda, G'ayraty kabi ijodkorlarning doston va she'rlarini jurnalda nashr etib bordi. Shuningdek,



Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarlari ham aynan Majidiy muharrirlik qilgan davrda jurnalda chop etildi.

“Rahmat Majidiy 1932-35-yillarda jurnalga bosh muharrirlik qilgan bo‘lib, bu qisqa davr ichida nashr nomi 1934-yildan boshlab davr mafkurasi sabab “Sovet adabiyoti” deya o‘zgartirilgan edi. Garchi nom o‘zgargan bo‘lsa-da, Rahmat Majidiy jurnalda yuksak adabiyot namunalarini yoritishga, nashrni ziyolilar va endigina savodini chiqarayotgan omma uchun o‘qimishli qilishga intildi. Shu boisdan ham faqat ijodkorlar orasidagina emas, respublika rahbariyati oldida ham muhim mavqega ega bo‘ldi. Shu xizmatlari tufayli 29 yoshli muharrirning tashkilotchiligini e‘tiborga olib, uni 1934-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi qilib saylashdi” (1).

Biroq oradan ozgina vaqt o‘tib, qatag‘on siyosati Rahmat Majidiyni ham o‘z domiga tortdi va u 1941-yil dekabrda, keyin qamoq uqubatlarini tortib kelishiga qaramay ikkinchi bor 1950-yil iyunida yana “xalq dushmani” sifatida Krasnoyarsk turmasiga hukm qilindi. 6 yillik qamoq azoblarini tortgach esa Oliy Sud tomonidan oqlanib, Xorazmga qaytib keldi. Chunki uning Toshkentdagi uyi musodara qilingan, ishga kirish bo‘yicha murojaatlari ham e‘tiborsiz qoldirilgandi...Shu tariqa ..u..

Shu tariqa o‘z davrida nafaqat Toshkent, balki Moskvaning keng ko‘chalari bo‘ylab mashinada yurgan, Kreml va “Bolshoy teatr” zalidagi minbarlarda nutq so‘zlagan bu inson endilikda chekka vohadagi qishloqda eshak minganicha kolxozda tabelchilik qilar, suhbatdoshlari ham mashhur zotlar emas, oddiygina hamqishloqlari edi. Biroq shunda ham u ko‘nglini cho‘ktirmay, olg‘a intildi va ijod, ilm olamiga qaytdi. Hayot sinovlariga, taqdir zarbalariga dosh bergan bu inson intilishlari sabab 1960-yilda Ogahiy ijodi bo‘yicha nomzodlik ishini ham muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ha, o‘zbek adabiyoti, matbuoti ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan jamoat arbobi Rahmat Majidiyning hayot faoliyati oson kechmagan edi.

“Rahmatjon dastlab Xivadagi eski maktabda, so‘ngra yangi usul maktabida tahsil oladi. 1917-21-yillarda esa Orenburgdagi mashhur “Husayniya” madrasasiga borib o‘qiydi. Ammo davr alg‘ov-dolg‘ovlari tufayli 1921-yil oxirida madrasa tahsilini tashlab Toshkentga keladi va Narimonov nomli maktabda o‘qishini davom ettiradi. 1922-25-yillarda esa O‘rta Osiyo davlat universitetida, 1925-28-yillarda Lomonosov nomli Moskva Davlat universitetida tahsil oladi. Biroq Moskvaning sovuq, nam iqlimi tufayli tuberkulyoz kasaliga chalinadi va akademik ta‘til olib, Xivaga qaytib keladi. Xorazmga kelgach u okrug partiya qo‘mitasida instruktor, Bog‘ot tuman partiya kengashida kotib, “Inqilob quyoshi” gazetasi muharriri sifatida 1930-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi. 1930-31-yillarda Samarqanddagi Oliy Sud kollegiyasida, adliya xalq komissarligining

Samarqanddagi huquqshunoslik bilim yurti direktori, “Lenin yo‘li” gazetasi muharriri bo‘lib ishladi. 1931-32-yillarda “Qizil O‘zbekiston” gazetasi partiya bo‘limi mudiri vazifasida ishladi. Ya’ni, shu davrga xos tarzda bir idoradan boshqa tashkilotga rahbarlik vazifasiga ishga o‘tkazilib turildi. Buning ham boisi Majidiyning rus tilini yaxshi bilishi, tashkilotchiligi va Moskvada tahsil olganligida edi” (2).

Biroq shunchalik turfa xil vazifalarda ishlashiga qaramay, Rahmatjon otasi ta’sirida yoshligidan ilmga, ijodga ixlos qo‘ygani bois bu yillarda “Inqilob quyoshi”, “Bo‘l tayyor”, “Qizil O‘zbekiston” nashrlariga maqolalar yozib, jurnalist sifatida tanila boshladi. 1930-yillar boshidagi adabiy davralarda ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunos sifatida tanildi.

Ammo Rahmat Majidiy zamon da’vatiga ko‘ra kollektivlashtirish, partiyaning, dohiylarning o‘rni kabi mavzularda emas, Navoiy va Ogahiylarning ijodiy merosi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib bordi. “Adabiy tanqid haqida”, “Adabiy harakatchilikni qaytadan qurish yo‘lida” kabi risolalarini nashr ettirdi.

Cho‘lpon, Fitratlar boshqa nashrlarda “yot unsur”, “burjua, jadid adibi” sifatida ayblanib turgan bir paytda ularning she’rlarini, “Kecha va kunduz” romanini jurnalda chop qildirdi.

1934-yil 7-mart kuni boshlangan O‘zbekiston Yozuvchilarining 1-qurultoyi ham aynan Rahmat Majidiy tashkilotchiligida bo‘lib o‘tdi. 12-mart kungi plenumda u yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi etib saylandi. Uyushma endi tashkil topgani bois Majidiy uni ijodiy tashkilotga aylantirish mashaqqatlarini boshdan kechirdi. Shuningdek, Toshkentning Injiqobod mavzesida yozuvchilar uchun dam olish hamda ijod bilan mashg‘ul bo‘ladigan bog‘ tashkil qildi.

...1934-yil 15-avgust. Kreml. Moskvada bo‘lib o‘tayotgan yozuvchilar uyushmasining 1-qurultoyida o‘sha davrning eng mashhur adibi Maksim Gorkiy nutq so‘zladi. Uning izidan o‘zbekistonlik yozuvchilar sardori Rahmat Majidiy ham ma’ruza qildi. Tanaffus paytida har ikkala adib suhbat qurdilar:

“-Sharq, O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki ijodi, folklori g‘oyatda boy meros. Shularga e’tibor qaratmoq, ana shu ruhda asarlar yaratmoq lozim,-deya nasihat qilarkan, Gorkiy so‘zining davomida suhbatdoshidan so‘radi: -O‘rtoq Majidiy! Siz O‘zbekistonning qayeridansiz?

-Xorazmdan, o‘rtoq Gorkiy!

-Tasanno. Abulg‘ozixonning yurtidan ekansiz-da, unda?

-Ha, o‘rtoq Gorkiy. Kechirasiz-u, Abulg‘ozi haqida eshitganmisiz?- so‘radi Majidiy hayratlanib.

-Nimalar deyapsiz?! Men Abulg‘ozi kitobini 40 yil oldin o‘qiganman. Amir Temur haqida ham, Samarqand to‘g‘risida ham asarlar yozganman. Nahot bilmasangiz?”

Ha, nafaqat 1934-yilda, balki bugun ham ko‘pchilik Gorkiyning sharq mavzusiga murojaat qilganini, sohibqiron Amir Temur hazratlari, Samarqand to‘g‘risida asarlar yozganini bilmaydi.

Kremlda o‘tgan anjumandan keyin Rahmat Majidiy va Maksim Gorkiy o‘rtasida Gorkiyning ijodida sharq mavzusida suhbat bo‘lib o‘tdi.

Maksim Gorkiy bolaligidan adabiyotga, ilmga ishtiyoqi favqulodda kuchli edi. Ayniqsa, buvisi ta’sirida Sharq xalqlari ertaklari, “Ming bir kecha” ni 12 yoshidayoq o‘qib chiqqan edi.

1929-yilda “Akademiya” nashriyoti ushbu ertaklarni chop etganida, aynan Gorkiy unga quyidagicha so‘zboshi yozgan edi: “Shahrizoda ertaklari” xalq og‘zaki ijodiyotining eng ajoyib durdonalaridan, asl mahobatli yodgorlikdir. Bu ertaklar ajoyib latofati bilan xalqni shirin xayollarga g‘arq qiladi. Erkin so‘z o‘yinlari orqali sharq xalqlari - arablar, forslar, hindlarning gullayotgan ijodiy xayolining beqiyos kuchini tarannum etadi”.

Bundan tashqari, Gorkiy doimiy ravishda Sharqqa, xususan, folkloriga doir kitoblarni to‘plab, o‘qib-o‘rgangan. Uning shaxsiy kutubxonasidan noyob asarlar qatorida o‘zbek ertak, afsona, matallar to‘plami, Vamberining “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlari ham joy olgan edi.

Gorkiy hayoti davomida Sharq, O‘rta Osiyo mavzusiga murojaat qilib turgan. Jumladan, “Самарская газета”ning 1895-yil 77-sonida “Ziyolilar va raqobat” nomli maqola yozib, unda Umar Xayyom ijodini misol qilib keltirgan.

Bundan tashqari, “Italiya haqida ertaklar” kitobiga o‘zbek folkloriga doir “Samarqand afsonalari”, “Muqanna”, Amir Temur haqidagi asarlar ham kiritilgan. Shuningdek, Gorkiy boshqa maqolalarida ham bevosita Amir Temur shaxsini ibrat namunasi sifatida ko‘p keltirib o‘tadi. Misol uchun, “Yana bir bor karamazovchilik haqida”, “Eski va Yangi haqida” sarlavhali maqolalarida Amir Temur nomini tilga olib o‘tadi.

Maksim Gorkiy o‘z davrining ijtimoiy hayotida kechayotgan jarayonlarni adib sifatida kuzatib, O‘rta Osiyoga ham doimo e’tibor qaratgan. Kuzatishlarini esa matbuotda yoritib borgan. Chunonchi, “Самарская газета” ning 1895-yil 58-sonida e’lon qilingan maqolasida Toshkentdagi bolalar uyi haqida, yana shu nashrning o‘sha yilgi 183-sonidagi maqolasida o‘lkadagi xotin-qizlarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini, ularni ko‘proq ta’lim dargohlariga jalb etish kerakligiga e’tiborini qaratdi.

1935-yil Majidiy yozuvchilar uyushmasi raisligidan bo'shatilib, Moskvaga - Qizil professorlar institutiga o'qishga yuborildi. Bu orada qatag'on siyosati avj oladi. Aynan 1937-yilda Majidiyning Germaniyada o'qib kelib Toshkentda jurnalist bo'lib ishlayotgan qaynsinglisi Maryamxon Sultonmurodova qamoqqa olinadi. Bu paytda Moskvada o'qiyotgan Majidiy "xalq dushmani"ning qarindoshi sifatida o'qishdan haydaladi.

Natijada O'zbekistonga qaytishni xavfli deb bilgan Majidiy Moskvadagi fabrikalardan biridagi kechki maktabda o'qituvchi, o'quv bo'limi mudiri bo'lib ishlaydi. 1940-yili Moskvaga borganida respublika rahbari Usmon Yusupov Majidiy bilan uchrashib, Toshkentga qaytib kelib ishlash, uy-joy bilan ta'minlashga va'da beradi. Shu tariqa Majidiy Toshkentga keladi va tarix, til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyatini boshlaydi.

"Afsuski Toshkentdagi ilmiy faoliyati atigi bir yildan ziyod davom etadi. 1941-yilning 16 dekabrda til, adabiyot instituti sho'ba mudiri Rahmat Majidiy O'ZSSR JKning 66-2,67-moddalari bilan ayblanib qamoqqa olinadi. 1941-yilning 17-dekabrda tasdiqlangan order asosida u yashab turgan Toshkent shahar Chaykovskiy ko'chasi 18-uyda tintuv o'tkaziladi. Shu kuni to'ldirilgan shaxsiy anketasida oilasida turmush o'rtog'i Gulchehra Sultonova (1910-yil tug'ilgan), qizlari Oydin (1930-yil tug'ilgan), Shirin (1932-yil tug'ilgan) va Bo'ston (1934-yil tug'ilgan)dan iborat deya ko'rsatilgan" (3).

Aynan ikkinchi jahon urushi bo'lib turgan vaziyatda "xalq dushmani" sifatida ayblanishiga sabab uning "1920-yillarda ta'qibga olishsa hech bo'lmasa oila a'zolaringga indashmas edilar, hozirda butun oilang bilan jazolanasan", "Stalinga va partiyaga ko'rlarcha sadoqat to'g'ri emas", "Cho'lpon va Qodiriylar haqiqiy milliy qahramonlarimiz edi" kabi gaplarni so'zlagani NKVD ga yetkazilib turilganida bo'lgan.

Natijada Majidiy 1941-yil 18,31-dekabr, 1942- yilning 8,19,22-mart kunlari yarim tunda - soat 02 dan keyin o'tkazilgan tergovlarda azobu uqubat bilan tergov qilinadi. Undan tergovchilar Abdulla Qodiriy, Otajon Hoshimiy, Vais Rahimiy, Mo'min Usmon, Anqaboy, Abdulhay Tojiyev, Usmonxon Eshonxo'jayevlar bilan bo'lgan munosabati haqida so'rab-surishtirishadi. Vaholanki bu insonlar 1937-yildayoq qatag'on qilingan edi.

Shu tariqa 1943-yilning 17-iyulida o'tkazilgan sud uni 8 yil Mehnat tuzatuv lageriga hukm qiladi. Hukm muddatini Majidiy oldiniga Tagillagda, keyin Andijonning Izboskan tumanidagi maxfiy lagerda o'taydi. 1949-yilning 18- dekabrda u qamoqdan ozod qilingach, Toshkent yoki tug'ilib o'sgan Xiva shaharlariga emas, Urganch tumanidagi Chandirqiyot qishlog'iga borib

yashashga majbur bo‘ladi. Negaki, uning Toshkentdagi uyi musodara qilingan, xotini esa Chandirqiyotdagi ota uyiga ketishga majbur bo‘lgan edi.

Shu taxlit Majidiy Urganchdagi Chandirqiyot qishlog‘iga borib, xotini Gulchehraning uyida yashadilar, kolxozchi, tabelchi bo‘lib ishlab, ro‘zg‘orini tebratdi. Eshak mindi, o‘t o‘rdi, mollarini boqdi. Shunda ham ilmga qaytish yo‘llarini izladi. Biroq u o‘zi bir paytlar muharrirlik qilgan “Inqilob quyoshi”(“Xorazm haqiqati”) gazetasidagi tanishlaridan ish so‘rab murojaat qilganida e‘tiborsiz kutib olindi va “ish yo‘q” javobi bilan “siylandi”. Qaytangga uning nadomat bilan aytgan gap-so‘zlari NKVDga yetkazib turildi va 1950-yilning 22-iyunida uni ikkinchi bor “xalq dushmani” deya qamashdi. Xotini Gulchehraga qiyin bo‘ldi. Chunki uning 1922-28-yillarda Germaniyada o‘qigan opasi Maryam Sultonmurodova, qaynog‘asi Abdulla Majidovlar ham Stalin lagerlarida azob chekishayotgan edi. Shunday og‘ir damlarda u onasi Durjon momo bilan farzandlarini tarbiyaladi.

Achinarlisi, u qamoqqa olinganidan 5 kun o‘tib -1950-yilning 27-iyunida Urganch turmasida o‘tkazilgan ko‘rikda Majidiy o‘pka tuberkulyozi bilan og‘riganligi qayd etilgandi. Biroq shunga qaramay, 23-sentabrda Davlat Xavfsizligi vazirligi qoshidagi yig‘in uni Krasnoyarsk o‘lkasiga badarg‘a qiladi. Eng dahshatlisi bu galgi ikkinchi qamoq muddati, jinoyatlarining isboti ham ko‘rsatilmagan edi.

Stalinning vafotidan keyin u orzu-umidlar bilan 1954-yilning 22-martida muddatni o‘tayotgan Krasnoyarskning Aban tumani Ustyan sovxozidan SSSR bosh prokuroriga ariza bilan murojaat qiladi.

Majidiy o‘z arizasida, 1941-yili aksilinqilobiy targ‘ibotda noto‘g‘ri ayblangani, 13 kun davomida dahshatli qiynoqlarga chidab, hech bir qog‘ozga imzo chekmasdan shaxsan narkomning o‘zi bilan uchrashtirishlarini talab qilgani, natijada NKVD rahbari A.Qobulov kelib uni asossiz “xalq dushmani” deb atagani, so‘ngra to‘rt kishi bo‘lib tahqirlashganidan shikoyat qiladi. Bu gal uning shikoyati ko‘rib chiqilib, 1956-yilning 13-aprelidagi O‘ZSSR Oliy sudi tomonidan oqlanadi.

“Majidiy oqlangach, yana Chondirqiyotga - rafiqasi Gulchehra, farzandlari Oydin, Bo‘ston va Shirinoylarning yoniga qaytdi. Qishloq maktabida adabiyot, tarix fanlaridan o‘quvchilarga saboq berdi. Keyin Urganch shahridagi bolalar kutubxonasida ishladi. Ko‘p o‘tmay, Majidiy Hamid Sulaymonovdek alloma, sodiq do‘stining taklifiga ko‘ra, Toshkentga ketdi. Yana Til va adabiyot institutida ishlay boshladi. 1960-yili Ogahiyning “Ta‘viz ul-oshiqin” devonini nashr ettirdi. Bir yildan so‘ng esa 1930-yillarda boshlab qo‘ygan “Ogahiy lirikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shuningdek, “O‘zbek she‘riyati antologiyasi”ni, Navoiyning ko‘p jildlik asarlarini nashrga tayyorlashda



qatnashdi. “O‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li”, “Ogahiy lirikasi”, “Iste’dod va burch” kitoblarini, “Navoiy va Xorazm adabiy muhiti” tadqiqotini chop ettirdi” (4).

Agar Majidiy qatag‘on davri jabrini chekib, 14 yil qamoq azobini tortmaganida, xastalikka chalinmaganida yana ko‘plab ilmiy tadqiqotlar qilishi mumkin edi. Uning ayni navqiron payti Stalin davriga to‘g‘ri keldi va “xalq dushmani” sifatida ayblanib, qamoqxonalarda yotdi. Sog‘lig‘ini yo‘qotdi. 1983-yilning dekabrda kasalligi bois Toshkentda vafot etdi.

“Inqilob quyoshi”, “Lenin yo‘li”(hozirgi “Zarafshon”), “O‘zbekiston sho‘ro adabiyoti”(“Sharq yulduzi”) jurnallarining bosh muharriri, Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi bo‘lgan Rahmat Majidiyning 77 yillik hayoti shunday yakun topdi. Biroq u shunday zahmatli hayot kechirganiga qaramay, o‘zidan boy meros qoldira oldi.

Mening nazarimda, hozirgi islohotlar davrida ajdodlarimiz hayoti, merosiga e’tibor kuchaygan davrda Rahmat Majidiyning asarlarini qayta nashr etish, u yashab faoliyat ko‘rsatgan Xiva, Urganch yoki Toshkent shaharlaridagi mahalla, ko‘cha nomlarini uning nomi bilan atamoq lozim. Zero, Rahmat Majidiyning o‘zbek matbuoti, fani va adabiyotida o‘ziga xos o‘rni va mavqei bor hamda u eslashga, nomini abadiylashtirishga loyiq ijodkordir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Bekmuhammad. “Rahmat Majidiy:shodliku g‘amga to‘la umr”, “Sharq yulduzi” jurnali, 2021-yil, 10-son.
2. B.Irzayev, Yu.Rahmonova. “Xorazm viloyati. Xotira kitobi”, “Akademnashr”, Toshkent. 2018-yil.
3. B.Irzayev, Yu.Rahmonova. “Xorazm viloyati. Xotira kitobi”, “Akademnashr”, Toshkent. 2018-yil.
4. U.Bekmuhammad. “Xorazm va xorazmliklar”. Buxoro. “Durdona” nashriyoti, 2022-yil.

**TARIX****SOVETLARNING XORAZMDA ZO‘RLIK BILAN O‘TKAZGAN QULOQLARNI SURGUN QILISH JARAYONI**

**Rahimov Rahimboy,**  
Urganch innovatsion  
universiteti magistranti

**UO‘K 907.31**

**Annotatsiya:** Maqolada sovetlarning Xorazm qishloqlaridagi boy, o‘rtahol tabaqalarning yer-mulklarining majburiy tortib olinishi va ushbu siyosatga qarshi joylardagi norozilik chiqishlari, g‘alayonlari, uning sabablari tahlil etiladi.

**Аннотация:** В статье анализируются причины насильственного захвата зажиточного среднего класса в хорезмских селах Советов, протесты, беспорядки и причины протеста против этой политики.

**Annotation:** The article analyzes the reasons for the forced seizure of wealthy middle classes in the Khorezm villages of the Soviets, and the protests, riots, and the causes of the protest against this policy.

**Kalit so‘zlar:** Dekret, yer komissiyasi, boy mulkdor, o‘rtahol, quloq, qishloqlardagi g‘alayonlar, surgun.

**Ключевые слова:** Декрет, землевладельцы, богатые хозяева, средний класс, изгнанники, беспорядки в деревнях.

**Key words:** Ordinance, land owners, wealthy owner, middle class, exile, riots in the villages.

1929-yildan Sovet davlatida boshlangan ommaviy kollektivlashtirish va u bilan bog‘liq holdagi quloqlashtirish siyosati davomida yeri, mulki, chorvasini topshirishni istamagan ko‘plab boy, mulkdorlar bilan birga o‘rtahol dehqonlar ham siyosatga qarshi quloq deya jazoga tortildi. Natijada maxsus reja asosida o‘tkazilayotgan quloqlashtirish siyosati qishloqlardagi ahvolni taranglashtirib, vaziyatni izdan chiqardi. Chunki, kollektivlashtirish, quloqlashtirishga oid markazdan kelgan qaror va direktivalar voqelikdan uzoq bo‘lib, sharoitni anglamaganlikdan, yuz berayotgan jarayondan to‘g‘ri xulosa chiqarmaganlikdan edi.

Qolaversa, asrlar davomida yer-mulkka ega bo‘lib kelgan boylargina emas, o‘rtahollar ham yeri, chorvasi, mulkini asrab qolish uchun qishloqlarda quloqlashtirish siyosatiga qarshi chiqdilar.

Xususan, 1930-yil 1-15-fevral kunlari davomida O‘rta Osiyoning turli joylarida 12 ta kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosatiga qarshi chiqishlar bo‘lib o‘tdi. Jumladan, shu kunlari Xorazmda ham g‘alayonlar sodir etilgan va

unda 100 kishi ishtirok etgan. O'sha davrdagi partiya va huquq-tartibot organlari bunday chiqishlarni terrorchilik deb baholashgan edi.

Ana shunday chiqishlar bora-bora ko'payib, "1930-yilning yanvar oxiri va fevral oyi boshlarida Xorazmning Xonqa tumani Sarapoyon, Urganchning Chondirqiyot qishloqlarida yuz berib, g'alayonchilar "Yo'qolsin kolxozlar", "Sovet hokimiyati kooperativ va kolxozlar tashkil etmaslik haqida tilxat bersin", "Eski usuldagi maktablar tiklansin" degan talablarni ilgari surishgan. Shuningdek, o'sha yilning 10-mart kuni Xiva, Yangiariq va Gurlan tumanlarida ham ommaviy chiqishlar yuz beradi. Eng chekka okrug bo'lgan Xorazmda esa 25-fevralda 3 ta isyon bo'lib, undagi g'alayonchilar soni 550 kishini tashkil etgan, 17-martgacha bo'lsa yana 5 ta g'alayon sodir bo'lib, unda 2900 kishi ishtirok etgan". (RISTTDA, 62-fond, 2-ro'yxat, 2141- ish, 125-127- betlar).

Bundan tashqari, "1930-yil 31-yanvar kuni Yangi Urganch tumani Chondirqiyot qishlog'ida isyon ko'targan olomon kollektivlashtirish siyosatini olib borayotgan sovet faollarini kaltaklagan. Fevral oyi boshlarida Xonqa tumani Sarapoyon qishlog'ida bolta, tayoqlar bilan qurollangan 300 kishilik ayollar olomoni, hamda yana shu oy davomida Urganch tumanidagi Ali Do'rmon qishlog'ida eshonlar tomonidan, aynan ayollar orasida kollektivlashtirish va quloqlashtirishga qarshi targ'ibot ishlari olib boriladi". (RISTTDA, 62-fond, 2 - ro'yxat, 2140-ish, 27-28-betlar).

Ana shu voqealardan so'ng joylarda "Uchlik" yuqoridagi ko'rsatmalarni bajarib, ko'plab insonlarning taqdirlariga salbiy ta'sir etgan "quloq" tamg'asini bosdi va ularga jazo choralari belgiladi. Xususan, 1931-yil 16-17-oktabr kunlari Yangi Urganch shahrida "Uchlik" ning sayyor yig'ilishi o'tkazildi. "Uchlik" tarkibi Yevdokimov ( rais), Boltayev, Davidov(a'zo), Abdurahmonov ( prokuror) dan iborat edi.

16-oktabrda o'tgan o'sha tarkibdagi "Uchlik" yig'ilishida Xiva, Urganch, Hazorasp tumanlari bo'yicha ishlar ko'rilib, Xivadan 17 nafar yeri, mulkini kolxozga topshirishni istamagan kishi otuvga hukm etiladi. Ulardan tashqari yana "Uchlik" ning o'sha qarori bo'yicha Xorazmning boshqa tumanlarida yashovchi mulkdorlar ham otuvga hukm qilingan.

Xususan, "Urganch tumanidan Xudoybergan Odilov, Qurbonboy Sattorov, Quramboy qozi, Ollambergan Rahmatullayev, Hazorasp tumanidan Yarash Nazarboyev, Ayna Omonov, Rahim O'ldaboyev, Ro'zi Eshniyozov, Nazarboy Obidniyozov, Ashir Xudoyberganov, Shovot tumanidan Masharip Qalandarov, Matyoqub Qalandarov, Abdalxo'ja Toirov, Ahmadeshon Qoraxonov, Abdurahmon Axmatov, Sulton Yurtmasov, Mulla Ko'chay (75 yoshda), Xudoybergan Yusupmash (69 yoshda), Abduraim Haydarov (55 yoshda),

Berdiyev Oqnazar, Nurmon yuzboshi Vaisov (85 yoshda), Abdulla Yusup, Rajab Yusupov, Mulla Roʻzmat Xudoyberganov (60 yoshda), Matniyoz Avezov (45 yoshda), Xudoybergan Tangriberdiyevlar otuvga hukm qilingan.

Shovot tumani boʻyicha esa 55 kishining ishi koʻrilib, bundan 16 kishi otuvga, qolganlari 3,5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Oʻz yer-suvini, mulkini topshirishni istamagan boshqa yana koʻp insonlar taqdiri ham sovetlar siyosatiga qarshi degan ayb bilan “Uchlik”ning yigʻilishlarida hal etilgan.

Jumladan, “Uchlik”ning 1931-yil 11-noyabrda qarori bilan urganchlik Qutligeldi Atosh Bobomurod Masharipov, Qoʻshkumboy Tuxumbetov, Yoqub Bobojonov kabi jami 37 kishi Xorazm hududida yashashdan mahrum etiladi. Shu bilan birga, oʻz yeri, mulkini kolxozga topshirib aʼzo boʻlgan, ammo ijtimoiy kelib chiqishi boy mulkdor, savdogar boʻlgan kishilarni aniqlash, ularga chora koʻrish boʻyicha ham tozalash harakati davom ettiriladi. Xususan, “Gurlan tumanidagi Marboʻgat qishloq soveti raisi Safarboy Polvonov, Gorkiy nomli kolxoz aʼzosi Nasriddin Qosimov, Xalturin nomli kolxoz raisi Ibodulla Hasanovlar yot unsur, ilgari boy avlodidan boʻlganini yashirgan degan ayb bilan qamoqqa olinadi. Shu tumanning “Maorifchi” kolxoziga partbilet soyasida 5 ta yot unsur: boshliq-raisi Boy Bekmonov Xudoybergan, Kamolov Madamin imomoʻgʻli, Avazniyoz Xolniyozovlar quloqlar bilan aloqada, ularni kolxozga tortgan, gruppaga tuzgan deya hibsga olinadi”.

Shu kabi Xiva tumani Shomoxulum qishlogʻilik Latif Sharipov otasining oxun ekanini yashirib sovet maktabida ishlayotgani, Sharipova Lolaxon otasi savdogar boʻlganini yashirib partiya kirgani uchun ijroqoʻmdagi ishidan boʻshatilib, quloqlar roʻyxatiga kiritiladi.

“1931-yilning oʻzidagina tozalash tadbirlari oʻtkazilishi vaqtida 66 kishi qishloq soveti raisligidan yot unsurligi, ishni yaxshi tashkil etmagani bois boʻshatilgan”.

Agar oʻsha davrda nashr etilgan gazetalarga eʼtiborni qaratadigan boʻlsak, aksariyat hollarda quloqlarga qarshi, ularni fosh etib yozilgan maqolalarni uchratish mumkin. Masalan: “1930-yil okrugda yot unsurlardan 111 kishi, xotin-qizlar ozodligiga qarshi boʻlganlardan 21 kishi, kolxoz ustavini buzganlar 19 nafar, diniy ishlarga berilganlar 15, partiya topshirigʻidan bosh tortganlar, majlislarga qasddan kelmaganlardan 41, partiyada boʻlib sudxoʻrlik qilganlardan 3, guruhbozlik, toʻrachilik va millatchilik qilganlardan 7 kishi, jami 274 kishi partiyadan oʻchirildi” (“Inqilob quyoshi” gazetasi, 1930-yil, 12-fevral).

1930-yillar matbuoti shu tariqa sovet davlatining hozirjavob nashri darajasiga chiqib, oʻtkazilayotgan kollektivlashtirish va u bilan bogʻliq quloqlashtirish siyosatini yoritib borgan hamda yuqoridagi va shu singari chiqishlarida quloqlarni “mushtumzoʻr” deya taʼriflagan. Sovet davlati esa shu va

shu singari quloqlarni badarg'a etishning maxsus rejasiga ko'ra surgun qilish jarayonini boshlab yuborgandi. Xususan, 1932-yilga kelib, yoppasiga boshqa hududlarda ham quloqlashtirishni boshlab yuborildi. Bu borada 1932-yil 10-aprelda VKP(b) MK siyosiy byurosining maxsus ko'chiriluvchilar komissiyasi majlisida "Quloqlarni surgun qilish haqida"gi masala ko'rib chiqildi.

Shu ma'lumotda "Xorazmdagi Xonqa tumanida 1932-yil 97 quloq xo'jaligi bo'lib, undagi mehnatga yaroqli erkaklar soni 148 kishini tashkil etishi, Mang'it tumanida bo'lsa 105 ta quloq deb topilgan mehnatga yaroqli erkak borligi, Shovotda 267 ta quloq deb topilgan erkaklar mavjud ekanligi, Hazoraspda bu miqdor 46 kishini tashkil etishi aks etgan. Yana shu ma'lumotda adliya xalq komissarligi yo'li bilan qamoqqa olinib tergov berayotganlar va 3 yildan oshmagan qamoq jazosi olganlar ham keltirib o'tiladi. Shunga ko'ra, Mang'it tumanida 7 ta, Hazorasp tumanida bo'lsa 13 kishi ana shunday jazoga tortilgani to'g'risida fakt mavjud".

Tumanlar misolida oladigan bo'lsak, Xivada 16031 xo'jalik, Mang'itda 5220 xonadon, Gurlanda 6861 xo'jalik, Hazoraspda 8599, Xiva(shahri)da 11653, Yangi Urganchda 9228, Shovotda 6868 xo'jalik bo'lib, Xorazm bo'yicha jami 89460 xonadon kolxozlarga a'zo bo'lib kirgan edi.

Bu vaqtga kelib 1932-yilda quloq sifatida surgun qilinishi kerak bo'lganlar ro'yxati oldindan tayyorlanib qo'yilgandi. Shunga ko'ra Xivadan 160, Mang'itdan 60, Gurlandan 95, Hazoraspdan 100, Xiva(shahri)dan 100, Yangi Urganch tumanidan 85, Shovotdan 80 xo'jalik, Xorazm bo'yicha esa 680 xo'jalik quloq sifatida surgun qilinishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, 1932-yil 1-aprelda hibsga olingan quloq xo'jaliklari soni ham yuqoridagi arxiv ma'lumotlarida keltirib o'tilgan. Shunga ko'ra, Xivada 238, Mang'itda 120, Gurlanda 145, Hazoraspda 132, Xiva (shahri)da 192, Yangi Urganch tumanida 193, Shovotda 140, Xorazm oblasti bo'yicha jami 1160 kishi o'sha kuni quloq sifatida hibsga olingan.

Shu tariqa yeri, mol-mulkini kolxozlarga topshirishni istamagan nafaqat boy, balki o'rtahol dehqonlar ham sovet davlatining olib borgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish siyosati davrida hibsga olindi hamda o'z yashash joylaridan boshqa hududlarga surgun qilindi. Bu sovetlarning zo'rlik bilan o'tkazgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish siyosatining naqadar fojiali kechganligini ko'rsatadi.



**FOYDALANILGAN ARXIV MANBALARI VA ADABIYOTLAR:**

1. RISTTDA, 62-fond, 2- po‘yxat, 2141-ish, 125-127-betlar.
2. RFXXMA, 2-fond, 8-ro‘yxat, 3-ish, 181-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi, 58-fond, 8-ro‘yxat, 292-ish, 1-bet.
4. Xorazm viloyat Davlat arxivi, 2-fond, 14- ish, 103-bet.
5. К.Берегин. “Практика перевыборов Советов и основные задачи партии”. Ургенч, 1931г.
6. “Inqilob quyoshi” gazetasi, 1930-yil, 12-fevral.
7. R.Shamsutdinov. “Qishloq fojiasi” monografiyasi, “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2003yil.

## TARIX

### QURBON BEREGINNING KOLLEKTIVLASHTIRISH ARAFASIDAGI JARAYON AKS ETTIRILGAN ASARI



**Habib Raximov,**  
Urganch innovatsion  
universiteti magistranti

**UO‘K 94(575.171)**

**Annotatsiya:** Maqolada sovetlarning Xorazm qishloqlarida kollektivlashtirish siyosatini o‘tkazishdan oldingi davr to‘g‘risidagi ma‘lumotlar berilgan. Bunda o‘sha davrdagi jamoat arbobi va jurnalist Q.Bereginning “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” asari asosidagi faktlar keltirib o‘tiladi.

**Аннотация:** В статье приводятся сведения о досоветской эпохе коллективизации в сельской местности. Это основано на фактах известного тогда общественного деятеля и журналиста К.Берегина «Результаты ликвидации неработающих хозяйств в Хорезмской области».

**Annotation:** The article provides information about the pre-Soviet era of collectivization in rural areas. This is based on the facts of the famous public figure and journalist K.Beregin “The results of liquidation of non-labor farms in Khorezm region”.

**Kalit so‘zlar:** Q.Beregin, dekret, yer komissiyasi, boy mulkdor, o‘rtahol, tanob, juvoz, chig‘ir, surgun.

**Ключевые слова:** В. Берегин, указы, земельные комиссары, богатые помещики, посредники, танобы, джувоз, чигир, изгнание.

**Key words:** K. Beregin, decrees, land commission, wealthy landlords, middleman, tanobs, juvoz, chigir, exiles.

1928-yil 2-dekabrda O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz yerdan foydalanishni tugatish” bo‘yicha dekretni qabul qildi. “Dekretga ko‘ra, Xorazm okrugida yollanma mehnatdan foydalanuvchi 20 gektar ekin yoki 40 gektar chorva yeri bor xo‘jaliklar, xon xonadoni avlodlariga, yirik sudxo‘r, dindor va 3-razryaddan ko‘p patentga ega bo‘lgan savdo va sanoat xodimlariga qarashli yerlar, qishloq xo‘jalik asbob- uskunolari, hayvonlari va boshqa mulklari birinchi navbatda tortib olinadigan bo‘ldi”. (“Inqilob quyoshi “gazetasi, 1929-yil, 8-dekabr).

Bu siyosatni keng ommaga targ‘ib etish, xalqni vaziyat bilan tanishtirib borish va uning ongiga bu jarayonning xalqchilligini, to‘g‘ri tanlangan yo‘l ekanligini ta’kidlash maqsadida matbuotdan foydalanildi. Shu maqsadda

partiya, davlat qarorlari matbuotda chop etilibgina qolmasdan, olib borilayotgan siyosiy jarayon to'g'risida "Pravda", "Qizil O'zbekiston", "Inqilob quyoshi" kabi markaziy va mahalliy nashrlarda maqolalar, axborotlar berib borildi.

O'sha davrda axborot va ma'lumot sifatida chop etilgan maqolalar esa vaqt o'tib, shu paytdagi vaziyatni o'rganishda tadqiqotchi uchun suyanadigan muhim manbaga aylandi.

Masalan, o'sha vaqtlarda Respublika markaziy ijroiya komitetining raisi bo'lib ishlagan Y.Oxunboboyevning 1929-yil 3-oktabrdagi O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 2-sessiyasida so'zlagan "Paxta problemi haqida", 1935-yil 16-noyabrda O'zbekiston zarbdor kolxozchilarning 2-qurultoyida so'zlagan "Paxtadan yuqori hosil olish uchun kurashaylik" nomli nutqlarida yoki "Xorazmning texnika va iqtisodiy qaytadan qurilishi uchun yordam beraylik" (Y.Oxunboboyev, "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1931-yil 16-avgust) sarlavhali maqolasida ham kolxozlar tashkil etilgani ulug'lanib, quloqlar qoralanadi, paxta ekish targ'ib etiladi.

Shuningdek, yana bevosita ana shu davrning o'zida, o'sha vaqtdagi vaziyat haqida batafsil ma'lumot beruvchi Qurbon Bereginning "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari" (Q.Beregin, Samarqand-Toshkent, 1930-yil), "Savod uchun kurash" (Q.Beregin, Toshkent, 1931-yil) va "Maktab burilishda" (Q.Beregin, Toshkent, 1933-yil) nomli asarlari yaratildi.

Shu asarlar ichida XX asrning 20-30-yillarida, nafaqat Xorazm, balki O'zbekiston miqyosidagi jamoat arbobi, jurnalist, muharrir, noshir va tashkilotchi shaxs sifatida tanilgan inson xivalik Qurbon Beregin (1904-1938)ning "Xorazm okrugida mehnatsiz xo'jaliklarni tugatish yakunlari" (Q.Beregin, Samarqand-Toshkent, "O'zdavnashr", 1930-yil) asari alohida ajralib turadi.

Uning asl ismi-sharifi Qurbon Ollaberganov bo'lib, o'z davri matbuotida va ijtimoiy siyosiy faoliyatida Qurbon Beregin sifatida tanilgan edi. Uning 1935-yil 22-oktabrda Toshkentda o'z qo'li bilan yozgan rus tilidagi tarjimayi holida 1904-yilning dekabrda Xiva shahrida kambag'al hunarmand oilasida tug'ilgani yozilgan. Qurbon Beregin 1912-13-yildan boshlab Xivadagi eski maktabda, 1917-yildan esa madrasada tahsil oladi. 1921-yilda Qozon shahridagi harbiy siyosiy maktabda tahsil oladi. Qisqa muddatli kursda o'qib kelgach, Xivadagi yoshlar tashkilotida umumiy bo'lim mudiri bo'lib ishlaydi. O'zi singari kambag'al bolalarni maktablarga jalb etish, iqtidorli yoshlarni esa Moskva, Qozon, Boku, Toshkent shaharlariga o'qishga yuborishga boshchilik qiladi. Shu bilan birga 1922-yilda o'zi ham Moskvadagi sharq mehnatkashlari universitetida tahsil olib qaytadi. Tahsilni qisqa muddatda tamomlab kelgach, Xivaga kelib yoshlar tashkilotida siyosiy-

oqartuv bo‘limi mudiri bo‘lib ishlaydi.1923-24-yillarda Toshhovuz shahrida yoshlar tashkilotini tashkil etishga bosh bo‘ladi.1925-yilga kelib o‘z davrining fidoyi jamoatchisi sifatida tanilgan Qurbon Ollaberganov Xorazm okrug (viloyat) yoshlar tashkilotining mas‘ul kotibi etib tayinlanadi va volost(tuman)larda yoshlar tashkilotini tuzish, umuman shu davrning mafkurasini xalqqa singdirish, savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etishga bosh bo‘ladi.Ana shu yillarda u matbuotda maqolalar yozib,Qurbon Beregin taxallusi bilan keng taniladi.Shu tariqa iqtidorli jurnalist sifatida ham tanilgan Qurbonni 1927-yil fevralida “Inqilob quyoshi” (hozirgi “Xorazm haqiqati”) gazetasiga bosh muharrir qilib tayinlashadi.

Ma‘lumki, 1929-yildan sobiq ittifoqdagi qishloqlarda ommaviy ravishda majburiy tarzda kolxozlar tashkil etish siyosati boshlab yuborildi.Ana shu yillarda Q.Beregin Gurlan tumanida yer-suv islohotini o‘tkazuvchi komissiya raisi sifatida ham faoliyat ko‘rsatdi.Ayni paytda okrug(viloyat)dagi jarayonni kuzatib va ana shu kompaniya tashkilotchisi sifatida “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari” (T., 1930) nomli kitobi ham nashr etildi.

Qurbon Bereginning yuqoridagi asarida o‘sha davrdagi vaziyat yoritib o‘tilgan. Undagi ma‘lumotlarga ko‘ra, “1928-yilning o‘zida okrug bo‘yicha tugatilgan xo‘jaliklar soni – sobiq xon amaldorlari, to‘ralar 200, ruhoniylar 52, savdogarlar 141, sudxo‘rlar 13, jami tugatilgan mulkdor xonadonlar 532 tani tashkil qilgan. Shulardan 899273 tanob yer tortib olingan. Shuningdek, 220 ot, 80 tuya, 229 ho‘kiz, jami 605 ish hayvoni, 202 arava, 1040 ta kunda, poza, o‘roq, ketmon, belkurak, yana 404 chig‘ir, 2 mashina dvigateli, 1 nasos, 36 moy juvozlari, 13 guruch juvozi, 80 tegirmon,246 ta turar joylar tortib olinib, musodara qilinadi” (Q.Beregin, “Xorazm okrugida mehnatsiz xo‘jaliklarni tugatish yakunlari”,Samarqand-Toshkent, 1930-yil, 44-bet). Ana shu badavlat xonadonlarning 16 tasida Xorazmdan boshqa okrugda ham yeri bo‘lib,bu yer miqdori 512 tanobni tashkil qilgan.Shu kabi o‘zi xivalik bo‘lib,boshqa rayonlarda ham yeri bo‘lgan yana 43 badavlat xonadonning 691,25 tanob yeri bo‘lgan.Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan dekretga asosan, “Tugatilgan xo‘jaliklardan qishloq aholisiga ta’sir qiluvchi zararli deb 18 boy, 14 sobiq xon xonadoniga qarashli to‘ralar, 10 ruhoniylar, 8 savdogar, 4 sudxo‘r, jami 55 kishi rayon yer komissiyalari tomonidan zararli deb topilib, okrug doirasidan surgun qilindi” (Q.Beregin, O‘sha kitob, 45-bet).

Qurbon Bereginning ushbu asari o‘sha ziddiyatli davrdagi haqqoniy vaziyatni o‘rganish uchun arxiv manbalari, shu davr kishilarining xotiralari kabi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Garchi yuqorida ta’kidlangan



Y.Oxunboboyevning soʻzlagan nutqi, yozgan asarlari, matbuotdagi maqola va axborotlari, Q.Bereginning kitoblari shoʻro davri mafkurasi nuqtai nazaridan yoritilgan boʻlsa-da, undagi fakt va fikrlar tariximizni bugungi kunda xolis, qiyosiy tahlil etishda qimmatli maʼlumot beruvchi manba sifatida alohida ajralib turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Xorazm okrugida yirik mehnatsiz yerdan foydalanishni tugatish” haqidagi dekret, “Inqilob quyoshi” gazetasi, 1929-yil, 8-dekabr.
2. Y.Oxunboboyev. “Xorazmning texnika va iqtisodiy qaytadan qurilishi uchun yordam beraylik”. “Qizil Oʻzbekiston” gazetasi, 1931-yil, 16-avgust.
3. Q.Beregin. “Xorazm okrugida mehnatsiz xoʻjaliklarni tugatish yakunlari”. Toshkent, 1930-yil.



## TARIX

### YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH MASALALARI



**Nurullayeva Kuvonch -**  
Urganch innovatsion  
universiteti o‘qituvchisi



**Abdolnizyazova Nilufar,**  
Urganch innovatsion  
universiteti magistranti

**UO‘K 342.7.305**

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan gender tenglikni ta’minlash, ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlash, oila institutini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida qabul qilingan farmon va qonunlar yoritiladi.

**Аннотация:** В статье анализируется государственная политика и меры, принимаемые в Республике Узбекистан для поддержки женщин, защиты их социальных, экономических, правовых и духовных интересов. Также рассматриваются указы и законы, принятые главой государства Шавкатом Мирзиёевым для обеспечения гендерного равенства, укрепления положения женщин в обществе и государственном управлении, развития института семьи и расширения международного сотрудничества.

**Annotation:** The article analyzes the state policy and measures taken to support women in the Republic of Uzbekistan, protect their social, economic, legal and spiritual interests. It also covers the decrees and laws adopted by the Head of State Shavkat Mirziyoyev to ensure gender equality, strengthen the position of women in society and state administration, develop the institution of the family, and expand international cooperation.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, xotin-qizlar, huquqlarni himoya qilish, gender tenglik, oila, jamiyat, ijtimoiy siyosat, farmon, Konvensiya, Milliy harakat dasturi.

**Ключевые слова:** Узбекистан, женщины, защита прав, гендерное равенство, семья, общество, социальная политика, указ, конвенция, Национальная программа действий.

**Key words:** *Uzbekistan, women, protection of rights, gender equality, family, society, social policy, decree, Convention, National Action Program.*

Bugungi kunda jamiyatimizda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish masalalari davlat tomonidan alohida e'tiborga olingan. O'zbekiston Respublikasining global miqyosda gender tenglikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar alohida ta'kidlangan edi[1].

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ularning huquqlari masalasi O'zbekistonning milliy taraqqiyotida juda muhim o'rin tutadi. Jamiyatning rivojlanishi oila va uning a'zolarining farovonligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, oila mustahkamligi jamiyat barqarorligini ta'minlashning poydevori hisoblanadi. Oila tizimini mustahkamlash, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta'minlash jarayonida bir qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Davlat rahbari tomonidan 2018-yil 2-fevralda imzolangan PF-5325-sonli Farmon[7] xotin-qizlar qo'mitalarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu farmon jamiyatda xotin-qizlarni himoya qilish, ularning huquqlarini kafolatlash va oila institutini mustahkamlash borasidagi huquqiy asoslarni yaratdi. Xususan, 2019-yil avgustida qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"[2]gi qonunlar jamiyatdagi gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlar sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining global miqyosda gender tenglikni ta'minlashdagi sa'y-harakatlari doirasida 2020-yil 20-fevralda "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat xotin-qizlar va oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirishga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Farmon doirasida davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini mustahkamlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

2022-yilda esa Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligining ahamiyati, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni kamaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar muhokama qilindi[7]. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlar huquqini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"[3]gi Konvensiyasiga qo'shildi. Bu esa xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va tenglikni ta'minlash borasidagi milliy siyosatni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish, ularga teng huquqlar va imkoniyatlar taqdim etish borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar sezilarli natijalarga olib keldi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvida hissasi ortdi, yangi parlamentda ayol deputatlar soni ikki barobarga oshdi. Bu esa jamiyatda gender tenglikni ta'minlash va ayollarni qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, xotin-qizlar o'rtasidagi ta'lim darajasi, ularning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki o'smoqda. Xotin-qizlarga qarshi zo'ravonlikni kamaytirish, ular uchun ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar ijobiy natijalar berayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi mavqeini oshirishga qaratilgan siyosatni doimiy ravishda rivojlantirib bormoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilgan farmon va qarorlar xotin-qizlarning huquqlarini mustahkamlash, ularning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, shuningdek, oila institutining ahamiyatini oshirishga qaratilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasida oila va uning jamiyatdagi roli alohida e'tirof etilgan bo'lib, davlatning oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlari ham bu qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va huquqlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan yirik huquqiy islohotlar, xususan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish" hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari" kabi qonunlar gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning jamiyatda to'liq va barqaror ishtirokini ta'minlash uchun muhim huquqiy asoslarni yaratdi. Bu qonunlar xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan va ularning erkinliklari, huquqlari va imkoniyatlarini tenglashtirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Xotin-qizlar huquqini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga qo‘shildi. Bu, o‘z navbatida, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy normalarni amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi. Milliy harakat dasturi ishlab chiqildi va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliyotlar kengaytirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda xotin-qizlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga oid farmonlari davlat siyosatining bu yo‘nalishdagi ustuvorligini yana bir bor tasdiqladi. Oila tinchligi va farovonligi jamiyatning umumiy barqarorligining poydevori sifatida ko‘riladi. Davlat tomonidan oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, oilaviy ta‘lim-tarbiya tizimini mustahkamlash va ma‘naviy-ahloqiy muhitni yaxshilashga qaratilgan dasturlar davom ettirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, oila a‘zolarining huquqlarini himoya qilish, oilalar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va oilaviy farovonlikni oshirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatini kengaytirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayollarning siyosiy ishtirokini kuchaytirish, ularning davlat boshqaruvidagi o‘rnini oshirish va jamiyatda ularning roli va ahamiyatini ta‘minlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yangi parlamentda ayol deputatlar sonining ikki barobarga ko‘payishi bu yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlar nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilmoqda. Bu davlatning xotin-qizlarga nisbatan siyosatining samaradorligini, jamiyatda ayollarning o‘rni va huquqlarini himoya qilishdagi izchil sa‘y-harakatlarini yana bir bor isbotlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi”. – 2020. – 8-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // “Yangi O‘zbekiston” – 2020. – 24-sentyabr.
4. “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // “Xalq so‘zi”. – 2018. – 2- fevral.
5. N.To‘rayeva. Talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2022.
6. D.Qodirova. Oliy ta‘limda gender madaniyatini shakllantirish yo‘llari. – Samarqand, 2021.
7. www.lex.uz

## TARIX

### MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA YO‘L XO‘JALIGI VA TRANSPORT TARMOQLARINING AHVOLI



**ABDUSALOMOVA  
SEVARA,  
Alisher Navoiy  
nomidagi Toshkent  
davlat O‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti  
o‘qituvchisi**

**UO‘K 342.7.305**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yo‘l xo‘jaligi va transport tarmoqlarining shakllanish jarayoni hamda ularning iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, transport-kommunikatsiya tizimining rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar va infratuzilma modernizatsiyasiga ta’sir etgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar hamda xalqaro hamkorlik loyihalarining o‘rni yoritiladi.

**Аннотация:** В статье научно анализируется процесс формирования дорожного хозяйства и транспортных сетей в странах Центральной Азии в первые годы независимости, а также их экономическое и геополитическое значение. Кроме того, рассматриваются этапы развития транспортно-коммуникационной системы, существующие проблемы, влияние политико-экономических реформ на модернизацию инфраструктуры и роль международных проектов сотрудничества.

**Annotation:** The article provides a scientific analysis of the formation of road infrastructure and transport networks in the Central Asian countries during the early years of independence, as well as their economic and geopolitical significance. It also examines the stages of development of the transport and communication system, existing challenges, the impact of political and economic reforms on infrastructure modernization, and the role of international cooperation projects.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, mustaqillik, yo‘l xo‘jaligi, transport tizimi, infratuzilma, modernizatsiya, kommunikatsiya tarmoqlari, mintaqaviy integratsiya.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, независимость, дорожное хозяйство, транспортная система, инфраструктура, модернизация, коммуникационные сети, региональная интеграция.



**Key words:** *Central Asia, independence, road economy, transport system, infrastructure, modernization, communication networks, regional integration.*

Dunyo miqyosida sodir bo'layotgan integratsiya hamda savdo-iqtisodiy munosabatlarning kengayib borishi birinchi navbatda transport va logistika infratuzilmalariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib bormoqda. Chunki, globallashuv sharoitida muayyan mamlakat yoki umumiy mintaqa davlatlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari transport kommunikatsiyalari faoliyatiga bog'liqdir. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo respublikalarining yaxlit iqtisodiy makonini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda savdo aloqalarini mustahkamlashda transport infratuzilmasi asosiy drayver vazifasini o'tamoqda.

1991-yildan 2022-yilgacha Markaziy Osiyoda yo'l xo'jaligining holati tarixiy meros, geosiyosiy dinamika, iqtisodiy o'tishlar va infratuzilma rivojlanishining murakkab o'zaro ta'siri bilan ajralib turadi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston asosan Sovet tizimiga integratsiyalashgan [1] transport infratuzilmasini qayta belgilash muammosiga duch keldi.

Mustaqillikning dastlabki davrida (1991-2000) Markaziy Osiyo davlatlari bir qancha muhim muammolarga duch keldilar. Infratuzilmaning tanazzulga uchrashi sababli dastlab markazlashgan iqtisodiyot uchun qurilgan yo'l tarmoqlari e'tiborsizlik va yetarli darajada ta'mirlashdan aziyat chekdi [2]. Moliyaviy cheklovlar va investitsiyalar yetishmasligi yo'l sharoitlarining yomonlashishiga olib keldi.

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga yo'naltirilgan tizimlarga o'tish iqtisodiy beqarorlikka olib keldi. Ko'pgina hukumatlar infratuzilmaga sarmoya kiritish uchun moliyaviy resurslarga ega emas edi, bu esa yo'l sifatining yanada pasayishiga olib keldi.

Mintaqaviy mojarolar va siyosiy beqarorlik, ayniqsa Tojikistonda birlashgan transport tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada murakkablashtirdi [3]. Milliy ustuvorliklar ko'pincha uzoq muddatli infratuzilma maqsadlariga emas, balki bevosita siyosiy ehtiyojlarga javoban o'zgardi. Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida tarqoq transport siyosati olib borildi, har bir mamlakat o'z milliy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ydi va bu mintaqaviy aloqalarga to'sqinlik qildi.

Xalqaro yordam va taraqqiyot 2000-2010-yillarda ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2000-yillarning boshlarida yo'l infratuzilmasini jonlantirishga qaratilgan xalqaro hamkorlikning bosqichma-bosqich o'sishi kuzatildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar borasida “Jahon banki” va “Osiyo taraqqiyot banki” kabi ko‘p tomonlama institutlar muhim yo‘l loyihalarini moliyalashtirishni boshladi[4]. Ushbu investitsiyalar ko‘pincha mintaqaviy aloqalarni yaxshilash va savdoni osonlashtirishga qaratilgan. Yirik infratuzilma loyihalari mintaq bo‘ylab transport aloqalarini yaxshilash uchun CAREC yo‘laklari kabi tashabbuslar boshlandi. E‘tiborga molik loyihalar orasida Markaziy Osiyoni Xitoy, Rossiya va undan tashqarida bog‘laydigan asosiy magistral yo‘llarni takomillashtirish kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida (DXSh) hukumatlar yo‘l qurilishi va ta‘mirlash uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun DXSh modellarini o‘rganishni boshladi [5]. Bunday yondashuv davlat byudjetlariga moliyaviy yukni kamaytirish va xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilashga qaratilgan edi. Moliyaviy yordam bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar yo‘llarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish, rejalashtirish asoslarini ishlab chiqish va institutsional salohiyatni oshirish uchun texnik ekspertiza taqdim etdi.

Modernizatsiya sa‘y-harakatlari va strategik rejalashtirish 2010-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davr yo‘l infratuzilmasiga yanada strategik yondashuvlar bilan tavsiflanadi [6]. Hukumatlar infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tan oldilar. Kengaytirilgan aloqa savdoni osonlashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega deb qaraldi.

Mintaqaviy integratsiya tashabbuslari chegaralar bo‘ylab transport qoidalarini standartlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan tashabbuslar bilan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar kuchaygan. Bu transchegaraviy transport samaradorligini oshirish uchun juda muhim edi.

Barqaror rivojlanish yo‘nalishida yo‘llarni rejalashtirishga ekologik omillar ta‘sir qila boshladi. Mamlakatlar iqlimga chidamlilik va atrof-muhit degradatsiyasi kabi muammolarni hal qilishda, qurilish va texnik xizmat ko‘rsatishda barqaror amaliyotlarni qo‘llashni boshladilar.

2022-yil holatiga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi yo‘l sanoati taraqqiyot va davom etayotgan muammolarning uyg‘unligini aks ettiradi. Ba‘zi davlatlar, xususan Qozog‘iston va O‘zbekiston yo‘l tarmoqlarini modernizatsiya qilishda sezilarli yutuqlarga erishdilar, boshqalari esa yomon sharoitlar bilan kurashishda davom etmoqda[7]. Byudjet cheklovlari va korrupsiya bilan bog‘liq doimiy muammolar yo‘l infratuzilmasini samarali saqlash va yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Barqaror amaliyotlar va jamoatchilik ishtiroki rejalashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, mintaqaviy hamkorlik bog‘lanishni kuchaytirish bo‘yicha kelajakdagi sa‘y-harakatlar, ehtimol, mintaqaviy



hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi, chunki integratsiyalashgan transport tizimlari savdo va iqtisodiy rivojlanishni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Khodiev F. Transport Challenges in Tajikistan. Dushanbe: Tajikistan Review, 2012. p. 58.
2. Baimatov T. Central Asia's Transport Sector: A Decade of Transition. Bishkek: Kyrgyz Transport Agency, 2013. p. 77.
3. Abdullayev G. Transport Policy and Road Networks in Uzbekistan. Tashkent: Ministry of Transport, 2014. p. 111.
4. Zholdasbekov K. Road Development and Economic Integration in Central Asia. Almaty: Eurasian University Press, 2015. p. 69.
5. Toleubayev A. Modernizing Central Asian Transport Networks. Astana: National Academy of Sciences, 2016. p. 84.
6. Mirzayev J. The Future of Road Transport in Central Asia. Dushanbe: Tajik Academy of Sciences, 2017. p. 66.
7. Suyunov E. Transportation Systems in the Newly Independent States. Dushanbe: Tajik Economic Journal, 2008. p. 45.

## TARIX

### MAHALLA VA NURONIYLAR: AVLODLARARO MEROS VA QADRIYATLAR UZLUKSIZLIGI MASALASI



**Raxmonov Shohzod,**  
Respublika Ma'naviyat  
va ma'rifat markazi  
huzuridagi Ijtimoiy-  
ma'naviy tadqiqotlar  
instituti  
mustaqil tadqiqotchisi

UO'K 342.7.305

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahalla institutining jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni hamda nuroniylarning avlodlararo qadriyatlar uzluksizligini ta'minlashdagi beqiyos roli tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi, milliy o'zlikni asrash va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda mahalla va nuroniylar hamkorligining ahamiyati asoslab beriladi.

**Аннотация:** В статье анализируется роль института махалли в социально-духовной жизни общества и исключительное значение старшего поколения в обеспечении преемственности ценностей между поколениями. Также обосновывается важность сотрудничества махалли и старейшин в воспитании молодежи, сохранении национальной идентичности и формировании здоровой социальной среды в условиях глобализации.

**Annotation:** The article analyzes the role of the mahalla institution in the socio-spiritual life of society and the exceptional contribution of elders in ensuring the continuity of intergenerational values. It also substantiates the importance of cooperation between the mahalla and elders in youth education, preserving national identity, and fostering a healthy social environment in the context of globalization.

**Kalit so'zlar:** Mahalla, nuroniylar, avlodlararo meros va qadriyatlar, nuroniylar maktabi, avlodlararo muloqot, uzluksizlik, ustoz-murabbiy dasturlari, "Ma'naviy suhbatlar" klublari.

**Ключевые слова:** Махалля, старшее поколение (нуронийлар), межпоколенческое наследие и ценности, школа старшего поколения, межпоколенческий диалог, преемственность, программы наставничества, клубы «Духовные беседы».

**Key words:** Mahalla, elders, intergenerational heritage and values, the school of elders, intergenerational dialogue,

*continuity, mentor-mentee programs, “Spiritual Conversations” clubs.*

Mahalla — bu faqat yashash joyi emas, balki aholining ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotini shakllantiruvchi muhim institutdir. U o'z ichiga oilaviy qadriyatlarni, urf-odatlarini, mahalliy an'analarni va ijtimoiy me'yorlarni jamlaydi. Mahalla nuroniylar bilan birgalikda yosh avlodni tarbiyalash, ularni jamiyatga foydali fuqarolar sifatida shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi.

Nuroniylar esa o'z hayotiy tajribasi, pand-nasihatlari va ma'naviy merosi orqali yosh avlodni qadriyatli va mas'uliyatli shaxs etib tarbiyalaydi. Ularning fikri va tavsiyalari oiladan tashqari jamiyatda ham hurmatga sazovor bo'lib, avlodlararo muloqotning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va yoshlarni ma'naviy tarbiyalash masalasi yanada dolzarb bo'lmoqda. Mahalla va nuroniylar o'z tajribasini, tarbiyaviy va madaniy resurslarini zamonaviy pedagogik va ijtimoiy uslublar bilan uyg'unlashtirib, avlodlararo merosni uzluksiz saqlashga hissa qo'shadi.

Shuningdek, mahalla va nuroniylarning faolligi nafaqat shaxsiy oilada, balki mahalliy jamiyat darajasida ham avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlaydi. Mahalla tadbirlari, uchrashuvlar, bayram va an'anaviy marosimlar yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Nuroniylarning boy hayotiy tajribasi, ma'naviy merosi va ijtimoiy faolligi yosh avlod tarbiyasida muhim omil sifatida ajralib turadi. Ularning ibratli hayoti, kasbiy va shaxsiy tajribasi, shuningdek, jamiyatdagi faol ishtiroki yoshlarni tarbiyalashda beqiyos resurs hisoblanadi. Nuroniylar avlodlarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki insoniy qadriyatlar, ahloqiy prinsiplar va milliy urf-odatlarini yetkazadi. Shu bilan birga, ular yoshlarning ma'naviy o'sishi, ijtimoiy mas'uliyatni anglashlari va jamiyatga foydali fuqarolar sifatida shakllanishlarida to'g'ridan-to'g'ri hissa qo'shadi.

Mahalla va jamoat tadbirlari orqali nuroniylar o'z tajribalarini amaliyotda yoshlar bilan bo'lishadi, ularni tarixiy xotira, madaniy meros va milliy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Bu esa avlodlararo muloqot va qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlaydi, yoshlarni ma'naviy barkamol, ijtimoiy faolligi yuqori shaxslar etib tarbiyalaydi. Shu tariqa, nuroniylar jamiyatning ma'naviy tayanchi va avlodlararo bog'liqlikning muhim vositasi hisoblanadi.

Avlodlararo meros va qadriyatlarning yosh avlod qalbida shakllanishi, avvalo, o'zligini anglash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bu esa aynan mahalla nuroniylarining tarbiyaviy suhbatlari, tarixiy-ma'naviy meros haqidagi hikoyalari, xalq donishmandligiga tayanib berilgan maslahatlari orqali amalga oshadi. A.Qurbonov qayd etganidek,



“nuroniylar milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy tamoyillarni ham yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiluvchi ahloqiy kompasdir” .

Umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tafakkuridagi integratsiyasi esa faqat formal axborot bilan emas, balki hayotiy misollar, tarixiy saboqlar va shaxsiy tajriba orqali shakllanadi. Bunday metodologiya ijtimoiy – falsafiy tilda aytganda, “aks ettiruvchi uzluksizlik” (reflektiv kontinuitet) deb talqin qilinadi. Nuroniylar ishtirokidagi munozarali davralar, o‘zaro dialog shakllari va interaktiv tarbiyaviy platformalar orqali yoshlar shunchaki ma’lumot emas, balki ongli yondashuv, g‘oyaviy mustahkamlik va ruhiy o‘sishga olib keluvchi qadriyatlar bilan yuzlashadi.

Bugungi ijtimoiy – ma’naviy rivojlanish bosqichida bu faoliyat innovatsion yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Xususan, “Nuroniylar maktabi” loyihasi doirasida tajribali otaxon va onaxonlar bilan yoshlar o‘rtasida zamonaviy masalalar bo‘yicha munozaralar tashkil etilishi, yoshlarning ahloqiy – ruhiy immunitetini oshirishda katta ijtimoiy samaradorlik kasb etmoqda. T.To‘ychiyev bu borada shunday yozadi: “Nuroniylar ishtirokidagi g‘oyaviy suhbatlar faqat axborot uzatish emas, balki ma’naviy ongni uyg‘otish, shaxsiy javobgarlik va ijtimoiy ongni shakllantirishning murakkab mexanizmini anglatadi” .

Mahallalarda nuroniylar faqatgina nasihatgo‘y yoki urf-odatlar targ‘ibotchisi emas, balki yosh ongida zamonaviylik bilan an’anaviylik, milliylik bilan umuminsoniylik o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni shakllantiruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Nuroniylarning bu boradagi ma’naviy salohiyati, ularning jamiyatdagi nufuzi va hayotiy tajribasi ijtimoiy ongda o‘tmish va kelajak o‘rtasida ahloqiy-madaniy ko‘prik qurish imkonini beradi.

Milliy qadriyatlar, masalan, ota-onaga hurmat, kattalarga izzat, mahalladoshlik, jamoaviylik – yosh ongida tabiiy ravishda shakllanmaydi. Ular tirik muloqot, an’anaviy urf-odatlar, nuroniylarning tajribalari orqali ijtimoiy ongga singdiriladi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, adolat, inson sha’ni, huquq va erkinlik tushunchalari ham bu kontekstda mustahkamlanadi. D.R.Sobitov yozadi: “Milliy qadriyatlar orqali umuminsoniy g‘oyalar ancha barqaror tarzda yoshlar ongiga singadi. Ayniqsa, bu jarayon nuroniylarning hayotiy misollari bilan mustahkamlanar ekan, qadriyatlar faqat bilish emas, balki anglash bosqichiga o‘tadi” .

Hozirgi davrda mahallalarda “Ustoz — murabbiy” dasturlari, “Ma’naviy suhbatlar” klublari, “Nuroniy maktablari” singari tashabbuslar orqali yoshlarda fuqarolik mas’uliyati va g‘oyaviy ong shakllanmoqda. Bunday interaktiv yondashuvlar haqida T.Yusupov “yosh avlodga ma’naviy qadriyatlarni singdirishda nuroniylar va zamonaviy texnologiyalar o‘zaro integratsiyalashgan

holda ishlatilsa, bu jarayon sezilarli darajada samarali bo‘ladi”, – deya qayd etgan.

Nuroniylar faoliyati faqat an’anana yoki meros saqlash bilan cheklanmaydi. Ular zamonaviy ijtimoiy ongda yangilanayotgan milliy qadriyatlar va global insoniy ideallar o‘rtasida dialektik muvozanatni ta’minlaydi. R.Komilov bu haqda “ma’naviyatning eng katta boyligi – bu uning zamonaviylikka moslashuvchanligidir”, – deb ta’kidlaydi. Nuroniylar aynan shu moslashuvchanlikni hayotiy tajriba, nutqiy mahorat, aks ettiruvchi tafakkur vositasida yoshlar ongiga singdiradi.

Xulosa: Mahalla va nuroniylar jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy tayanchi hisoblanadi. Mahalla institutining ijtimoiy va madaniy funksiyalari, nuroniylarning boy hayotiy tajribasi va ma’naviy merosi yosh avlod tarbiyasida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning faoliyati orqali avlodlararo meros saqlanadi, milliy qadriyatlar uzluksiz davom ettiriladi va yoshlar ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, ma’naviy barkamol shaxslar sifatida shakllanadi. Mahalla doirasida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, urf-odat va an’analarni davom ettirish jarayonlari, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash masalalarida nuroniylarning o‘rni beqiyos hisoblandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qurbonov A. Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: “Ijtimoiy fikr”, 2020. – 116 b. (81-bet).
2. To‘ychiyev T. Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy ong. – Toshkent: “Ma’rifat”, 2022. – 134 b. (97-bet).
3. Sobitov D. R. Qadriyatlar va ma’naviy yangilanish. – Toshkent: “Ijtimoiy fikr”, 2022. – 136 b. (78-bet).
4. Yusupov T. Zamonaviy jamiyatda ma’naviy merosning uzluksizligi. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2023. – 152 b. (109-bet).
5. Komilov R. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2011. – 224 b. (54-bet).

## TARIX

### QISHLOQ XO‘JALIGIDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI (1997–2003 YY.)



**Torenliyazova Gauhar,**  
Qoraqalpog‘iston  
qishloq xo‘jaligi va  
agrotexnologiyalar  
instituti assistenti

**UO‘K 338.43(575.1)**

*Annotatsiya:* Maqolada

1998–2003-yillarda

*O‘zbekistonda, xususan Qoraqalpog‘iston misolida qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning huquqiy asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, agrar sohada mulkchilik munosabatlarini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish samaradorligi statistik ma’lumotlar asosida baholanib, resurslar tanqisligi hamda suv taqchilligi kabi omillarning ishlab chiqarishga salbiy ta’siri ko‘rsatib beriladi.*

*Аннотация:* В статье анализируются правовые основы и практические результаты экономических реформ в сельском хозяйстве Узбекистана в 1998–2003 годах на примере Каракалпакстана. На основе статистических данных оценивается эффективность преобразований в сфере собственности и внедрения рыночных механизмов, а также показано негативное влияние дефицита ресурсов и водной нехватки на снижение производственной эффективности.

*Annotation:* The article analyzes the legal foundations and practical outcomes of economic reforms implemented in Uzbekistan’s agricultural sector in 1998–2003, using Karakalpakstan as a case study. Based on statistical data, it evaluates the effectiveness of property reforms and the introduction of market mechanisms, while also highlighting the negative impact of resource shortages and water scarcity on production efficiency.

**Kalit so‘zlar:** agrar islohotlar, qishloq xo‘jaligi, mulkchilik munosabatlari, bozor iqtisodiyoti, fermer xo‘jaligi, shirkat xo‘jaliklari, yer munosabatlari, suv resurslari taqchilligi, texnik ta’minlanganlik, rentabellik, iqtisodiy samaradorlik.

**Ключевые слова:** аграрные реформы, сельское хозяйство, отношения собственности, рыночная экономика, фермерское хозяйство, ширкатные (кооперативные) хозяйства, земельные отношения,

*дефицит водных ресурсов, техническая оснащённость, рентабельность, экономическая эффективность.*

**Key words:** *agrarian reforms, agriculture, property relations, market economy, farms, cooperative farms, land relations, water resource scarcity, technical provision, profitability, economic efficiency.*

O‘zbekiston Respublikasida 1998–2003-yillarda agrar sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Ushbu islohotlar mulkchilik munosabatlarini diversifikatsiya qilish, bozor mexanizmlarini joriy etish va xo‘jalik yuritishda teng huquqlilikni ta’minlashga qaratilgan edi. Biroq amaliy natijalar kutilgan darajada bo‘lmadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi — agrar islohotlarning huquqiy asoslari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan “Yer kodeksi to‘g‘risida”, “Yer kadastrini to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jaligi shirkatlari to‘g‘risida”, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi qonunlar tizimida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 19-martdagi 120-sonli “1998-2000-yillar davrida qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [5] ishlab chiqarishda va texnologiyalarda avtoritar va monopolistik munosabatlarni bartaraf etishga, bozor iqtisodiyotini izchillik bilan barpo etish va mulkchilik munosabatlariga, shuningdek, xo‘jalik yuritishda teng huquqlilikni ta’minlashga qaratilgan edi.

Ushbu qonunlar asosida respublikamiz hukumati rahbarligida, resurslar taqchilligi sharoitida albatta yuz beradigan va berayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda izchil choralarni topib, ko‘p tarmoqli iqtisodiyot tuzilmasini yaratish maqsadida teng huquqli darajada yirik tovar ishlab chiqaruvchi (shirkatlar), o‘rta tovar ishlab chiqaruvchi (fermerlar) va kichik tovar ishlab chiqaruvchi (dehqon) xo‘jaliklari tashkil etilib, ishlab chiqarish qatoriga qo‘shilgan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan qonunlar va chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga qaramasdan respublikamizning qishloq xo‘jaligi sohasida e’tiborli va barqaror o‘zgarishlarga erishish hodisasi yuz bermay, aksincha, samaradorlikning pasayishi tendensiyasi doimiy o‘rin egallab kelgan edi.

Bunga misol sifatida 1997–2003-yillar davomidagi ko‘rsatkichlarga nazar tashlasak, masalan paxtachilikda 1996-1999-yillari rentabellik –30,0...50,0% (21,5-44,8 mlrd.so‘m zarar), sholichilikda – +14,9...–59,4% (158,79 mln.so‘m foyda, 2,26 mlrd.so‘m zarar), bug‘doy yetishtirishda –7,74...–74,8% (79,75–

406,73 mln.so‘m zarar), chorvachilikda esa –32,5...–52,1% (283,29-409,81 mln.so‘m zarar) ko‘rsatkichlari bilan yakunlanib, qishloq xo‘jaligi sohasining iqtisodiy ahvoli ancha pasaydi[4].

Ma‘lumki, respublikamiz 2000-2001-yillar davomida misli ko‘rilmagan suvsizlikka duchor bo‘ldi, qishloq xo‘jaligi sohasi jiddiy qiyinchilikka tushdi. Shu davrgacha o‘rtacha yiliga olib turgan 6,0-6,5 mlrd. m<sup>3</sup> 35-40% taqchilik holatidagi suv zahirasi hajmi 2000-yili 2,2, 2001-yili esa 1,7 mlrd m<sup>3</sup> hajm darajasiga tushdi.

Oqibatda paxtachilikda 2000-yilda ekilgan 95524 gektar maydonidan 34,0 ming gektardan ziyod, 2001-yildan esa 76123 gektar maydondan 7268 gektar nobud bo‘lib, qolgan maydonlardan atigi 13-14 s/ga hosil olindi; sholichilikda 2000-yilda ekilgan 60076 gektar maydondan 52150 gektar, 2001-yilda ekilgan 4739 gektar maydondan 3810 gektar nobud bo‘lib, qolgan maydonlardan mos ravishda 17,9 va 11,4 s/ga hosil olindi [3]. Ekinlarning boshqa turlari ham, ayniqsa chorvachilik uchun yem-xashak ekinlari ancha zarar ko‘rgan. Umuman, sug‘oriladigan ekin maydonlarining shu ikki yil davomida 60% dan ortiq hajmi ekin ekish aylanishidan chiqqa boshladi, dalalarni birinchi yili bir yillik yovvoyi o‘tlar bosib, ikkinchi va uchinchi yilga qarab to‘qaylar, jingil o‘simliklar bilan qoplanga boshladi va qayta o‘zlashtirish uchun ancha qiyinchiliklar tug‘dirdi.

Ikki yil suvsizlikdan so‘ng 2002-yil may oyining uchinchi o‘n kunligida, kech bo‘lsa ham yetarli darajada suv kelishi bilan respublikamizda paxtachilikda 73916 gektar maydonga chigit ekilib, 72731 tonna paxta yetishtirildi, gektaridan o‘rtacha 9,8 sentner hosil yig‘ilib, umumiy rejaning 39% ini tashkil etdi; sholichilikda - 19336 gektar maydonga sholi ekilib, gektaridan o‘rtacha 17,8 sentner hosil yig‘ilib, jami 34510 tonna hosil olindi; bug‘doy yetishtirishda birinchi marta samarali ko‘rsatkichga erishildi, ya‘ni 18119 gektar maydonga 2002-yil hosili uchun kuzgi bug‘doy ekilgan bo‘lsa, gektaridan o‘rtacha 30,2 sentner hosil olinib, jami 54651 tonna hosil yetkazildi va 750 mln so‘mdan ziyod foyda bilan yakunlandi[4].

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi kompleksida suv, texnika, o‘g‘it va yer resurslarining hajmlari va sifatlarining keyingi o‘n yil davomida o‘zgarishi hisobga olinmasdan, avtoritar va monopol prinsiplar saqlanib, barcha kuch va quvvatni talab qiladigan asosiy ekin bo‘lgan paxtani 125,5 ming ga, sholi esa 113,5 ming ga maydonga ekishni rejalashtirib, sug‘orib ekiladigan deyarli barcha



maydonlarda bajariladigan sho'r yuvish, yer haydash ishlarining kuz-bahor mavsumlariga to'planib, ularni bajarish og'ir stresslarni vujudga keltirdi[1].

Mutaxassislarning fikricha, respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasi 1993-yil boshida 180 foiz texnika, 400 foiz pluglar bilan ta'minlangan holatini o'sha davrda darhol hujjatlashtirib (pasportlashtirib) saqlamasdan, xususiylashtirish jarayonini fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etishga bog'liqsiz, qolaversa ularni tashkil etishdan oldin o'zlashtirilishi oqibatida 1993-1997-yillar davomida texnikaning eng yaroqli va keraklilarining sohadan, hatto respublikadan chiqib ketishi va sohaning texnik ta'minlanganlik holatining ilgarigi texnika parki hisobida 40% darajaga pasayishi, ayniqsa 1993-yil boshida mavjud 6,0 ming donadan ortiq T-4A traktorlarining o'sha davrda yaroqlilaridan faqat 700 dan ortig'i qo'lda qolishi sababli yerni tayyorlashda, ekishda, parvarishlashda, hosilni yig'ishda agrotexnika muddatlarini va sifatini ta'minlanmagan, hosildorlik va samaradorlik jiddiy pasaygan, boshqa donli, moyli va chorvachilik uchun muhim ozuqabop ekinlar e'tibordan chetda qolgan.

1996-1999-yillar davomida vegetatsiya davrida suv bilan ta'minlash belgilangan limitning (8050,0 mln.m/kub) 75%ini, haqiqiy suvga bo'lgan talabning (10000,0 mln m/kub) 56%ini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda mos ravishda 29 va 24%, 2001-yilda esa 17 va 13% bo'ldi. So'nggi yillarda tuproqning meliorativ yaxshilanishi maqsadida, kollektor-drenajlar uchun ishlarni rejalashtirish va mablag' ajratish butunlay to'xtatilgan. Xo'jalik ichidagi kollektor tarmoqlari me'yor bo'yicha har bir ga maydonga 45 p.m bo'lishi kerak bo'lsa, amalda 30 p.m uzunlikdan oshmagan, qolaversa bularning 30% dan ortig'i talabga javob bermagan, bu holat o'z navbatida yerning meliorativ holatini yomonlashtirib, 1999-yilgacha yiliga 45,0 ming gektar atrofidagi maydon amalda ekin ekishga yaroqsiz bo'lsa-da, ekin ekilib kelingan edi. Qolaversa, sug'oriladigan ekin maydonlarimizning faqat 63,0 ming gektarida (18%) gumus tarkibi (0,8-1,2 gramm) me'yor talabiga minimal darajada javob beradi. Tuproq tarkibida ta'sirchan fosfor va kaliy miqdori me'yorga nisbatan 25-30% dan oshmagan. Respublika boniteti bo'yicha 100 ballga to'g'ri keladigan yoki 5-guruh to'qqizinchi klass tipiga mos keladigan 1 gektarli maydonga ega bo'linmagan. Jami 69389 ga maydon 51-80 ballga to'g'ri keladi, ya'ni 3 va 4-guruh 6-7-8-sinflarga mos keladi. Qolgan maydonlarning ball boniteti bundan ham past. Shuning uchun ham bonitet ko'rsatkichlari tumanlar bo'yicha 37-50 ball oralig'ida bo'lgan. Bunday tuproqlar yuqori hosil olish uchun fosfor va kaliy

o'g'itlari bilan mutanosib oziqlantirishni talab etgan. Biroq, respublikada azotli o'g'it 40%, fosforli 20%, kaliyli o'g'it esa 90% yetishmay kelgan[4].

Ushbu yillarda texnik ta'minlanganlik esa, 125,5 ming ga paxta, 113,5 ming sholi ekishni ko'zda tutgan holda fikr yuritsak respublikamizdagi 193 dona "Magnum" traktorlarining barchasi qatnashib, o'zidan to'liq normasini kuzgi-bahorgi haydov ishlariga bajargan holda 387,0 ming haydov maydonining 53,2% ini ta'minlashi mumkin. Qolgan 179100 ga maydon qo'lda mavjud 700 dan ortiq "T-4A" traktorlari ulushiga tegishli, ular faqat 100 ming ga maydonni haydash imkoniyatiga ega bo'lib, har yili 100-150 ming ga haydalmasligi xavf ostida qolib keldi. Sholi ekishda ham "Keys" (41 dona), "Nyu Xolding" va "Klass" (umumiy 150 dona) yig'im-terim mavsumida agrotexnik talab va muddatga mos 25-30 kun ichida umumiy maydonning smenalik normalarini to'liq bajargan holda 55-60% ni o'rib yig'ishi mumkin. Shu sababli 1999-yilda 85639 gektar maydonning o'zida sholi yig'ib olish qanchalik uzoqqa cho'zilgan edi. Yuqorida qayd etilgan holatlar paxtachilikda (125500 ga) va sholichilikda (113500 ga) oldingi yillarda kuz-bahorgi ishlarni bajarishda qiyinchilik tug'dirib, yer haydash ishlarining sifati va hajmini to'liq ta'minlash imkonini bermay kelgan. Bunday vaziyatda ekish aylanasi (almashlab ekish) tartib-qoidalariga rioya qila olmay, ekilgan ekinlarning vegetatsiya davrida agrotexnik (qator oralariga ishlov berish, oziqlantirish va hokazo) qolaversa, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash choralarini bajarishda ham taqchillik tufayli va aksariyat hollarda e'tiborsizlik oqibatida kamchiliklar keng o'rin olgan[2].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1998–2003-yillarda agrar sohada huquqiy baza yaratilgani va mulkchilik munosabatlarini diversifikatsiya qilish yo'lida muhim qadamlar qo'yilganiga qaramasdan, islohotlarning amaliy samaradorligi kutilgan darajada ta'minlanmadi. Bozor mexanizmlarini joriy etish jarayonida avtoritar boshqaruv elementlarining saqlanib qolishi, texnik va moliyaviy resurslar tanqisligi, agrotexnik talablarga to'liq rioya etilmasligi hamda suv resurslari taqchilligi sohada samaradorlikning pasayishiga olib keldi.

Shuningdek, ekin maydonlarini rejalashtirishda resurs imkoniyatlarini hisobga olmaslik, texnika parkining qisqarishi va almashlab ekish tizimining izchil qo'llanilmasligi hosildorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, agrar islohotlarning barqaror natijalar berishi uchun huquqiy choralar bilan bir qatorda resurslar bilan ta'minlashni



muvozanatlashtirish, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish va haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish zarur hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Б. М. Бекимбетов (2023). Сельскохозяйственные преобразования в годы независимости республики Узбекистан. Scientific progress, 4 (2), 333-336.
2. Toreniazova, G. (2024). The Improvement Of The Agriculture Based On Market Relations In Karakalpakstan. Journal of Learning on History and Social Sciences, 1(3), 45–48. <https://doi.org/10.61796/ejlhs.v1i3.436>.
3. “Yerkin Qaraqalpaqstan” gazetasi, 25.02.2003-yil 27-son.
4. “Yerkin Qaraqalpaqstan” gazetasi, 4-fevral, 2003-yil, 16-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 19.03.1998 yildagi 120-son qarori. <https://lex.uz/docs/1576395>

## TARIX

### XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MILLIY UYG‘ONISH JARAYONIDAGI O‘RNI



**Xoshimova Go‘zal,**  
Farmatsevtika ta‘lim va  
tadqiqot instituti  
Ijtimoiy-gumanitar  
fanlar kafedrası katta  
o‘qituvchisi.

**UO‘K 94(575.1)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni va uning milliy uyg‘onishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Jadidlarning ta‘lim-tarbiya, matbuot, madaniyat va jamiyatni modernizatsiya qilish borasidagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik g‘oyalarning milliy ong, ijtimoiy faollik va islohotchilik tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования джадидского движения, возникшего в конце XIX – начале XX века, а также его роль в национальном возрождении. Освещается деятельность джадидов в сфере образования и воспитания, печати, культуры и модернизации общества. Кроме того, на научной основе раскрывается значение идей джадидизма в формировании национального сознания, социальной активности и реформаторского мышления.

**Annotation:** This article analyzes the formation process of the Jadid movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries and its role in national awakening. It highlights the activities of the Jadids in the fields of education, press, culture, and the modernization of society. Furthermore, the significance of Jadid ideas in shaping national consciousness, social activism, and reformist thinking is scientifically substantiated.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma‘rifatparvarlik, islohot, yangi usul maktablari, matbuot, milliy ong.

**Ключевые слова:** Джадидизм, национальное возрождение, просветительство, реформа, новометодные школы, печат, национальное сознание.

**Key words:** Jadidism, national awakening, enlightenment, reform, new-method schools, press, national consciousness.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati jamiyat taraqqiyotini yangicha yo‘l bilan rivojlantirishga qaratilgan muhim ma’rifiy-ijtimoiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davr Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati kuchaygan, mahalliy boshqaruv tizimi va an’anaviy ijtimoiy institutlar inqirozga yuz tutgan murakkab tarixiy sharoit bilan xarakterlanadi. Iqtisodiy qaramlik, savdo-sotiq munosabatlarining o‘zgarishi, eski maktab va madrasalardagi ta’lim mazmunining zamon talablariga javob bermay qolishi jamiyatda yangilanish ehtiyojini kuchaytirdi. Shu tarixiy muhit jadidchilikning vujudga kelishi uchun ijtimoiy-intellektual zamin yaratdi.

Jadidlar mavjud an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilish, xalq ongini uyg‘otish va zamonaviy dunyoviy bilimlarni keng targ‘ib etishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Harakat namoyandalari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, ta’lim, matbuot va madaniyat sohalarida keng ko‘lamli faoliyat olib bordilar. Ular yangi usul maktablarini tashkil etish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, teatr va publitsistika orqali jamiyatni modernizatsiya qilishga intildilar. Yana shuni alohida qayd etish lozimki, ular o‘z vatani tarixini ham juda yaxshi bilishgan, masalan, Abdurauf Fitrat “Tanlangan asarlar”ida (2-jild, 2000.) “Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to‘g‘risida”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar, Chig‘atoy adabiyoti, “Hibat ul-haqoyiq” asarlari, XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash, o‘zbek shoiri Turdi, Muhammad Solih, Mashrab, Umar Xayyomlar to‘g‘risida ham yozgan. [1;208.]

Jadidchilik harakati natijasida milliy matbuot shakllandi, ijtimoiy-siyosiy fikr faollashdi va milliy o‘zlikni anglash jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu harakat nafaqat ma’rifiy islohotlar, balki ijtimoiy tafakkur transformatsiyasini ham boshlab berdi. Shu jihatdan jadidchilikni o‘rganish milliy uyg‘onish tarixini, modernizatsiya jarayonlarini va mustaqillik g‘oyalarining shakllanish manbalarini anglashda muhim ilmiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Maqolada, tarixiy-tahliliy metod asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi. Arxiv hujjatlari, jadid matbuoti namunalari va ma’rifatparvarlarning asarlari manba sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek, tizimli yondashuv metodi orqali jadidlarning ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi faoliyati yaxlit jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Komparativ metod yordamida an’anaviy ta’lim tizimi bilan jadid maktablari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti tub o‘zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy boshqaruv tizimi izdan chiqdi, iqtisodiy resurslar markaz manfaatlariga bo‘ysundirildi, an’anaviy ijtimoiy institutlar esa inqirozga yuz tutdi. Ayniqsa, eski maktab va madrasalarda ta’lim mazmunining zamon talablariga mos kelmay qolishi jamiyatda ma’rifiy islohotlarga ehtiyoj tug‘dirdi.



Shu tarixiy sharoit jadidchilik harakatining shakllanishi uchun muhim ijtimoiy-intellektual zamin yaratdi.

Jadidchilik dastlab Qrim va Volgabo‘yi hududlarida paydo bo‘lgan islohotchilik g‘oyalariidan ta’sirlanib, Turkistonda o‘ziga xos milliy shakl kasb etdi. Harakatning mafkuraviy asosida ma’rifatparvarlik, ilm-fan taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni modernizatsiya qilish g‘oyalari mujassam edi. Jadidlar “usuli jadid” – yangi usuldagi maktablarni tashkil etish orqali ta’lim tizimini tubdan yangilashni maqsad qildilar. Bu maktablarda fonetik usul asosida savod o‘rgatish, tabiiy fanlar, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvar ziyolilar bo‘lib, ular nafaqat ta’lim, balki matbuot, teatr, adabiyot va publitsistika orqali ham jamiyat ongini uyg‘otishga harakat qildilar. Masalan, Behbudiy tomonidan nashr etilgan gazeta va jurnallar milliy o‘zlik, islohot va taraqqiyot g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. Yana, teatr haqida, san’at to‘g‘risida ham qimmatli fikrlarini bayon etgan. M.Bexbudiy shunday yozadiki, “So‘zni qisqasi, teatr xonalari masxarabozxona bo‘lmay, balki ibratxonadir. Va anda mushaxxis bo‘laturgonlar “o‘yunchi va masxaraboz” bo‘lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasida mushaxxislar ham kibor va muhtaramsinflar qatorindadir.”[2;175.] Avloniy esa ta’lim-tarbiya masalasini millat kelajagi bilan bog‘lab, “tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan g‘oyani ilgari surdi. [3;5.] Shuningdek, Kishi yosh vaqtida ilm va ma’rifat, hunar va san’atga bo‘yin qo‘ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo‘lub qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo‘lmagan xizmatlarni qilmak ayb emasdir. Agar bunga ham bo‘yin qo‘ymay bu ko‘mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo‘r ayb, g‘ayratsizlikdur. “Gayratlikdan imon qutilmas” degan masal bor. Bunga qaraganda dunyo va oxiratimiz uchun g‘ayratni qo‘ldan bermaslik lozimdur. G‘ayrat imona, salobati vijdonga dalolat etar. Hazrati Umar eshik oldida bekor o‘tirgan bir kishini ko‘rub: “G‘ayratsiz kishilardan Xudo bezor, islomiyat g‘ayrat ila rivoj topdi, sandek yalqov kishilardan islomiyat hazar qilur”, – demishlar. [3;9.]

Jadidlar faoliyati natijasida milliy matbuot shakllandi, yangi ijtimoiy fikr maydonga chiqdi va jamiyatda tanqidiy tafakkur rivojlandi. Ular mustamlakachilik sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish, zamonaviy davlatchilik va fuqarolik jamiyati g‘oyalarini ilgari surish orqali milliy uyg‘onish jarayoniga kuchli turtki berdilar. Jadidchilik harakati faqat ma’rifiy islohot bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy-siyosiy ong transformatsiyasiga ham asos soldi. Shuningdek, jadidchilik milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni qayta baholash va zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish jarayonini boshlab berdi. Ular millat ravnaqi uchun ilm-fan, iqtisodiy mustaqillik va ma’naviy yuksalish zarurligini

asoslab berdilar. Bu jihatdan jadidchilik harakati Turkiston jamiyatida modernizatsiya jarayonining g‘oyaviy asosiga aylandi. Jumladan yana bir jadid Munavvar qori bo‘lib, “milliy maktab” asoschisi sifatida mashhurdir, hamda bolalarni chet elga o‘qishga yuborish masalalarini hal qilishga intilganlar. Mustamlakachilar qanday hunar ko‘rsatmasinlar, adib va murabbiy mahalliy boylarning boshini qovushtirib, ma‘rifatga xizmat qildiradi oldi. Shuning uchun ham u bir necha bor hibsga olinib, so‘ng qo‘yib yuborilgan.[4;23.]

Umuman olganda, jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy uyg‘onish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim tarixiy rol o‘ynadi. Ularning merosi bugungi kunda ham milliy o‘zlikni mustahkamlash, ma‘rifat va islohotchilik g‘oyalarini anglashda dolzarbligini saqlab qolmoqda.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati yuzaga kelishining sabablarini turli tarixshunoslik maktablari turlicha talqin qiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni faqat ma‘rifiy islohot harakati sifatida baholasa, boshqalar jadidchilikni milliy-ozodlik va modernizatsiya jarayonining g‘oyaviy poydevori sifatida ko‘rsatadi. Mazkur masalaga kompleks yondashuv shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali ijtimoiy-madaniy fenomen bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ma‘rifiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni qamrab olgan.

Darhaqiqat, Cho‘lpon ijodiga qaraydigan bo‘lsak, uning ijodida milliy uyg‘onish, erkinlik, ma‘rifat va ruhiy ozodlik masalalari markaziy o‘rin egallaydi. U jadidchilik g‘oyalarini badiiy tafakkur orqali chuqurlashtirib, millatning ichki uyg‘onish jarayonini ruhiy-estetik asosda talqin etadi. Adibning she‘riyati va publitsistikasida jaholat, mustamlakachilik va ijtimoiy turg‘unlik keskin tanqid qilinadi, ilm-ma‘rifat esa taraqqiyotning asosiy omili sifatida ko‘rsatiladi. Cho‘lpon milliy ozodlikni faqat siyosiy mustaqillik bilan cheklamaydi. Uning talqinida ozodlik – bu, avvalo, insonning fikriy va ma‘naviy uyg‘onishi, o‘zligini anglashi demakdir. U millatning orqada qolish sabablarini jaholat, beparvolik va ijtimoiy loqaydlik bilan bog‘laydi. Shu bois u ma‘rifatni millatni qutqaruvchi kuch sifatida ulug‘laydi. Bu jihat bilan Cho‘lpon jadidchilik harakatining ma‘rifiy dasturini badiiy-estetik darajada rivojlantirgan ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Adibning asarlarida Sharq va G‘arb munosabatlariga ham e‘tibor qaratiladi. U G‘arb ilm-fani va taraqqiyotini tan olgan holda, milliy ruh va qadriyatlarni saqlash zarurligini ta‘kidlaydi. Uning qarashlarida modernizatsiya milliylikni inkor etmaydi, aksincha, uni mustahkamlaydi. Bu yondashuv jadidchilikning “milliy modernizm” tamoyiliga hamohangdir.[5.25]

Sovet davri tarixshunosligida jadidlar faoliyati ko‘pincha “burjua millatchiligi” yoki “reaksion harakat” sifatida talqin qilindi. Bu yondashuv ideologik xarakterga ega bo‘lib, harakatning milliy uyg‘onishdagi o‘rnini yetarlicha yoritmadi. Mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda esa jadidchilik ob‘ektiv va tarixiy haqiqat asosida qayta baholandi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Avloniy kabi namoyandalarning asarlari milliy tafakkur va zamonaviylik sintezining yorqin namunasi sifatida talqin qilinmoqda.

Munozarali jihatlardan biri – jadidchilik harakatining siyosiy xarakteri masalasidir. Ayrim olimlar jadidlarni dastlab faqat ma’rifatparvar sifatida ko’rish lozimligini ta’kidlasa, boshqalar ularning faoliyatida siyosiy ong va mustaqil davlatchilik g’oyasi bosqichma-bosqich shakllanganini qayd etadi. Haqiqatan ham, dastlab ta’lim islohoti bilan boshlangan harakat keyinchalik matbuot, teatr, jamoatchilik tashkilotlari va siyosiy dasturlar orqali kengayib bordi. Bu esa jadidchilikning evolyutsion xarakterga ega ekanini ko’rsatadi. “To’g’ri, o’zbek jadid adabiyotining peshqadam vakillari Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho’lpon va Abdulla Qodiriy ijodida garchand Ibrat, Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish singari ustozlarning ma’rifatparvarlik g’oyalari yetakchilik qilgan bo’lsa-da, bu g’oyalarning ular ijodida xalq va mamlakat taqdiri ila uzviy bog’lanib ketgani bilan farqlanadi. Jadid shoir va yozuvchilarning asarlarida ifodalangan ma’rifatparvarlik g’oyalari erk va hurriyat g’oyalari bilan, mustaqillik uchun kurash g’oyalari bilan tutashib ketgan. Jadid yozuvchilari ijodidagi ma’rifatparvarlik g’oyasining sig’imi benihoya kengdir.”[6.]

Yana bir muhim masala – jadidchilikning Sharq va G’arb sivilizatsiyalari o’rtasidagi o’rni. Jadidlar G’arb ilm-fani va texnik taraqqiyotini ijobiy baholagan holda, milliy va islomiy qadriyatlarni saqlab qolish tarafdori bo’lganlar. Ular modernizatsiyani madaniy assimilyatsiya emas, balki milliy o’zlikni saqlagan holda yangilanish jarayoni sifatida tushunganlar. Shu jihatdan jadidchilikni “milliy modernizm” fenomeni sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli ko’rinadi. Turkistonda jadidlar harakatining paydo bo’lishi juda murakkab davrda yuzaga kelgan va uning mazmuni xilma xil mavzularni qamrab oladi. [7.]

Shuningdek, jadidchilik harakatining ijtimoiy bazasi ham munozaralidir. Harakat asosan ziyolilar qatlamiga tayangan bo’lsa-da, uning g’oyalari keng xalq ommasiga yetib borishga intilgan. Matbuot va yangi usul maktablari bu jarayonda asosiy vosita bo’ldi. Ammo mustamlakachilik sharoiti, siyosiy bosim va ichki ijtimoiy qarama-qarshiliklar harakatning to’laqonli rivojlanishiga to’sqinlik qildi.

Umuman olganda, ilmiy munozaralar jadidchilikni tor ma’nodagi ma’rifiy harakat sifatida emas, balki milliy uyg’onishning murakkab va ko’p bosqichli jarayoni sifatida ko’rib chiqish zarurligini ko’rsatmoqda. Bu yondashuv harakatning tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi hamda uning bugungi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog’liqligini ochib beradi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasagan tarixiy hodisa bo’ldi. U mustamlakachilik sharoitida milliy o’zlikni saqlab qolish, jamiyatni ma’rifat asosida yangilash va zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish maqsadini ko’zlagan kompleks harakat sifatida namoyon bo’ldi. Jadidlar ta’lim islohoti, matbuot, adabiyot, teatr va jamoatchilik faoliyati orqali milliy ongni shakllantirish va uyg’otishda muhim rol o’ynadilar.

Harakatning asosiy yutug’i shundaki, u milliy uyg’onish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Jadidlar millat taraqqiyoti uchun ilm-fan, zamonaviy ta’lim, iqtisodiy faollik va ijtimoiy mas’uliyat zarurligini ilgari

surdilar. Ularning faoliyati natijasida yangi avlod ziyolilari shakllandi, milliy matbuot rivojlandi va jamiyatda tanqidiy tafakkur kuchaydi. Bu esa milliy davlatchilik g'oyasining shakllanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, jadidchilik Sharq an'analari bilan G'arb modernizatsiyasi o'rtasida muvozanatli yondashuvni taklif qilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ular yangilanishni milliy qadriyatlarni inkor etmasdan, balki ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirish mumkinligini amalda ko'rsatdilar. Shu jihatdan jadidchilik harakati milliy modernizatsiyaning tarixiy modeli sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy uyg'unish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida beqiyos o'rin egalladi. Uning g'oyaviy merosi bugungi kunda ham milliy o'zlikni anglash, ma'rifat va islohotchilik tamoyillarini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: “Fan”, 2000. – 208 b.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 1999. – 280 b.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1992. – 47 b.

4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq”, 2003. – 304 b.

5. Cho'lpon. Asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1991.

6. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/naim-karimov-jadid-adabiyoti-manbalari/?lng=lat>

Makhmudova, G. T. (2006). Jadidizm va Turkistonda ahloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. - Tashkent: DAVR PRESS. <https://scholar.google.com/scholar?cluster=1121200869777874058&hl=en&oi=scholar>

## TARIX

### MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRI (X–XIV ASRLAR)



**Yulduz Xusanboyeva,**  
Farmatsevtika ta'lim va  
tadqiqot instituti  
Ijtimoiy-gumanitar  
fanlar  
kafedrası katta  
o'qituvchisi.

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda X–XIV asrlarda jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining g'oyaviy asoslari, ularning inson tarbiyasi va ahloqiy kamolotga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс формирования суфийского учения в Центральной Азии, его исторические этапы развития, а также влияние на социальную и духовную жизнь общества в X–XIV веках. Освещаются идеологические основы тариқатов Ясавия и Нақшбанди, их вклад в воспитание человека и духовное совершенствование.

**Annotation:** This article analyzes the formation of Sufi teachings in Central Asia, their historical development stages, and their impact on the social and spiritual life of society during the 10th–14th centuries. The ideological foundations of the Yasaviya and Naqshbandiya tariqahs, as well as their contribution to human education and moral and spiritual perfection, are revealed.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, Markaziy Osiyo, Yassaviya, Naqshbandiya, ma'naviyat, ahloq, islom falsafasi, tariqat.

**Ключевые слова:** Суфизм, Центральная Азия, Ясавия, Нақшбандия, духовность, мораль, исламская философия, тариқат.

**Key words:** Sufism, Central Asia, Yasaviya, Naqshbandiya, spirituality, ethics, Islamic philosophy, tarikat.

Tasavvuf islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan muhim ma'naviy-falsafiy ta'limotlardan biri hisoblanadi. U dastlab islomning ilk asrlarida, xususan, VIII–IX asrlarda musulmon jamiyatida paydo bo'lgan ruhiy-axloqiy izlanishlar natijasida vujudga kelgan. Tasavvufning shakllanishida Qur'on va hadisga tayangan holda zuhdu taqvo, sabr, ixlos, kamtarlik va Allohga muhabbat kabi g'oyalar markaziy o'rin egallagan. Ushbu ta'limot islom aqidasi va shariat



qoidalarini bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib, diniy hayotning ichki, ma’naviy-ruhiy jihatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

Tasavvuf insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tarbiyalash, ahloqiy kamolotga erishish va jamiyat bilan uyg‘unlikda yashash g‘oyalarini ilgari suradi. U faqatgina shaxsiy ruhiy tajribani emas, balki insonning ijtimoiy mas’uliyati, mehnatga munosabati va jamiyatdagi ahloqiy muvozanatni ta’minlashni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan tasavvuf ta’limoti musulmon jamiyatlarida ahloqiy me’yorlar, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan.

Metodologiya: Tadqiqot jarayonida tarixiy-falsafiy, manbashunoslik, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. X–XIV asrlarga oid tasavvufiy asarlar, tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida o‘rganildi.

Asosiy qism: Markaziy Osiyo hududi tasavvuf tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu mintqa islom madaniyati va ilm-fanining yirik markazlaridan biri bo‘lib, tasavvufiy g‘oyalar aynan shu hududda chuqur ildiz otgan va xalqning kundalik hayoti, madaniyati hamda ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan.

Aslida VII asrda vujudga kelib Osiyo, Afrika va Evropaning ko‘plab o‘lkalariga kirib borgan islom dini ushbu mintaqalar hayotida yangicha ijtimoiy va insoniy munosabatlar bilan birga o‘ziga ahloqiy qadriyatlarni, insoniylik me’yor hamda mezonlarini ham taqdim etdi. Islom ta’limoti asosida shakllangan, insoniylik tamoyillariga tayangan tasavvuf ta’limoti insonning o‘zligini dunyoning har qanday moddiy ne’matlari, hoyu-havasi, lazzatlaridan ustun qo‘yish, odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda murosa madaniyatiga amal qilishdek fazilatlarni targ‘ib qildi. Arab olimi Abdulqodir Iso islomning ilk asrlarida tasavvufga hech qanday ehtiyoj bo‘lmaganligi, chunki, bu davrda shundoq ham xudojo‘y va taqvodor kishilar o‘zini butunlay Allohga bag‘ishlagan insonlar zamoni bo‘lganligini ta’kidlaydi [6.2.]

Ma’lumki, IX asrda tasavvufda malomatiyya mazhabi yuzaga kelgan. Bu mazhabning markazi Nishopur bo‘lgan, E.Bertels malomatiyya mazhabiga mansub kishilar uchun o‘z-o‘zini komillashtirish, yurakni poklash bosh vazifa hisoblanganligini yozgan. “...Malomatiyya – bu insonning o‘z-o‘zini tahlildan o‘tkazish, tahlil etgan sayin qusuri nuqsonlar uchun o‘zni ayamalik va ularni malomat tilida fosh qilmoq yo‘lidir. Bu yo‘lda odam barcha yomon xislatlarini sira yashirmasdan oshkor qilavergan. Malomatiyyachilar matonat uchun kurashganlar [1.18.]

X–XIV asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvufiy tariqatlar diniy hayot doirasidan chiqib, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojida muhim omilga

aylandi. Tasavvuf bu davrda shaxsiy ruhiy kamolot yo‘li sifatida shakllanish bilan birga, ahloqiy me‘yorlarni mustahkamlovchi, ijtimoiy adolat, mehnatsevarlik va jamoaviy hamjihatlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi ta‘limot sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur davrda tasavvufda muhim tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi: avvalgi zohidlikka asoslangan individual ruhiy tajribalar tizimli tariqatlar shakliga keldi, murshid–murid munosabatlari aniq qoidalar asosida yo‘lga qo‘yildi, zikr va riyozat amaliyotlari tartibga solindi. Shuningdek, tasavvuf xalqona ruh kasb etib, madrasalar, xonaqohlar orqali keng ijtimoiy qatlamlar hayotiga singib bordi.

Natijada tasavvuf nafaqat diniy tafakkurni boyitdi, balki adabiyot, san‘at, ahloqiy tarbiya va ijtimoiy ong shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib, Markaziy Osiyo madaniy muhitining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

“Tasavvuf ta‘limotining paydo bo‘lishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, strukturasi, boshqa tarixiy ta‘limotlar bilan qiyosiy tahlili, uning inqiroziga oid muammolarga ingliz olimlari A.J.Arberry, A.M.Shimmel, Dj.S.Trimingem, yapon, hind, eronlik sharqshunoslar T.Izutsu, Idris Shoh, H.Korbin ishlarida alohida e‘tibor qaratilgan, tasavvuf tarixi, tasavvuf ilmi allomalari dunyoqarashi, falsafiy-irfoniy ta‘limoti U.Chittik, D.Knishning izlanishlarida chuqur tadqiq etilgan, mutasavvif allomalar asarlari tarjima qilinganligini alohida qayd etib” ularning asarlaridagi tasavvuf to‘g‘risidagi tub falsafiy mohiyatni tushunishga harakat qiladi. [2.8.]

Tasavvufning Markaziy Osiyoda shakllanishi islom dinining ushbu hududga kirib kelishi va asta-sekin mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg‘unlashuvi jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Dastlabki davrlarda tasavvuf asosan zuhdu taqvo, dunyoviy ne‘matlardan voz kechish, nafsni tiyish va ruhiy poklanish g‘oyalariga tayangan holda rivojlangan. Bu bosqichda tasavvuf shariat ahkomlarini chuqurroq anglash va amalda tatbiq etishga qaratilgan ichki ma‘naviy yo‘l sifatida namoyon bo‘lgan.

Tasavvuf tarixida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ko‘plab buyuk allomalar muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy (1093–1166-yillar, ba‘zi manbalarda tug‘ilgan yili 1103 deb ham ko‘rsatiladi, ammo 1093–1166 eng keng tarqalgan sanaladi) tasavvufni xalqchil ruhda talqin qilib, uni turkiy xalqlar orasida keng yoygan bo‘lsa, Bahouddin Naqshband (1318–1389-yillar Buxoro atrofida faoliyat yuritgan) Naqshbandiya tariqatiga asos solib, tasavvufni faol ijtimoiy hayot va mehnat bilan uyg‘unlashtirdi. Shuningdek, Hakim Termiziy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy, taxm. 820-yil, ba‘zi manbalarda 830-yil ham uchraydi), Najmiddin Kubro (1145-1221-yillar Xorazmda yashab ijod qilgan, mog‘ullar istilosi davrida vafot etgan) va Abduholiq G‘ijduvoni (taxm. 1103-yil

Naqshbandiya silsilasining ilk namoyandalaridan biri) kabi mutasavviflar tasavvufiy tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning ta'limotlari Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va ahloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Shu bois tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyoti va Markaziy Osiyodagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat diniy-falsafiy merosni anglash, balki bugungi jamiyatning ma'naviy taraqqiyot masalalarini chuqurroq tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Har bir jamiyatning ma'naviyati inson kamolotining u yoki bu bosqichiga xos bo'lgan iymon va e'tiqodi, ahloq-odobi, tajriba va malakasini o'z ichiga oladi va kishilarning faoliyati, iste'dodi, qobiliyati, yurish-turishida namoyon bo'ladi. Kishilarning ma'naviy fazilatlarini, dunyoqarashi, mafkuraviy e'tiqodi bilan bog'lanib muayyan tartibga tushadi va ularning bevosita ta'siri natijasida jamiyat oldidagi vazifalarini anglashga yordam beradi. [3.6.]

Ilk o'rta asrlardan boshlab Hakim Termiziy tasavvufning nazariy masalalarini o'rganib, uning ta'limot darajasida ko'tarilishga ta'sir ko'rsatadi. Abu Bakr Kalobodiy, Mustamliy Buxoriylar esa Movarounnahr tasavvuf maktablarining shakllanishiga, ta'limotning tizimlashtirilishiga ta'sir qiladi. Abu Bakr Kalobodiyning "At-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf", "Bahrul-favoid", Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf", Hujviriyning "Kashf ul-mahjub" asarlari tasavvuf tarixi, tasavvufning nazariy jihatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Markaziy Osiyoda tasavvufning xalq orasida keng yoyilishida Xoja Ahmad Yassaviyning o'rni beqiyosdir. Uning ta'limoti tasavvufni murakkab falsafiy tushunchalardan holi, sodda va tushunarli shaklda xalq ongiga singdirishga xizmat qilgan. Ahmad Yassaviy o'zining "Hikmatlar"ida insonning ahloqiy poklanishi, halollik, sabr-toqat va Allohga muhabbat g'oyalarini ilgari surib, tasavvufni xalq ma'naviyatining ajralmas qismiga aylantirdi. Yassaviylik tariqati orqali tasavvufiy g'oyalar turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, ularning diniy-ahloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

XIII asrda Markaziy Osiyoda tasavvuf taraqqiyotida yangi bosqichni Najmiddin Kubro faoliyati boshlab berdi. U asos solgan Kubraviya tariqati tasavvufda ruhiy kamolot bilan bir qatorda ilmiy tafakkur va ma'rifatga katta ahamiyat berdi. Najmiddin Kubro tasavvufni faqatgina shaxsiy ibodat va zohidlik bilan cheklamasdan, inson tafakkuri, idrok va ruhiy holatlarini chuqur tahlil qilishga intildi. Uning qarashlarida tasavvuf ilmiy-falsafiy asoslar bilan boyitilib, murid tarbiyasiga tizimli yondashuv shakllandi.

XIV asrga kelib Bahouddin Naqshband tomonidan asos solingan Naqshbandiya tariqati tasavvufni faol ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashtirgan

ta'limot sifatida shakllandi. Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan “dil ba yoru dast ba kor” (ko'ngil Xudo bilan, qo'l mehnatda) g'oyasi tasavvufning jamiyatdan uzilgan holda emas, balki kundalik mehnat va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishini ifodalaydi. Bahouddin Naqshband tasavvufni jamiyat ahloqini mustahkamlovchi, halol mehnat va ijtimoiy adolatni targ'ib etuvchi ma'naviy kuch sifatida talqin qilgan.

O'zbek olimi Najmiddin Komilov o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tasavvufini xalq ma'naviy tafakkurining yuksak namunasi sifatida baholab, uni islom madaniyatining muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. U tasavvufni shariat, tariqat va haqiqat bosqichlari orqali inson kamolotini ta'minlovchi mukammal tizim sifatida talqin etib, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. N.Komilovning fikricha, tasavvuf Markaziy Osiyo xalqlarining ahloqiy qadriyatlari va madaniy o'zligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. U so'fiylar haqida shunday deb yozadi: “Ana shunday, davrlarning almashinishi, shohlarning o'zgarishi, siyosat riyosat darvesh so'fiyning e'tiqodiga, hulqiga ta'sir qilmasligi kerak, so'fiy mayda manfaatlar, odamlarning kundalik tashvishlarigina emas, umuman foni dunyoning g'am-u muammolaridan ustun turadigan, tafakkurining sathi falaklar qadar qamrovli, qalbida ma'nolar bulog'i qaynab turgan komil inson hisoblangan.”[4.13.] Tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu tasavvur Sharq tasavvuf tafakkurida shakllangan komil inson idealining ifodasidir. O'rta asrlarda siyosiy hokimiyat tez-tez almashib turgan, sulolalar o'zgarib, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik kuchaygan davrlarda darvesh va so'fiylar jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida maydonga chiqqanlar. Ular dunyoviy hokimiyat va siyosiy manfaatlardan nisbatan mustaqil turib, ruhiy-ahloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yganlar.

Tasavvuf ta'limotida so'fiy shaxs tarixiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lsa-da, ichki e'tiqodi va ahloqiy pozitsiyasi jihatidan zamon va siyosat ta'siridan yuksak turuvchi komil inson sifatida talqin etilgan. Bu g'oya, ayniqsa, ijtimoiy tanglik va ma'naviy inqiroz davrlarida xalq ongida barqarorlik va umid ramziga aylangan. So'fiylarning falak qadar keng tafakkuri va ma'noga boy qalbi haqidagi tasvirlar ularning nafaqat diniy arbob, balki ma'naviy-ma'rifiy yetakchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tarixiy shaxs sifatidagi mavqeini ifodalaydi. Shu bois, bunday qarashlar tarixan siyosiy hokimiyatdan mustaqil ma'naviy institut sifatida tasavvufning shakllanishi va uning jamiyat hayotidagi o'rnini anglash uchun muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

“Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e'zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shu'uriga qattiq ta'sir

o'tkazganlar va ma'naviyat sultonlari bo'lib maydonga chiqqanlar. Ularning so'zi va harakati, xislat va ahloqi hammaga ibrat qilib ko'rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini yetkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan." [4.13-14] Darhaqiqat, ushbu fikrda Sharq diniy-mazhabiy va tasavvufiy an'analaridagi avliyo-shaxslar mavqei yoritiladi. O'rta asrlar va keyingi davrlarda musulmon jamiyatlarida "avliyo"lar faqat diniy ulamolar emas, balki ijtimoiy va ma'naviy institut sifatida faoliyat yuritganlar. Ular xalq ongida ruhiy hokimiyat ramzi sifatida qabul qilingan, shuning uchun matnda ularni "xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar" deb e'zozlashadi.

Bu shaxslar ma'naviyat sultonlari sifatida nafaqat diniy bilim va ibodat bilan, balki atrofdagilar ruhiyatiga, ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatish orqali jamiyatni tartibga soluvchi va ahloqiy namuna sifatida tanilgan. Ularning so'zi, harakati va xislatlari hammaga ibrat bo'lib, tarixiy manbalarda ko'pincha ma'naviy va siyosiy etalon sifatida tilga olingan. [5.288-292.]

Shuningdek, matnda ta'kidlanganidek, ularning duolari va xayrli ishlari ijtimoiy barqarorlik va obodonlik bilan bog'langan. Bu tarixiy jihatdan o'sha davr jamiyatlarida diniy yetakchilarning xalq hayoti, tinchlik va farovonlikdagi o'rini ko'rsatadi. Avliyo va tasavvuf arboblari nafaqat shaxsiy ibodat bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy salomatligi va butunligiga bevosita ta'sir qilgan. Shunday qilib, tasavvuf Markaziy Osiyoda nafaqat diniy-ruhiy ta'limot, balki jamiyatning ma'naviy hayoti, ahloqiy me'yorlari va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida shakllangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tasavvuf ta'limoti Markaziy Osiyoda ahloqiy me'yorlar, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Tasavvufni faqat individual ruhiy tajriba sifatida talqin qilish uning jamiyat hayotidagi real ta'sirini to'liq ochib bera olmaydi. Mazkur tadqiqot tasavvufning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini kengroq talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda X–XIV asrlarda tasavvuf ta'limoti jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan. Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi nafaqat diniy-ma'rifiy jihatdan, balki inson tarbiyasi va ahloqiy kamolotni rivojlantirish borasida ham chuqur iz qoldirgan. Ushbu tariqatlar orqali insonning ruhiy salohiyati, sabr-toqat, mehr-oqibat va adolat kabi ahloqiy fazilatlarini tizimli ravishda shakllantirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida mustahkam zamin yaratgan, shuningdek,



bugungi kunda ham insonparvarlik, ahloqiy poklik va ruhiy kamolotga oid qadriyatlarni o‘rganish va tatbiq etish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yassaviy Ahmad. Hikmatlar. A.Qayumov va boshqalar. – Toshkent. “Adabiyot va san’at”. 1991. – 256 b.
2. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining konseptual mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Alfraganus universiteti, 2025. – 257 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent. “Universitet”, 1998. – 183 b.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent. - “Movarounnahr”- O‘zbekiston, 2009. – 447 b.
5. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasining ko‘rma’noli mohiyati. “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajar”. Ilmiy-nazariy anjuman. “Alfraganus university”. 4(26), Nov., 2024. – 288 b.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/ix-xiv-asrlardaovarounnahrda-tasavvuf-va-uning-rivoji>

**TARIX****XX ASR DAVRIY MATBUOTIDA ATEIZM TARG‘IBOTI  
(XORAZM MISOLIDA)**

**Bobojanova Gulhayo,  
Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
davlat  
universiteti mustaqil  
tadqiqotchisi.**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Maqolada o‘tgan asr davriy matbuoti orqali ateizm targ‘ibotining Xorazm misolida qanday amalga oshirilgani tahlil qilinadi. Maqsad — davriy gazetalar va jurnallar orqali jamoatchilikka ilmiy-ateistik g‘oyalarni etkazish usullari, ularning ijtimoiy va madaniy ta’siri hamda mahalliy aholi hayotiga ta’sirini o‘rganish.

**Аннотация:** Статья анализирует, как проводилась пропаганда атеизма в периодической печати прошлого века на примере Хорезма. Цель — изучить методы передачи научно-атеистических идей обществу через газеты и журналы, их социальное и культурное воздействие, а также влияние на жизнь местного населения.

**Annotation:** The article examines how atheistic propaganda was conducted in the periodical press of the last century, using Khorezm as a case study. The aim is to explore the methods of conveying scientific-atheistic ideas to the public through newspapers and magazines, their social and cultural impact, and their influence on the life of the local population.

**Kalit so‘zlar:** davriy matbuot, ateizm targ‘iboti, Xorazm, gazetalar, jurnallar, sovet davri.

**Ключевые слова:** периодическая печать, пропаганда атеизма, Хорезм, газеты, журналы, советский период.

**Key words:** periodical press, atheistic propaganda, Khorezm, newspapers, magazines, Soviet period.

O‘tgan asr davriy matbuoti Xorazmda aholi orasida ilmiy-ateistik g‘oyalarni tarqatishda muhim vosita bo‘lgan. Gazeta va jurnallar orqali ateizm targ‘iboti nafaqat ideologik maqsadlarda, balki ijtimoiy va madaniy hayotni shakllantirishda ham samarali qo‘llanilgan. Maqolada Xorazm misolida davriy matbuotning ateizm g‘oyalarini keng aholi qatlamlariga etkazish usullari, ularning ijtimoiy ta’siri va mahalliy aholi hayoti bilan bog‘liqlik shakllari tahlil qilinadi. Tadqiqot tarixi va arxiv materiallari asosida olib borilgan bo‘lib, natijada davriy matbuotning mahalliy madaniy va axborot fazosidagi o‘rni ochib berilgan.

Mazkur tadqiqotda Xorazmda davriy matbuot orqali ateizm targ'ibotini o'rganishda turli manbalardan foydalanildi. "Xorazm haqiqati" va "Lenin yo'li" gazetolari (1977 yil 9 may, №56) da chop etilgan maqolalar davriy matbuotning ideologik vazifalarini, jumladan ateistik g'oyalarni keng aholi qatlamlariga etkazish usullarini ko'rsatishda asosiy manba bo'ldi. Ushbu gazeta materiallari orqali ateizm targ'ibotining ijtimoiy hayot va mahalliy madaniy muhit bilan bog'liqligi hamda davriy matbuotning mahalliy aholi hayotiga ta'siri tahlil qilindi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tadqiqotning nazariy asosini mustahkamladi. Rahmonov (2018)ning "O'zbek matbuoti tarixiga doir mulohazalar" maqolasi davriy matbuotning tarixiy rivoji va ideologik funktsiyalarini o'rganishda muhim fikrlar taqdim etdi. Hamidov (2005)ning O'zbek matbuoti tarixi asari esa o'zbek matbuotining shakllanish bosqichlari, turli davrlardagi gazetalar va jurnallar orqali jamoatchilikka etkazilgan g'oyalarning xususiyatlari haqida aniq ma'lumot berdi. Xaydarov (2015)ning Sovet mafkurasi va mahalliy matbuot kitobi esa sovet ideologiyasi va mahalliy matbuot o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek ateizm targ'ibotining amaliy vositalari va ta'sirini tahlil qilishda muhim manba sifatida qo'llanildi.

Ushbu manbalar asosida davriy matbuotning Xorazmda ateizm g'oyalarini keng aholi qatlamlariga etkazishdagi roli, ijtimoiy va madaniy ta'siri hamda hududiy bog'liqlik shakllari aniqlash imkoni yaratildi.

Mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor davriy matbuot orqali ateizm targ'ibotini Xorazm misolida o'rganishga qaratildi. Tadqiqotda uchta asosiy usul qo'llanildi. Birinchisi — *tarixiy-tahliliy usul*, bu orqali gazetalar, jurnallar va arxiv hujjatlari tahlil qilinib, davriy matbuotning shakllanishi, tarqatilishi va Xorazmda ateizm g'oyalarini keng aholi qatlamlariga etkazishdagi tarixi va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati o'rganildi. Ikkinchisi — *kontent-tahlil* usuli, ya'ni davriy matbuotda chop etilgan materiallarning mazmuni tizimli ravishda o'rganilib, ateizm g'oyalarining auditoriyaga qanday tarzda etkazilgani, ularning ijtimoiy va madaniy ta'siri hamda hududiy xususiyatlari aniqlandi. *Qiyosiy tahlil* esa matbuotning ushbu muammoni yoritishdagi uslubiy va mazmuniy o'zgarishlarini aniqlash imkonini berib, uning faqat axborot tarqatuvchi emas, balki tarbiyaviy va ideologik ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatidagi rolini ochib beradi. Ushbu usullar orqali tadqiqot nazariy va amaliy jihatdan asoslanib, davriy matbuotning Xorazmdagi ahamiyati va ta'sir mexanizmlari ochib berildi.

Ateizm (grekchadan «xudoga e'tiqodsiz») — bu Xudo, xudolar va oliy kuchlarning mavjudligini inkor qiluvchi dunyoqarash bo'lib, ilmiy dalillar va mantiq asosida shakllanadi. Ateistlar dinni inson ijodi sifatida ko'radi va ko'pincha evolyutsionizm nazariyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ateizmning teoretik va amaliy, shuningdek ilmiy va tabiiy kabi turlari mavjud. Unda axloq va etika inson tabiatidan kelib chiqib rivojlanadi, davlat ateizmi esa dinga qarshi kurashishga qaratilgan ideologiya sifatida SSSR va boshqa davlatlarda amalga oshirilgan. Ateizmni agnostitsizm yoki skeptitsizm bilan adashtirish xato, garchi ateistlar ko'pincha skeptik qarashga ega bo'lsalarda.

XX asrda amalga oshirilgan sovet siyosiy yo'nalishlaridan biri ateizmga qaratilgan bo'lib, uni targ'ib qilishning asosiy quroli davriy nashrlar bo'ldi. Matbuotning ushbu muammoni yoritishda faqat axborot tarqatuvchi emas, balki tarbiyaviy va ideologik ta'sir ko'rsatuvchi vosita rolini o'ynadi. Sahifalarda dinning faqat yomon jihatlarini oshirilib yozila boshlandi. Xorazm aholisining ming yillik qadriyatlari, xalq bilimlari tizimi din ideologiyasi bilan qorishtirib tashlandi.

“Xorazm haqiqati” gazetasining 1941 yil 19-yanvar sonida U.Abdushukurovning “Qurbon hayiti mehnatkashlarning dushmani” sarlavhali maqolasi va “Din va uning qurbon hayitiga qarshi” nomli maqolasida “mehnatkashlarni siyosiy va milliy zulmga mahkum etish quroli bo'lgan din va uning ildizlari sotsilazim g'alabalari tufayli tor-mor keltirildi” [1], deb bong urilgan.

Maqolalardagi ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz: “Sotsialistik qurilishning buyuk g'alabalari dunyodagi eng ilg'or fan bo'lgan sovet fanining va aholining o'sib borayotgan madaniy darajasining yuksalishi ta'siri ostida mehnatkashlar borgan sari dindan va uning asoratlaridan uzoqlashmoqda. Mehnatkashlar diniy marosimlarni bajarishdan, ya'ni ro'za tutish va qurbonlik qilishdan voz kechib, kurashchan xudosizlar soyuziga uyushmoqdalar. Hozir oblastimizning fabrika zavodlarida, kolxoz-MTSlarida va barcha maktab, muassalarda 382 ta “Boshlang'ich kurashchan xudosizlar soyuzi”ga 12600 dan ortiq kishi a'zo bo'lib kirgan. Bu zo'r kuch mehnatkashlar o'rtasida dinga qarshi agitatsiya va propaganda olib bormoqda” [1.3]. Sovet davri matbuotida dinga qarshi targ'ibot qat'iy ideologik ruhda, «samaradorlik» va «mehnat unumdorligi» tushunchalari bilan bog'lab asoslandi. Bunday materiallarda din inson ongini «zaharlovchi», jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, keksa avlod vakillarining diniy e'tiqoddan voz kechishi «ijtimoiy yutuq» sifatida

ko'rsatilib, ularning mehnat faoliyati ideologik namunaga aylantirilgan. Qo'shko'pir tumanidagi «86 polk» kolxozi a'zosi Juman bobo misolida ham shaxsning diniy qarashlardan voz kechishi uning mehnatdagi faolligi bilan bevosita bog'langan holda yoritiladi. Biroq bu kabi misollar zahirida shaxsiy tanlov emas, balki davlat tomonidan olib borilgan mafkuraviy bosim, ijtimoiy maqbullik va majburiy kollektivizm yotganini ko'rish mumkin. Hozirgi davr nuqtai nazaridan qaralganda, bunday matnlar din va e'tiqod erkinligini inkor etgan holda, inson qadr-qimmatini ideologik maqsadlarga bo'ysundirishga xizmat qilgan axborot vositalari namunasi sifatida baholanadi. Sovet davri matbuotida diniy bayramlar, xususan Qurbon hayiti, jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi va iqtisodiy zarar etkazuvchi omil sifatida talqin qilingan. Bunday materiallarda din va «eskilik urf-odatlarini» qasddan qoralanib, ular «qoloqlik», «buzg'unchilik» va «ekspluatatsiya» tushunchalari bilan bog'langan. Qurbonlik marosimi esa nafaqat diniy an'ana, balki qishloq xo'jaligiga, ayniqsa chorvachilikka zarar etkazuvchi «dushmanona harakat» sifatida ko'rsatilgan. Matbuotda ayrim hududlarda kolxozchilarning chorvasini qurbonlikka so'yishi misol qilib keltirilib, bu holatlar diniy ta'sir natijasi sifatida baholangan.

Shu bilan birga, diniy ulamolar obrazi «niqoblangan», «xalq dushmani» sifatida tasvirlanib, ular aholini mehnatdan chalg'ituvchi va «xudo», «oxirat», «do'zax» kabi tushunchalar orqali qo'rqituvchi kuch sifatida yoritilgan. Bunday yondashuv Marks va Lenin qarashlariga tayanilgan holda, dinni «ekspluatatorlar quroli» sifatida talqin qilishga xizmat qilgan. Hozirgi davr nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu materiallar ilmiy tahlildan ko'ra mafkuraviy ta'sirni ko'zlab, din va e'tiqod erkinligini inkor etgan, diniy an'analarni ijtimoiy muammolarning yagona sababi sifatida ko'rsatgan axborot namunasi sifatida baholanadi. Ular orqali sovet matbuotining ateistik targ'iboti qanday qat'iy, keskin va biryoqlama shaklda olib borilganini ko'rish mumkin.

U. Abdushukurovning yuqoridagi maqolasiga qaytamiz, unda “sotsialistik proletariatning partiyasiga nisbatan din xususiy ish emas. Bizning partiyamiz ishchilar sinfining ozodligi uchun kurashdigan ongli, ilg'or kurashchilarning ittifoqidir. Bunday ittifoq ongsizlikka, zulmatga yoki diniy e'tiqodlar shaklidagi johllikka beparvolik bilan qarayolmaydi va qaramasligi kerak”. Din va diniy sarqitlarga qarshi “yerda hayotning paydo bo'lishi haqida din va fan, quyosh va oyning tutilishi” yer qimirlashi va tush ko'rishning sabablari” kabi ommabop dokladlar, leksiyalar va suhbatlar o'tkazish, kino va teatrlarda din qarshi badiiy



asarlar ko'rsatish, radio orqali dinning kommunizm dushmani ekanligini ta'sirli tushuntirib berish kerak....." ta'kidlanadi.

Sovet davri mahalliy matbuotida diniy marosimlar, xususan Qurbon hayitiga munosabat masalasi keskin ideologik ruhda yoritilgan bo'lib, u davlatning ateistik siyosatini amalga oshirishda muhim targ'ibot vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, 1920–1930-yillarda «Qizil O'zbekiston», «Pravda Vostoka», «Yosh leninchi» kabi nashrlarda e'lon qilingan “Din – ekspluatatorlar quroli”, “Diniy bayramlar va mehnat intizomi”, “Qurbonchilik va kolxoz xo'jaligiga zarar” [2] kabi maqolalarda ham Qurbon hayiti va boshqa diniy marosimlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga zid hodisa sifatida talqin etiladi.

Muxbir U. Abdushukurovning “Qurbon hayiti mehnatkashlarning dushmani” sarlavhali maqolasi hamda “Din va uning Qurbon hayitiga qarshi” nomli material mazkur yo'nalishdagi tipik publitsistik manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur materiallar janr jihatidan agitatsion-publitsistik maqola bo'lib, ular rasmiy mafkurani ommaga singdirishga qaratilgan. Matnlarda mualliflik pozitsiyasi keskin va biryoqlama bo'lib, diniy e'tiqod ijtimoiy taraqqiyotga zid, “mehnatkashlarni siyosiy va milliy zulmga mahkum etuvchi qurol” sifatida talqin qilinadi. Ushbu manbalar rasmiy sovet mafkurasi asosida yozilgani bois, tarixiy voqelikni to'liq va xolis aks ettirmaydi, biroq ular davr ideologik muhitini, davlat va matbuot munosabatini anglash uchun muhim manba hisoblanadi.

Maqolalarning asosiy maqsadli auditoriyasi mehnatkashlar — kolxozchilar, ishchilar, yoshlar va ziyolilar bo'lib, ular orasida diniy e'tiqoddan voz kechish, ateistik dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Matnda din va diniy marosimlar sotsialistik qurilishga qarshi kuch sifatida ko'rsatiladi. Qurbon hayiti “xalq uchun zararli”, “chorvachilikka putur yetkazuvchi” va “dushman elementlar foydalanuvchi qurol” sifatida talqin etilib, diniy marosimlar iqtisodiy zarar bilan bog'lanadi. Bu usul sovet matbuotida keng qo'llanilgan bo'lib, diniy e'tiqodni nafaqat mafkuraviy, balki xo'jalik nuqtai nazaridan ham zararli hodisa sifatida ko'rsatishga xizmat qilgan.

Maqolada statistik ma'lumotlar (382 ta boshlang'ich “kurashchan xudosizlar soyuzlari”, 12 600 dan ortiq a'zolar) keltirilishi propagandaning ishonchliligini oshirishga qaratilgan uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Juman bobo kabi konkret shaxs misolida keltirilgan lavhalar “namunaviy obraz” yaratish orqali o'quvchini ruhiy jihatdan ishontirishga xizmat qiladi.

Mazkur materialda matbuot faqat axborot beruvchi emas, balki faol tashkiliy va tarbiyaviy institut sifatida namoyon bo'ladi. Dinga qarshi kurashish uchun ommabop leksiyalar, dokladlar, kino, teatr, radio orqali targ'ibot olib borish zarurligi ta'kidlanib, matbuot bu jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. Marks va Lenin asarlariga murojaat qilinishi esa mafkuraviy legitimatsiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur materiallar tarixiy voqelikni baholashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Ular diniy hayotni biryoqlama, keskin salbiy ranglarda tasvirlagan bo'lsa-da, sovet davrida davlat–matbuot–jamiyat munosabatlari, ateistik siyosatning amalga oshirilish mexanizmlari va matbuotning mafkuraviy qurol sifatidagi rolini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, U. Abdushukurov maqolasining o'ziga xos tomoni shundaki, unda diniy marosimlarga qarshi kurash faqat mafkuraviy emas, balki xo'jalik-iqtisodiy zarar bilan bevosita bog'lanadi. Chorva mollari qurbonlikka so'yilishi misolida kolxoz xo'jaligiga yetkazilgan zarar konkret hududlar (Shovot, Urganch, Xiva rayonlari) misolida ko'rsatilib, muammo mahalliyashtiriladi. Bu esa boshqa umumiy xarakterdagi maqolalarga nisbatan uning ta'sirchanligini oshirgan.

Shu bilan birga, aksariyat maqolalarda bo'lgani kabi, bu materialda ham “namunaviy qahramon” (Juman bobo) obrazi orqali diniy e'tiqoddan voz kechgan mehnatkash modeli targ'ib qilinadi. Bu uslub Qurbon hayitiga qarshi maqolalarning deyarli barchasida uchrab, sovet publitsistikasining tipik targ'ibot usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur materiallarni “din – matbuot – davlat siyosati” uchburchagi doirasida tahlil qilish sovet davridagi ateistik siyosat mexanizmlarini anglash imkonini beradi.

Birinchidan, din matbuotda mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki sinfiy dushmanlik vositasi, “ekspluatatorlar quroli” sifatida talqin etiladi. Qurbon hayiti esa diniy marosim bo'lishi bilan birga, xalq xo'jaligiga zarar yetkazuvchi va mehnat intizomini buzuvchi omil sifatida ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, matbuot ushbu talqinni ommaga yetkazuvchi asosiy ideologik kanal vazifasini bajaradi. Gazeta sahifalarida dinning “soxtaligi” fan yutuqlari, Marks va Lenin qarashlari bilan “isbotlanadi”, statistik ma'lumotlar va hayotiy

misollar bilan mustahkamlanadi. Shu tariqa matbuot faqat axborot beruvchi emas, balki dunyoqarashni shakllantiruvchi faol subyektga aylanadi.

Uchinchidan, davlat siyosati mazkur jarayonning yo‘naltiruvchi va nazorat qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi. Kurashchan xudosizlar soyuzlari faoliyati, dinga qarshi leksiyalar, kino, teatr va radio orqali olib borilgan targ‘ibot davlatning rejalashtirilgan ateistik siyosatini ko‘rsatadi. Matbuot esa bu siyosatni qonuniylashtiruvchi va ommalashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, mazkur konseptual model doirasida Qurbon hayitiga qarshi maqolalar dinni ijtimoiy hayotdan siqib chiqarish jarayonining muhim mafkuraviy bo‘g‘ini sifatida talqin etilishi mumkin.

sovet davri mahalliy matbuotida Qurbon hayiti va umuman diniy marosimlarga qarshi olib borilgan targ‘ibot davlatning ateistik siyosatini amalga oshirishda muhim mafkuraviy vosita bo‘lgan. U. Abdushukurovning mazkur maqolalari diniy e‘tiqodni mehnatkashlar ongidan siqib chiqarish, ularni sotsialistik qadriyatlarga yo‘naltirish va ishlab chiqarish manfaatlariga bo‘ysundirishga qaratilgan matbuot strategiyasining yorqin namunasi hisoblanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qurbon hayitiga bag‘ishlangan maqolalar mazmunan bir yo‘nalishda bo‘lsa-da, ularning mahalliy misollar, statistik ma‘lumotlar va shaxsiy obrazlar bilan boyitilishi matbuotning ta’sirchanlik darajasini oshirgan. “Din – matbuot – davlat siyosati” modeli esa matbuotning sovet jamiyatida mustaqil institut emas, balki davlat mafkurasini amalga oshiruvchi tizimli mexanizm sifatida faoliyat yuritganini ochib beradi. Ushbu materiallar matbuotning mehnatkashlar ongini shakllantirish, diniy e‘tiqoddan uzoqlashtirish va sotsialistik qadriyatlarni singdirishdagi faol rolini ko‘rsatadi. Shu bois ular dissertatsiyada diniy siyosat, ateistik targ‘ibot va matbuotning mafkuraviy funksiyalarini tahlil qilishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi

Sovet davrida dinga qarshi olib borilgan siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri aholining mafkuraviy tayyorgarligini ta’minlaydigan maxsus kadrlarni shakllantirish hisoblangan. Bu jarayonda mahalliy matbuot dinga qarshi targ‘ibot ishlarining tashkiliy va metodik jihatlarini yorituvchi muhim axborot maydoni vazifasini bajargan. B. Qurbonboev tomonidan tayyorlangan “Ateistik lektor seminari” nomli qisqa xabar mazkur yo‘nalishdagi tipik manbalardan biri sifatida e‘tiborga loyiqdir.

“Ateistik lektor seminari” [3] (B.Qurbonboev) mavzusidagi qisqa xabarda quyidagi keltiriladi: “Oblast siyosiy maorif uyida O‘zbekiston KP Xorazm

komiteti qoshida ochilgan ateist lektorlar tayyorlash bir oylik kursi bitiruvchilarining ikki kunlik skminat kecha 17 iyunda o‘z ishini boshladi. Seminarning birinchi kunida O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat Xavfsizligi komiteti Xorazm oblast bo‘limi boshlig‘i A.Salimgareev “Hozirgi zamon ideologik kurashida din”, oblast partiya komitetining lektori I.Yusupov “Hozirgi davrdagi ideologik kurash” degan temalarda leksiylar o‘qidlilar. Seminar qatnashchilari bo‘lgan ateist lektor o‘zaro tajriba almashdilar. Seminar o‘z ishini ertaga davom ettiradi”. Mazkur material janr jihatidan axborot xabari bo‘lib, unda baholovchi yoki munozarali elementlar deyarli uchramaydi. Biroq mazmunan u rasmiy mafkuraviy siyosatning amalga oshirilish jarayonini yoritadi. Xabarda aniq vaqt (17 iyun), joy (Oblast siyosiy maorif uyi), tashkiliy subyektlar (O‘zbekiston KP Xorazm komiteti) va ishtirokchilar ko‘rsatilgan bo‘lib, bu uning hujjatli va ishonchli manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, mazkur xabar rasmiy-siyosiy matbuot mahsuli bo‘lgani bois, u ideologik jihatdan neytral emas, balki davlatning ateistik siyosatini qonuniy va zarur jarayon sifatida taqdim etishga xizmat qiladi. Xabarda e’tibor qaratiladigan muhim jihatlardan biri — ateist lektorlarni tayyorlash jarayonining institutsionallashtirilgan shaklda olib borilganidir. Bir oylik kurs, ikki kunlik seminar, lektorlar tarkibi va mavzularning aniqligi dinga qarshi targ‘ibot tasodifiy emas, balki markazlashgan va rejalashtirilgan siyosat asosida olib borilganini ko‘rsatadi. Seminarda Davlat Xavfsizligi komiteti oblast bo‘limi rahbarining ishtiroki va uning “Hozirgi zamon ideologik kurashida din” mavzusida ma’ruza qilishi dinga qarshi siyosatning faqat madaniy yoki ma’rifiy emas, balki davlat xavfsizligi va siyosiy barqarorlik masalasi sifatida ham qaralganini anglatadi. Bu holat sovet mafkurasida din “ideologik raqib” sifatida baholanganining yaqqol ifodasidir.

Mazkur xabar orqali matbuot ateistik targ‘ibot ishlarini muvofiqlashtiruvchi va legitimlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Seminar ishtirokchilarining “o‘zaro tajriba almashgani” haqidagi qaydlar dinga qarshi kurash faqat yuqoridan berilgan buyruqlar emas, balki quyi bo‘g‘inlarda ham faol muhokama qilinib, metodik jihatdan takomillashtirilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, seminar mavzularining umumiyliigi (“ideologik kurash”, “din”) ushbu faoliyatning maqsadi dinga qarshi aniq marosimlarni emas, balki keng qamrovli dunyoqarashiy kurash olib borish bo‘lganini ko‘rsatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, “Ateistik lektor seminari” haqidagi xabar sovet davrida ateistik

targ'ibotning tashkiliy mexanizmlari, kadrlar siyosati va matbuotning bu jarayondagi roli haqida muhim ma'lumot beradi. U tarixiy voqelikni baholashda mafkuraviy cheklangan bo'lsa-da, davr ruhini, davlat–matbuot–mafkuraviy institutlar o'rtasidagi uzviy aloqalarni ochib beruvchi manba sifatida qimmatli hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, B. Qurbonboevning “Ateistik lektor seminari” mavzusidagi qisqa xabari sovet davrida dinga qarshi siyosatning faqat targ'ibot darajasida emas, balki tizimli kadrlar tayyorlash orqali amalga oshirilganini ko'rsatadi. Mazkur material mahalliy matbuotning ateistik siyosatni ommalashtirish, uning tashkiliy shakllarini legitimlashtirish va jamoatchilik ongida “ideologik kurash” tushunchasini mustahkamlashdagi muhim rolini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida, ya'ni 1941 yil boshlarida sovet davlati tomonidan olib borilgan dinga qarshi siyosat uzluksiz va tizimli xarakter kasb etgan bo'lib, bu jarayon mahalliy matbuot sahifalarida faol yoritib borilgan. “Xorazm haqiqati” gazetasining 1941 yil 24 fevral №46 (3742) sonida e'lon qilingan muxbir Y. Abdullaning “Dinga qarshi kurash namunalari” [4] sarlavhali xabari ana shu jarayonning mahalliy darajadagi amaliy ko'rinishlarini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Unga ko'ra “Urganch rayon kurashchan xudosizlar soveti” (raisi o'rtoq Qurbongaliev) dinga qarshi propoganda va agitatsiya ishlarini kuchaytirish uchun rejali ish olib borgan. Kolxoz, MTS va maktab “Kurashchan xudosizlar tashkilotlari”ni propogandist va agitatorlar blan ta'minlash uchun xar oyda 3 martadan 10 kunlik seminarlar tashkil qilingan. Jumladan, birinchi oylik kurslarda 76 ateist – propogandist tayyorlangan. Bu erda tayyorlangan R. Ergasheva, T. Qo'ldoshevlar Urganch tumanidagi Stalin nomli kolxozda “eski urf odatlar”ga qarshi leksiya, suhbat ishlarini uyushtirganlar.

Gazeta ma'lumotlariga ko'ra Stalin kolxozida 1941 yilning dastlabki ikki oyidayoq dinga qarshi agitatsiyani olib borilishi natijasida 164 kishi “Kurashchan xudosizlar soyuzi” ga a'zo bo'lib kiritilgan.

Y. Abdullaning mana bu jumllariga e'tibor qaratamiz “kolxoz kurashchan xudosizlar tashkilotining sekretari Xorujchev ko'klam ekish kompaniyasini namunali o'tkazish uchun butun brigadalar va zvenolarga agitatorlar berkitib, dinga qarshi agitatsiyani qizitib yubordi. Rayonda bunday ilhor tashkilotlar ko'p. Rayon kurashchan xudosizlar soveti oldingilar tajribasini qoloqlarga ko'chirish, bolshevistik agitatsiyani qizitish, ommaviy tushuntirish orqali yana yangidan 80 o'rinli xudosizlar soyuzi tashkilotlarini tuzish va mavjud tashkilotlar ishini



yaxshilash yuzasidan bolshevikcha kurash olib borilmoqda” [4] . Y. Abdulladan keltirilgan mazkur parchada sovet davrida dinga qarshi targ‘ibot qanday tarzda institutsionallashtirilgani yaqqol ko‘rinadi. Kolxoz va ishlab chiqarish jarayonlariga «kurashchan xudosizlar» tashkilotlari bevosita jalb qilinib, agitatsiya iqtisodiy vazifalar — xususan, ekin ekish kampaniyasi bilan chambarchas bog‘langan. Brigadalar va zvenolarga maxsus agitatorlarni biriktirish orqali dinga qarshi g‘oyalar majburiy tarzda jamoaga singdirilgan. Bu holat ateizm targ‘ibotining ixtiyoriy qarash emas, balki tashkiliy-ma‘muriy mexanizmlar orqali joriy etilgan mafkura ekanini ko‘rsatadi.

Matnda «ilg‘or» va «qoloq» tushunchalarining keskin qiyosi orqali ideologik bosim kuchaytirilib, dinga moyil qatlamlar ijtimoiy jihatdan past maqomga qo‘yilgan. «Bolshevikcha kurash», «ommaviy tushuntirish», «yangi xudosizlar uyushmalari tuzish» kabi iboralar ateistik targ‘ibotning jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan mehnat, ta‘lim va jamoat munosabatlariga chuqur kirib borganini anglatadi. Hozirgi davr nuqtai nazaridan qaralganda, bunday faoliyat shaxsiy e‘tiqod va vijdon erkinligini inkor etgan, inson ongini mafkuraviy nazorat ostiga olishga qaratilgan tizimli siyosat namunasi sifatida baholanadi. Ushbu misollar sovet matbuotida ateizm targ‘iboti qanday qilib ommaviy, majburiy va ierarxik shaklda amalga oshirilganini yorqin ifodalaydi.

Mazkur material janr jihatidan axborot-hisobot xabari bo‘lib, unda aniq faktlar, raqamlar, shaxslar va tashkilotlar faoliyati qayd etiladi. Xabar muayyan hudud — Urganch rayoni doirasida dinga qarshi targ‘ibot ishlarining borishi haqida ma‘lumot beradi. Ko‘rsatilgan sana, gazeta raqami, sahifa va muallifning aniqligi ushbu manbaning tarixiy ishonchliligini oshiradi. Biroq, manba sovet mafkurasi asosida yaratilgani bois, unda faoliyat natijalari faqat ijobiy jihatdan yoritilib, muqobil qarashlar yoki qarshilik holatlari aks ettirilmaydi. Shu sababli, ilmiy tahlilda ushbu xabar rasmiy-ideologik manba sifatida ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim. Xabarda e‘tibor qaratiladigan asosiy jihatlardan biri — dinga qarshi targ‘ibotning rejalashtirilgan va kadrlar tayyorlashga asoslangan shaklda olib borilganidir. Urganch rayon kurashchan xudosizlar sovetining faoliyati misolida: 3 marotaba 10 kunlik seminar tashkil etilgani, 76 nafar propagandist va agitator tayyorlangani, ularning kolxoz, MTS va maktablarga biriktirilgani kabi holatlar sovet ateistik siyosatining institutsional va tizimli tus olganini ko‘rsatadi. Seminar davomida yetakchi natija ko‘rsatgan shaxslarning (Ro‘zikajon Ergasheva, To‘ra Qo‘ldoshev) alohida tilga olinishi “namunaviy

kadr” modelini yaratishga xizmat qilgan bo‘lib, bu uslub sovet matbuotiga xos targ‘ibot texnikasidir.

“Dinga qarshi kurash namunalari” sarlavhasining o‘ziyoq mazkur materialning asosiy vazifasini belgilaydi. Gazeta bu yerda faqat axborot beruvchi emas, balki ilg‘or tajribani targ‘ib etuvchi va boshqa hududlarga ko‘chirishga da’vat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Xabarda “rayonda bunday ilg‘or tashkilotlar ko‘p” degan umumlashtiruvchi ibora orqali dinga qarshi kurash ommaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanayotgan jarayon sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, kolxozlardagi dinga qarshi agitatsiyaning bevosita xo‘jalik kompaniyalari xususan, ko‘klam ekish ishlari bilan bog‘lanishi diniy e‘tiqod mehnat unumdorligiga to‘siq sifatida ko‘rsatilganini anglatadi. Bu orqali ateistik targ‘ibot iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Xabarda 164 kishining qisqa muddat ichida kurashchan xudosizlar soyuziga a‘zo bo‘lgani, shuningdek, yangi 80 o‘rinli tashkilotlar tuzish rejalari qayd etiladi. Ushbu raqamlar propagandaning samaradorligini isbotlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchida dinga qarshi harakatning “ommaviyligi” va “muqarrarligi” haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur xabar sovet davrida dinga qarshi siyosatning mahalliy darajada qanday amalga oshirilgani, kadrlar tayyorlash, targ‘ibot va tashkiliy ishlarning qanday mexanizmlar asosida olib borilganini o‘rganish uchun muhim manbadir. U dinga qarshi kurashning faqat g‘oyaviy emas, balki tashkiliy, ma‘muriy va ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, “Xorazm haqiqati” gazetasida e‘lon qilingan “Dinga qarshi kurash namunalari” xabari sovet davrida ateistik siyosatning mahalliy miqyosda rejalashtirilgan, kadrlar tayyorlashga asoslangan va ishlab chiqarish manfaatlari bilan bog‘langan holda olib borilganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu material matbuotning dinga qarshi kurashda namunaviy tajribani ommalashtirish, tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish va mafkuraviy nazoratni kuchaytirishdagi muhim rolini ilmiy asosda ochib beradi.

Sovet matbuoti faqat axborot tarqatuvchi vosita emas, balki ijtimoiy ongning boshqarish va kommunistik g‘oyalarni mustahkamlash mexanizmi sifatida faoliyat ko‘rsatgan [5].

Umuman olganda, davriy matbuotdagi ushbu ruknlar va mavzu turlari ushbu davrdagi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Matbuot aholining turmush madaniyatini oshirish, vatanparvarlik, tibbiy madaniyat, jismoniy tarbiya, fan va texnika rivoji, jahon yangiliklari bilan bog‘liq bilimlarini

kengaytirishda asosiy ma’rifiy vosita bo’lgan. Ayniqsa siyosiy-tarbiyaviy maqolalar orqali matbuot partiya siyosati va sotsialistik qadriyatlarni kundalik hayotga tatbiq etib borgan.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Xorazm haqiqati. 1941 yil. 10-yanvar. №9 (3705). 1 -sahifa.
2. «Qizil O‘zbekiston», «Правда Востока», «Yosh leninchi» Xorazm viloyati Davlat kutubxonasi
3. “Xorazm haqiqati” gazetasi. 1975 yil 20iron. Juma. №120 (12634) 3-sahifa.
4. Y.Abdulla. Dinga qarshi kurash namunalari.“Xorazm haqiqati” gazetasining 1941 yil 24 fevral №46 (3742) son.
5. Xaydarov M. Sovet mafkurasi va mahalliy matbuot. — Toshkent: Fan, 2015. — 64-b.
6. Митяев О. Культурно-просветительная работа в годы первой пятилетки. — Москва, 1964. — С. 41.
7. «Inqilob quyoshi», 1929 yil 29 may soni.
8. Собиров А. Развитие советской культуры народов низовьев Амударьи (1928–1940 гг.). — Нукус: Каракалпакстан, 1984. — С45

## TARIX

### URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI “QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI” MUZEYI FAOLIYATI



**Niyozmetova Go'zal,**  
**UrDU tuzilmasidagi**  
**“Qatag‘on qurbonlari**  
**xotirasi”**  
**muzeyi fond**  
**saqlovchisi.**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Urganch davlat universiteti tuzilmasida faoliyat ko‘rsatayotgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tashkil etilishi, huquqiy asoslari, ekspozitsiya tizimi, ilmiy-tadqiqot va ma’rifiy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muzeyning yosh avlodni vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalashdagi o‘rni ilmiy asosda o‘rganiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются организация, правовая база, выставочная система, научно-исследовательская и образовательная деятельность музея «Память о жертвах репрессий», функционирующего в рамках Ургенчского государственного университета. Также на научной основе изучается роль музея в воспитании молодого поколения в духе патриотизма, исторической памяти и осознания национальной идентичности.

**Annotation:** This article analyzes the organization, legal framework, exhibition system, scientific research and educational activities of the Museum of "Memory of Repression Victims" operating within the structure of Urgench State University. The role of the museum in educating the younger generation in the spirit of patriotism, historical memory and awareness of national identity is also studied on a scientific basis.

**Kalit so‘zlar:** repressiya, tarixiy xotira, muzeyshunoslik, Urganch davlat universiteti, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat.

**Ключевые слова:** репрессии, историческая память, музеология, Ургенчский государственный университет, духовно-просветительская деятельность.

**Key words:** repression, historical memory, museology, Urgench State University, spiritual and educational activities.

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston tarixida siyosiy repressiyalar va ommaviy qatag‘onlar bilan xarakterlanadi[11]. Bu jarayonlar natijasida minglab vatandoshlar nohaq ayblovlar bilan jazolangan, milliy ziyolilar qatlami jiddiy

yo‘qotishlarga uchragan. Uzoq yillar davomida mazkur tarixiy voqeliklar yopiq saqlangan va ilmiy jihatdan to‘liq o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng tarixiy adolatni tiklash, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi[1]. Shu jarayonda Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi mazkur muzey ham ana shu vazifalarni bajarishga qaratilgan ilmiy-ma‘rifiy muassasa hisoblanadi.

Shu kungacha qatag‘on qilingan kishilar taqdiri aks ettirilgan bir qancha kitoblar va ilmiy maqolalar nashr qilindi. Mustaqillik yillariga kelib, qatag‘onga uchragan shaxslarni oqlash va ularning taqdiri haqida ko‘plagan ma‘lumotlar berilgan kitoblar, monografiya va risolalar tarix fanlari doktori, professorlar R.Shamsuddinov[3], D.Alimova[4], A.S.Sagdullayev[5], M.Matniyozov[6], tarixchilardan N.Jo‘rayeva[7], U.Bekimmetov[8]larning tadqiqotlarida keng yoritildi. Xorazm viloyatidan qatag‘on qilingan shaxslar va ularning taqdiriga oid materiallar muzey direktori Y.Raxmonova[9]ning kitob va risolalarida o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, lekin shu kungacha hali biron tadqiqotchi Urganch davlat universiteti tarkibidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tashkil qilinishi, ekspozitsiyasi, muzeydan joy olgan eksponatlar to‘g‘risida ma‘lumot bermagan. Ushbu maqola biz oldimizga qo‘ygan maqsadni ochib berishga xizmat qiladi.

Urganch davlat universiteti tuzilmasida faoliyat ko‘rsatayotgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tashkil etilishi, huquqiy asoslari, ekspozitsiya tizimi, ilmiy-tadqiqot va ma‘rifiy faoliyatini yoritishda qiyosiy tahlildan foydalanildi. Shuningdek, o‘rganilgan muzey ekspozitsiyasini yoritishda xronologik metoddan foydalanildi.

“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 936-sonli qarori asosida tashkil etilgan[2]. Ushbu qaror mamlakatda qatag‘on qurbonlari xotirasini



abadiylashtirish, ular haqidagi tarixiy ma'lumotlarni tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritishni nazarda tutadi.



***Urganch davlat universiteti tuzilmasida faoliyat ko'rsatayotgan  
"Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyining tashqi ko'rinishi***

Muzey 2018-yil 31-avgust kuni rasman ochilgan bo'lib, universitetning ta'lim va ilmiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda ish olib bormoqda. U oliy ta'lim muassasasi huzuridagi muzey sifatida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga manba vazifasini ham bajaradi. Muzey konsepsiyada belgilangan barcha bo'limlar bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, "Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mahalliy xalqning erk va hurriyat uchun kurashi (1868-1900)", "Xiva xonligidagi milliy uyg'onish harakati, uning amaliy yo'nalishlari va namoyandalari (1901-1917)", "Xorazm Xalq Respublikasining tugatilishi va viloyatda bolsheviklar hokimiyatining o'rnatilishi (1917-1929)", "Sovet davlati qatag'on siyosatining boshlanishi (1929-1936)", "1937-1938 yillardagi "Katta qirg'in", "1940-1950 yillardagi siyosiy qatag'onlar", "1980-yillardagi qatag'on. "Paxta ishi" kompaniyasi", "Mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanishi, qatag'on qurbonlari xotirasining

abadiylashtirilishi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan tarixiy ishlar (1991-yildan keyingi davr)” mavzularida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

Muzeyning asosiy maqsadi — sovet davridagi siyosiy qatag‘on va repressiyalar qurbonlarining xotirasini saqlash, ular haqidagi haqqoniy tarixiy ma’lumotlarni jamlash va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda muzey oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- qatag‘on siyosati va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini ilmiy tahlil qilish;
- arxiv hujjatlari, fotosuratlar va moddiy manbalarni to‘plash hamda saqlash;
- muzey ekspozitsiyalarini yangilab borish;
- ilmiy tadqiqotlar va nashrlarni amalga oshirish;
- ma’rifiy va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish.

Muzey ekspozitsiyasi tarixiy-xronologik tamoyil asosida shakllantirilgan bo‘lib, qatag‘on siyosatining turli bosqichlarini yoritadi. Ekspozitsiyada Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati, sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, 1930-yillardagi ommaviy repressiyalar va 1937–1938-yillardagi “Katta qirg‘in” davriga oid materiallar o‘rin olgan[10].



### *Muzey ekspozitsiyasi*

Muzey fondida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, shaxsiy ashyolar, fotosuratlar va qo‘lyozmalar ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu materiallar orqali qatag‘on qurbonlarining hayot yo‘li, ijtimoiy faoliyati va taqdiri haqida ilmiy xulosalar chiqarish imkoni mavjud. Muzey Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi. Muzey materiallari asosida kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va ilmiy maqolalar tayyorlanadi.

Shuningdek, muzey xodimlari respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, qatag‘on tarixi bo‘yicha ilmiy ma‘ruzalar bilan chiqish qiladilar.

Muzey faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri ma‘rifiy-tarbiyaviy ishlar hisoblanadi. Bu yerda talabalar va keng jamoatchilik uchun ochiq darslar, davra suhbatlari, xotira tadbirlari tashkil etiladi.

Ushbu tadbirlar yosh avlodda tarixiy xotirani shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ilmiy-tadqiqot, ta‘lim va ma‘rifiy faoliyatni uyg‘unlashtirgan muhim

muassasadir. Muzey faoliyati orqali qatag'on qurbonlari xotirasi abadiylashtirilib, tarixiy adolatni tiklashga munosib hissa qo'shilmogda.

Mazkur muzey materiallaridan samarali foydalanish tarix fanini rivojlantirish, yosh avlodni milliy tarix ruhida tarbiyalash va ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi «Qatag'on qurbonlari xotirasi» davlat muzeyi va hududiy muzeylar faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.
3. Shamsuddinov R. Qatag'on qurbonlari (1937-yil, 10-avgust – 5-noyabr). Ikkinchi kitob. – B. 6;
4. Alimova, D.A. (1998). A historian's vision of Khudjum, Central Asian Survey, Vol. 17, no. 1, pp. 147–155;
5. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. XI jild. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2023. – B. 474;
6. Matniyozov M. Xorazm tarixi. – Urganch. 2024. – B. 190;
7. Shamsutdinov R., Bekimmetov U. Qatag'on qurbonlari. Xotira. Xorazm viloyati. Monografiya. Toshkent-2009 yil."Yangi asr avlodi" nashriyoti.
8. Jo'rayeva N. Sovet davri qatag'onlik siyosatining xotin-qizlar taqdiriga salbiy ta'siri. O'tmishga nazar. №10 (2022). 11-bet.
9. Irzayev B, Rahmonova Y. Xorazm viloyati xotira kitobi. – Toshkent, "Akademnashr", 2019.
10. "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi materiallari. — Toshkent, 2018.
11. Qosimov B. XX asrda O'zbekistonda siyosiy repressiyalar tarixi. — T.: "Fan", 2015.



## TARIX

### 1930-yillarda SSSR tarixi bo'yicha maktab darsliklarida Xorazm mavzusi



**Kenjayev Bunyod,  
Urganch davlat  
universiteti mustaqil  
tadqiqotchisi**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Maqolada 1930-yillarning ikkinchi yarmida SSSR tarixi bo'yicha darsliklar yaratishning o'ziga xos jihatlari va ularga O'rta Osiyo, jumladan Xorazm tarixi materiallarini kiritish masalalari ko'rib chiqiladi. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlarni talab qilganligi sababli, o'rta va oliy ta'lim uchun tarix darsliklarini yaratish S.P. Tolstovning etnografik ekspeditsiyalariga va uning tomonidan Xorazm sivilizatsiyasining ochilishiga sabab bo'lgan omillardan biri bo'ldi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности создания учебников по истории СССР во второй половине 1930-х годов и вопросы включения в них материалов по истории Средней Азии, в частности Хорезма. Поскольку данный процесс требовал проведения научных исследований, создание учебников по истории для средней и высшей школы стало одним из факторов, приведших к этнографическим экспедициям С. П. Толстова и открытию им цивилизации Хорезма.

**Annotation:** The article examines the specific features of creating textbooks on the history of the USSR in the second half of the 1930s and the issues of including materials on the history of Central Asia, particularly Khorezm. Since this process required scientific research, the development of history textbooks for secondary and higher education became one of the factors that led to S.P. Tolstov's ethnographic expeditions and to the discovery of the Khorezm civilization by him.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, maktab, darslik, xalq ta'limi, S.P. Tolstov.

**Ключевые слова:** Хорезм, школа, учебник, народное образование, С. П. Толстов.

**Key words:** Khorezm, school, textbook, public education, S.P. Tolstov.

1934-yilda tarix fan sifatida boshlang'ich, o'rta va oliy maktab o'quv rejalari tarkibiga qaytdi, yangi darsliklar yaratishda yetakchi shaxs A.V. Shestakov bo'ldi [6]. Barcha darsliklarda jiddiy kamchilik mavjud edi: ularda SSSR respublikalari, jumladan O'zbekiston tarixi nihoyatda qisqa va parcha-parcha tarzda bayon etilgan bo'lib, bu esa mamlakat aholisi uchun Xorazmning



buyuk madaniy merosi bilan tanishish imkonini bermas edi. Shu bilan birga, SSSR tarixi bo'yicha darsliklar yaratish jarayoni ilmiy va metodik ishning namunasi bo'ldi: ular ustida mamlakatning turli hududlaridan ko'plab jamoalar ishlagan, darsliklarning o'zi esa uzoq va jiddiy muhokamalar natijasida paydo bo'lgan, ishga rasmiy yondashuvni istisno qilgan.

1930-yillarda tarix darsliklarini yaratish tarixi istoriografiyada mashhur mavzulardan biridir. Ilmiy nashrlar orasida Dushchenko E.S. [2], Pepelina N.I. [7], Xoroshchenkova A.V. [8] va boshqa olimlarning ishlari qayd etilishi mumkin, ularda SSSR tarixi darsligining mazmuni bo'yicha munozaralar ko'rib chiqilgan, biroq Xorazm mavzusi mualliflar tomonidan hatto tilga olinmagan. Tadqiqot mavzusiga oid yagona maqola Kendjayev B.B.ga tegishli bo'lib, u esa ancha erta davrga (1920-yillar) taalluqlidir va Xorazmda ijtimoiy fanlar bo'yicha darsliklar yaratish jarayonini, ularga tarixiy syujetlarning kiritilishini ko'rib chiqadi [5]. Umuman olganda, tadqiqot mavzusi bo'yicha hozircha birorta ham nashr mavjud emas.

Maqolada qiyosiy-tarixiy metod qo'llanilgan bo'lib, u 1920-yillardagi va 1930-yillardagi darslik yaratish jarayonini solishtirish imkonini berdi. Obyektivlik va tarixiylik tamoyillari yordamida darsliklar yaratilishi tarixiga stalinizm davri odamlari ko'zi bilan qarashga erishildi.

Bu darslikda Xorazm tarixi aks ettirilmagan, 4-paragraf - "Mamlakatimizdagi eng qadimgi davlatlar" qisqa ma'lumotni o'z ichiga oladi: "...Shunday davlatlar O'rta Osiyoda ham bo'lgan. Bu hozirgi o'zbeklar, tojiklar, turkmanlarning davlatlari edi. Ularning hukmdorlari ham doimo qo'shnilari bilan urush olib borishardi. Qadimgi Zakavkaziya va O'rta Osiyo davlatlarida ko'plab shaharlar bo'lgan. Dushmanlardan himoya qilish uchun shaharlar atrofiga baland tosh devorlar qurilgan. Mo'hir ustalar va qullar boylar uchun uylar, tovar omborlari va savdo binolarini qurishgan. Shaharlarda ko'plab hunarmandlar yashagan, jonli savdo bo'lgan. Shahar aholisi alifboni ixtiro qilgan va o'qish hamda yozishni o'rgangan... Shaharlarda ilk olimlar paydo bo'lgan, fan va san'at rivojlana boshlagan" [6, b. 8]. Qadimgi davlatlarga oid asosiy material Kiyev Rus tarixi uchun ajratilgan bo'lib, u batafsil bayon etilgan va 12 sahifani egallagan.

Chingizxon yurishi haqidagi bo'limda O'rta Osiyo ikkinchi bor tilga olinadi, u ham bir jumla bilan cheklangan: "Shimoliy Xitoy bo'ysundirgach, Chingizxon qo'shinlarini O'rta Osiyoga yo'naltirdi va uni zabt etdi". Xorazmning ilk eslatilishi esa Amir Temur (darslikda – Tamerlan) mavzusida uchraydi: "O'zbeklar O'rta Osiyoda mustahkam o'rnashib oldilar. O'zbek xonlari Xorazm va Buxoro davlatlari boshiga chiqadilar" [6, b. 26, 31]. Bugungi kunda o'zbeklarning kelib chiqishi bahsli mavzu bo'lsa-da, o'sha davrda darslik 1930-

yillarda olingan boshqa ilmiy xulosalarga asoslangan edi. “O‘rta Osiyoning zabt etilishi” bo‘limida Xorazm eslatilishi ham nihoyatda qisqa: “...So‘ngra Xiva xoni mulklari bo‘ysundirildi. Xon o‘zini rus podshosiga qaram deb tan oldi” [6, b. 101].

Darslikning ilovasiz matni 215 sahifadan iborat bo‘lib, asosiy qismi rus tarixiga bag‘ishlangan edi. Xorazmning qisqa eslatilishi bolalarga faqat bu nomni yodlab qolish imkonini bergan, ammo uning tarixidan hech narsa bilishmagan. Shuni ta‘kidlash kerakki, bu boshlang‘ich maktab darsligi bo‘lib, tarixni idrok etish asoslari o‘sha davrda shakllantirilgan. Rus tarixi syujetlarining ustunligi bolalar ongida bu davlatning buyukligini shakllantirgan va Xorazmning buyuk madaniy merosini kamsitgan. Bunday yondashuv odatda Rossiya – “katta aka” o‘z atrofida SSSRning boshqa xalqlarini birlashtirgan, shuning uchun uning tarixiy yo‘lini o‘rganish “kichik akalar” tarixidan muhimroq, degan mantiq bilan izohlangan.

O‘rta maktab darsliklarini yaratish murakkab kechgan. Har bir darslik qo‘lyozmasi sinchkovlik bilan retsenziyadan o‘tgan. Ular orasida SSSRning barcha milliy respublikalaridan tarixchi olimlar va pedagoglar bo‘lib, o‘z mintaqasi bo‘yicha materialning to‘g‘ri bayon etilishini belgilashgan. Shu tariqa, O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo tarixi bo‘limlarini mahalliy mutaxassislar retsenziya qilgan [7]. A.V. Shestakov va boshqa olimlar ishtirokida turli sinflar uchun butun bir tarix darsliklari seriyasi yaratildi: professor Mishulin tahriri ostidagi “Qadimgi dunyo tarixi” [3], professor Pankratova tahriri ostidagi “SSSR tarixi” [4] va boshqalar.

Bu darsliklarda Xorazm tarixi SSSR va jahon tarixiga bog‘lab yozilgan edi. Masalan, “Chingizxon davlati va XIII asrdagi uning vorislari davlatlari” nomli rangli xaritada Xalagidlar davlati tarkibida alohida “Xorazm” deb belgilangan [4]. Bunday belgilash bolalarga SSSR respublikalari tarixi bo‘yicha bilim berar, tarbiyaviy-vatanparvarlik rolini bajarardi.

Yangi tarix darsliklari vaqti-vaqti bilan to‘ldirilib, qayta nashr etilgan. 1939–1940-yillarda SSSR hududi kengayib, yangi yerlar va xalqlar qo‘shilgach, avvalgi tarix dasturlari eskirgan va 1940-yilda UzSSR Xalq maorifi komissarligi yangi dasturlarni nashr etgan [1].

O‘zbekiston tarixi darsligini yozish mahalliy mutaxassislar uchun eng muhim vazifaga aylangan. Unga SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali tarixchilari jalb qilingan va 1940-yil rejasida darslik yaratish bosh vazifa sifatida belgilangan. Unda shunday deyiladi: “Bu vazifani amalga oshirish uchun O‘zbekiston va boshqa qo‘shni respublikalar tarixchilarining barcha mavjud kuchlarini yig‘ish, shuningdek, O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha mutaxassislarni jalb

etish zarur...” [9, b. 156-157]. Aynan shu darslikda Xorazm tarixini yozish, uning buyuk o‘tmishini aks ettirish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Xulosa: SSSR tarixi darsliklarini yaratish tarixi shuni ko‘rsatadiki, ideologik maqsad bir tomondan metodik jihatdan mukammal darsliklar yaratilishiga yordam bergan bo‘lsa, boshqa tomondan butun mintaqalarning buyuk o‘tmishi bilan tanishish imkonini bermagan. Aynan shunday tarzda SSSR tarixi darsliklarida Xorazm ko‘rsatildi. Uning tarixi bilan olimlar va mahalliy tadqiqotchilar shug‘ullangan, biroq olingan bilimlar maktab o‘quvchilariga yetib bormagan, ular boshqa misollar asosida tarbiyalangan. Bu esa milliy g‘ururni shakllantirishga to‘sqinlik qilgan, faqat Mustaqillik davrida Xorazm tarixi bo‘yicha alohida darsliklar yaratilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Государственный архив Хорезмской области (ГАХО). Ф. 9. Оп. 3. Д. 87. Л. 93 об.
2. Дущенко Е. С. К вопросу о советских учебниках по истории: деятельность А. В. Шестакова // Вестник ТГУ. — 2010. — № 6 (86). — С. 280.
3. История Древнего мира. Учебник для 5–6 классов средней школы / под ред. проф. Мишулина. — М.: Госучпедгиз, 1940. — 254 с.
4. История СССР. Учебник для 8 класса средней школы / под ред. проф. Панкратовой. — М.: Госучпедгиз, 1940.
5. Кенджаев Бунёд Бахтиёр угли. Становление системы советского образования в Хорезме и его историческая составляющая в 1920-е гг. // Сборник статей VII Международной научно-практической конференции, состоявшейся 15 января 2025 г. в г. Пенза.
6. Краткий курс истории СССР: учебник для 3-го и 4-го классов / под ред. проф. А. В. Шестакова. — М.: Государственное учебно-педагогическое издательство, 1937. — 235 с.
7. Пепелина Н. И. Опыт создания советского школьного учебника по истории // Вестник Московского городского педагогического университета. — 2011. — № 2 (8). — С. 96–109.
8. Хорошенкова А. В. История государственной политики в области высшего исторического образования в СССР 20–30-х гг. XX века // Вестник Волжского университета им. В. Н. Татищева. — 2012. — № 4 (11). — С. 175.
9. Шестаков А. В. Историческая наука в СССР. Историческая наука в Узбекистане // Историк-марксист. — 1940. — № 6 (82). — С. 156–157.

**TARIX****XORAZM YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI MAKTABINING  
AN‘ANAVIY NAQSH KOMPOZITSIYALARINI  
SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA  
PRINSIPLARI**

**Atadjanova Dilnoza,**  
**Urganj innovatsion**  
**universiteti**  
**“Tarix” kafedrası**  
**o‘qituvchisi**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Maqolada Xiva yog‘och o‘ymakorligi maktabining shakllanishi, uning badiiy-uslubiy xususiyatlari va naqsh kompozitsiyalarini yaratish tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda girih va islmiy naqshlar, spiral kompozitsiyalar, kaligrafik bezaklar hamda yog‘och buyumlarning funksional tasnifi ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan.

**Аннотация:** В статье анализируются процесс формирования хивинской школы резьбы по дереву, её художественно-стилистические особенности и принципы создания орнаментальных композиций. В исследовании на основе научных источников рассмотрены гирих и исламские (ислими) орнаменты, спиральные композиции, каллиграфические украшения, а также функциональная классификация деревянных изделий.

**Annotation:** The article analyzes the formation of the Khiva school of wood carving, its artistic and stylistic features, and the principles of creating ornamental compositions. The study examines girih and islami patterns, spiral compositions, calligraphic decorations, and the functional classification of wooden objects based on scientific sources.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm yog‘och o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, girih naqsh, islmiy, Xiva hunarmandchiligi, naqsh kompozitsiyasi, duradgorlik, amaliy san‘at, kaligrafik bezak, an‘anaviy hunarmandchilik.

**Ключевые слова:** хорезмская резьба по дереву, резьба по дереву, гирих орнамент, ислими, хивинское ремесло, орнаментальная композиция, столярное дело, прикладное искусство, каллиграфическое украшение, традиционное ремесло.

**Key words:** Khorezm wood carving, wood carving, girih pattern, islami, Khiva craftsmanship, ornamental composition, carpentry, applied art, calligraphic decoration, traditional craftsmanship.

O‘zbekiston hududida amaliy bezak san‘ati qadimiy an‘analarga ega bo‘lib, uning muhim yo‘nalishlaridan biri yog‘och o‘ymakorligidir. Ayniqsa, Xorazm yog‘och o‘ymakorligi maktabi naqsh kompozitsiyalarining boyligi, murakkab geometrik tuzilishi va badiiy ifodadorligi bilan ajralib turadi. Xiva, Urganj va

boshqa hududlarning ustalari me'moriy inshootlar, maishiy buyumlar hamda turli asboblarning uchun noyob badiiy yechimlar yaratganlar.

Tadqiqotlarga ko'ra, ustalar murakkab girih va islamiy naqshlarni yaratishda an'anaviy asboblarning — chizg'ich, sirkul va transportirdan foydalanganlar; bu naqshlar aniq geometrik mutanosibliklarga asoslangan [1]. Boshqa manbalarda qayd etilishicha, islamiy naqshlar takrorlanuvchi unsurlardan — barglar, gullar, g'unchalar va tanoblardan tashkil topadi, hamda har bir kompozitsiya usta tanlagan shaklga muvofiq nomlanadi [2].

Sh. Matyakubov buyumlarni funksional vazifasiga ko'ra tasniflab, ularni qurilish elementlari, maishiy buyumlar va asboblarga ajratadi hamda Xorazm duradgorlik mahsulotlarining amaliy va badiiy jihatdan keng qo'llanilishini ko'rsatadi [3]. Spiral naqshlar va xattotlik yozuvlari bezaklarning badiiy qabul qilinishini kuchaytiradi, shu bilan birga mahalliy an'analar va himoya ramzlarini ham aks ettiradi [4, 5, 6]. XIX asr hamda hozirgi Xiva hunarmandchilik markazi tajribasi ustalik sirlarining avloddan avlodga o'tishi, uslubiy yangiliklarning joriy etilishi va an'analarning saqlanib qolishini namoyon etadi [7, 8].

Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabi vakillari naqsh kompozitsiyalarini yaratishda maxsus chizmachilik va o'lchov asboblari bilan foydalanganlar. Ular orasida chizg'ich, sirkul, qalam, o'chirg'ich hamda burchaklarni aniqlash uchun mo'ljallangan transportir kabi an'anaviy chizmachilik vositalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xivalik ustalar yaratgan naqsh turlarining soni yuzdan ortiq bo'lib, ularning katta qismi buyum yuzasini to'liq qamrab oluvchi murakkab girih va islamiy kompozitsiyalardan iboratdir. Ushbu san'at yo'nalishida madohil, "olma guli" asosidagi bezaklar, yakunlangan kompozitsiyalar hamda "qo'chqor shoxi" motivlari keng qo'llanilgan. Naqshlarning asosiy konstruktiv tuzilishi odatda ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi, ayrim hollarda esa ular oldindan ishlab chiqilgan kompozitsion reja asosida bajarilgan. Xususan, girih naqshlari aniq hisoblangan geometrik mutanosibliklar asosida yaratilgan bo'lib, ularning har bir elementi muayyan matematik qonuniyatlarga tayanishi bilan ajralib turadi [1, 54–57].

Islamiy uslub o'zbek yog'och o'ymakorligida keng tarqalgan. Islamiy — o'zaro bog'langan va takrorlanuvchi elementlardan: barglar, gullar, g'unchalar, tanob va boshqa detallardan tashkil topgan klassik naqsh turidir. Islamiy naqshlarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, kompozitsiya nomi odatda ustaning naqshni qaysi element bilan to'ldirishiga qarab belgilanadi. Masalan: islamiy mehrob, islamiy bodom, islamiy bulbul va boshqalar.

Markaziy Osiyo, Hindiston, Yaqin Sharq, Afg'oniston va Eron ustalari ham yog'ochga aynan islamiy uslubidagi naqshlarni o'yib ishlaganlar. Ushbu uslubda



qadim zamonlardan to hozirgi kungacha Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marg‘ilon, Qo‘qon va Andijon kabi shaharlarda ustalar faoliyat yuritib kelmoqda [2, 243].

Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolar Xorazm yog‘och o‘ymakorligi ustalari tomonidan ulug‘vor ustunlar (o‘ra), nafis darvozalar, eshiklar va o‘yma panjaralar bilan bezatilgan. Yog‘och o‘ymakorligi nafaqat me‘morchilikda, balki maishiy buyumlarda ham keng qo‘llanilgan. Tadqiqotchi Sh. Matyakubov Xorazm yog‘och o‘ymakorligi buyumlarini vazifasiga ko‘ra uch guruhga ajratishni taklif etadi:

- qurilish elementlari — ustunlar, ustun tagliklari, eshiklar, darvozalar, shift konstruksiyalari va boshqalar;

- maishiy buyumlar — sandiqlar, stollar, stullar, taxtalar, idish qo‘yiladigan tagliklar, hassalar va boshqalar;

- asbob-uskunalar va jihozlar — egar, xomut, qamchi, qoliplar va boshqalar [3, 17].

Xorazm ustalarining ishlari boshqa hududiy an‘anaviy maktablarga nisbatan naqshlarning boyligi, kompozitsiyaning aniqligi va badiiy ifodaning ko‘p qirraliligi bilan ajralib turadi. Har bir asarda ustaning individual badiiy qarashlari, mahalliy an‘analar va tasviriy tamoyillarning uyg‘unligi, shuningdek hunarmandning shaxsiy ijodiy uslubi yaqqol namoyon bo‘ladi [4, 183].

O‘zbekiston me‘moriy-bezak san‘ati tadqiqotchilari B.N. Zasipkin va N.M. Bachinskiylarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, Xorazm amaliy san‘atida spiral shakldagi naqshlar kompozitsion dinamika, chiziqlarning nozikligi va kesishmalarining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ushbu naqshlar voha badiiy an‘analarida juda qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, ularning dastlabki namunalarini Qadimgi Xorazm yodgorliklarida, xususan milodiy III asrga oid Tuproqqal’a saroyining devoriy bezaklarida kuzatish mumkin. Keyingi davrlarda spiral elementlar o‘rta asr me‘morchiligi va yog‘och o‘ymakorligida turli kompozitsion talqinlarda rivojlanib, Xorazm naqsh san‘atining barqaror badiiy kodini shakllantirgan. Bu jarayon spiral naqshlar nafaqat bezak, balki ma‘naviy-ramziy ma’noga ham ega bo‘lganini va ular mintaqaning badiiy merosida uzluksiz saqlanib kelganini ko‘rsatadi [5, 8].

Xorazm duradgorligida yog‘och buyumlar yuzasiga bitilgan kalligrafik yozuvlar (ayniqsa Qur‘on oyatlari, duolar va hikmatli so‘zlar), shuningdek ruhiy ramzlar nafaqat bezak vazifasini bajargan, balki kuchli himoya (tumoriy) funksiyaga ham ega bo‘lgan [6]. Mahalliy e‘tiqodlarga ko‘ra, bunday yozuv va naqshlar uy hamda uning aholisini baxtsizlik, yomon ko‘z va yovuz kuchlardan himoya qiluvchi ma‘naviy qalqon sifatida qaralgan.

XIX asr o'rtalarida Palvon Abdusattorov ijodida namoyon bo'lgan murakkab naqsh kompozitsiyalari hamda yassi relyef texnikasidagi texnik yangiliklar Xorazm duradgorlik san'atining uslubiy jihatdan takomillashganini ko'rsatadi. Hozirgi davrda esa an'anaviy usullar saqlangan holda turli qattiq yog'och turlaridan foydalanish va naqshlarni qo'lda bajarish Xorazm yog'och me'morchiligi hamda o'ymakorligida transformatsion jarayonlarning uzluksizligini namoyon etadi [7].

2021-yilda TİKA tashkiloti tashabbusi bilan Xiva shahridagi Nurullaboy madrasasida Hunarmandchilik markazi tashkil etildi. Markaz Xorazmga xos bo'lgan ganch o'ymakorligi, koshin tayyorlash, gilam va mato to'qish, zargarlik, filigran, yog'och o'ymakorligi kabi an'anaviy hunarlarni qayta tiklash, yoshlarni "ustoz-shogird" an'anasi asosida tayyorlash va milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan.

Loyiha doirasida butunlay unutilib ketgan chitgarlik texnikasi qayta tiklandi hamda hunarmandchilik ko'nikmalarini avloddan avlodga uzluksiz o'tkazishni ta'minlaydigan ustaxonalar tashkil etildi. Markaz o'zbek va turk ustalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, hududda bandlikni oshirish va hunarmandlar uchun barqaror daromad manbai yaratishni maqsad qilgan.

Ochilish marosimida "Hunarmand" uyushmasi rahbariyati, Xorazm viloyati ustalari hamda TİKA koordinatori ishtirok etib, markazning hunarlarni saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazishdagi muhim rolini ta'kidladilar [8].

Asboblardan foydalanish girih naqshlarining geometrik mutanosibliklarini aniq saqlashni ta'minlagan. Girih, islmiy, spiral va kalligrafik naqshlarni o'z ichiga olgan yuzdan ortiq naqsh turlari yaratilgan. Buyumlar vazifasiga ko'ra qurilish elementlari, maishiy buyumlar va asbob-uskunalariga tasniflanadi. Kalligrafik elementlar bezak vazifasi bilan birga himoya funksiyasini ham bajaradi. Spiral kompozitsiyalar esa mintaqadagi eng qadimiy bezak an'analardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda ustalar yangi materiallar va texnikalardan foydalangan holda an'analarni davom ettirib, san'atning uzluksiz rivojlanishini ta'minlamoqdalar.

Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabi o'zbek amaliy bezak san'atining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. U naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, geometrik aniqligi, islmiy va girih motivlarining boyligi hamda kalligrafiya elementlarining qo'llanishi bilan ajralib turadi. Naqsh kompozitsiyalari nafaqat bezak, balki ma'naviy-ramziy vazifani ham bajaradi. Yog'och o'ymakorligi an'analari avloddan avlodga o'tib kelmoqda, hunarmandchilik markazlari faoliyati esa ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR**

1. Atadjanova D. Xiva me'morchiligi merosida yog'ochga ishlov berish an'analari // Ma'mun science. 2025 №3 (6). – B. 54-57.
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 243.
3. Matyakubov Sh. XVI-XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi: Tarix fan. bo'yicha. falsafa dokt. (PhD) diss... avtoref. – Urganch, 2025. – B. 17.
4. «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: «Ичан-Қалъа» давлат музей-қўриқхонаси тўплами» китоб-альбоми / Ф.Ф. Абдухолиқов, Э.В. Ртвеладзе, К. Худойберганов, Х.Ш. Мадалиев, З.О. Абдуллаева, О.Г. Ибрагимов, О.З. Каримов, З.Х. Мейлиева, Ш.Х. Майлиева, Б.П. Саъдуллаев, Д.К. Бобожонов, Т.П. Матчонова. – Т.: «Silk Road Media», 2022. – Б. 183.
5. Хивинский узор в собрании народного мастера Абдуллы Балтаева. – Т., 1957. – С. 8.
6. Полевые записи. г. Ургенч, Атаджанов Сапо, 2023 год.
7. <https://dolorestravel.com/ru/guide/khiva-carving> (Дата обращения: 07.01.2026)
8. [https://tika.gov.tr/en/detail-tika\\_built\\_a\\_handicrafts\\_center\\_in\\_uzbekistan/](https://tika.gov.tr/en/detail-tika_built_a_handicrafts_center_in_uzbekistan/) (Дата обращения: 07.01.2026)

## TARIX

### MO‘G‘ULLAR BOSQINIDAN KEYINGI DAVRDA XORAZMDAGI JARAYONLAR



**Egamberdiyeva  
Zulfiya,  
Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
davlat universiteti  
talabasi**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIII asrda yuz bergan mo‘g‘ullar istilosidan keyingi Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda mintaqaning Oltin O‘rda va Chig‘atoy uluslari o‘rtasida taqsimlanishi, boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar hamda shaharlar hayotining bosqichma-bosqich tiklanish jarayonlari yoritiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется политическая и социально-экономическая ситуация в Хорезме после монгольского нашествия в XIII веке. Исследование также охватывает разделение региона между Золотой Ордой и Чигатайскими улусами, изменения в административной системе и постепенное восстановление городской жизни.

**Annotation:** This article analyzes the political, socio-economic situation of Khorezm after the Mongol invasion in the 13th century. The study also covers the division of the region between the Golden Horde and the Chigatai uluses, changes in the administrative system, and the gradual restoration of urban life.

**Kalit so‘zlar:** Mo‘g‘ullar istilosi, Xorazmshohlar, XIII asr, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, Komil fit-tarix, Shaharlar sultoni, Oltin O‘rda, udel, Urganch, Yaso, jabr-zulm.

**Ключевые слова:** Монгольское вторжение, Хорезмшахи, XIII век, политический, социально-экономический, «Идеальная история», «Султан городов», Золотая Орда, Удель, Ургенч, Ясо, угнетение.

**Key words:** Mongol invasion, Khorezmshahs, 13th century, political, socio-economic, Perfect History, Sultan of Cities, Golden Horde, Udel, Urgench, Yaso, oppression.

Ma’lumki, XIII asr boshlarida juda ulkan hududlarni egallagan, shimoli g‘arbiy va g‘arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillari, janubi g‘arbiy chegarasi Iroq, janubiy sharqiy hududlari G‘azna viloyati va shimoli sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoq bilan chegaralangan Xorazmshohlar davlati 1219-1221-yillardagi mo‘g‘ullar istilosi natijasida mintaqada tub burilish yasadi. Harbiy yurishlar natijasida siyosiy tuzum izdan chiqdi, shaharlar vayron etildi, iqtisodiy va madaniy hayot keskin tanazzulga uchradi. Biroq tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm bosqindan so‘ng ham butunlay yo‘q bo‘lib

ketmadi, balki yangi siyosiy sharoitda qayta shakllandi va mintaqaviy taraqqiyotning muhim markazlaridan biri bo'lib qoldi.

Mazkur davr voqealari haqida qimmatli ma'lumotlar o'rta asr tarixnavisligining yirik namunalari – Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahonkusho”, hamda Ibn al-Asirning “Komil fit-tarix” asarlarida o'z aksini topgan. Xususan, Shihobiddin an-Nasaviy o'z asarida, asosan Xorazmshohlar sulolasining so'nggi yirik vakili Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashi va shu davrdagi murakkab siyosiy jarayonlarni xolisona va haqqoniy yoritadi. Juvayni asarida mo'g'ullar istilosining borishi, Xorazmshohlar davlati qulashining sabablari hamda mo'g'ul boshqaruv tizimining o'rnatilishi haqida batafsil va bevosita guvoh sifatida yozadi. “Komil fit-tarix”da esa mintaqaning keyingi davrdagi siyosiy tiklanishi, sulolalar almashinuvi va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar yoritiladi.

Ushbu manbalarga tayanib, mo'g'ullar bosqinidan keyingi Xorazmning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvolini tahlil qilish, tanazzul va tiklanish jarayonlarini ilmiy asosda ochib berish mazkur maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi. Tadqiqot davomida manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarixiy voqealarning obyektiv manzarasini yaratish ko'zda tutiladi.

Mo'g'ullar tomonidan Xorazmshohlar davlatining bosib olinishi (1219-1221) shu mamlakat fuqarolari boshiga katta kulfatlarni olib keldi. Jahonning rivojlangan yuksak madaniyatga ega bo'lgan Xorazmshohlar davlati hududiga shahar va qishloqlar qisqa bir vaqt ichida ko'chmanchi mo'g'ullar tomonidan vayrona kultepaga aylantirildi. Ijtimoiy va madaniy taraqqiyotda Yevropadan ancha orqada qolib ketdi. Mo'g'ullar istilosi natijasida mamlakatga nihoyatda katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazildi.

Bosqinchilar tomonidan yuz ming nafar san'at, hunar arboblarni, yosh bolalar va ayollarni ajratib olib Mo'g'ulistonga jo'natdilar. Qolgan xalqni shahardan haydab chiqib, askarlarga 24 nafardan bo'lib berdilar [1:69]. Shu bilan birga 20 million oltin dinor, 1000 yuk atlas va boshqa qimmatbaho matolar, 30 ming ot-u xachir va shu kabi noyob buyumlarni olib ketishdi [2:83].

Istilo natijasida faqat Markaziy Osiyoda emas, balki butun musulmon dunyosida o'z davrining savdo, hunarmandchilik va yirik madaniy markaz hisoblangan Buxoroi Sharif, Samarqand, Marv, “Shaharlar sultoni” nomini olgan Gurganch[3:339] “qashqirlarning uyasiga hamda boyo'g'li va qarg'alarning boshpanasiga aylandi” [4:341-343].

Akademik B. G'afurovning ta'kidlashicha, “Mo'g'ul istilosi O'rta Osiyo xalqlariga bitmas tuganmas musibatlar keltirdi. Talon-taroj va yong'inlar oqibatida Movarounnahr shaharlari yer bilan yakson bo'ldi. Mehnatkash aholi



qatag'onga duchor etildi. Qishloq xo'jaligi besamar tushkun holatga keltirildi" [5:27]. Asrlar davomida Xitoy va Hindistondan Turkiston orqali Kichik Osiyo va Yevropa tomon kesib o'tgan Buyuk Ipak yo'li faoliyati butunlay to'xtab qoldi.

Chingizxon hali tirikligidayoq o'zi bosib olgan hududlarni o'g'illari o'rtasida taqsimlab beradi. To'ng'ich o'g'li Jo'jiga Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Shimoliy Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar tegadi. Jo'ji vafotidan keyin bu hududlar o'g'li Botuxonga o'tadi. Ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Movarounnahr, Xorazmning janubiy hududlari, shuningdek Balx, Badaxshon, Qobul, G'azna va Sind daryosigacha bo'lgan yerlar beriladi. Uchinchi o'g'li O'qtoygacha Chingizxon o'zining kindik qoni tomgan vatani Mo'g'ulistonni va Xitoyni hadya qiladi. Kenja o'g'li Tuliga esa Xuroson va Eron beriladi. Chingizxon zabt etilgan hududlar bilan birga o'z lashkarlarini ham o'g'illari o'rtasida taqsimlab beradi. Taxt vorisi qilib esa uchinchi o'g'li O'qtoyni tayinlaydi[6:231].

Shu tariqa Chingizxon erksevar va o'ta jangovar xorazmliklarning kelgusida mo'g'ullar hukmronligiga qarshi bosh ko'tarish imkonini yo'qotish maqsadida Xorazmni asl hududini mo'g'ullarning ikki ulusi o'rtasida bo'lib tashlaydi, ya'ni Shimoliy Xorazm Oltin O'rda tarkibiga, Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusi tarkibiga kiradi.

Uluslarga bo'lingan hududlar udel asosida boshqarila boshlanadi. Uluslar markaziy davlatga- "Qoon" yoki "Hoqon"ga bo'ysungan.

Savdo-sotiq yo'llari bilan Yevropa, Rossiya, Eron va boshqa mamlakatlar bilan bog'langan va buning natijasida kattagina boyliklarni qo'lga kiritayotgan Oltin O'rda hukmdorlari savdo yo'lida joylashgan Shimoliy Xorazmning iqtisodiy taraqqiyotiga katta e'tibor bilan qaradilar. 1221- yilda Mo'g'ul bosqini natijasida tamomila vayron qilingan, o'rta asrning eng katta va ko'rkam shaharlaridan biri bo'lgan Gurganj shahri vayronalaridan unchalik uzoq bo'lmagan yerda Urganch nomi bilan yangidan shahar barpo etildi. Bu shahar ham oldingi nomdosh shahri kabi nihoyatda ko'rkam va chiroyli edi. Yevropa va Osiyoni bog'lab turuvchi savdo yo'lida joylashgan shaharning rivojiga Oltin O'rda hukmdorlari va ularni Xorazmdagi noiblari katta e'tibor bilan qaradilar[7:290]. Florensiyalik savdo firmasining agenti Franchesko Baluchchi Pegalottining so'zlariga ko'ra, Yevropa mamalakatalariga zarur bo'lgan barcha, Sharq, ayniqsa Xitoy tovarlarini Urganchdan sotib olish mumkin bo'lgan[8:138].

Movarounnahr va Xorazmning janubiy hududlarini o'z ichiga olgan Chig'atoy ulusi XIV asrning 40-yillariga qadar mavjud bo'lgan edi. Ulus poytaxti Beshbaliq shahri bo'lgan. Mo'g'ullar madaniy taraqqiyotda o'lkamizning yerli xalqlariga nisbatan juda qoloq bo'lgan. Ularning bunday katta hududlarni

boshqarishda tajribalari yo‘qligi bois mahalliy xalqlarning zodagon vakillari xizmatidan foydalanishga majbur bo‘lganlar. Ana shunday zodagonlardan biri, Chingizxonning ishongan shaxslaridan bo‘lgan xorazmlik Mahmud Yalavochga Movarounnahrni bevosita idora qilish ishlari yuklatilgan. U o‘ziga qarorgoh qilib Xo‘jand shahrini tanlagan.

Mo‘g‘ullarning daxshatli istilolari mintaqa ahvolini har tomonlama tanazzulga uchratdi. Ayniqsa qishloq xo‘jaligi izdan chiqdi, sug‘orilish inshootlariga katta talofat yetkazildi. Xalq ommasi nihoyatda qashshoqlashdi. Shunga qaramay mo‘g‘ullar Mahmud Yalavoch boshchiligida xalqdan og‘ir soliqlar undirilgan. Ana shunday soliqlardan biri dehqonlardan olinadigan asosiy soliq – “kalon” bo‘lib, hosilning 1/10 qismini tashkil qilgan. Chorvadorlardan “qopchur” solig‘i olingan. “Yaso” qonuni bo‘yicha davlat xazinasi uchun “shulsu” nomi bilan ataladigan oziq-ovqat solig‘i undirilgan. Mazkur soliq har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan[3:358]. Hunarmand va savdogarlardan “targ‘u” solig‘i undirilgan bo‘lib, ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan mahsulotning o‘ttizdan bir qismi hajmida undirilgan. Bulardan tashqari aholiga “tuz”, “jun” va “kumush” soliqlar solingan.

Aholini ommaviy ravishda qirg‘in qilish va qul qilib haydab ketish, og‘ir soliqlar, doimiy talon-tarojlik va shafqatsiz zulm natijasida xalq ommasi misli ko‘rinmagan darajada og‘ir ahvolga tushib qoldi. Ana shunday vaziyatda xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Shunday qo‘zg‘olonlardan biri 1238-yilda Buxoro yaqinida Tarob qishlog‘ida yashovchi g‘alvir ustasi Mahmud Tarobiy tomonidan ko‘tariladi. Garchi qo‘zg‘olonchilar Buxoroda o‘z hukmdorligini o‘rnatishda mo‘g‘ullar tomonidan katta kuch bilan qo‘zg‘olon tor-mor qilinadi va jangda Tarobiyning o‘zi ham halok bo‘ladi. Buxoro qaytadan egallanadi va ilgorigi tartib qoidalar o‘rnatiladi.

Mashhur tarixchi Juvayni o‘z kitobida qo‘zg‘olon haqida to‘xtalib, qo‘zg‘olon mo‘g‘ul bosqinchilari va mahalliy zodagonlarga qarshi ko‘tarilganini va Tarobiyning bosqinchilarga nisbatan nafratini aks ettirgan[9:157].

Chig‘atoy ulusida XIII asr o‘rtalariga kelib ko‘chmanchi mo‘g‘ullar mahalliy aholiga qo‘shilib o‘troqlashib bordilar. Shahar hayotiga yaqinlashuv, mahalliy o‘troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayonlari kuzatiladi. Bundan tashqari ko‘chmanchilarning mahalliy aholi bilan yaqinlashuvi natijasida islomlashuv jarayonlari kuzatiladi. Jumladan, Chig‘atoyning nabirasi Muborakshoh (1264) mo‘g‘ul hukmdorlaridan birinchi bo‘lib islom dinini qabul qiladi.

Mintaqada asta-sekinlik bilan bo‘lsada hunarmandchilik, savdo jonlanadi, shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa tovar, pul munosabatlari tiklanadi. Jumladan,

1334-yilda arab sayyohi Ibn Battuta Xorazmga tashrifi davomida bozorlariga xususan Urganchga alohida e'tibor berib, "Shahar ajoyib bozorlari, keng ko'chalari, hashamatli binolari bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Shaharda aholi ko'pligidan mavjlanib turgan dengizni eslatadi" - deya ta'rif beradi [10:47]. Movarounnahrda yangi shaharlar bunyod etila boshlaydi. Yozma manbalarga qaraganda Chig'atoy xonlaridan bo'lgan Duvoxon (1291-1306) davrida Andijon shahriga asos solindi [3:391]. Shaharlar qurilishidan tashqari XIII-XV asrlarga oid Najmiddin Kubro, Norinjon bobo va Mazlumxon-Sulu maqbaralari, Qutlug' Temur minorasi (Ko'hna Urganch) kabi imoratlar ham qurilgan[11:119].

Professor Petroshevskiy ta'biri bilan aytganda, Mo'g'ul istilochilarining Xorazmshohlar ustiga yurishi natijasida berilgan zaba shu darajada kuchli bo'lgan ediki, shu zarbadan so'ng Xorazm xatto XIX asr oxirida ham o'zini o'nglab bilmadi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, dastlabki vayronagarchiliklarga qaramay, Xorazm o'zining strategik geografik o'rni tufayli Markaziy Osiyodagi muhim savdo va madaniyat markazlaridan biri bo'lib qolgan. Hudud Buyuk ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri sifatida faoliyat yuritishda davom etgan. Bu esa savdo-iqtisodiy aloqalarning tiklanishiga va shaharlarning qayta rivojlanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, mo'g'ullar hukmronligi davrida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar kuchayib, ilm-fan va madaniyat rivojiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Turli hududlardan kelgan savdogarlar, hunarmandlar va olimlar o'rtasidagi aloqalar natijasida madaniy almashinuv kuchaydi. Bu jarayon keyinchalik Xorazm hududining iqtisodiy va madaniy tiklanishida muhim omillardan biri bo'ldi.

XIII asr boshlarida yuz bergan mo'g'ullar istilosi Markaziy Osiyo tarixida, xususan Xorazm mintaqasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotida keskin burilish yasadi. 1219–1221-yillarda amalga oshirilgan harbiy yurishlar natijasida Xorazmshohlar davlati barham topib, mintaqaning siyosiy tuzilmasi izdan chiqdi. Yirik shaharlar vayron qilinib, aholi ommaviy qirg'in va talon-tarojliklarga duchor bo'ldi. Sug'orish tizimlarining buzilishi, savdo yo'llarining to'xtab qolishi hamda hunarmandchilik markazlarining tanazzulga uchrashi iqtisodiy hayotning keskin inqirozga yuz tutishiga olib keldi.

Mo'g'ul hukmdorlari tomonidan zabt etilgan hududlarning uluslarga bo'lib berilishi Xorazm hududining siyosiy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Natijada Xorazmning shimoliy qismi Oltin O'rda, janubiy hududlari esa Chig'atoy ulusi tarkibiga kiritildi. Bu jarayon mo'g'ullar tomonidan hududni boshqarishni osonlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, mahalliy aholining iqtisodiy ahvoli og'irlashib, turli soliqlar – kalon, qopchur, targ'u va boshqa

majburiyatlarning joriy etilishi xalq turmush darajasining keskin pasayishiga sabab bo'ldi.

Umuman olganda, mo'g'ullar istilosi Xorazm tarixida chuqur iz qoldirgan bo'lib, dastlab og'ir siyosiy va iqtisodiy tanazzulga sabab bo'lgan bo'lsa-da, keyingi davrlarda mintaqaning yangi siyosiy sharoitlarga moslashuvi va bosqichma-bosqich tiklanishi kuzatiladi. Bu jarayon Xorazmning Markaziy Osiyo tarixidagi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri sifatidagi o'zni keyingi davrlarda ham saqlanib qolganini ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi Turk. Toshkent: Cho'lpon, 1992. –B. 69.
2. Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны. Баку, Элм, 1973. Пер. с ар. Яз. З. М. Буниятова. –С. 83.
3. Ozod Masharipov. Xorazmnoma 2-kitob, Xorazm: Xorazm nashriyoti 2007. –B. 339-391.
4. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix. 9-jild, Qohira. 1348 h. –B. 341-343.
5. Бабаджан Гафуров. Таджики. Москва: Наука, 1972. Том 1, –С. 27.
6. Mirzo Ulug'bek. To'rt Ulus tarixi, Toshkent: "Yosh kuch" nashriyoti, 2019. –B. 231.
7. O. Masharipov, O'. Abdullayev. Xorazmnoma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. –B. 290.
8. Хорезм в истории государственности. Тошкент. Узбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2013. –С. 138.
9. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahonkusho. Toshkent: Mumtoz so'z, 2015. –B. 157.
10. Ne'matullo Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. Toshkent: "Sharq mash'ali" jurnaliga ilova "Sharq Bayozi" 1993. –B. 47.
11. Кдырнязов М.Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. Нукус: "Каракалпакстан" 1989. –С. 119.

## TARIX

### XIVA XONLIGIDA PUL MUOMALASI VA ZARBXONA FAOLIYATI



**Muborak  
Matyakubova,  
UrDU dotsenti, tarix  
fanlari nomzodi.**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Pul iqtisodiy hayotni tartibga solish, savdo-sotiqni qulaylashtirish va xonlikning xalqaro savdo tarmog‘ida faol ishtirok etishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Savdo vositasi bo‘lgan tangalar oltin, kumush va mis kabi metallardan ishlangan.

**Аннотация:** Деньги играли важную роль в регулировании экономической жизни, облегчении торговли и обеспечении активного участия ханства в международной торговой сети. Монеты, являвшиеся средством торговли, изготавливались из таких металлов, как золото, серебро и медь.

**Annotation:** Money is important in regulating economic life, facilitating trade, and ensuring the active participation of the khanate in the international trade network. Coins, which were a means of trade, were made of metals such as gold, silver, and copper.

**Kalit so‘zlar:** Xiva xonligi, pul muomalasi, zarbxona faoliyati, Savdo vositasi, xalqaro bozor, “Firdavs ul iqbol”, savdo-sotiq, tanga, muhr.

**Ключевые слова:** Хива-ханат, денежное обращение, монетный двор, торговый инструмент, международный рынок, «Фирдаус уль-Икбал», торговля, монета, печать.

**Key words:** Khiva Khanate, money circulation, mint activities, trade instrument, international market, "Firdaus ul Iqbal", trade, coin, seal.

Xiva xonligida davlat mustaqilligining birlamchi shartlaridan biri o‘z puli, tangasi qimmatbaho metallardan tayyorlangan. Har bir xon o‘z nomini o‘zi chiqargan tangalarga zarblashni odat qilgan. Oltin tangalar ikki xilda “puxta” tillo (10 so‘mlik) va “tillo” (5 so‘mlik) bo‘lib, bir tomonida xon ismi, martabasi, ikkinchi tomonida esa zarb qilingan joyi yozib qo‘yilgan. Mis pullarning yuza qismida “puli” degan yozuv bo‘lib, ikkinchi tomonida “Xorazm” degan yozuv bitilgan.

Rus elchisi N.N.Muravyev xonlikda pul muomalasi to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “Xivaliklar pul muomalasida juda hisobdonlar, ular har bir tanga bahosini bexato belgilaydilar. Kesilgan tangalarni ham o‘z qiymatini darhol belgilab oladilar, hatto bir ko‘rgandayoq qalbaki tangalarni ham aniqlaydilar. Metallarni almashtirish san‘atini bilmaydilar, shuning uchun ham ularning kumushi va tillasi sof” [1, B.76].



Savdogar D.Rukovkinning Xiva xonligida “tangalarning Eron hamda Buxoroning oltin va kumushidan zarb etilishi” haqida bergan ma’lumoti[2,C.10.]. Xorazmga bu mamlakatlardan ko‘plab hunarmandchilik mahsulotlari qatori oltin va kumush xom ashyosining (ba’zida yashirin yo‘l bilan bo‘lsa-da) kiritilganligini bildiradi[3,B.386.]. “Firdavs ul iqbol” asarida Orenburg, ya’ni ruslarning Itil - Volga daryosi qirg‘og‘ida bino qilingan savdoxonasi Yangiqal’adan chiqib, yurtiga qaytayotgan Xorazm karvoni to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Asarda shunday yoziladi: “Xorazm karvonikim, zaru siym birla to‘lu’ yuklari, javohir sanufig‘a homil bari, Xitoyi qummosh andadur behisob, Farangiy matoig‘a hud ne hisob” deb katta miqdorda mis, oltin, Xitoy kumushi, farangiy matolar sanab o‘tilgan[4,B.275.]. Bu esa Xorazmga ko‘p miqdorda mis, kumushni keltirilganidan darak beradi. Professor H.Ziyoyev XIX asr boshlariga kelib, Xivada Buxorodan va boshqa sharq mamlakatlaridan keltiriladigan oltin avvalgi vaqtlarga qaraganda ancha ko‘payganligini aytib o‘tgan[5,B.79.].

Murtazo Aitov “Xorazmlik savdogarlarning Eronga qatnashi tufayli kumush oldingi yilga nisbatan birmuncha ortdi” degan ma’lumoti yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Xonlikka odatda kumush asosan Nijniy Novgoroddan har bir qadog‘i 24-26 so‘mdan xarid qilingan. Har bir qadoq kumushdan 163-165 tanga zarb qilingan, xazinachi 7-8 so‘mcha sof foyda ola bilgan. Zarbxonada har bir qadoq oltindan 168 dona tanga yasali, bu esa o‘z navbatida xon xazinasiga har qadoqda 3 so‘m 75 tiyindan 6 so‘m 10 tiyingacha foyda keltirardi. Kumush pullar yiliga 116 pud, 20 fuyehnt miqdorida zarb qilinib, ikki o‘rtada qoladigan sof foyda 14-15 ming so‘mga borardi.

Xomashyo sifatida keltirigan oltin va kumushdan tashqari xonlikda qo‘shni davlatlarda zarb etilgan tangalar ham muomalada bo‘lgan. O.Bertonning ma’lumot berishicha, Xorazmda savdoni rivojlantirish uchun mahalliy pullardan tashqari Buxoro va Erondan keltirilgan kumush tangalar ham muomalada edi. Xonlik o‘zining mis tangalaridan tashqari Buxoroning oltin tangalari, Golland chervonlari bilan birga Eronning reyyol deb atalgan kumush pullari muomalaga kiritilgan[1,B.82.]. bu esa an’anaviy davom etib kelgan Xorazm tashqi iqtisodiy aloqalarining miqyosi kengayganligini bildiradi[3,B.387.].

1837-1838 yillardagi tillo va kumush tangalar kursi muntazam o‘zgarib turgan. Xivada zarb qilingan 1 tillo 26-35 tanga yoki 15 rub.ga teng kelgan, 2 tanga (kumush pul) 1 abbosiy chaqaga teng kelgan, 1 abbosiy 1 rub.ga tenglashtirilgan. Demak, 1 tillo qiymat jihatidan 15 rub.ga mos kelsa, u holda 1 tanga 50 rus kop.ga to‘g‘ri kelgan. O‘sha paytda tillo va mis narxi oshib ketgan, ammo Erondan olinadigan kumush narxi pasayib ketgan, tillo 15 rub.ga ko‘tarilgan[6,C.105.].

Xiva xonligi shaharlarida chakana va ulgurji savdoni amalga oshirishda turli pul birliklari, uzunlik va og'irlik o'lchovlaridan foydalanishgan. Shu bilan birga, savdo nafaqat pulga sotish, balki tovarlarni ayirboshlash barter tizimi (tovar almashish) orqali ham amalga oshirilgan. Barter tizimi, xususan, kichik qishloqlarda va ishlab chiqarish joylarida faol bo'lgan. Ammo, bu tizim faqat cheklangan hududlarda va kichik miqyosdagi savdolar uchun ishlagan. Xiva xonligi shaharlarida ichki savdo qisman naqd pulga sotish yo'li bilan amalga oshirilsada, bu borada mol ayirboshlash an'analari ustun edi. XIX asrning 20-yillarida N.Muravyevning, xonlikdagi ichki savdoda tovar ayirboshlash ustunligining sababini izohlab, "Xiva hukmdorlari xonlikdan oltin va kumushni olib chiqib ketilishini qat'iy ta'qiqlab qo'ygan", savdogarlar "odatda, o'z savdolarini tovar ayirboshlash bilan amalga oshiradilar" [1,C.196.]. – degan qaydi mavjud.

Xonlikda Rossiya bosqiniga qadar muomalada bo'lgan tillo tangalar "puxta" – 3 so'm 60 tiyin yoki 18 tanga, tillo 1 so'm 80 tiyin yoki 9 tanga hisobida ayirboshlangan. Bir tanga – 20 tiyin, pul – 5 tiyin, shohi esa 32 tangaga teng bo'lgan. Asosiy pul hisob birligi oltin va kumush tanga hisoblanadi. Bir tanga 32 pulga tengdir. Xiva tillo tangasining og'irligi Nebolsining ko'rsatishicha, bir misqolga teng bo'lgan. Uning bahosi kumush bilan solishtirganda 3 so'm 43 tiyindan 4 so'm 30 tiyingacha tengdir[7,B.88.].

XIV asrning 60 - yillaridagi g'alayonlar natijasida Oltin O'rda kuchsizlanadi va Xorazm undan siyosiy jihatdan ajralib[8,B.423.], o'zining mustaqil Qo'ng'iro't so'fiylari[9,C.105.]. sulolasini kurash maydoniga olib chiqadi. Qo'ng'iro't so'filari sulolasining birinchi hukmdorlari Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan bo'lgan, o'zbeklar yurtida Husayn so'fiy va uning inisi Yusuf so'fi edi. Husayn so'fi tomonidan chiqarilgan tilla tanga vazni – 0,9 gr. edi. Tanganing old tomoniga Al-mulk Alloh al-Vohid al-Qodir. Abu Bakr, Usmon, Umar, Ali. Orqa tomoniga Zarb hazo al-sikkat Xvorazm deb yozilgan. Mazmuni: "Barcha mulk qodir Allohniki. Xorazmda zarb qilingan" [10,B.16.]. Yetti oy hukmronlik qilgan Xiva xoni Qutlug' Murodxonning oltindan zarb qilingan yarim misqol (2,3 g.) tangasida (forscha yozilgan) quyidagi yozuv yozilgan:

Oliyjanob, karamli Xudoning lutfi bilan

Shoh Qutlug' Murodxon zarb qildirdi tillodan.

Sharq davlatlarining oltin va kumush tangalariga Alloh, payg'ambar alayhissalomning ismi, undan keyin hukmdor podshohning nomi yozilgan. Shuning uchun tangalar yanada qimmatli kuchga ega bo'lgan. Tangalar hukmdorni tanitish, ulug'lash vazifasini ham o'tagan.

Xiva xonligida zarbxona xonlik paydo bo'lishi bilan faoliyat boshlagan, ammo, oltin va kumushdan tangalar kam bosilgan. Ayniqsa, XVIII asrda xonlikda kechgan siyosiy voqealar, mamlakatning inqirozga tushishi, xonlarning tez-tez o'zgarib turishi zarbxona faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Xivada o'z tangalarini zarb qilish 1612 yilda Arab Muhammadxon davridan boshlandi. Arab Muhammadxon tangalarining old tomoniga “Zarb Xorazm”, orqa tomoniga sana - 1612 yil, 1645-1663 yil Abulg'ozixonning tangalari old tomoniga “Zarb Xorazm”, orqa tomoniga “Abulg'oz Muhammad Bahodurxon”, Anusha Muhammad tangasida old tomoniga “Zarb Xorazm”, orqa tomonida zarb qilingan sana 1675 yil yozilgan[11,B.66.]. 1804 yil Eltuzarxon zarb qildirgan tangalar to'g'risida Mirzo Olim Mahdum hoji o'zining “Tarixi Turkiston” asarida shunday yozadi: “Tangri inoyati ila tilla, kumushdan tanga qoqdi, Xorazmshohlarning vorisi Eltuzar” [12,B.193.]. She'riy uslubda ushbu so'zlar quyidagicha keltiriladi:

Sikkai zad az fazli Haqq bar siymu zar,

Vorisi Horazmshohon Eltuzar[14,B.66.].

1810 yilda Muhammad Rahimxon I (1806-1825 yil) tomonidan Xorazm davlati poytaxti Xiva shahrida, Ichan-Qal'aning Ko'hna ark saroyida davlat zarbxonasi tashkil etildi. Shu bilan tangalarni ibtidoiy usulda zarb qilishga chek qo'yildi. Zarbxona Ko'hna Arkda joylashgan. Bu yerda tillo, abbosiy, oq tanga, qora tanga, shohi, yarim shohi va pul (qora pul) sifatida tanilgan oltin, kumush va mis tangalar zarb qilingan. Oltin tangalarning sifati juda yuqori bo'lib, uning old tomoniga hukmdorning ismi “Abulg'oz Muhammad Rahim Bahodirxon”, orqa tomoniga “Zarb dorus-saltana Xivaq” so'zlari va tanganing zarb qilingan sanasi bitilgan[13,B.94.]. Bu tangalar og'irligi bilan alohida ajralib turgan. Ushbu bino bugungi kungacha saqlanib qolgan va hozirgi kunda Xorazm zarbxonasi tarixi va faoliyatini yoritib beruvchi muzey interyeri va ekspozitsiyasi faoliyat yuritmoqda.

Muhammad Amin Bahodirxon (1846-1855 yil) tomonidan zarb qilingan tillo tanganing old tomonida Abulg'oz Muhammad Amin Bahodirxon nomi, orqa tomonida “Zarb Dor us salom Xorazm” so'zlari ya'ni zarb qilingan joy nomi yozilgan. Sayid Abdullaxon I (1855 yil 5 oy hukmronlik qilgan) tilla tangasi, yarim misqol (2,25 g.) vaznda bo'lib, oldiga Sayyid Abdullaxon 1271, orqa tomoniga “Zarb dor us-saltana Xorazm” so'zi va sana yozilgan 1271 (1855). Qutlug' Murodixon (1855-1856 yil, 7 oy hukmronlik qilgan) tillo tangasi old tomoniga Qutlug' Murod Muhammad Bahodirxon nomi va sana 1271, orqa tomoniga “Zarb dor us-saltana Xorazm” so'zlari va sanasi bitilgan 1271. Sayyid Muhammadxon (1856-1864 yillar) tilla tangasi, yarim misqol (2, 25 g.) vaznda bo'lib, old tomoniga Sayyid Muhammad Bahodirxon nomi, sana 1272, orqa tomoniga “Zarb dor us-saltana Xorazm” so'zlari va sanasi bitilgan 1272 (1856).

1855 yil taxtga o'tirgan Abdullaxon ibn Qutlug' Murod davridan xonlar ismining oldiga "sayyid" so'zi qo'shib ishlatilgan va xonlik payg'ambar avlodlari qo'liga o'tganligi bildiradi.

Muhammad Rahimxon II davrida maxsus zarbxonada oltin, kumush, mis pullar zarb etilgan. Oltin tangaga "tillo" deyishgan. Katta oltin tanga – 1 tillo ("abbosiy" deb ham yuritilgan), Rossiyaning 3 so'm 60 tiyinga, kichik tillo tanga ("ashrafiy") 1 so'm 80 tiyinga teng bo'lgan. 1 tillo 18, yarim tillo 9 kumush tangaga teng bo'lgan. Kumush tanganing diametri 18-20 mm bo'lib, bir tomoniga "Zarbdor us-salom Xorazm" ("Xorazm poytaxtida zarb qilingan") so'zlari va zarb qilingan yili yozilib, islamiy naqshlar bilan bezatilgan. Tanganing ikkinchi yuzasiga hukmdorning ismi yozilgan. Sayid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon II davrida bunday tangalar ko'p chiqarilgan. Sayid Muhammad Rahimxon Feruz tangalariga o'z nomini emas, otasi "Sayid Muhammad marhumiy" nomini yozdirgan. Xivada pul muomalasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri vafot etgan ajdodlari nomidan tangalar chiqarishning keng tarqalganligi edi. Shu tarzda, Muhammad Rahimxon marhum otasi Said Muhammad nomidan tangalar zarb qildi. Bunday tangalarning old tomonida "Marhum xon Said Muhammad" yozuvi bo'lgan. Xivaning oltin, kumush va mis tangalarida zarbxona "Xorazm", Muhammad Rahimxon I tangalarida esa "Xivaq" nomi yozilgan. Faqat Olloqulixonda ikki holatda boshqa zarbxona, "Marv" nomi qo'yilgan.

Xiva xonligida kumushdan tayyorlangan tanga pullar ko'p ishlatilgan. Kumush pullarning oltin va misga nisbatan qulayligi buni taqozo qilgan. Hatto, XIX asr oxirlarigacha har yili 7 mln. so'mlik kumush tanga pullar xivalik mahalliy ustalar tomonidan zarb qilingan. XIX asr oxirlarida dunyo davlatlarida kumush qazib chiqarishning ko'payib ketganligi uning qiymatini tushirib qo'ydi. Bu davrda Xiva xonligida kumush pul birligi qiymati ikki baravarga tushgan edi. Bir tanga pul miqdori 20 tiyindan 12 tiyinga tushib qolgan.

Xonlikda tillo va kumush pullardan tashqari mis pullar ham zarb qilingan. Xiva xonligida mis tangalarning turi ko'p bo'lgan. Mis tanga (qora pul) larning 1 tanga, 2 yarim tanga, 5 tanga, 15 tanga shohi kabi turlari bo'lgan[14,B.241.]. Jumladan, qora pul – mayda chaqa, shuning uchun ham "qora" pul deyilgan. Diametri 15-20 mm. Ko'pchiligining yozuvi yaxshi tushirilmagan. Kichikligi tufayli bir tomoniga hoshiya naqsh o'rtasida "Zarb Xorazm" so'zlari, ikkinchi yuzasiga "Flus" so'zi va yili yozilgan. 32 qora pul bir tangaga teng bo'lgan. Bir tanga – qora pul bilan teng o'lchamda, yumaloq shaklda. Old tomonida hoshiya naqsh ichida tepada nur sochayotgan quyosh tasviri, uning pastida "Flus bir tanga", orqa tomonida hoshiya naqsh ichida "Zarb Xorazm" so'zlari va zarb

qilingan sanasi yozilgan; ikki yarim tanga – diametri 23-25 mm. Old tomonida hoshiya ichida quyosh va uning ustida yarim oy tasviri, pastida “Flus ikki yarim tanga” so‘zlari, orqasiga esa “Zarb dor us-salom Xorazm” so‘zlari va sana yozilgan; besh tanga – diametri 30-34 mm. Old tomonida hoshiya naqsh ichida yuqorida quyosh va uning pastida yarim oy tasviri, pastida “Flus beg tanga” va sanasi, orqa tomonidan bir yoki ikki aylana hoshiya naqsh ichida “Zarb dor us-salom Xorazm” so‘zlari va sana yozilgan; o‘n besh tanga – diametri 34-38 mm. Old tomonidan yuqorida katta oymomo ichiga olti burchakli yulduz (Dovud yulduzi) tasviri tushirilgan. Pastida aylana qilib “O‘n besh tanga flus” so‘zlari va sana, orqasiga “Zarb dor us-salom Xorazm” so‘zlari va sana yozilgan. Tanganing har ikki tomoni hoshiya naqshi bilan bezatilgan va harflari orasida ham naqsh gullari tushirilgan; shohi – bu pul ikki xil o‘lchamli bo‘lib, kattasining diametri 30 mm, kichigi 25 mm atrofida. Ular shohi va yarim shohi deb atalgan. Bu pullarning qalinligi 3-4 mm.ni tashkil qiladi. Old tomonida sanasi va “Flus shahi”, orqa tomonida sanasi va “Zarb Xorazm” so‘zlari yozilgan. Bu pullar faqat Sayid Muhammadxon davrida zarb qilingani ma’lum.

1918 - 1920 yillarda oxirgi xon Said Abdullaxon davrida qog‘oz va ipakdan yirik qiymatdagi pul birliklari muomalaga kiritildi. Ular Ko‘hna Arkdagi zarbxonada bosmadan chiqarildi. Bu yerda umumiy qiymati uch million rubl miqdoridagi qog‘oz va ipak banknotalari muomalaga chiqarilgan.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. Москва.1822. часть. II. - С. 76-78
2. Бетгер Е.К. Самарский купец Данила Рукавкин и его караван в Хиву в 1753. -С.10.
- 3.Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI - XIX асрлар). Тошкент: Академнашр, 2019. -Б.386.
- 4.Мунис ва Огахий. Фирдавс ул – иқбол. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. -Б.275.
- 5.Зиёев Ҳ. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. Тошкент, 1973.- Б.79.
- 6.Сведения о Хивинском ханстве. Выр. из жур. // Мануфактур и торговля. 1843. Хмыр. кол. Т. 9. —С. 105,129,130,149.
- 7.Абдурасулов А. Хива (тарихий – этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. -Б.88.
- 8.Ахмедов Б.Тарихдан сабоқлар. Тошкент, 1994. -Б.423.



- 9.Вайнберг Б.И. К истории Кунгратских суфи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957. Г. АН СССР. -М., 1960. - С.105.
- 10.Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019.- Б.16.
- 11.Худойбергаов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012. - Б.66.
- 12.Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент, 2009. - Б.193.
- 13.Северова М.Б. Коллекция монетных штемплей Хивинского ханства из гос. Эрмитажа. // Эпиграфика Востока. Л.: 1988. XXIV –С. 94-115.
- 14.Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз. Тошкент: Eextremum press, 2011. - Б. 241.

**TARIX****ABDURAUFG FITRATNING JADIDCHILIK MILLIY SIYOSIY HARAKATIDA TUTGAN O'RNI**

**Dilnoza Jamolova,**  
**O'zFA Tarix instituti**  
**direktorining**  
**ilmiy ishlar bo'yicha**  
**o'rinbosari,**  
**tarix fanlari doktori,**  
**professor.**

**UO'K 94(575.1)" XIX/ XX"**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxorolik jadid namoyandasi Fitratning hayoti va faoliyati shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, adabiy jarayonlar bilan bog'langan tarzda tadqiq etiladi. Fitratning jadidchilik harakatida tutgan o'rni, boy ilmiy merosi asarlari asosida yoritib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье исследуются жизнь и деятельность бухарского джадидского деятеля Абдурауф Фитрат в контексте социально-политических, культурных и литературных процессов того периода. Освещается его роль в джадидском движении, а также богатое научное наследие на основе его произведений.

**Annotation:** This article examines the life and work of the Bukharan Jadid figure Abdurauf Fitrat in connection with the socio-political, cultural, and literary processes of his time. It highlights his role in the Jadid movement and presents his rich scholarly heritage based on his works.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Istanbul, Rossiya, Turkiya, imperiya, jadid, maktab, amirlik, respublika, adabiyot, ilm, siyosat, tarix.

**Ключевые слова:** Бухара, Стамбул, Россия, Турция, империя, джадид, школа, эмират, республика, литература, наука, политика, история.

**Key words:** Bukhara, Istanbul, Russia, Turkey, empire, Jadid, school, emirate, republic, literature, science, politics, history.

Turkiston jadidchilik milliy siyosiy harakatining eng yorqin vakili va yetakchisi Abdurauf Fitrat bo'lib, Turkistonni Rossiya imperiyasi zulmidan ozod qilish g'oyalarini ilgari surgan. Turon qadimdan buyuk davlat bo'lgani, uni Amir Temur kabi yirik hukmdorlar boshqarganini ta'kidlab, turkistonliklarni bosqinchilarga qarshi mustaqillik uchun kurashga da'vat etgan. Abdurauf Fitrat dunyo maydonida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilib, kuchli davlatlarning qurboniga aylanib qolmaslik yo'llarini izlagan. Asarlari, maqolalari va she'rlarida Turkiy dunyo birligi g'oyasini targ'ib qilib borgan. Jamiyatda diniy e'tiqodning kuchini inobatga olib, turkistonliklarga islom dinining mohiyatini Qur'oni karim orqali tushuntirgan va islom dinini taraqqiyotga yetaklovchi najot yo'li sifatida ko'rsatgan.

Tug'ma iqtidor, iste'dod ma'nosini beruvchi "Fitrat" Abdurauf Abdurahimboy o'g'lining adabiy taxallusidir. Bu nom o'z davrida ziyorlilar

davrasida nihoyatda izzat va sharaf bilan tilga olingan. Uning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo'yidagi hamkasblarigina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar. Afg'oniston, Turkiya, Eron ilmiy-adabiy doiralarida ham uning mavqe-martabasi baland bo'lgan. "Ichki dushmanlar"ni fosh qilish vasvasasi avj olib, xalqning asl farzandlari bir chetdan terilib qatag'on qilinayotgan bir paytda ilm-ma'rifatning qadriga yetuvchi chet ellik ishbilarmon homiylar da'vatnomalar yozib, uni ishga taklif etganlarida bormagan. Har qanday holda vatani, xalqi bilan bo'lishni lozim bilgan.

Abdurauf Fitrat 1886 yili Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug'ilgan. Otasi o'qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo'lib, savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Qoshg'arga tez-tez borib turgan. Onasining ismi Bibijon (to'liq ismi Nastarin Bibi) bo'lib, taxminan 1866 yili tug'ilgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand – ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bor edi. 1920-yillarning faollaridan bo'lgan, goho she'r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o'quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa 1910-yillarda Kogon bosmaxonasida harf teruvi bo'lib ishlagan. Fitrat oldiniga eski maktabda, so'ng oliy ta'lim olish uchun Mir Arab madrasasida o'qiydi. "Tarbiyai atfol" jamiyatining moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi bilan 1909 – 1913 yillari Istanbulda tahsil olgan<sup>1</sup>.

Turkiyaning "Ittihad va taraqqiy" partiyasi bilan yaqinlashuv, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo'lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g'oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakllanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatgan. U tahsil olgan Istanbul dorulfununida Turkiya adabiyotidagi islomchilikning 1910-yillardagi eng mashhur vakili "Siroti mustaqim" jurnalining muharriri Mehmed Akif turk adabiyotidan, "Ittihad va taraqqiy"ning nashri "Yeni majmua"ning bosh muharriri, turkchilik g'oyasining bayroqdori shoir Ziyo Go'k Alp ijtimoiyot fanidan dars bergan<sup>2</sup>.

Istanbul dorulfununida tahsil olayotgan Abdurauf Fitrat, Muqimiddin, Sodiq Ashurlar Turkiyada o'qiyotgan vatandosh o'quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko'paytirish hamda muntazamlashtirish maqsadida "Tarbiyai atfol" jamiyatining Istanbuldagi shahobchasini ochib, uni "Buxoro ta'mimi maorif jamiyati" nomi bilan rasman ro'yxatdan o'tkazgan. Bu haqda Ahmad Zaki Validiy To'g'on quyidagilarni yozadi: *"Bu jamiyat Istanbulda bir sho'ba ocharoq, unga 1911*

<sup>1</sup> Жамолова Д. XX асп Берунийси // "Халқ сўзи" газетаси. 2022 йил 20 июль.

<sup>2</sup> Жамолова Д. XX асп Берунийси.

yilda 15 nafar, 1912 yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho'ba "Buxoro ta'limi maorif jamiyati" nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910 yilda Eron yo'li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo'li bilan kelgan Usmonxo'ja, g'uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o'g'li bu jamiyatning quruvchilari edi"<sup>1</sup>. Ushbu jamiyat o'z faoliyati davomida 60 ga yaqin buxorolik va turkistonlik talabalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatgan.

Fitrat tomonidan tayyorlangan jamiyat Nizomnomasi 1909 yilda Istanbulning Vazirxon ko'chasida joylashgan "Matin" tipografiyasida nashr qilingan. Hujjat 4 bobdan iborat bo'lib, 1-bob "Buxoro ta'limi maorif xayriya jamiyatining asosiy qoidalari", 2-bob "Favqulodda yig'inlar, umumiy yig'inlar, muntazam yig'inlar", 3-bob "Talabalarni jamiyatga qabul qilish" va 4-bob "Buxoro ta'limi maorif jamiyati xayriyasining hatti-harakatlari" deb nomlanadi<sup>2</sup>.

Fitrat bir qancha asarlarini, jumladan, "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning usuli jadida xususida qilg'on munozarasi" (1909), "Hind sayyohi bayonoti" (1912), "Rahbari najot" (1913) asarlarini Istanbulda yozgan. "Sayha" she'rlar to'plamini nashr qildirgan. Bu haqda F. Xo'jaev "Buxorodagi inqilob va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi tarixiga doir" asarida shunday yozadi: *"Fitratning asarlari har qancha ta'qiqlab qo'yilganiga qaramay keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida bu kitobchalar zo'r qiziqish bilan o'qildi, ular ustida bahs va munozaralar bo'lib turdi... vatanparvarlik she'rlar to'plami bo'lgan "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hukumati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berildi"*<sup>3</sup>.

Fitrat o'z asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqid qilib, ulardan qutulish yo'llarini ko'rsatgan. Uning "Munozara" asarida Buxoroda faoliyat ko'rsatgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari o'z ifodasini topgan edi. Bu haqda Fitrat ijodining tadqiqotchisi yaponiyalik X. Komatsu shunday degan edi: *"1911 yilda Istanbulga o'qishga borgan yosh buxorolik jadid Abdurauf Fitrat "Munozara" nomli forsha adabiy asar yozdi. Bu asar o'sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o'rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo'yish uchun yozilgan edi; asar faqat Buxorodagina emas, balki butun Turkistondagi jadidlar harakatiga ruh va kuch berishi bilan mashhur bo'ldi"*<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Заки Валиди Тўғон. Бугунги турк эли. Туркистон ва унинг янги тарихи. 2-босқи. Истанбул, 1981. 354-бет.

<sup>2</sup> ЎзМА, И-461-жамғарма, 1-рўйхат, 949-йиғмажилд, 17 – 20-бетлар. (Бу ҳужжат илк марта Қ. Ражабов томонидан "История Турана" журналида эълон қилинган).

<sup>3</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Тошкент – Самарқанд: Ўздавнашр, 1926. 77-бет.

<sup>4</sup> Ҳисао Коматцу. Уч жаиди ва ўзгарган дунё (Турк тилидан Баҳодир Нурмуҳаммад таржимаси) // "Жаҳон адабиёти" журнали, 2017 йил 4-сон. 133-бет.

“Hind sayyohi bayonoti” asarida esa o‘lka hayotining ko‘plab muammolari – xalqning nochor hayoti, harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash – tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliy gazeta muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchilik va hunarmandchilik – hayotning barcha sohalari keskin islohga muhtoj ekani hind sayyohining nazari orqali idrok qilinadi. Asarda nafaqat islohotchilik g‘oyalari, balki yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish ham targ‘ib qilingan<sup>1</sup>. Shuningdek, Buxoro madrasalarida diniy ta’limning og‘ir ahvolda ekanligi, nafaqat talabalar, hatto mudarrisning ilm saviyasi, arab tilini sayoz bilishi natijasida islomning muqaddas kitoblari noto‘g‘ri talqin qilinayotgani ham bayon etilgan: *“Madrasamiz bor, kutubxonamiz bor, biroq yurtimizda tafsir va hadisning biror betini, hatto arab tilidan biror betini xatosiz o‘qib, komil ravishda tushuntirib beradigan birorta allomaga ega emasmiz”*. Fitratning fikricha, buning oqibatida xalq hayotiga kirib kelayotgan yangiliklar, ilg‘or g‘oyalar shariatga xilof deb qoralanadi. U shunday deydi: *“Ovro‘podan muallimlar olib kelish va har yili bir necha iste’dodli yoshlarni tibbiy ta’lim olish uchun Rossiyaga yuborish, bularning birontasi shariatga qarshi ishlar emas. Zero, olamning faxri bo‘lmish alayhissalavotu vassalla buyurganlar: “Utlub il-ilma va lav bas-Sini”, ya’ni “ilm agar Chinda bo‘lsa ham tilab o‘qingiz”. Ana shu hadisi sharif mazmuniga diqqat bilan e’tibor qilaylik, Payg‘ambarimizning Chinni misol keltirishlaridan maqsadlari albatta fiqh va tafsir ilmini o‘rganish emas, chunki Chin kofiristondir. Bu hadisda tilga olingan ilm, ya’ni tib va san’atdir. Ma’lum bo‘ldiki, dunyoviy ilmlarni g‘ayridinlardan o‘rganish ham bizning shariatimizga mosdir”*<sup>2</sup>.

Abdurauf Fitrat “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasida muayyan islohot-o‘zgarish kiritish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, “Hind sayyohi bayonoti”da yangicha g‘oyani — muayyan darajada Buxoro amirligiga nisbatan o‘z e’tiroznomasini bayon etadi. U islohot g‘oyalaridan voz kechmaydi, biroq Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yer osti boyliklaridan xalq manfaati yo‘lida foydalanish haqida qayg‘uradi.

Fitratning “Najot yo‘li” asarisiz esa jadidlarning harakatiga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Bu asar jadidlarning g‘oya va maqsadlarini baholashda yagona va birlamchi manbadir. Muallif millatni qoloqlikdan qutqarish yo‘li deb islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimni biladi. Bu muqaddas kitob va islom dini g‘oyalari atrofida millatni jipslashtirishga da’vat etadi. Uning fikricha,

<sup>1</sup> Фитрат. Ҳинд сайёҳи баёноти // Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент: “Маънавият”, 2000. 98 – 168-бетлар.

<sup>2</sup> Фитрат. Ҳинд сайёҳи баёноти. 114, 134, 136-бетлар.



“Qur’oni karim” – bu ilm va ma’rifatdir, ota-bobolarimiz har sohada, ayniqsa, ilm va ma’rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo‘lganlar, ular har bir ilmning asosiy mohiyatini yaxshi bilib, undan yaxshigina istifoda va iste’mol qilganlar<sup>1</sup>.

Fitrat Buxoroning taraqqiyotdan orqada qolib ketayotganiga asosiy sabab qilib, mamlakat aholisining savodsizligi, siyosiy ongi rivojlanmaganligi va ilmu ma’rifatdan uzoqda ekanligini ko‘rsatadi. U mamlakatni tanazzuldan, xalqni nochor ahvoldan qutqarish uchun ilm-fanni rivojlantirish zarurligini uqtiradi.

Vataniga qaytgan Abdurauf Fitrat 1912 – 1916 yillari Buxoro, Qarshi va amirlikning boshqa shaharlarida jadid maktablari ochish hamda muallimlik qilish bilan shug‘ullangan. Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlagan. Buxoro amiri Olimxonning ta’lim sohasidagi islohotlarini e’tirof etgan. Jumladan, “Oyina” jurnalida “Buxoro hukumatining islohotkorona qadamlari” nomli maqolasi chop qilib, unda Amir Olimxonning 1911 yildagi ibtidoiy maktablarni isloh qilishga oid farmoni xususida to‘xtalib o‘tgan. Maktab muallimlariga davlat tomonidan maosh belgilab qo‘yilganligi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi alohida ta’kidlagan. Shu bilan birga maktablarda besavod maktabdorlar o‘rniga islohparvar, yangicha fikrlaydigan, bilimli muallimlarni tayinlashni tavsiya qilgan<sup>2</sup>. Muallif amir tomonidan maktablarni nazorat qiluvchi inspektor tayin etilgani haqida ma’lumot berib, ularning ishidan norozi ekanligini yozadi: *“Bir necha fursat o‘tib, maktabdorlar va o‘rtamiyona mufattishlar bir-birlarini topdilar. Bir navi qilib, maslahatni bir joyga qo‘ydilar. Maktablar asli holicha qoldi. Ketgani hukumatning puli bo‘ldi. Bekordan-bekorga maktabdorlar cho‘ntagiga ketdi. Ya’ni faryodlarimiz va janobi oliy tashabbuslari zoe ketdi...”*<sup>3</sup>. Shuningdek, maqolada 1913 yilda Amir Olimxon tomonidan qurilgan madrasa va unda o‘tilayotgan fanlar haqida ma’lumot berilgan.

Abdurauf Fitrat faoliyatining muhim bosqichlaridan biri 1917 yili boshlangan. U shu yildan boshlab “Yosh buxoroliklar” partiyasining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biriga aylangan.

Rossiyada 1917 yil fevralda sodir bo‘lgan inqilob Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu davrdan boshlab, Buxorodagi jadidlar va konservator ulamolar o‘rtasida maorif sohasida boshlangan muxolifat siyosiy ziddiyatlarga aylanadi. Buxoro yoshlari rus inqilobini qo‘llab-quvvatlab, uning Buxorodagi faol ittifoqchilariga aylanadilar va 12 ta yashirin qo‘mita tuzadilar. Bu inqilob “Yosh buxoroliklar” ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini ham tezlashtiradi. Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlar Amir Olimxonning davlat boshqaruv sohasida islohotlarni amalga oshirishiga

<sup>1</sup> Фитрат А. Нажот йўли // Танланган асарлар. 5-жилд. Тошкент: Маънавият, 2010. 66-бет.

<sup>2</sup> Фитрат. Икромот ислох корони хукумат Бухоро (Бухоро хукуматининг ислохкорона кадамлари) // “Ойина” журналі. 1915 йил 8-сони. 198 – 200-бетлар.

<sup>3</sup> Фитрат. Икромот ислох корони хукумат Бухоро. 199-бет.

umid qilsalar, Abdurauf Fitrat boshchiligidagi jadidlar amirning Muvaqqat hukumat bilan uzoq muddatli shartnoma tuzib, islohotlar o'tkazganda ham arziyas erkinliklar beradi, degan fikrga keladilar<sup>1</sup>.

1917 yil 15 martda “Yosh buxoroliklar” tashkilotining Markaziy Qo'mitasi saylanadi. Uning tarkibiga Abduvohid Munzim (rais), Abdurauf Fitrat (kotib), Usmon Xo'ja (xazinachi), Ota Xo'ja (a'zo), Muso Saidjonov (a'zo), Ahmad Hamdiy (a'zo), Hamidxo'ja Mehriy (a'zo)lar kiradi. Shu kuni qo'mita amirlikda islohotlar o'tkazishni so'rab, Muvaqqat hukumat hamda ishchi va soldat deputatlari Petrograd Kengashiga murojaatnoma tayyorlaydilar va telegraf orqali jo'natadilar<sup>2</sup>. Oradan biroz muddat o'tgach, “Yosh buxoroliklar” Ijroiya qo'mitasi Petrogradga ikkinchi marta telegramma yuborishga qaror qilganlar. Bu telegramma Fayzulla Xo'jaev tomonidan yozilgan bo'lib, Abdurauf Fitrat, Muso Saidjonov imzolari bilan Samarqand orqali jo'natilgan. Shu bilan birga Markaziy qo'mita Petrogradga o'z vakillari Abdurauf Fitrat va Usmon Xo'jalarni yuborgan. Ular Orenburgga yetib borganda, Buxoroga Petrogradan maxsus komissiya kelayotgani haqidagi xabarni eshitib, orqaga qaytganlar<sup>3</sup>.

1917 yil 19 mart kuni “Yosh buxorolik”larning Muvaqqat hukumatga va Petrograd Sovetiga yozgan murojaatnomasiga javob telegrammasi kelgan va bundan xabar topgan Miller jadidlardan Abdurauf Fitrat va Muso Saidjonov, 23 martda esa Abduvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'jalar bilan ularning siyosiy talablarini bilish maqsadida uchrashgan. Jadidlar Millerga to'rtta asosiy talablarini bayon qilganlar:

- *amir huzurida markaziy vakillik, bekliklarda esa mahalliy vakillikni joriy etish;*
- *shariat tomonidan belgilangan soliqlardan tashqari, barcha soliqlarni bekor qilish;*
- *maktab va matbuot erkinligi;*
- *amir atrofidagi mutaassib ma'murlarni almashtirish<sup>4</sup>.*

Ammo Miller bu talablarning “xayoliy” ekanini ta'kidlab, Abdulvohid Burhonovga “Yosh buxoroliklar” tashkilotining barcha a'zolari ism-sharifi yozilgan ro'yxatini bergan<sup>5</sup>. Bu jadidlar orasida xoin borligini, ularning faoliyati haqida bosqinchi hukumatga muntazam ma'lumot berib borayotganini anglatar edi.

<sup>1</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. 27-бет.

<sup>2</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. 29-бет.

<sup>3</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. 31-бет.

<sup>4</sup> Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining tarikhi. (Nashrga tayyorlovchilar: Shimada Shizuo, Sharifa Tosheva). Tokio, 2010. 176-bet.

<sup>5</sup> Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining tarikhi. 182-bet.

1917 yil 7 aprelda Islohot farmonining e'lon qilinishi munosabati bilan “Yosh buxoroliklar” Ahmad Nayim (1900 – 1984) uyida yig'ilish o'tkazib, aholiga amir farmonining mazmunini tushuntirish uchun miting va namoyishlar tashkillashtirish masalasida suhbatlashganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy tavsiyasiga binoan Abdulvohid Burxonov boshchiligidagi eski jadidlar namoyish o'tkazishga qarshi chiqqanlar<sup>1</sup>. Fitrat boshchiligidagi guruh esa namoyishni yoqlab chiqib, amirga tashakkur izhor etish maqsadida 8 aprelda mitinglar uyushtirganlar<sup>2</sup>.

Namoyishdan xabar topgan Buxorodagi mutaassib ulamolarning yo'lboshchisi Mulla Qamariddin boshchiligidagi mullalar va madrasa talabalari Registonda to'planib jadidlarga qarshi chaqiriq qiladilar: *“Ey musulmon bandalar! Din yo'qolmoqda, shariat o'lmoqda, endi ayollarning yuzi ochiladi, qizlarning nomusi toptaladi, bolalar kofirlarning maktablarida o'qiydi. Din himoyachilari, iymon, shariat himoyasiga otlaning, g'azovotga tayyorlaning”*<sup>3</sup>. Shaharda jadidlar va johil mullalar o'rtasida to'qnashuvlar boshlanadi.

Amir shaharda tinchlikni saqlash, to'qnashuvlarni to'xtatish maqsadida namoyish bo'layotgan joyga harbiy qismni yuboradi. Sarbozlar islohotni qo'llab-quvvatlab miting uyushtirgan jadidlarga shafqatsiz munosabatda bo'lganlar<sup>4</sup>. 1917 yil 9 aprelda siyosiy rezident Miller Abdulvohid Munzinga ko'rsatgan ro'yxatdagi jadidlarni qamoqqa olish boshlanadi. Jumladan, Hoji Mirbobo, Mirzo Nazrullo, Abdurahim Yusufzoda, Ahmad Nayim, Mirzo Abdulfayozov, Mirzo Ahmad, Mirzo Abdurasul va boshqalar zindonga tashlangan. Jadidlardan Mirzo Nazrullo 150 darra, Hoji Mirbobo 120 darra, S.Ayniy esa 75 darra urib jazolangan<sup>5</sup>.

1917 yil 10 aprelda jadidlar poytaxtda yana namoyish uyushtirib, jadidlarni qamoqqa olishni to'xtatish hamda farmonda nazarda tutilgan islohotlarni amalga oshirishni talab qilganlar. Natijada “Yosh buxoroliklar”ni qo'lga olish va qamoq chorasini ko'rish kuchaygan<sup>6</sup>. Ular Yangi Buxoro (hozirgi Kogon)ga, u yerdan Samarqand va Toshkentga qochishga majbur bo'lganlar. Abdurauf Fitrat Samarqandga borgan va u yerda chop qilinayotgan “Hurriyat” gazetasi nashriyotida ishga joylashgan. Bir muddat gazetaga muharrirlik ham qilgan<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Алимова Д. История как история, история как наука. II том. Ташкент: Узбекистан, 2009. С. 136.

<sup>2</sup> Бухорода муллалар ҳаракати // “Вақт” газетаси, 1917 йил 11 апрел; Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. (Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, З. Чориев). Тошкент: Академия, 2001. 45-бет.

<sup>3</sup> Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining tarikhi. 197-bet.

<sup>4</sup> ЎзМА, 578-жамғарма, 1-рўйхат, 9-йиғмажилд, 160-бет.

<sup>5</sup> Бурҳон Ҳабиб. Бухорода Қозон ҳайъати// “Улуғ Туркистон” газетаси, 1917 йил 28 июн.

<sup>6</sup> Абдулқодир. Ёш бухоролилар хитоби // “Вақт” газетаси, 1917 йил 18 апрел.

<sup>7</sup> Жамолова Д. Бухоро амирлигида жаидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тошкент: Муҳаррир, 2021. 111-бет.

1917 yil oktabrida Rossiyada hokimiyatni to‘liq egallab olgan bolsheviklar imperiyaning mustamlakalarida mustahkamlanib olishga jon-jahdi bilan kirishgan. Imperiya go‘yoki Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bilan cheklanib, Buxoro amirligi va Xiva xonligini ta’sir doirasida saqlagandek yo‘l tutgan bo‘lsa, bolsheviklar ochiqchasiga bu ikki davlatni egallab olishga qaror qilgan. Buning uchun “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar”dan foydalanganlarini ham ta’kidlash joiz.

Buxoro amirligining so‘nggi uch yilida (1917 – 1920) sodir bo‘lgan siyosiy voqealar Rossiya uni bosib olishga qat’iy qaror qilganligini ko‘rsatadi. Amir Olimxon Rossiyaning bu niyatini anglasa-da, Muvaqqat hukumat tuzilganda ham, 1917 yil oktabrda hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tgan vaqtda ham ular bilan aloqalarni yaxshilashga urindi. Ammo sovet hokimiyatining asosiy maqsadi Turkistonni butunlay mustamlakaga aylantirishdan iborat edi.

1917 yil noyabrda Fayzulla Xo‘jaev va uning safdoshlari Buxoro ishlari bo‘yicha kollegiya a‘zosi, bolshevik M.A. Preobrajenskiyning “maslahati” bilan qurolli yordam so‘rab, Turkiston o‘lkasi XKS raisi F.I. Kolesovga murojaat qilganlar. 1917 yil 6 dekabrda F. Xo‘jaev boshchiligidagi “Yosh buxoroliklar” delegatsiyasi M.A. Preobrajenskiy hamrohligida Toshkentga kelgan va F.I. Kolesov tomonidan qabul qilingan<sup>1</sup>. Ular Buxoroni egallash uchun sharoit yetildi, unda 30000 kishi ishtirok etadi, deb Turkiston Xalq Komissarlari Soveti raisini ishontirganlar<sup>2</sup>. F.I. Kolesov “Yosh buxoroliklar”ga qurolli kurashni kechiktirishni maslahat bergan. Chunki uning oldida *“Toshkentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xayfi bo‘lmagan amir hukumatiga qaraganda Qo‘qon muxtoriyatini tugatish masalasi ahamiyatliroq edi”*<sup>3</sup>. 1918 yil fevralda Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil armiya tomonidan tor-mor qilinib, Qo‘qon shahri qonga botirilgach, Kolesov butun diqqatini amirlikni tugatishga qaratgan<sup>4</sup>.

Qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘rish tavsiyasini olgan “Yosh buxoroliklar” unga rahbarlik qilish uchun Fayzulla Xo‘jaev boshchiligidagi Abdurauf Fitrat, Otaulla Xo‘jaev, Abduvohid Burhonov, I. Ag‘darov, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Fazliddin maxdumlardan iborat Inqilobiy qo‘mita saylaydilar<sup>5</sup>.

1918 yil 29 fevralda Turkiston o‘lkasi XKS raisi Fyodor Kolesov to‘plar va pulemyotlar ortilgan eshelonlari bilan Yangi Buxoroga yetib kelgan. O‘sha kuni kechqurun Fyodor Kolesov va “Yosh buxoroliklar” boshliqlarining maslahat majlisi bo‘lib, unda “Yosh buxoroliklar” firqasining talablari; amirga qilinadigan

<sup>1</sup> Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Тошкент: Фан, 1991. 7-бет.

<sup>2</sup> Касымов Ф., Эргашев Б. Бухарская революция. Дорогу выбрал курултай. С. 34.

<sup>3</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар. 74-бет.

<sup>4</sup> Самарқанд ВДА, 1762-жамғарма, 1-рўйхат, 75-йиғмажилд, 5-бет.

<sup>5</sup> Самарқанд ВДА, 1762-жамғарма, 1-рўйхат, 76-йиғмажилд, 8-бет.

murojaatning shakli; Buxoroga qurolli harakat qilish zarur bo‘lib qolgan taqdirda hujumning strategik rejasi masalalari muhokama qilingan<sup>1</sup>. Birinchi va ikkinchi masala yuzasidan qabul qilingan qarorlarga ko‘ra, Inqilobiy Qo‘mita islohot dasturidan iborat xat bilan amirga murojaat qilishi, u talablarga rozi bo‘lsa, 24 soat ichida “Yosh buxoroliklar”ga o‘z imzosi va muhri bilan xat yuborishi hamda barcha harbiy qismini qurolsizlantirishi lozim edi.

Majlisda amirga yuboriladigan quyida ko‘rsatilgan talabnoma matni tuzilib, Fyodor Kolesov va Fayzulla Xo‘jaev<sup>2</sup>lar tomonidan imzolangan:

1. *Buxoroda tom hurriyat e‘lon qilinsun;*
2. *Mamlakatning idorasi “Yosh buxoroliklar” tarafidan tashkil etilgan Komitetga topshurilsin.*
3. *Vazirlar ushbu komitet ko‘rsatmasi bo‘yicha tayinlansin;*
4. *Amir huzurida bo‘lgan “Sho‘ro”ni tarqatib, uning o‘rniga “Yosh buxoroliklar” tomonidan saylangan Hay‘at qo‘yilsin;*
5. *Aminona<sup>3</sup> va amlok<sup>4</sup> soliqlari bitirilsin;*
6. *Bu talablar hammasi amir tarafidan maxsus farmon (manifest) chiqarish tariqasida umumga e‘lon qilinsin.*

*Turkiston Xalq Komissarlari Sho‘rosining raisi – Fyodor Kolesov*

*“Yosh buxoroliklar” Markaziy Ijroiya qo‘mitasining raisi – Fayzulla Xo‘jaev”<sup>5</sup>.*

Agar amir talablarni qabul qilmasa, Eski Buxoroga hujum boshlashga kelishib olingan. Talabnoma bilan tanishgan Amir Olimxon Fyodor Kolesov va “Yosh buxoroliklar” tomonidan qo‘yilgan talablarga qarshi emasligi, ammo islohotlarni asta-sekinlik bilan amalga oshirishi mumkinligi qayd qilingan javob maktubini yo‘llaydi<sup>6</sup>.

Amirdan o‘zi kutgan javobni olmagan Fyodor Kolesov Eski Buxoroga hujum boshlashga qaror qilgan. Shu paytda amirning ikkinchi maktubi yetib kelgan. Unda amir talablarni qabul qilgani, faqat bu talablarni farmon orqali e‘lon qilmasligi, “Yosh buxoroliklar” namoyish o‘tkazmasliklari va rus askarlarini Buxoroga kiritmaslik shartlarini qo‘ygan edi<sup>7</sup>.

Har ikkala maktubdan ham qanoatlanmagan Fyodor Kolesov va “Yosh buxoroliklar” Buxoro amiriga qarshi qurolli harakatni boshlaydilar. Ularning qo‘shini Fyodor Kolesov boshchiligidagi 100 ga yaqin “Yosh buxoroliklar”, 200

<sup>1</sup> Ишчи. Бухоро вокеаларининг сабаби // “Ишчилар дунёси” журналі. 1918 йил 4 – сони. 82-бет.

<sup>2</sup> Ф. Хўжаевнинг “Бухоро инқилобининг тарихига материаллар” асарида талабнома матни 3 шартдан иборат эканлиги кўрсатилган. Қаранг: Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. 84-бет.

<sup>3</sup> Аминона – “содиқ фуқаролик” деб номланган махсус солиқ бўлиб, Амир Музаффархон (1860 – 1885) томонидан жорий қилинган ҳамда 1920 йилгача Бухоро амирлиги тугатилгунга қадар амал қилган.

<sup>4</sup> Амлок – ер солиғи.

<sup>5</sup> Ишчи. Бухоро вокеаларининг сабаби. 82 – 83-бетлар.

<sup>6</sup> М.А. Преображенский. О событиях в Бухарском эмирате // “Наша газета”, 3 апреля 1918 года.

<sup>7</sup> Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. (Источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского Н.К.Норкулов. Тошкент: Akademiya, 2009. С. 161 – 162.



yaqin Yangi Buxorodagi qizil armiya, bir miqdorda Ashxaboddan qaytgan askarlar, turkmanlar va armanlardan iborat bo‘lgan<sup>1</sup>.

Birinchi to‘qnashuv Buxoro devoridan bir chaqirim<sup>2</sup> masofadagi Fathobod manzilida boshlangan. Dastlabki to‘qnashuvda Amir Said Olimxon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab, shaharga chekinganlar. Vaziyat bunday tus olishini kutmagan amir Olimxon Fyodor Kolesovga o‘zining maxsus farmoni oliysini yuborib, unda barcha talablarga rozi ekanligini aytgan. Natijada ikki o‘rtada harbiy harakatlar to‘xtatilib, muzokaralar qaytadan boshlangan. Yangi Buxoroda Usmonbek qo‘shbegi, Hoji Zakariyo Azimov boshchiligidagi amir vakillari hamda Fyodor Kolesov, Fayzulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Abduvohid Burhonov va Fazliddin maxdumlar o‘rtasida muzokara boshlangan. Buxoro qo‘shbegisi Usmonbek amirning farmonini qarshi tomonga taqdim etgan. Unda xalqqa so‘z erkinligi, kasb-hunar bilan shug‘ullanish erkinligi, jamiyatlar erkinligi berish; mavjud kengashlar o‘rnida Buxoroning hur fikrli kishilaridan Ijroiya Qo‘mita ta’sis etish, barcha islohotlarni shu qo‘mitaning dasturi va ko‘rsatmasi bo‘yicha o‘tkazish; hukumat boshida turgan kishilarni chetlashtirib, ularning o‘rniga Ijroiya Qo‘mita ko‘rsatib bergan kishilarni tayinlash; mamlakatni adolat va shariat asosida boshqarishni tashkil etish; tan jazosi va o‘lim jazosi berishni mavjud qonun-qoidalaridan chiqarib tashlash; dehqonlar va mamlakatni xarob qilayotgan “amluk” solig‘i hamda mamlakatning savdo ishlari uchun zarar keltirayotgan “aminona” solig‘ini bekor qilish nazarda tutilgan edi<sup>3</sup>.

Fyodor Kolesov va Fayzulla Xo‘jaev rahbarligidagi “Yosh buxoroliklar” amir farmoni bilan tanishib chiqqach, urush harakatlarini to‘xtatish shartlarini qabul qilganlar. Vakillardan amir tomonidan barcha harbiy qismlar qurolsizlantirilishi kerakligi talab qilingan. Amir vakillari harbiy qo‘shinni qurolsizlantirishga rozi bo‘lganlar. Bu ishni nazorat qilish uchun Fyodor Kolesov va “Yosh buxoroliklar” Utkin hamda Abdurahimov boshchiligidagi 24 kishilik hay’atni (2 tasi “Yosh buxorolik”, 4 tasi yahudiy va rus, 18 tasi arman) Buxoro shahriga yuborganlar<sup>4</sup>. Ularni amir hurmat bilan kutib olib, sarpolar berib, qo‘shbegi bilan xalqqa ikki o‘rtadagi munosabatni yaxshilanganligini bildirish uchun Registonga yuborgan. Ular aholiga qarata nutq so‘zlayotgan vaqtlarida qo‘shbegining ishorasi bilan xalq kaltak va pichoqlar bilan hujum qilib, 22 kishini o‘ldirgan. Ikki nafar kishi qochishga muvaffaq bo‘lgan<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Бухоро воқеалари // “Улуғ Туркистон” газетаси, 1918 йил 4 апрел.

<sup>2</sup> 1 чақирим – 1006 метрга тенг.

<sup>3</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. 84 – 86-бетлар.

<sup>4</sup> Мулла Ғози. Бухоро воқеалари // “Ишчилар дунёси” журна. 1918 йил 4-сон. 88-бет.

<sup>5</sup> Мулла Ғози. Бухоро воқеалари. 89-бет.

Buxoro davlati mustaqilligi daxlsizligini saqlab qolish uchun intilgan Amir Olimxon bu fursatdan unumli foydalanib, 35000 (davriy matbuotda 40000 nafar, deyilgan) kishilik lashkarni qayta harakatga keltirgan. Buxoroliklar muqaddas shahar himoyasi uchun urushga otlangan. Karmanadan Qorako'lgacha bo'lgan (jumladan, Qiziltepa va uning atroflaridagi) 170 km masofadagi temir yo'l izlari amir sarbozlari va mahalliy aholi tomonidan buzib tashlangan<sup>1</sup>.

Utkin boshchiligidagi hay'at a'zolari o'ldirilgach, Kolesov armiyasi yangi hujumga tayyorgarlik ko'rgan va ikki o'rtada qonli kurash boshlangan. Bu haqda "Ulug' Turkiston" gazetasida quyidagi xabar berilgan: *"Dastlab Xo'qandda o'n minglarcha musulmon qoni to'kildi, endi Buxoroda ham shubha yo'q qon to'kila. Bu qonlar to'ng'iz yoki ot qoni emas... Odam qoni hamda musulmon odam qoni. Bu qonlarning to'kilishina kim katta sabab bo'lsa-da, qon tutmay qolmas, inshaalloh!"*<sup>2</sup>. To'rt kun davom etgan jang natijasida Buxoro katta talafot ko'rsatib, Kolesov tomonidan taklif qilingan sulhga ko'nmaydi.

Buxoroning bosqinchilar tomonidan talanishi ham davriy matbuot sahifalarida yoritib borilgan: *"Xo'qand kabi Buxoroda ham fojiali hollar bo'ldi. Yangi Buxoro, Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin kabi bir necha muhim joylar yomon talandi. Bular orasidagi qishloq va manzillar yo'q etildi. Ko'p musulmon oilalari talandi. Yurt, yer va mulklaridan ayrilganlarning hisoblari yo'q. Xulosa, Buxoro mamlakati bu urushda shunday dahshatli va fojiali hollar kechirdiki, bunday dahshat fojialar buyuk muhorabalar vaqtida ko'p sodir bo'ladi"*<sup>3</sup>. Ammo tez orda Fyodor Kolesov armiyasining mag'lubiyatga uchrashi aniq bo'lib qolgan va 1918 yil 7 mart kuni Samarqand tomonga chekinishga buyruq bergan.

Fyodor Kolesov Qiziltepaga yetib borganda, sulh so'rab amir huzuriga P.P. Vvedenskiy va X.K. Mirbadalovlarni yuborgan. Amir Olimxon Fyodor Kolesovdan Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat va Abdulvohid Burhonovni uning qo'liga topshirgan taqdirdagina tinchlik shartnomasini imzolashga rozi bo'lishini aytgan. Fyodor Kolesov bu talabni qabul qilmagan<sup>4</sup>. Ayni paytda Toshkentdan Koluzaev boshchiligidagi harbiy kuchlarning yetib kelishi vaziyatni o'zgartirib yuborgan. Ammo Turkistonning qirg'izlar yashaydigan hududlarida ochlik tufayli boshlangan norozilik harakati Kolesovning har qanday sharoitda ham amir bilan sulh tuzishi zarurligini belgilab bergan<sup>5</sup>. Sulh shartlariga ko'ra, ozodligi va mustaqilligini himoya qilgan Buxoro amirligi o'z hududidagi harbiy harakatlar uchun javobgar deb hisoblangan va tovon to'lashi lozimligi belgilangan. Amir

<sup>1</sup> Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи. Тошкент: Мухаррир, 2011. 120-бет.

<sup>2</sup> Бухоро воқеалари // "Улуғ Туркистон" газетаси, 1918 йил 12 март.

<sup>3</sup> Мулла Ғози. Бухоро воқеалари // "Ишчилар дунёси" журнали. 1918 йил 4-сон. 90-бет.

<sup>4</sup> Медведев В. Нечаянная революция. Бухара, 1920 // Журнал "Дружба народов", 1992. № 1. С. 148.

<sup>5</sup> Медведев В. Нечаянная революция. Бухара, 1920. – С. 149.

sarbozlari miqdorini 12000 kishidan oshirmaslik majburiyatini olgan. Shu bilan birga qizil askarlar ham amirlik hududidan chaqirib olingan<sup>1</sup>.

Shunday qilib, “Yosh buxoroliklar”ning amir hokimiyatini ag‘darib tashlash yo‘lida qilgan birinchi harakatlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Kolesov bosqinidan so‘ng Buxoroda reaksiya harakat yanada kuchayadi. Amir Olimxon davlat rahbari sifatida F. Xo‘jaev boshchiligidagi jadidlarning respublika tartibini o‘rnatish borasidagi xatti-harakatlarini mavjud tuzimga qarshi chiqish, davlatga xiyonat deb baholaydi va ularni jismonan yo‘q qilishga kirishdi. Saroyda taraqqiyparvarlarning ishlarini ko‘rib chiqish uchun To‘rajon naqib Jo‘yboriy raisligida Domullo Xolmurod sudur Toshkandiy, Mulla Qutbiddin sudur Buxoriy, Domullo Shavkatulloh o‘roq, Mulla Muhammadshoh sudurdan iborat vakillik kengashi tuzilgan<sup>2</sup>. Fayzulla Xo‘jaevning guvohlik berishicha, 1500 nafarga yaqin kishi<sup>3</sup>, “Ulug‘ Turkiston” gazetasining bergan ma‘lumotiga ko‘ra 1800 nafar kishi jadidchilikda ayblanib o‘ldirilgan<sup>4</sup>. Qamoq va jazodan omon qolgan “Yosh buxoroliklar” (taxminan 300 kishi) Samarqand va Toshkentga muhojirlikka ketganlar.

Sadriddin Ayniyning yozishicha, poytaxt Eski Buxoro va G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako‘l, Vang‘ozi kabi atrof tumanlardan tashqari Karmana, Xatirchi, Chorjo‘y, Karki, Shahrisabz, Sherobod, Hisor bekliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayblanib nohaq o‘ldirilgan. Taraqqiyparvar va atoqli ulamolardan Ikrom Domla, Buxoro qozikaloni Sadr Ziyo kabilar ham qamoqqa olinib, zindonga tashlangan<sup>5</sup>.

“Yosh buxoroliklar”ning omon qolgan qismi amirlik hududini tark etib, Turkiston respublikasidan siyosiy boshpana so‘raydilar. Fayzulla Xo‘jaevning yozishicha, muhojirlikda ularning ko‘pchiligi ocharchilik (Mulla Rafiq, Mulla Ma‘sum va boshqalar) natijasida halok bo‘lganlar. Partiya saflarida g‘oyaviy tushkunlik va parokandalik yuz bergan. “Yosh buxoroliklar” Samarqand va Toshkentda, keyinchalik Moskva va boshqa shaharlarda ishlab, o‘z jonlarini saqlab qolganlar<sup>6</sup>. Buxorodagi vaziyatning guvohi bo‘lgan Turkiston Xalq bankining komissari (hujjatda familiyasi ko‘rsatilmagan) esdaligida “Yosh buxoroliklar”ning Buxoro xalqi qabul qilmaganiga ishora bor: *“Yosh buxoroliklar” juda ko‘p aziyat chekishdi. Bu faqat ularning aybi emas, bunda*

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 2000. 116 – 117-бетлар.

<sup>2</sup> Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тошкент: Академия, 2011. 57-бет.

<sup>3</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар. 91-бет.

<sup>4</sup> Бухоро хабарлари // “Улуғ Туркистон” газетаси, 1918 йил 3 май.

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. 11-бет.

<sup>6</sup> Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар. 98 – 100-бетлар.

*bizning ham aybimiz bor. Boshida ular qurolli kuch yordamida inqilob amalga oshishiga ishonishgan edi. “Yosh buxoroliklar” rus inqilobchilariga o‘xshab, xalq orasiga kirib borishi ularni ozodlikka muhabbat, nurli kelajak uchun kurashishga da’vat etishlari va targ‘ibot olib borishlari kerak”<sup>1</sup>.*

Abdurauf Fitrat ushbu voqealarning bevosita ishtirokchisi sifatida “Ulug‘ Turkiston” gazetasidagi “Buxoro yoshlari to‘g‘risida” maqolasida Fyodor Kolesov voqealaridan keyin “Yosh buxoroliklar” boshiga tushgan musibatlar va ushbu harakat a‘zolarining tarqalishga majbur bo‘lganliklari oqibatida tashkilotning bo‘linib ketishi haqida ma‘lumot beradi: *“Buxorodan yolg‘iz jonlarini olib qochgan 200 dan ziyod jamiyat a‘zolari Samarqandga kelgach, hollari yomonlashdi. Och va yalong‘och qoldilar va hatto ba‘zilari tilanchilik qilurga majbur bo‘ldilar. Hollarini so‘ragan bo‘lmadi. Raislariga buyuk bir e‘timod ko‘rsatib, sabr ila o‘tirdilar”*<sup>2</sup> Fitratning yozishicha, Fayzulla Xo‘jaev Ijroiya qo‘mitaning 4 a‘zosi bilan Toshkentga jamiyat a‘zolari ehtiyoji uchun yordam so‘rab, Fyodor Kolesov huzuriga borgan. 1-2 kundan so‘ng, Samarqandga qaytib kelgan Fayzulla Xo‘jaevdan o‘zi bilan Toshkentga ketgan 4 a‘zodan ikkitasi jamiyatdan chiqib ketganini ma‘lum qilgan. Fayzulla Xo‘jaev yoshlar ehtiyoji uchun Kolesovdan 10000 so‘m olgan, jamiyat a‘zolaridan 40 kishini Toshkentga olib ketishini aytgan. Qolganlarga 50 so‘mdan “aqcha” berib, ularni ham Toshkentga chaqirib olishini bildirgan<sup>3</sup>. Oradan 3-4 kun o‘tgach, Fayzulla Xo‘jaev bir partiyadoshini yuborib, yana 40 kishini Toshkentga chaqirtirgan. Fitrat Toshkentga keltirilgan 40 kishi bir necha kun vagonlarda saqlangach, 2 xonali kvartiraga ko‘chirilganini qayd qilgan. Qo‘mitadan katta pul evaziga har bir kishi uchun yarim qadoqdan non hamda juda ham kam miqdorda choy va qand berilgan. Buning natijasida jamiyat a‘zolari orasida norozilik holatlari kelib chiqqanini Abdurauf Fitrat quyidagicha izohlaydi: *“Zulm isyonning onasidir”. Zulmga qarshi isyon chiqarmoq odam bolalarining tarbiyatlarinda bordir. Fayzulla Xo‘janing bu harakatlarindan mamnun qolmag‘an a‘zolar orasinda ba‘zi so‘zlar, shikoyatlar chiqa boshlamish. Shul asnoda ba‘zilari komissar Kolesov tarafindan Fayzulla Xo‘jaga berilgan aqchaning 10000 tugul 30000 ekanini sezmishlar. Ochlar orasinda e‘tirozlar ko‘payib ketmish”*<sup>4</sup>.

Toshkentdagi holatga baho bergan Fitrat Samarqanddagi yoshlarning iqtisodiy jihatdan nochor holda qolganini ta‘kidlaydi. Ato afandi (Otaulla Xo‘jaev) bu holatni Fayzulla Xo‘jaevga yetkazish uchun Toshkentga borganida u yerda ham yoshlarning og‘ir vaziyatda qolganini ko‘rgan hamda Xalq

<sup>1</sup> ЎзМА, И-3 жамғарма, 1-рўйхат, 821-йиғмажилд, 12-бет.

<sup>2</sup> Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1918 йил 30 май.

<sup>3</sup> Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1918 йил 30 май.

<sup>4</sup> Фитрат. Бухоро ёшлари тўғрисида.

Komissarlari soveti komissarlaridan Obidovga uchrab, ahvolni o'nglatib bergan. “Yosh buxoroliklar” partiyasi a'zolariga uy topib bergan va oziq-ovqat bilan ta'minlagan. Otaulla Xo'jaev o'z yonidan 300 so'm berib, Samarqandda qolgan harakat a'zolarini ham Toshkentga keltirgan hamda ularni uy va oziq-ovqat bilan ta'minlagan.

Bular orasida Abdurauf Fitrat ham bo'lgan, albatta. Toshkentda joylashib olgan Fitrat siyosiy harakatdan uzoqlashishga qaror qilgan va partiyadan chiqib ketgan. 1918 – 1919 yillari Xadradagi jadid maktabida o'qituvchilik qilgan, 1919 – 1920 yillari Afg'onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimonlik qilgan<sup>1</sup>.

Fitratning Toshkentdagi asosiy xizmatlaridan biri “Chig'atoy gurgungi”ni yo'lga qo'yganligidir. Bu haqda “Ishtirokiyun” gazetasida xabar berilgan: “Toshkentda “Yosh Buxoroliklar”ning faol a'zolaridan – Fitrat afandi ila o'zbek yoshlari tarafidan “Chig'atoy gurgungi” nom yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariyati tarafidan tasdiq etilib, ishga kirishgan. Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi eski va yangi turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilini ihyo qiluv (jonlantiruv) haqida materyol hozirlamak, lug'at va adabiyot dunyosini boyitmoqdir. Bik vaqtli ham o'rinli ta'sis etilgan bu jamiyatni samim qalbdan tabrik qilamiz...”<sup>2</sup>. 1919 – 1921 yillari faoliyat ko'rsatgan ushbu madaniy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy tuzilma turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixi, tili va imlosi kabi sohalarni jiddiy o'rganishga kirishgan. Uning “Til va imlo to'dasi”, “Adabiyot to'dasi”, “San'at va teatr to'dasi” va boshqa bo'limlari bo'lgan. “Til va imlo to'dasi”ga dastlab Cho'lpon, so'ngra Elbek rahbarlik qilgan. “Chig'atoy gurgungi” faoliyatida Fitratdan tashqari Qayum Ramazon, Cho'lpon, Elbek, G'ozli Olim Yunusov, Mannon Uyg'ur, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Akmal Ikromov kabilar muhim o'rin tutganlar<sup>3</sup>.

“Chig'atoy gurgungi” tomonidan 1919 yilda arab alifbosini isloh qilgan holda yangi alifbo yaratilgan. 1921 yil yanvarda Toshkentda bevosita “Chig'atoy gurgungi” tashkilotchiligida Til va imlo qurultoyi bo'lib o'tgan.

“Chig'atoy gurgungi” milliy tarixni o'rganishga ham alohida e'tibor qaratib, ishni aholi qo'lida saqlanayotgan nodir manbalarni yig'ishdan boshlagan. 1919 yili Turkiston ASSR va Turkiston o'lkasi Musulmon byurosi “Milliy madaniy merosni to'plash va o'rganish haqida” Qaror qabul qilgan va bu ishni amalga oshirish uchun Abdurauf Fitrat, Nazir To'raqulov va Laziz Azizzodadan iborat hay'at tuzilgan. Gurung a'zolaridan Po'lat Soliev, O'ktam va Abdurauf Fitrat

<sup>1</sup> Жамолова Д. XX аср Берунийси // Халқ сўзи. 2022 йил 20 июл.

<sup>2</sup> “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 4 феврал.

<sup>3</sup> Тоғаев Т. “Чигатой гурунги” фаолияти тўғрисида баъзи мулоҳазалар // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022 йил 2-сон. 424-бет.



Fargʻona vodiysi, Buxoro va Samarqandga ilmiy safarlar uyushtirib, Buxorodan Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asari qoʻlyozmasi, Amir Temurdan boshlab, Zahridin Muhammad Boburning nabirasi Akbarshohga qadar oʻtgan temuriylar suratlarini topib, Toshkentga olib kelganlar<sup>1</sup>. Fitratning Buxoro Respublikasida Maorif noziri boʻlib ishlagan davrida uning talabi asosida chop etilgan Sayyid Muhammad Nosirning “Tadqiqoti arki Buxoro” (“Buxoro arki tarixi”, 1921), Sadridin Ayniyning “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” (1926) va Poʻlat Solievning “Oʻrta Osiyo tarixi” (1926) kabi asarlar “Chigʻatoy gurungi” dasturi asosida rejalashtirilgan edi<sup>2</sup>.

Milliy oʻzlikni anglash yoʻlida tuzilgan mazkur guruh faoliyati 1921 yil 10 yanvarda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan toʻxtatilgan. Keyinchalik Fitrat va uning shogirdlari qamoqqa olingach, ularga qoʻyilgan eng katta ayblardan biri ushbu guruhda qatnashganliklari boʻlgan.

BXSR tashkil topgandan soʻng Fitrat Buxoroga kelgan va 1921 yili Maorif xalq noziri, 1922 yili Tashqi ishlar xalq noziri, Xalq xoʻjaligi kengashi raisi, Butun Buxoro markaziy ijroiya qoʻmitasi va Xalq nozirlar shoʻrosi raisining oʻrinbosari va boshqa masʼul lavozimlarda xizmat qilgan<sup>3</sup>.

1921 yil 9 martdan Fitrat xalq xoʻjaligini tiklash, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ishlarni yoʻlga qoʻyish tadbirlarini amalga oshirishga jalb etiladi. Jumladan, xalq maorifini tashkil qiluvchilar uchun tavsiyanomalar tayyorlash hayʼatini boshqarib boradi. Buxoroda Sharq dorulfunini ochish zaruriyati asoslarini tayyorlab, keyinroq (1922 yil 14 sentabr) BMTKning dorulfunini tashkil etish haqida qaror qabul qilinishiga erishadi. Buxoro Respublikasi va Turkiston ASSR oʻrtasida oʻquv yurtlari hamda maktablar uchun darsliklar tuzish va taʼminlash borasidagi ishlarni tartibga solgan<sup>4</sup>.

Abdurauf Fitrat 1922 yil yozida 19 moddadan iborat “Vaqf ishlari haqida” loyihani ishlab chiqqan. Unda Buxorodagi vaqf mulklari daromadlari hisobidan diniy muassasa va tashkilotlarni taʼmirlash, taʼlim-tarbiya kurslari, muzey, kasalxona, yetimxona, qorixona, dorilmuallimin, kutubxona, xonaqolar ochish, gazeta va jurnallar chop ettirish bandlarini kiritgan. Aholi sogʻligʻini saqlash uchun alohida xarajatlar ajratish kerakligini taʼkidlagan<sup>5</sup>. Chunki, oʻsha paytda Buxoroda rishta (teri osti qurtlashi), “Buxoro varajasi” (isitma), teri-tanosil kabi

<sup>1</sup> Аҳмадова З. Абдурауф Фитратнинг Бухородаги ижтимоий-сиёсий жараёнларда тутган ўрни ва илмий фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Бухоро, 2023. – Б. 14.

<sup>2</sup> Қосимов Б. Маслакдошлар. Бехбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ. 1994. 96-бет.

<sup>3</sup> Муртазов Ж., Соҳибов Х. Фитратга қарши фитна // “Жаҳон адабиёти” журналі. 1997 йил 7-соні. 180-бет.

<sup>4</sup> Болтабоев Х. Абдурауф Фитрат. Тошкент: Ёзувчи, 1996. 18-бет.

<sup>5</sup> Аҳмадова З. Абдурауф Фитратнинг Бухородаги ижтимоий-сиёсий жараёнларда тутган ўрни ва илмий фаолияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 105-бет.

kasalliklarning o'nlab turlari keng tarqalgan bo'lib, ularning oldini olish bilan bog'liq choralar ko'rish eng muhim vazifalardan biri bo'lgandi.

Buxoro Respublikasiga 1922 yil 18 mayda maxsus topshiriq bilan kelgan S. Orjonikidze kengash o'tkazib, hukumat rahbarlari buxoroliklar bo'lmasligi kerak deb ta'kidlaydi: "Biz Buxoro hukumatini nafaqat aksilinqilobiy kuchlardan, balki qarindoshchilik aloqalaridan tozalashimiz kerak... E'tiroz qilmayman: Xalq Nozirlari kengashining raisi buxorolik, Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi buxorolik bo'lsin, lekin kompartiya MK kotibi mahalliy millatga aloqador bo'lmasligi kerak. Xuddi shu kabi Nozirlar kengashi ham millatni rad etmog'i lozim. Nozirlar millatdan tashqari bo'lishi lozim. Nozir buxoroli bo'lsa, yaxshi albatta, lekin uni rus yoki gruzin bo'lgani, yana ham yaxshi"<sup>1</sup>. Bunday "milliy masalani hal qilishga yordam berish" siyosati tez orada natijasini ko'rsata boshlaydi.

1923 yil 12 iyunda "Buxoro masalasiga doir" qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun Buxoroga kelgan RKP(b) MK kotibi Ya.E. Rudzutakning talabi bilan Fitrat Maorif xalq noziri lavozimidan olib tashlanib, Buxorodan badarg'a qilinadi. Abdurauf Fitratga mahalliychilikdan tashqari, "maorif ishlari bilan shug'ullanish o'rniga tosh yo'l qurish bilan shug'ullanganlik", mansabini suiste'mol qilganlik, poraxo'rlik" ayblari qo'yilgan. Fitrat bilan birgalikda Otaulla Xo'jaev, Sattor Xo'jaev, Muinjon Aminov, Qori Yo'ldosh Po'latov, Abdurahim Yusufzoda, Hoji Hamro Yo'ldoshev, Naim Yoqubzoda, Muxtorjon Saidjonov, Muzaxar Maxsum (Muzaxar Burxonov) kabi arboblardan ham ishdan olingan<sup>2</sup>.

Moskvalik "rahbarlarning" asl maqsadini ilg'ash qiyinmas: Fitrat va u kabi bilimdon va millatsevar, o'z so'ziga ega, mustaqil fikrlovchi shaxslar ularga kerak emasdi. Fitrat 1923 – 1926 yillarda Moskvaga borib, Sharqshunoslik institutida faoliyat ko'rsatadi va 1926 yili unga professorlik unvoni beriladi. 1927 – 1937 yillari Samarqand va Toshkentda yashab, ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. 1931 yildan to qamoqqa olingan 1937 yilgacha O'zbekiston Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida bo'lim boshlig'i va professor lavozimida ishlagan<sup>3</sup>.

Bilim va qiziqishlarining xilma-xil va serqirraligi o'laroq o'z davrining Beruniysi bo'lgan shoir, yozuvchi, adib, muallim, sharqshunos, tarixchi, musiqashunos olim, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat sovet hokimiyatini doim xavotirga solgan. Shuning uchun ham, fursat yetilib, ommaviy qatag'on

<sup>1</sup> Жамолова Д. XX аср Берунийси // "Халқ сўзи" газетаси. 2022 йил 20 июл.

<sup>2</sup> Ражабов Қ. Фитрат халқ мулкини ўзлаштирган эдими? // "Ватан" газетаси. 1997 йил 21 август.

<sup>3</sup> ЎзМА, 837-жамғарма, 22-рўйхат, 23-йиғмажилд, 18-бет.

siyosati boshlanishining ilk pallasidayoq millat oydinini jismonan yo‘q qilib yuborishga kirishilgan.

O‘zbekning ulug‘i 1937 yil 24 aprel kuni qamoqqa olingan va salkam bir yarim yilga cho‘zilgan tergov va qiynoqlardan so‘ng Fitrat “aksilinqilobiy millatchilik jadidchilikning asoschilaridan, rahbarlaridan biri”, “sovet hokimiyatining birinchi kunlaridan tortib, so‘nggi kunlargacha partiya va sovet hukumatiga qarshi millatchi panturkchi aksilinqilobiy harakatni faol uyushtirib kelgan” kishi sifatida, shuningdek, Fayzulla Xo‘jaev ko‘rsatmasiga suyanib, sovet hukumatini kuch bilan ag‘darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg‘oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlik, bosmachilikni tashkil qilganlik, Turkiyadan Anvar Poshoni boshlab kelganlik, fashistlar Germaniyasining josuslik tashkilotlari, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan aloqa o‘rnatganlikda ayblangan<sup>1</sup>.

SSSR Oliy sudi harbiy hay‘ati Fitrat “ishi”ni 1938 yil 4 oktabrda ko‘chma sessiyada ko‘rib chiqqan va u shu kuniyoq Toshkent atrofida otib tashlangan. Sud qarori 1938 yil 5 oktabrda, ya‘ni qatl yuz bergandan keyingi kuni rasmiylashtirilgani sovet hokimiyatining inson huquqlarini qanchalar poymol qilgani, qonunchilik uning uchun bir chaqalik qimmatga ega bo‘lmaganidan tashqari, o‘zbekning ulug‘idan o‘ta qo‘rqqani, undan tezroq qutlishga intilganini isbotlaydi, albatta.

Shu yili 140 yilligi nishonlanishi kutilayotgan 20-yuzyillikning Beruniysi Abdurauf Fitratning nomi ham, nishoni ham 1980-yillarning oxiriga qadar chiqarilgan emas. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991 yil 25 sentabrda milliy ozodlik kuychisi, o‘z jonini millat ravnaqi uchun qurbon qilgan Abdurauf Fitratga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti berildi. 1996 yili allomaning 110 yillik to‘yi yurtimiz bo‘ylab keng nishonlandi. Buxoro shahrida Fitrat bog‘i tashkil etilib, u yerda mutafakkir haykali o‘rnatilib, allomaning besh jildlik “Tanlangan asarlar”i va boshqa kitoblari nashr qilindi. Ammo bir narsani ta’kidlash kerakki, hali ham millat oydinining faoliyati, ilmiy merosi to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa tarixchilar oldiga muhim vazifalar turganini ko‘rsatadi.

---

<sup>1</sup> ФА Тарих институти жорий архиви. П-22934, 38-варақ.

## TARIX

### **XIVA XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA IDORA USULI. (QO'NG'IROTLAR SULOLASI DAVRI)**



**Matyakubov Shonazar,  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi  
katta ilmiy xodimi,  
Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori .**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Maqolada muallif Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligida davlat boshqaruvi va idora usullari haqida ma'lumotlar berib o'tadi.

**Аннотация:** В статье автор приводит информацию о методах государственного управления и администрирования в Хивинском ханстве во времена династии Кунградов.

**Annotation:** In the article, the author provides information on the methods of public administration and governance in the Khiva Khanate during the Kungrad dynasty.

**Kalit so'zlar:** Xiva, Qo'ng'irotlar sulolasi, Oliy Kengash, Avaz inoq Eltuzar, Muhammad Rahimxon I, xon, inoq, mehtar, qo'shbegi, devonbegi, otaliq, biy, bek, beklarbegi.

**Ключевые слова:** Хива, династия Кунградов, Верховный Совет, Аваз инак, Эльтузар, Мухаммед Рахимхан I, хан, мехтар, кошбеги, диванбеги, оталик, бий, бек, бекларбеги.

**Key words:** Khiva, Kungrat dynasty, Supreme Council, Avaz inak, Eltuzar, Muhammad Rahimkhan I, khan, mehtar, koshbegi, divanbegi, otalik, biy, bek, beklarbegi.

Xiva xonligida XVIII-asrning oxirlarida zo'r kuch va ishtiyoq bilan boshlangan va Qo'ng'irotlar sulolasi davriga kelib tugallangan davlat ma'muriy islohotlari, amaldagi eski feodal-urug'chilik munosabatlarini tugatdi va markazlashgan feodal-byurokratik davlatni mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Shunga muvofiq, xonlikdagi eski feodal oqsuyaklar o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotdi. Davlat hokimiyati va siyosiy boshqaruv butunlay katta yer egalari qo'liga o'tdi.

Bu davrlarga ya'ni, XIX-asr boshlariga kelib xonlikda Oliy qonun chiqaruvchi ma'muriy va sud hokimiyati yangi sulola- ya'ni qo'ng'irotlar sulolasi merosxo'r xon qo'lida to'plandi. Bu holatda esa Xon qoshida rasmiy Kengash organi sifatida oqsoqollardan iborat Oliy Kengash tashkil topdi. Biroq haqiqatda esa xonlikni mehtar, qushbegi, devonbegi, yasovulboshi, shayxulislom, naqib va boshqa ba'zi amaldorlardan iborat g'ayri rasmiy kengash idora qilar edi.

Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, harbiy va diniy unvon hamda va amallarga ajratish mumkin. Fikrimizcha bu tasnif sof nazariy bo'lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo'yicha berilmagan. O'sha vaqtda

amaldor va unvon egasi ko‘pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa mansabga o‘tib, unvonlar sohibiga aylangan.

Xon- xonlikda eng oliy unvon xon bo‘lib, u ma‘muriy, siyosiy va harbiy vakolatlarga ega bo‘lgan. Xiva xonligi davlat tizimida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farqli o‘laroq, xon huzurida Oliy Kengash amal qilgan. Arxiv ma‘lumotlarga ko‘ra, xonlikdagi Oliy Kengashni Muhammad Rahimxon I o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo‘lgan urug‘ oqsoqollari kengashi o‘rniga ta‘sis etgan edi. Bu Oliy Kengashga turli da‘vo va jinoiy ishlarni ko‘rish va qaror chiqarish huquqini beradi. Kengashning vakolati chegaralangan bo‘lib, maslahat beruvchi organga o‘xshar, uning a‘zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo‘lgan. Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda qo‘proq inoq, mehtar, shayx ul-islom, devonbegi va yasuvulboshi hal etuvchi ovozga ega bo‘lganlar. Kengash majlislari masalaning muhimligiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi.

Oliy Kengash oqsoqollardan, ya‘ni, ma‘lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi, naqib, shayx ul-islom, mutavvalli, mirob, qozi, farmonchi, darg‘a, shig‘ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo‘r kabilardan iborat edi. Shuningdek, xonning qarindosh urug‘laridan bo‘lgan beklar, otaliq, inoq va biylar ham bu kengashga kirganlar. Bu tor doiradagi kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan bo‘lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko‘rsatilsa-da, amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma‘muriy va sud hokimiyati edi. Kengash xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo‘yicha qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo‘lgan tashqi munosabalariga doir muammolarni hal etar edi. Garchi Kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, muhokama qilingan masalalar bo‘yicha qaror chiqarish avvalo xonning hohish – irodasiga bog‘liq bo‘lgan.

Yuqorida qayd etilgan g‘ayri rasmiy kengash barcha masalalarni hattoki yangi xon taxtga o‘tirishi kerak bo‘lgan hollarda xonning nomzodini ko‘rsatishgacha bo‘lgan masalalarni hal qilar edi. Bu mansablarni egallagan hamma amaldorlar va barcha yuqori mansab egalari singari odatda katta yer egalaridan bo‘lar edilar. Yer egaligi avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tganligi boisdan ham, amalda xonlikdagi barcha mansab egalari jumladan inoq mansabi ham otalaridan shuningdek akalaridan ham bir-biriga meros bo‘lib qolar edi. Masalan Shermuhammad Munis inoq mansabi otadan o‘g‘ilga o‘tganligi to‘g‘risida quyidagi fikrlarni “Firdavsu-l-iqbol” asarinig muqaddimasida “1804 yilda Eltuzarxon otasi Avaz inoq vafotidan so‘ng o‘zi inoq bo‘lgani va tez orada shu yili noyabr oyida qo‘g‘irchoq chingiziy xon Abulg‘ozi V-ni taxtdan tushurib o‘zi xonlik taxtiga o‘tirganini”[1] yozadi.



Shermuhammad Munis 16 jumoda al-avval milodiy 1221, hijriy 1-avgust 1806 yili akasi xonlik mirobi Muhammadniyoz Xiva xoni Eltuzar bilan birga kemada g'arq bo'lib, daryoga cho'kib o'lgandan so'ng miroblik mansabiga ko'tariladi. Rus ilmiy manbalarida bu haqda: "Bu mansabga Munisni 1806 yili taxtga kelgan yangi xon Muhammad Rahim I tayinlagan edi"[2] deyiladi.

Inoq- eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lgan. Inoqlar yirik amaldor, ya'ni urug' boshlig'i hisoblangan. Abulg'ozixon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga o'z yonidan to'rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, mingboshi kabi unvonlarni ham olganlar. XIX asrning oxiri va XX-asr boshlariga kelib inoqlar bek martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma'muriy mansab egalariga aylanadilar.

Mehtar-katta ulug' degan ma'noni bildiradi. Bu lavozim egasi saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'igi mansub a'yonlarni tayinlagan. Mehtarining o'z devoni bo'lib, yer solig'i to'plash ham uning xizmat vazifasiga kirgan. 1819-1820 yillarda Muhammad Rahimxon I davrida Xivaga Rusiyadan kelgan gvardiya bosh shtabi kapitani N.N.Muravyovning yozishicha "Xon xazinasi mehtarining ixtiyorida bo'lib, daromad va harajatlarni hisobini olib boradi, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularni ta'minoti ham uning ixtiyorida. Xon Xivadan boshqa xududlarga safarga chiqqanida xonlikni boshqarishni mehtarga topshirib ketadi, ba'zan esa o'z hokimiyatini ham unga ishonib topshirib qo'yadi"[3].

Qo'shbegi- Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajargan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan.

Devonbegi - mamlakat daromadlarini boshqarib, xon saroyi ehtiyoji, harbiy harajatlarni uchun sarflagan. Devonbegi yer-suvni boshqarar, bog'lardan kelgan daromadlarni hisoblar, ariqlarning qazuvini tashkil etardi. Xon va katta amaldorlarning o'z devonbegilari bo'lgan. Har bir shaharda devonbegilarning o'rinbosarlari bo'lib, ular boj va xirojlarni to'plashga majbur edilar. Devonxonning asosiy ishi barcha qilingan ishlarni daftarga qayd etib borish edi. "Rus qo'shinlarining 1873 yilda Xivaga kelgan vaqtida Muhammad Niyoz (Matniyoz) Hozoraspda devonbegi bo'lgan edi"[4].

Rus ofitseri Sirovatskiy Muhammad Murad (Matmurad) bilan qilgan suhbatida: "Xivada hammasi bo'lib, to'rt devonbegi bor. Birinchi devonbegi o'zi ekanini, yana Muhammad Niyoz, Xudoyor va Hasan devonbegilar borligini aytgan"[5]. A.Kunning yozishicha: "Mamlakatda asosiy boj-xiroj yig'uvchilar devonbegilar, qo'shbegi va mehtar hisoblanadi. Ularning har birisida o'z mahkamasi va uch-to'rttadan devonlari bor. Devonlar kirim va chiqim daftarlarini

yuritadilar”[6] Xivada tutqunlikda yashagan Eronlik Ismoil Mirpanjiy o‘zining “Asirlikdagi xotiralar” kitobida: “Devonbegi atrofdagi elatlardan, savdogarlardan bojxona va zakot pullarini qabul qilish bilan shug‘ullanardi”[7] deb yozib qoldiradi.

Muhammad Yusuf Bayoniyni yozishicha: 1221 yilda (1807-1808) Muhammad Rahimxon o‘z amakisi Muhammad Murad bekka bosh devonbegilik mansabini berib, unga daromad va xarajatlarni boshqarish vazifasini topshirdi va unga mehtar Yusufni sherik qilib qo‘ydi. Shu yo‘sinda ular hamjihat bo‘lib, katta ish olib bordilar va bu sohada yaxshi natija berdi va yangilik bo‘ldi.[8]

XIX-asrga kelib, Xiva xonligida xududiy boshqaruvga nisbatan mukammal mahalliy boshqarish tizimi vujudga kelgan edi. Muhammad Rahimxon davrida xonlikda o‘tkazilgan ma‘muriy-xududiy boshqarma islohoti natijasida xonlik viloyatlar va masjidqavmlarga bo‘lingan edi. Xonlikning o‘troq xalqlari yashaydigan butun hududlari, ya‘ni ma‘muriy va siyosiy ishlarni hokim yoki noiblar idora qilardi. Ularni xon katta yer egalardan, xonning qarindosh urug‘laridan, xonning mahramlaridan, shuningdek yuqori oqsuyaklardan tayinlar edi. Masjid va qishloqlarni esa eng boy va nufuzli oqsoqollar idora qilardi. Xiva xonligida mahalliy idora usulida eng xarakterli narsa shu ediki, yuqorida zikr qilingan ma‘muriy-hududiy hokimlik bo‘lishiga qaramay, mahalalarda hokimiyat amalda o‘sha yerli katta zamindorlar qo‘lida edi. Ular xonlik nomidan sud va jazo choralarini ko‘rishga haqli edilar. Ko‘chmanchi qabilalarni inoqlar, otaliqlar, biylar va boshqa mansab egalari idora qilar va ular ham xon tomonidan mansabga tayinlanar edi.

Otaliq - urug‘ oqsoqoli. Inoq boshliq to‘pa (guruh) ga birlashgan urug‘ boshlig‘i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo‘lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

Biy - saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug‘ning boshlig‘i hisoblanib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o‘zbeklarning urug‘ oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII-XIX asrlarda biylar yirik o‘zbek qabila va urug‘lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etganlar. Xiva xonligida biy unvoni boshqa unvon va mansablar kabi avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan.

Bek- xon va davlat arboblarning qarindoshlari, bolalariga beriladigan faxriy unvondir. Agar xonning o‘g‘li yoshligida to‘ra deb atalsa, xonning aka va ukalari yoki boshqa a‘yonlarning bolalari bek deb atalardi. Masalan Qutlimurat inoqning o‘g‘li Abdullani 1855 yilda Xiva taxtiga minguncha bek deb atashgan. Beklar xonning turli topshiriq va buyruqlarini bajarar, shuningdek urush safarlarida albatta xon atrofida uning qo‘shinlari safida bo‘lishar edi.

Beklarbegi -Qoraqalpoq va boshqa ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvondir. Ularning vazifasi o'z urug'laridan yig'iladigan daromadlar va xarajatlarni to'g'ri olib borilishini tekshirish va ularni to'la ravishda xon xazinasiga topshirish ustidan nazorat qilishdir. Beklarbegi lavozimiga odatda xonning qarindosh urug'laridan tayinlanar edi. Rahmonberdining o'g'li Bog'ibek shu xilda tayinlangan.

Rossiyadagi xonlikning arxiv manbalarida: "Xonlikdagi qorakalpoqlar yashaydigan xududlarni ikkita beklarbegi birlashtirib turar edi, ulardan biri Qo'ng'iroq urug'iga, ikkinchisi mang'itlarga boshliq edi"[9] deb qayd etilgan.

Rossiyadagi mavjud Xiva xonligiga oid arxiv manbalarida qaraganda : "Xon saroyida mavjud bo'lgan marosimlar Xiva xonligidagi idora usulini yaqqol ko'rsatib berar edi. Masalan boshqa xorijiy davlatlardan keladigan elchilarni qabul qilish marosimlarida yoki boshqa muhim tadbirlarda mansabdor a'yonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashar edilar: uzun ravoqning kun yurishi tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xonning chap tomonida esa a'yon va sarkardalar ya'ni naqib, amirululamo, bosh inoq, ikki mutavalli, xonnig sayyidlardan bo'lgan urug'lari shayxulislom, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqo va uch savdogor boy o'tirar edi.

Xonning o'ng tomonida esa devor bo'yida tartib bilan bilan ulamolar: qozi kalon, qozi askar, a'lam, mufti so'ngra oldinroq xondan yorliq olganlar va nihoyat mudarrislar o'tirar edilar"[10]

Taxtning so'l tomonidagi o'rinlar yurakga yaqinroq bo'lganligi bois, faxriyroq hisoblanar edi, shu sababli so'l tomonga o'ng tomonga qaraganda ko'proq e'tibor berilardi.

Davr o'tishi bilan yoki xonlar almashganda turli mansab va unvon egalarini ularni jamiyatda tutgan o'rni va mavqeiga qarab, joy-joyiga o'tkazish marosimlariga o'zgartirishlar kiritilib ham turilgan. Ya'ni ayrim amaldorlarning nufuzi oshirilib, ayrimlarini o'z o'rinlarini boshqa a'yonlarga bo'shatib berganlar. Bular hammasi haqiqatda xonning hohish irodasi mahsuli bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda Garchi XIX-asrlarda Xiva xonligining davlat tuzilishi o'zining mukammalligi jihatidan ba'zi bir G'arbiy Yevropadagi podsholik davlatlari tuzilishi bilan bas kela olmasa ham biroq ma'lum bir idora qilish tuzilmasi mavjud edi va yetarli ravishda tartibli edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermuhammad Munis."Firdavs-l-iqbol", "Yangi asr avlodi" nashriyoti, Toshkent-2010.B.34.
2. O'sha asar B.243.

3. Н.Н.Муравьев.”Путешествие в Туркмению и Хиву в 1919-1820г.г. гвардейского Ген.штаба капитана Николая Муравьева посланного страну для переговоров.Ч.1-2.М.-1822.144-177стр.
4. Ф.Костенко.”Город Хива в 1873”.Воен.с.б. 1873.№-12. Б.340.
5. Сироватский. “Санкт-Петербургские .Ведомости”.1874 г. № 115.
6. А.Кун.Туркестанские ведомости.№ 33,1873 г.
7. Ismoil Mirpanjiy “Asirlikdagi хотiralar” “Xorazm” nashriyoti, Urganch.1997.-В.35.
8. Muhammad Yusuf Bayoniy. “Shajarayi Xorazmshohiy” “Kamalak” nashriyoti, Toshkent-1992 yil,. 142-b.
9. Rossiya FASHI 33-arxiv fond, 27-varaq.
10. O’sha joyda.

## TARIX

### O‘ZBEKISTON SSRDA AHOLINI GO‘SHT VA SUT TA‘MINOTINI YAXSHILASH BORASIDA OLIB BORILGAN CHORA-TADBIRLAR (1950 yillar misolida)



**Muzaffar Xo‘jamov,**  
Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafadoktori (PhD).

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston SSRda 1950 yillarda aholining oziq-ovqat ta‘minotida go‘sh va sut mahsulotlari yetishtirilishi va jumladan, davlat harid narxlarini olib borishi va bu borada hukumat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar, uning natijasida yuzaga kelgan muammo va yechimlar, bir qator masalalar yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено производство мясной и молочной продукции для продовольственного снабжения населения в Узбекской ССР в 1950 годах, в том числе государственные закупочные цены, и меры, принимаемые правительством в этой связи, проблемы и пути их решения, возникшие в результате, и рассматривается ряд вопросов.

**Annotation:** In this article, the production of meat and dairy products for the food supply of the population in the Uzbek SSR in 1950, including state procurement prices, and the measures taken by the government in this regard, the problems and solutions that arose as a result, and a number of issues are covered.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, chorvachilik, chora-tadbir, 1950 yillar, haq to‘lash, oziq-ovqat ta‘minoti, go‘sh va sut, muammo va yechim.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, животноводство, меры, 1950-е годы, оплата труда, продовольственное обеспечение, мясо и молоко, проблемы и решения.

**Key words:** Uzbek SSR, livestock farming, measures, 1950s, remuneration, food supply, meat and dairy, problems and solutions.

O‘zbekiston SSR chorvachilik mahsulotlarini tayorlash, xususan, go‘sh va sut mahsulotlarini aholiga yetkazib berishda mahalliy chorvachilik va uning nasldorligi ham oshirish ham dolzarb masala edi.

Respublikada qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar qishloq xo‘jaligi va aholining ijtimoiy ta‘minoti, hususan, oziq-ovqat masalalariga va ularning aholi tomonidan harid qobiliyati, keng iste‘molini oshirish uchun milliy daromadi borasida ham bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 1940 yil aprelida “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotib olish siyosatiga kiritilgan o‘zgartirishlar” to‘g‘risida qaror qabul qilinishi[1:B.189]qishloq xo‘jaligi



maxsulotlari zahirida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash va ularning narx-navosi masalalari tartibga solina boshlandi. Jumladan aholini go'sht va sut bilan ta'minlanishi, uning iste'molini oshirish borasida ham chora tadbirlar olib borilishini talab etardi. Go'sht va sut ta'minotini oshirishda avvalo uni yetishtirish, harajatlari bilan davlat tomonidan qabul qilish narxlari o'rtasida tafavvut bo'lib, bu xolat o'z navbatida mahsulot tayyorlashga va uning tannarhiga sezilarli ta'sir etgan.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kolxozlarda mehnatga xaq to'lash mehnat kuniga qarab to'landi. 1930 yillar boshlaridan boshlab, kolxozlar daromadini artel a'zolari o'rtasida oila a'zolari soniga qarab to'landi. Bunday xaq to'lash natijasida domiy sermahsul mehnat qiladigan kishilar bilan ishsiz, yalqov kishilar o'rtasida tafavvutni keltirib chiqarib, mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan va bu usuldan vos kechildi. 30 yillar oxiri 40 yillar boshiga kelib, mehnatga xaq to'lash mehnat unimi va sifatiga qarab to'lanish prinsipiga o'tildi. Mahsulot toprishni gektar boshiga xisoblash mexanizmi 1940 yildan amal qilina boshlagan bo'lsada, amalda qoloq kolxozlar va ular tomonidan bajarilmagan davlat majburiyatlari eng ilg'or kolxozlar yetishtirgan mahsulotlar va ularning salmog'i xisobiga qoplangan[2:B.189].

Ikkinchidan don, chorvachilik mahsulotlari, kartoshka va sabzavotga belgilangan amalda tayyorlash va xarid qilish baxolaring pastligi kolxoz ishlab tarmoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Go'sht va go'sht mahsulotlarning boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan yana bir ustivor muxim jixati uning ta'minotdagi o'rni ratsion jaxatdan ham boshqa biron bir mahsulot bosa olmas edi. Bu jarayon urush yillarida yana bir bor o'z isbotini topdi. Jumladan, urush yillari davlat go'sht ta'minotini asosini frontga qaratdi. Natijada davlat tomonidan go'shtga bo'lgan chakana savdoda uning narxi suniy ravishda oshirildi va bir vaqtda davlat go'shtga aylanma solig'ini keskin oshirdi. Oqibatda go'shtning axoli tomonidan iste'mol qilinishi keskin pasayishiga yuqoridagi suniy chora-tadbirlar "zamin yaratdi". Shunday suniy yaratilgan chora-tadbirlaridan biri SSSR Moliya Xalq Komissarligining 1942 yil 20 iyundagi 375-sonli va SSSR Sut va go'sht sanoati Xalk Komissarligining 405-sonli byruqlari asosida mol go'shtiga chakana savdo aylanma (oborot)solig'i stavkasi 70 %, qo'y va cho'chqa go'shtiga 67 %, otva tuya go'shtiga 10 % etib belgilandi. Quyvon va qorako'l qo'zilar go'shti uchun chakana savdo aylanma solig'i joriy etilmadi[3:B.189]. Jumladan qayta ishlangan go'sht mahsulotlariga ham "e'tibor qaratildi", jumladan,SSSR Moliya Xalq Komissarligining 1942 yil 4 iyuldagi 405-sonli vatqinchalik ko'rsatmasiga ko'ra soyali kolbasaga 50 %, oqsilli kotletlarga 67 % chakana aylanma solig'i belgiladi [4:B.19].

Davlat tominidan go'shtning sovdodagi narx-navosiniga chakana narxlarni oshirilishi o'z navbatida mahalliy axoli ichki iste'molda go'shtga bo'lgan talabini oshirdi va o'z shaxsiy ehtiyoji uchun so'yish, chorvani me'yoridan ortiq go'sht uchun topshirilib yuborilishi respublikada chorva tuyog'i keskin kamayishi boshlandi. Masalan, 1941 – 1943 yillarda Farg'ona viloyatida qo'y va echkilar 18,5 %ga, yirik qoramollar soni 10,8 % gacha kamayishiga olib keldi[5:B.42].

Mavjud inqirozli xolatni bartaraf etish va kelasi yil uchun go'sht va sut ta'minotini fundamentini yaxshilash yo'lida 1942 yil mart oyida SSSR Xalq Komissarlar kengashi va Markaziy Komiteti(b) "Kolxoz va sovxozlarda chorva mollarini ko'paytirish va yosh chorvani asrash to'g'richida" qaror qabul qildi [6:B.132]. Bundan maqsad Respulikalarda yuzaga kelgan chorvaning kamayishi va uning natijasida front uchun go'sht va go'sht mahsulotlarining yuzaga kelgan tanqisligini bartaraf etish va mavjud qolganlarini asrash chora-tadbirlarini nazarda tutardi. Pul islohati sabab, narx-navo masalasida bir qator islohatlarni amalga oshirishni talab etdi. Shu maqsadda, SSSR Ministrlar Sovetining 1948 yil 19 aprelda "Kolxozlarda mehnatga haq to'lashni tashkil etishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va mehnatga haq to'lashni tartibga solish"to'g'risida qarori qabul qilindi [7:B.162]. Endigi navbatda har bir qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va tayyorlashda qilingan sarf-harajatlarga qarab bozor narxi shakillantirish mehanizimlari joriy etildi. Natijada, har bir chorva va uning mahsuloti tayyorlash uchun ketgan harajatga qarab davlat tomonidan haq to'lash tartibi belgilandi. KPSS Markaziy komitetining 1953 yil sentabr oyida bo'lib o'tgan plenumi qaroriga muofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari: don, moyli o'simliklar va uning urug'lari, kartoshka, sabzavot, chorvachilik mahsulotlari tayorlash va xarid qilish baholari oshirildi. Navbatdagi ushbu chora-tadbirdan maqsad chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda muammoli va ziddiyatli xolatlarni bartaraf etish, davlat kolxozlardan harid qilish narx-navosini tartibga solish borasida navbatdagi yechim sifatida qaraldi.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi kitob. –Toshkent: Fan, 1971. – B. 43.
2. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi kitob. –Toshkent: Fan, 1971. – B. 44
3. Основы политических знаний. Ташкент.1962 г.-С. 189
4. Babajanov.X. Ikkinchi jaxon urishi yillarida O'zbekistonda oziq-ovqat siyosatining amalga oshirilishi. Monografiya.Toshkent."Akadernashr"2022.-B.-19.
5. Babajanov.X. Ikkinchi jaxon urishi yillarida O'zbekistonda oziq-ovqat siyosatining amalga oshirilishi. Monografiya.Toshkent."Akadernashr"2022.-B.-42.
6. O'z MA, R-90-fond, 8- ro'yxat, 5192-ish, 132 varaq
7. Аграрная политика советской власти в Узбекистане и её фалсификаторы.Ташкент."Узбекистан".1972 г.-.162

## TARIX

### ANTIK DAVR O'RTA OSIYO XALQLARINING HARBIY JARAYONLARDA FOYDALANGAN QUROLLARI.



**Botirova Nafosat,**  
**Tarix fanlari bo'yicha**  
**falsafa doktori (PhD).**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Orolbo'yi ko'chmanchilari antik davrda nafaqat O'rta Osiyo miqyosida balkim, O'rtayer dengizigacha bo'lgan hududlar hamda Sharqiy Yevropa dashtlarini o'z ichiga olgan ulkan mintaqada doirasida siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarda nihoyatda faollashadilar.

**Аннотация:** В древние времена островные поселенцы были чрезвычайно активны в политических, социальных и экономических процессах не только в масштабах Центральной Азии, но и огромного региона, включавшего Средиземное море и степи Восточной Европы.

**Annotation:** In ancient times, island settlers were extremely active in political, social and economic processes, not only on the scale of Central Asia, but also in a huge region including the Mediterranean Sea and the steppes of Eastern Europe.

**Kalit so'zlar:** "Skif", "xunn", Arxaik, Ko'nauvaz, Kaparas, Kuyukqal'a, sovut, lat, niqob, "nayzali qo'shin".

**Ключевые слова:** «Скиф», «Гунн», Архаика, Конауваз, Капарас, Куюккала, совут, лат, маска, «копейное войско».

**Key words:** "Scythian", "Hun", Archaic, Ko'nauvaz, Kaparas, Kuyukkala, sovut, lat, mask, "spear army".

Antik davrda butun Yevrosiyo dashtlaridagi kabi O'rta Osiyo ziroatkor aholisida, Xorazm, Parfiya, Yunon – Baqtriya, Qang', Kushon va Dovon (Farg'ona) kabi davlatlari qo'shinida ham "skif tipidagi" ikki, uch qirrali nayza o'qlar, kamalak o'qi qurol-aslahalarning asosini tashkil qilgan.

Bu kamonlar va kamon o'qlaridan tashqari, ko'chmanchilarga xos boshqa turdagi qurol – aslahalar ham mazkur davlatlar harbiy sohada foydalanilgan.

"Skif" tipidagi kamonlar O'rta Osiyo aholisidan tashkil topgan mahsus o'qchilar tomonidan mudofaa va hujum harakatlarida faol ishlatilgani ma'lum. Ular aholi manzillari madaniy qatlamlaridan ko'plab topilgan va ko'p hollarda yozma manbalarda qayd qilinadi. Kamon yoyi va uning kompleksi bo'lgan o'qdan foydalanishning qoidasini o'qchilar to'la darajada o'zlashtirib olgan bo'lishlari kerak[1,510 c.].

Antik davr O'rta Osiyo xalqlarining harbiy jarayonlarda foydalangan qurollari mavzusida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Hozirda ham mavzu

doirasida ko'plab izlanishlar davom etmoqda. Maqolani yozish davomida quyidagi tadqiqotchilarning izlanishlari qiyosiy tahlil qilinib o'rganildi.

Tadqiqotchi A. F. Medvedov fikriga ko'ra, "skif" tipidagi va undan so'ng "xunn" tipidagi kamonlarning yoyining ikki uch qismini birlashtirgan ipning tortilish darajasiga qarab, undan otilgan o'q dahshatli zarbani hosil qilgan[2, ctp. 28]. Ayniqsa "xunn" kamonlari bu borada ancha ustunlikka ega bo'lib, shu asosda Xitoy va Mo'g'uliston hududlaridan tortib to Galliyagacha bo'lgan antik davr dunyosida asosiy harbiy aslahalardan biri bo'lgan[3, ctp. 33].

Tadqiqotchi M. Mambetullaev fikriga ko'ra, miloddan avvalgi VII - VI asrlardan kirib kelgan skif kamon o'qi antik davrga kelib O'rta Osiyoda yanada keng tarqalgan[4, ctp. 3].

S. P. Tolstov xulosasi bo'yicha ham, miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq sak va sarmatlar uncha katta hajmda bo'lmagan kamon o'qlari bilan Orolbo'ylariga kirib kelib, tub aholini o'zlarining turli harbiy aslahalari bilan tanishtirganlar[5, C. 211-227].

Jumladan, bu holatni O'rta Osiyo aholisining qo'shni hududlardagi aholi bilan aloqasi mavjudligi bois, skif o'qlari bilan tanish bo'lishlari ehtimoldan uzoq emas. Darhaqiqat, o'lkamiz geografik joylashishi jihatidan ularga qo'shni bo'lganligi uchun skif o'qlarining nafaqat Xorazm vohasiga, balki O'rta Osiyo hududlari bo'ylab tarqalishida ko'chmanchi qabilalarning ta'siri shubhasiz kuchli bo'lgan[6, C. 90.].

Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab, Xorazm vohasidagi qabilalar turmush tarzida ishlatiladigan mehnat qurollari tarkibini harbiy qurollar kompleksi tashkil etgan. Jamiyatda urushlar oddiy bir holat bo'lib qolgan bir paytda turli vazifalarni bajaruvchi qurol-aslahalar vujudga keldi. Arxaik, antik jamiyatida qurol-aslahalar, bronzadan qilingan uch qirrali, temirdan qilingan ikki qirrali kamon o'qlari, hanjar, qilich, sovut, lat, niqob kabi harbiy moslamalar mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi I asrdan skif kamon o'qlari asosida takomillashgan xunn kamon o'qlari Yevrosiyo sarhadlariga keng tarqalgan. Xunlar kamon o'qlarining keng sarhadlarga tarqalish sabablardan biri himoya vositalaridan biri bo'lgan qalqonning o'troq aholi o'rtasida keng tarqalganligidir. Masalan aholida himoya vosita sifatida qalqon paydo bo'lib, uning vazifasi kamon o'qi zarbasini qaytarish bo'lgan. Xunlar kamon o'qi uzunligi o'rtacha 120-160 sm tashkil qilgan[7, C. 33].

Xorazmning so'nggi antik davri Tuproqqal'dan bug'u shohidan ishlangan murakkab tarkibli uzunligi 160 sm bo'lgan kamon o'qi topilgan. Bunday kamon o'qlari Ko'nauvaz, Kaparas qala'laridan ham olingan[8, ctp. 49-50]. Murakkab tarkibli kamon o'qlari antik davrga oid bo'lgan Qo'yqirilganqal'ada, ilk o'rta asr

shaharlari Kuyukqal'a, Katqal'alardan ham topilganligi ma'lum. IV-IX asrlarda Xorazmda oddiy va murakkab tarkibli kamon o'qlari keng tarqalgan.

Xorazm tangalarida tasvirlangan suvoriyning chap qo'lida nayza ko'zga tashlanadi[9, ra6. – IX]. Qo'yqirilganqal'a yodgorligi madaniy qatlamidan olingan sopol parchasida otliq chavandoz tasvirlangan. B.A.Litvinskiy, I.V.Pyankov ma'lumotlariga qaraganda, mil. avv VI asrdan boshlab, nayza quroli massagetlar tomonidan keng qo'llanilib, xatto maxsus "nayzali qo'shin" mavjud bo'lgan[10, ctp. 40].

Antik davr Orolbo'yi va xususan O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'atining eng dolzarb muammolaridan biri bu og'ir qurollangan otliq qo'shinning alohida turi "katafraktariylar" qo'shinining paydo bo'lishi hududi masalasidir. Chunki, bir guruh olimlar bu turdagi qo'shinning paydo bo'lishini o'troq aholi, xususan, Xorazm vohasi bilan bog'lasalar[11, C.66-85.], bir guruh olimlar esa bu qo'shin turi Aleksandr Makedonskiyning yurishlari bilan bog'lab, uning goplitlardan iborat falangasiga qarshi mazkur turdagi otliq qo'shnlarning paydo bo'lishiga olib kelganligini ta'kidlaydilar[12, C. 21-31].

Uchinchi guruh tadqiqotchilari esa "katafraktariylar" Sharqiy Yevropaning ulkan dasht hududlarida yashagan skif – sarmat qabilalari olamida birinchi bo'lib, bu turdagi qo'shin shakllanganligini qayd qiladilar[12, C. 286–296] Ammo, har qanday holatda ham mazkur qo'shin turining paydo bo'lishi ko'chmanchi qabilalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayonda Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari ham o'zlarining hissalarini qo'shganliklari aniq.

Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining chuqur qiyosiy tahliliga asoslangan so'nggi tadqiqotlar natijalari ham, antik davrda og'ir qurollangan otliq jangchilarning paydo bo'lishi borasidagi fikrlarda bu turdagi jangchilarning paydo bo'lishi ko'proq Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari harbiy ish sohasidagi faoliyatiga bog'liqligi borasida yakdil xulosaga kelingan[12, C. 184-188].

Bu borada ayniqsa, tadqiqotchilardan ko'chmanchilar harbiy san'ati mavzusi bo'yicha juda ko'plagan tadqiqotlar olib borgan A.M. Xazanovning fikri diqqatga sazovor. Uning fikriga ko'ra, katafraktariylar Yevrosiyaning ko'chmanchi qabilalari dunyosi, ayniqsa Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari bilan O'rta Osiyo va Eronning o'troq dehqonchilik vohalari doimiy aloqalari sharoitida vujudga kelgan[13, C. 13 – 14].

Himoya vositalari bilan otliq askarlarning paydo bo'lishi tadqiqotchilar o'rtasida turli fikrlar mavjud. V.V.Tarn otliq askarlarning paydo bo'lishini O'rta Osiyo cho'llarida faoliyat olib borgan qabilalar bilan bog'laydi[14, ctp. 75].



B.A.Litvinskiy fikricha, metallardan bo'lgan himoya vositalari O'rta Osiyoda mil.avv VIII-VII asrlarda, uning taraqqiyoti esa mil.avv V-IV asrlarga tegishli bo'lgan[15, стр. 126].

S.P. Tolstov fikricha, Xorazmda og'ir qurollangan otliq va nayzali piyoda askarlarning o'zaro harakati Makedon taktikasi asosida vujudga kelgan[16, стр. 211-227]. Tadqiqotchining fikriga qo'shilish qiyin.

G.A.Pugachenkova fikricha, og'ir himoya vositalari bilan qurollangan piyoda va yaxshi qurollangan otliq askarlar temir qilichi bilan dasht va yarim dasht hududlarida paydo bo'lmasdan Baqtriya, Parfiya dehqonchilik vohalarida mil. avv. II asrda paydo bo'lib, shimolga yarim ko'chmanchi qabilalarga, keyin esa Xorazmda paydo bo'lgan[17, стр. 43]

Bu masalada A.M.Xazanov fikri haqiqatga yaqin bo'lib, ya'ni, yaxshi qurollangan va himoyalangan otliq askarlar Yevrosiyaning ko'chmanchi va O'rta Osiyaning o'troq aholisi bilan o'zaro aloqalari ta'sirida Yevrosiyo cho'llarida paydo bo'lgan[18, стр. 13-14].

Ye. V. Chernenko fikricha, himoya vositasiga ega bo'lgan otliq askarlar mil.avv. V asrda Qora dengiz bo'yidagi skiflarda, metallardan bo'lgan himoya vositasi Old Osiyoga yurishi vaqtida Ossuriyaliklar, Urartlar va Midiyaliklarning himoya vositalaridan tanishgandan keyin paydo bo'lgan[19, стр. 143-154].

Qadimgi va o'rta asrlar Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalari manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va shu tadqiqotlar jarayonida topilgan ashyolarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, ularni yozma manbalar ma'lumotlari bilan umumlashtirgan holda o'rganish asosidagina kutilgan natijalarga ega bo'lish mumkin. Darhaqiqat yozma manbalarda qurol-aslahalarning ashyosi, uning shakli to'g'risida ma'lumot bersa, moddiy ashyolar esa tarixiy davr va uning turli bosqichlarida shakllanish jarayonini yoritishda qo'l keladi. Qurol-aslahalarning xilma-xilligi ajdodlarimiz harbiy mazmunga ega bo'lgan qurollarni ishlab chiqarishda jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos bilimga ega bo'lganliklarini izohlaydi.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1.Хазанов А. М. Кочевники и внешний мир. Изд. 4-е, доп. — СПб.: Факультет филологии и искусств СПбГУ, 2008.— 510 с.

2.Медведов. А. Ф. Ручное метательное оружие (лук и стрелы, самострел, VIII – XIV вв.). (Археология СССР. Свод археологических источников. Вып. Е. 1-36). М, “Наука”, 1966, стр. 28.

3.Хазанов А. М. Сложные луки евразийских степей и Ирана в скифо - сарматскую эпоху. Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1966. – С.33.

4. Мамбетуллаев. М. М. Вооружение и военное дело Хорезма.// Археология Приаралья.// Вып. №У1, Нукус, 2003, стр. 3.
5. Толстов.С.П. Древний Хорезм. М., Наука, 1908. – С. 211-227.
6. Хазанов А. М. Кочевники и внешний мир. – С. 90.
7. Хазанов А. М. Сложные луки евразийских степей... – С.33.
8. Коляков. С. М. Мастерская по обработке рога и кости в крепости Капарас.// Этнография и археология Средней Азии.// М, “Наука”, 1979, стр. 49-50.
9. Вайнберг Г.И. Монеты древнего Хорёзма. М. «Наука» 1977, таб-IX.
10. Литвинский, Б.А. Пьянков. И.В Военное дело у народов Средней Азии в VI-IV вв. до н.э М., «Наука», ВДИ. N3, 1966, стр. 40.
11. Ольбрихт М.- Я. К вопросу о происхождении конницы катафрактов в Иране и Средней Азии.// Роль кочевников евразийских степей в развитии мирового военного искусства. Научные чтения памяти Н.Э. Масанова.// Алматы: LEM. 2010. – С.66-85.
12. Иванов С.С. К вопросу о тяжелой кавалерии в древней Средней Азии на основе остракона из Хумбуз-тепе// Сборник статей международного форума молодых ученых стран СНГ. Ч. III. – Алматы, 2012. – С. 184-188;
13. Хазанов А.М. Сложные луки евразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху.// Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1966. – С. 13 – 14.
14. Хазанов А.М. Очерки военного дела Сарматов.М., Наука, 1971, стр. 75.
15. Литвинский. Б.А. Древние кочевники «Крыша Мира», М, «Наука», 1972, стр. 126.
16. Толстов.С.П. Древний Хорезм. М., Наука, 1908, стр. 211-227.
17. Пугаченкова Г.А. О панцирном вооружении Парфянского и Бактрийского войнства. М, «Наука», ВДИ. N2, 1966, стр. 43.
18. Хазанов А.М Сложные луки Евразийских степей и Ирана в Скифо-Сарматскую эпоху. Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. М., Наука, 1966, стр. 13-14.
19. Черненко Е.В. Скифский доспех и копья. Кн. Древности Скифо-сарматского времени. М., «Наука», 1968, стр. 143-154.

## TARIX

### BUXORO AMIRLIGINING TASHKIL TOPISHI VA ILK MANG'IT HUKMDORLARINING TAXTGA KELISHI.

**Ermot Tilayev,  
Shahrisabz davlat  
pedagogika instituti  
Ilmiy tadqiqotlar  
innovatsiyalar va  
ilmiy pedagogik  
kadrlar tayorlash  
bo'limi boshligi, t.f.n.  
dots.**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XVIII asr o'rtalarida Movorounnahrda siyosiy jarayonlar, jumladan Ashtarxoniylar sulolasining inqirozi va Mang'itlar sulolasining taxtga kelishi yoritilgan. Shuningdek tadqiqot ishida Buxoro xonligining amirlikka aylanish bosqichlari, markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi islohotlar va ilk mang'it hukmdorlarining davlat boshqaruvidagi mavqeyining mustahkamlanishining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье освещаются политические процессы в Трансоксиане в середине XVIII века, включая крах династии Аштарханидов и восшествие на престол династии Мангытов. Также в исследовании на основе научных источников проанализированы этапы преобразования Бухарского ханства в эмират, реформы на пути создания централизованного государства и особенности укрепления позиций первых правителей мангытов в государственном управлении.

**Annotation:** This article highlights the political processes in Transoxiana in the mid-18th century, including the crisis of the Ashtarkhanid dynasty and the accession of the Manghit dynasty to the throne. Furthermore, based on scientific sources, the research analyzes the stages of the Bukhara Khanate's transformation into an emirate, reforms towards building a centralized state, and the specific characteristics of consolidating the power of the early Manghit rulers in state administration.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Mang'itlar sulolasi, Muhammad Rahimbiy, otaliq, Ashtarxiniylar, siyosiy tarqoqlik, markazlashtirilgan davlat, quzg'alonlar.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, династия мангытов, Мухаммад Рахимбий, аталык, Аштарханиды, политический кризис, централизация, восствения.

**Key words:** Emirate of Bukhara, Manghit dynasty, Ashtarkhanids, political crisis, centralization, Muhammad Rahimbiy, state governance.

O'zbek davlatchiligi tarixida uchmas iz qoldirgan, asrlar davomida “ubbatul islom” ya'ni islom dinining gumbazi deb atalib kelgan Buxoro amirligini tashkil topish tarixini tadqiq etish, unda amalga oshirilgan islohotlarni, davlat boshqaruvi idoralarining markazlashuv jarayonlarini tarixiy manbalar asosida o'rganish, uni

ilmiy nukta nazardan keng jamoatchilikka yetkazish hamda tarkib topgan nazariy tajribalarni bugungi zamonaviy, demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va jamiyatimiz xayotida samaraliroq foydalanish hozirgi kunda dolzarb vazifalaridan biridir.

Buxoro xonligi o'zbek davlatchiligi tizimidagi alohida mavqeiga ega bo'lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarda keltirilishicha XVIII asr birinchi yarmida Buxoro xonligini boshqarayotgan ashtarxoniylarning so'nggi vakillari davlatni boshqarish, uni mustahkamlash va davlatning ichki hamda tashqi xavfsizligi masalalariga jiddiy e'tibor qarata olmadilar [2.231]. Ashtarxoniylar davridagi tinimsiz urushlar natijasida hazina bo'shab xonlikning iqtisodiy taraqqiyotiga katta to'sqin bo'ldi. 1708—1709 yillarda o'tkazilgan pul islohoti natijasida pul qiymati to'rt marta tushib ketgan edi. Islohotdan zarar ko'rgan aholi g'alayon ko'targan, biroq qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Xonlikda siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni yanada kuchaytirib yuboradi. Ayrim nufuzli amirlar tomonidan fitna uyushtirilib Ubaydullaxon 1711 yilda o'ldiriladi. Taxtga marhum xonning ukasi Abulfayzxon (1711—1747) nomigagina xon qilib o'tqaziladi.

Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo'liga o'tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1711 yilda Balx, 1723 yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligidan ajralib chiqadi. 1720 yillarda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi. Shu asnoda Xiva xoni Sherg'ozixon ham Buxoro xonligiga da'vo qiladi, ammo uning harakatlari samarasiz yakun topadi.

1723 yilda qalmoqlar qozoq dashtlariga bostirib kirib qozoqlarni Movarounnahrqa qochishga majbur qilgan. Qozoqlar chorva mollari bilan Zarafshon vodiysiga kirib bog' va ekinzorlarni payhon qilganlar. Bularning natijasi ularoq Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaya borib xonlik tanazzulga yuz tutgan. Movarounnahr parchalanib, uchta xonlikka (Buxoro, Qo'qon va Xiva) bo'linib ketgan. Mang'itlardan bo'lgan Muhammad Hakim otaliq Buxoro shahri otalig'i unvonida bo'lib, barcha otaliqlarning boshlig'i edi. Uning mavqei kuchayib ketganidan norozi bo'lgan ayonlar Abulfayzxonga (1711- 1747) ta'sir ko'rsatishib, uni Qarshi shahriga jo'natishga erishadilar.

Vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh 1740 yil bahorida Balxni egalladi va o'sha yili kuzda katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib Buxoro xonligini bo'ysundiradi. Muhammad Hakimbiy otaliq o'g'li Muhammadrahim bilan Nodirshoh xizmatiga kirgach, unga eroncha "Amiri kabir" (katta amir) unvoni beriladi. Abulfayzxonning nufuzi pasayib ketadi. Xonlik Nodirshohning o'limidan keyin (1747) Eronga tobeliqdan qutulib, o'z mustaqilligini tikladi. 1747 yilda fitnachilar Abulfayzxonni o'ldirdilar. Bundan foydalangan Muhammad Rahimbiy to'laqonli davlat boshlig'iga aylandi. U xonlik taxtini egallashga

shoshilmadi va Abulfayzxonning yosh o'g'li Abdulmo'minni xon deb e'lon qildi, aslida esa davlatning barcha boshqaruv ishlari uning qo'lida edi. Shu bilan birga o'z qizini Abdulmo'minga nikohlab berdi (1748 yil u o'ldirildi).

Jumaquli Xumuliy asarida Abdulmo'min haqida ma'lumot berilmagan. Uning vafoti sababi ham yoritilmagan. Balki asarning bu qismi saqlanmagan yoki ko'chirishda tushirib qoldirilgan. Asar Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzxonning balog'at yoshiga yaqinlashgan o'g'li Ubaydullaxonning o'tirishi davri tarixidan davom ettirilgan. Qizini ham aynan Ubaydullaxonga nikohlab bergani qayd etilgan. Biroq bir necha kun o'tgach, "Ubaydulloh bolalar bilan Buxoro qal'asi devori ustida o'ynab turib, qal'a ichiga suv chiqarib beradigan charxu falakni tomoshasiga borib qoldilar. Tomosha paytida Ubaydullohning oyog'i toyib ketib, qal'a devoridan pastga yiqilib jon taslim qildi" deya qayd etiladi [1]. Shu bilan Chingizxon naslidan bo'lgan Jo'ji urug'idan o'g'il farzandlar qolmadi. "Abulfayzxon o'zining boshqa o'g'illarini o'z qo'li bilan qatl etgan edi. Ulardan faqat Ubaydulloh qolgan edi" [1, 63b.]. Anke fon Kyugelgen bu voqea Muhammad Rahimbiy tomonidan ataylab uyushtirilgan, degan fikr bildiradi. Chunki ushbu voqeadan so'ng Muhammad Rahimbiy Buxoroda tanho, mustaqil hukmdorga aylandi.

1756 yil sulola asoschisi Muhammad Rahimni rasman taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tdi, u oq kigizga solinib uning to'rt tomonini yirik o'zbek urug'lari (mang'it, saroy, qipchoq, baxrin) vakillari ko'tarib taxtga o'tqazdilar. Lekin u Chingiz avlodidan bo'lmaganligi uchun Xon deb emas, balki Noib ul-hukumat deb e'lon qilindi. U Buxoroda tartib o'rnatgach, atrof viloyatlar, Movarounnahr, xususan, Samarqand va Miyonko'lga tobe bo'lgan joylarni fath qiladi Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlandi. Mang'it hukmdorlaridan Shohmurod davriga kelib Amir unvonini bilan davlatni idora etish boshlandi. Shohmurod davlat boshlig'i – Amir unvonini ta'sis etar ekan, ushbu unvonning o'zbek va mo'g'ul urug'lari an'analari bilan emas, balki shariat qoidolari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi

O'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligi taxtiga maxalliy urug' vakili bo'lgan mang'itlar sulolasi (Muxammad Raxim-1753-1758) ko'tarilishi bilan Buxoro xonlik deb emas amirlik deb nomlana boshladi. Sababi, o'sha davrlarda faqat Chingizxon avlodi xon deb e'lon qilinishi mumkin edi.

Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon (1756-1758) mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad - markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimxon bu siyosatni amalga oshirishga qattiq kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining



asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etiladigan bo'lsa, davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylar ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi.

Jumaquli Xumuliy o'zining "Tarixi Xumuliy" asarida Muhammad Rahimni quyidagicha ta'riflaydi: "U qahru g'azabli podshoh edi. Haybatli edi. Viqor bilan yurar, qimmatini baland so'zlarni aytar edi. In'omi baland, xulqi maqtovg'a loyiq, lutfu karami bilan qahru g'azabining o'rni bor edi. Har bir ishda munosib baytlarni o'qir edi, go'yoki uni o'zi ijod etgandek. Uning qomati baland, peshonasi keng, a'zolar bir-biriga mutanosib edi. Takallufsiz butun xaloyiq o'zbekning to'qson to'qqiz qabilasi uning xonligiga rozi va uning g'ulomligini o'zlariga shukrona deb bilar edilar. Agar u bir qora tuproqqa mehr bilan nazar solsa, u joydagi tuproq ko'zlarning to'tiyo surmasiga aylanar edi. Agar u osmon kishtizorida bo'lgan xirmon tomon qahru g'azab bilan boqsa, quyosh misoli kuydirar edi. U doimo Nodirshoh va Chingizxonning davlatdorlik siyosatiga qo'shimchalar kiritdi. Saltanat nizomining zinalarini joyiga qo'yishga ulkan ra'yga ega edi. Jahonni boshqarish qoidalarining ko'pida Nodirshohga ergashar edi. Muhammad Rahim Turon mulki, Balx, Badaxshon, Hisor va Hisor oralarini muxoliflardan tozalab, o'ziga xos nizomlarini joriy qildi..." [1, 97b.].

Muhammad Rahimning saroy tarixnavisi Qozi Vafo esa, u haqida quyidagilarni bayon qiladi: "u yoshlik chog'laridan mohir chavandoz bo'lgan. Bundan tashqari u sipoh (qurol) bilan muomalani yaxshi bilgan..."[2, 308]. Muhammad Ya'qub esa 1830-831 yillarda yozilgan risolasida Muhammad Rahimni mang'it hukmdorlari ichida "eng buyuk" deb hisoblaydi: "undan so'ng davlatni hech qaysi hukmdor bunday tartibda boshqara olmadi" [3] deya ta'riflaydi. Haqiqatan ham, Muhammad Rahim o'zidan keyin amirlikni boshqargan hukmdorlardan farqli o'laroq, kenagas qabilasi boshqaruvidagi Kesh viloyatiga uch marta hujum qildi hamda Kitob va Shahrisabzni egalladi.

Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo etib yurgan Miyonqol, Nurota, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut bekliklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda u bo'ysunishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, burqut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz, kenagas, saroy va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi. Muhammad Rahimxon yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oldi. Shunday bo'lsa-da, u barcha bekliklarning markaziy hokimiyatni tan olishlariga

to'la erisha olmadi. Uning vafotidan (1759/1172 y) so'ng amirlikda qo'zg'olonlar avj oldi va Shahrisabz amirlik tarkibidan chiqdi.

Muhammad Rahimbiy vafotidan so'ng, ulamo va umaro yig'ilib uning janozasini o'qib, dafn qildilar. Muhammad Rahimbiyning o'g'il farzandi bo'lmagach, Buxoro taxtiga uning qizidan bo'lgan nabirasi Fozilto'ra ibn Norbo'tabiy ibn Badalbiy ibn Hakimbiy otaliq o'tirdi. Biroq, Fozilto'ra o'sha paytda olti yoshda bo'lganligi sababli, Muhammad Rahimbiyning amakisi Muhammad Doniyolbiy unga otaliq<sup>1</sup> etib tayinlanadi. Qozilik mansabiga Xoja Nizomiddin Mirakoni va Amiri Devon mansabiga badal devonboshlar tayinlandilar. Amiru umaro Fozilto'raning bu ishga layoqatsizligini ko'rib, bir necha kundan so'ng xonlik mansabidan bo'shatdilar. Hammalari ittifoq tuzib, birgalikda davlat saltanatini boshqarishga Doniyol Otaliqni munosib topdilar va uni taxtga o'tqazdilar. Muhammad Doniyolbiy davrida markaziy xokimiyat zaiflashadi, chunki u viloyat hokimlariga keng imtiyozlar berishga majbur bo'lgan edi. Barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida Balx, Hisor, Ko'lob, o'ratepa bekliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalari, qushbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini esa sindira olmadi. o'g'illaridan biri Shohmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratardi. Xalq orasida obro'si katta bo'lgani uchun Doniyolbiy unga hokimiyatni topshirishga qaror qiladi.

Shohmurodning davlat arbobi sifatida shakllanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu borada, ayniqsa, uning shayx Safarning muridi ekanligi hal qiluvchi rol o'ynagan. U ilm ahlini hurmatlab, ularning ta'minotini yo'lga qo'ygan. Lekin tasavvuf uning qahri qatgiq hukmdor amir Shohmurod bo'lib yetishishiga, Mang'itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash borasida bir qancha islohotlarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilmadi. Garchi ruhoniylar Mang'itlarning birinchi hukmdorlaridan Doniyolbiy otaliqning 11 nafar o'g'lidani eng kattasi bo'lgan Ma'sumni hokimiyatdan mahrum etishni maslahat bergan bo'lsalarda, u Buxoro taxtiga voris qilib tayinlanadi va otasi vafotidan keyin, 1785 yilda Buxoro amiri sifatida taxtga o'tiradi. [6]

Amir Shohmurod Buxoro amirligi davlatchiligi tarixida alohida o'z o'rniga ega bo'lgan hukmdorlardan sanaladi. Davlatchilik tarixida "Amiri ma'sum"

---

<sup>1</sup> Otaliq – turkiycha - ota o'rnini bosuvchi hukmdorning eng yaqin kishisi bo'lib, asosan unga shahzodalarni ta'lim-tarbiya bilan voyaga yetkazish, ularni himoya qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va boshqa vazifalar topshirilgan.

(“Begunoh amir”) deya nom olgan Amir Shohmurodning hukmronlik yillari (1785 – 1800) Buxoroda markaziy hokimiyatning nisbatan mustahkamlanish davri bo‘ldi. Amir Shohmurod davriga kelib davlat to‘laqonli mustahkam asoslarga ega bo‘ldi. Buxoro amirligida davlatni boshqarish boshqa xonliklardan deyarli farq qilmagan. Davlat amaldagi va rasman deyarli cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lgan Amir tomonidan boshqarilardi.

Shohmurod o‘z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. o‘zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Masalan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo‘z ko‘ylak kiygan. Boshiga olti gazli bo‘z salla, oyog‘iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kavush kiygan. Amir Shohmurod Samarqand shahrida katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Shahar markazida olti qirrali chorsu qurilib, «Toqi musaddas» deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrisilarni o‘zi tayinlagan. Talabalarga mudarrisilarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan. Amir Shohmurod ba’zi islohotlar o‘tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. Rais mansabini va qo‘shin tarkibida qozi askar lavozimini joriy qildi. [5] Mamlakat iqtisodini yo‘lga qo‘yishda Shohmurod o‘tkazgan pul islohoti muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi. Shohmurod joriy qilgan qonun bo‘yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat’iy nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi.

Shohmurod Chingiziy qo‘g‘irchoq xonlar an’anasiga chek qo‘ydi va to‘liq mustaqil hukmronlikni boshladi. Shohmurod soliqlardan ezilgan xalqning noroziliklari kuchaygan vaqtda taxtga utirganligi uchun islohotlarni avvalo soliqlarni tartibga solishdan boshladi. U butun Buxoro shahri aholisiga tarxon yorlig‘i berib, o‘zidan avvalgi xukmdorlar joriy qilgan, shariatga umuman to‘g‘ri kelmaydigan yorg‘u, boj, tarx, tushmol, yasoq kabi soliqlarni bekor qiladi va faqat sha’riy soliqlarni (xiroj va zakot ) qoldirdi.

Shohmurod islom shariatiga asoslangan adolatli sud tizimini joriy qildi. Unga ko‘ra, har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o‘z shikoyati bilan kelishga va g‘ayriqonuniy ish qilayotgan o‘z xo‘jayinini javobgarlikka tortishga haqli edi.

Markaziy Osiyoning tarixini o‘rgangan deyarli barcha tarixchilar Amir Shohmurodning davlat boshqaruvchi sohasidagi faoliyatiga yuqori baho beradilar. Olim Ahmad Donish esa, uni xalifa Umar bilan bir katorga kuyib. “amirlik gilamni kambagallik kiyimi bilan bezadi, jahon bog‘idan dushmanlik va yomonlik tomiri bilan sugurib tashladi va adolat nihollarini o‘tkazdi”, deb yuksak baholaydi. [7]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Mangitlar sulolasining amirlari izchil turib, mamlakatni birlashtirish, davlat hokimiyatini markazlashtirish siyosatini olib

borgan bo'lsalar-da, o'zbek qabila va urug' boshliqlarining kuchayishlari va mustaqillikka intilishlari siyosiy tarqoqlikni tobora kuchaytiradi. Xonliklarning bir-birlarining yerlariga tez-tez bostirib kirishlari, shahar va qishloqlarni egallab olishlari ular o'rtasidagi o'zaro qarama – qarshiliklarni avj oldirib yuboradi

Buxoro amirligining tashkil topishi Movorounnahr tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Mang'it hukmdorlari garchi Chingiziylar avlodidan bo'lmasalar-da, kuchli harbiy va ma'muriy islohotlar orqali davlat yaxlitligini saqlab qoldilar. Muhammad Rahimbiy asos solgan va amir Shoxmurod mustahkamlagan bu siyosiy tizim 1920 yilgacha mavjud bo'ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi 27 viloyat va 11 tumandan iborat bo'lgan bo'lib, barcha tumanlar Buxoro shahri atrofida joylashgan edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mullo Jumaquli Xumuliy. Tarixi Xumuliy. – Samarqand-Toshkent, 2013.
2. Фон Кюгелген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 519 с.
3. Muhammad Yoqub ibn Doniyol Otaliq. Gulshan al-muluk. // Qo'lyozma, O'zR FA SHI – № 1507/III. – 164.
- 4.A. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1 qism. T.: Akademiya, 2000. 174-175 betlar. -193 b.
5. Vohidov Sh. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996.
6. Z.Muqimov. Qilich va qalam sohiblari (davlat arboblari haqida lavhalar). S., 1997.
- 7.Трактат А.Дониш “История мангитской династии”. Душанбе. “Дониш” 1967. С-6.

**TARIX****O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ HUDUDLARIDA ZAMONAVIY UY-JOYLAR QURISH HOLATI.**

**Matyakubov Nurbek,**  
Urganch Innovatsion  
Universiteti dotsenti.



**Bekchanova Go‘zal,**  
Urganch Innovatsion  
Universiteti  
magistranti.

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** O‘zbekiston hukumati aholini uy-joy bilan ta‘minlash uchun bir qancha samarali ishlarni olib borgan. Dastavval aholini uy-joy bilan ta‘minlashning huquqiy asoslari hamda me‘yorlari ishlab chiqilgan. Mazkur huquqiy hujjatlar joylardagi aholini uy-joy bilan ta‘minlashdagi kamchiliklar va muammolarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy qilingan.

**Аннотация:** Правительством Узбекистана проведен ряд эффективных работ по обеспечению населения жильем. Прежде всего были разработаны правовая база и нормы обеспечения населения жильем. Данные правовые документы были реализованы на практике с учетом недостатков и проблем в обеспечении жильем местных жителей.

**Annotation:** The government of Uzbekistan has carried out a number of effective works to provide the population with housing. First of all, the legal basis and norms of providing housing to the population were developed. These legal documents were put into practice taking into account the shortcomings and problems in providing housing to local residents.

**Kalit so‘zlar:** Uy-joy siyosati, namunaviy uylar, shaharsozlik kodeksi, qonun, shaharsozlik, qurilish, imtiyoz, siyosat.

**Ключевые слова:** Жилищная политика, типовые дома, градостроительный кодекс, закон, градостроительство, строительство, привилегии, политика.

**Key words:** Housing policy, model homes, urban development code, law, urban development, construction, privilege, policy.

O‘zbekiston qishloq hududlarida uy-joy qurish 2000-yillarning oxirlaridan boshlab kuchaygan. Chunki 2009-yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb belgilangan va shu sababli qishloq hududlarida uy-joy qurish uchun davlat dasturi qabul qilingan. Ushbu dasturga muvofiq, respublikaning barcha qishloq hududlarida turar-joylar qurilgan.

2009-yil 3-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq joylarida uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1167-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror ijrosini bajarish yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va



viloyatlar hokimliklari tomonidan namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joy qurishning tajriba loyihalarini amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligi hamda o'rmon fondi yerlari toifasiga kirmaydigan 42 ta yer massivlari tanlab olingan **[1-B.7]**. Umuman olganda, qishloq joylarda yakka tartibdagi bitta uy-joy qurilishi uchun qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan va o'rmon fondiga kirmaydigan yerlardan 0,06 ga miqdorida yer maydoni ajratilgan **[2-B.16]**.

“Davarxitektqurilish” qo'mitasi, “Qishloqqurilishloyiha” MCHJ loyiha-tadqiqot instituti va viloyat hokimliklari bilan birgalikda 2009-yilda qurilishi mo'ljallangan uy-joy qurish uchun tanlab olingan 42 ta yer massivlari aholining uy-joylarga bo'lgan talablari bo'yicha kiritilgan ma'lumotnomalar asosida ekspertizadan o'tkazilgan, uy-joy binolarining joylashtirish sxemasi ishlab chiqilgan va joylarga moslashtirish uchun namunaviy loyihalar bilan ta'minlab berilgan. Loyihalarni joyiga bog'lash yoki moslashtirish borasida 16 ta loyiha tashkilotlari tomonidan ishlar amalga oshirilgan **[3-B.7]**.

2009-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joylar va ijtimoiy ahamiyatdagi qurilish uchun jami 42 ta ajratilgan yer massivlarida qishloq aholisi uchun 847 ta uy-joylarning qurilishi nihoyasiga yetkazilgan va o'z egalariga topshirilgan **[4-B.7]**. Qishloqqurilishinvest” kompaniyasining asosiy faoliyati uy-joyga bo'lgan talabni marketing jihatdan o'rganish, o'rganish natijalari asosida hokimliklar bilan birgalikda qishloq xo'jaligi va o'rmon fondi yerlari toifasiga kirmaydigan yer massivlarini tanlash, tanlangan yer massivlarida namunaviy loyihalar bo'yicha uy-joy qurilishini tashkillashtirish hamda namunaviy loyihalar bo'yicha bino qurilishi yuzasidan nazoratni tashkil etishdan iborat bo'lgan.

“Qishloqqurilishinvest” injiniring kompaniyasi Qashqadaryo viloyati filialining loyihalashtirish va tender savdosini tashkil qilish bo'limi boshlig'i bo'lgan Xoliyor Abdullayev namunaviy loyihalar asosida uylar qurishda pudratchilar qanday tanlab olinishi to'g'risida quyidagilarni aytgan: “Namunaviy loyihalar asosida uy-joylarni barpo etish uchun har bir tuman bo'yicha tasdiqlangan tanlov komissiyasining xulosasiga ko'ra, qurilishda tajribasi bor, belgilangan ishlarni tizimli olib borish salohiyatiga ega bo'lgan pudratchi tashkilotlarni saralashga alohida ahamiyat qaratyapmiz”. Xususan, 2014-yilda Qashqadaryo viloyatida 147 ta pudratchi tashkilotdan 76 tasi bilan shartnomalar imzolangan.

Qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida qurilgan uylar soni yildan yilga oshib borgan. Xususan, 2010-yilda respublika bo'yicha namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi 6800 ta turar-joy qurilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yilda 7400 tani, 2012-yilda 8510 tani, 2013-yilda 10 000 tani hamda 2014-

yilda 11 000 tani tashkil etgan. 2014-yilda O'zbekistondagi 151 tumanning 330 ta massivida 11 000 ta uy-joy qurilgan. Ularning umumiy maydoni 1534,7 ming kvadrat metr bo'lib, loyihaviy qiymati 1760 mlrd. so'mni tashkil etgan **[5-B. 7]**.

2010-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilangan 159 ta tumandagi tanlab olingan massivlarda qishloq aholisi uchun 6800 ta uy-joy qurilgan. Mazkur uylarning qurilishini "tayyor holda topshirish" usulida pudratchi tashkilotlari tanlovi tashkillashtirilgan. Mazkur pudrat tashkilotlarga imtiyozlar berilgan hamda bu yangi qurilgan uy-joylarning tannarxini 15-20 foizgacha pasayishiga olib kelgan. Tanlovda tajribali, vijdonli va yuklatilgan mas'uliyatni his qiladigan pudratchilar tanlab olish maqsad qilingan **[5-B. 7]**.

Umuman olganda, 2009-2013-yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasida namunaviy loyihalar asosida 1705 ta uylar qurilgan. 2014-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 20 ta qishloq mavzesida 627 ta uy qurilishi uchun 99 milliard 556 million so'm sarflangan. Ayrim holatlarda namunaviy loyiha asosida uylar qurgan qurilish pudrat tashkilotlari o'zlari asosiy qurilish materiallarini ishlab chiqargan. Masalan, "Qo'ng'iroq stroy stil" mas'uliyati cheklangan jamiyat 2014-yilda Nukus tumanida namunaviy loyihalar asosida 10 ta uy quradi. Mazkur jamiyat o'z qurilish obyektlari uchun qurilish materiallarini o'zlari ishlab chiqargan. Xususan, ushbu 10 ta uyni qurish uchun qurilish pudratchisi tomonidan 5 million dona pishiq g'isht va 300 tonna ohak tayyorlangan. Ushbu loyihaning jami moliyaviy miqdori 336 million so'm bo'lgan.

Yildan yilga qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida uylar qurish rivojlanib borgan. 2012-yilda Surxondaryo viloyatida 680 ta namunaviy loyihalar asosida turar-joy qurib bitkazilgan bo'lsa, 2013-yilda 23 ta aholi punktida 810 ta uy barpo etilgan. Buning uchun fuqarolar tomonidan 28 milliard 458 million so'mlik to'lovlar amalga oshirilgan. Bunday holatni Qashqadaryo viloyati misolida ham ko'rish mumkin. 2009-2013-yillarda Qashqadaryo viloyatida namunaviy loyihalar asosida 3560 ta turar-joy bunyod etilgan. 2014-yilda Qashqadaryo viloyatidagi qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida 1172 ta uy-joylar qurish rejalashtirilgan. Xususan, G'uzor tumanidagi "Mustaqillik" mahallasida 390 ta uy qurish rejalashtirilgan bo'lgan.

Qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida turar-joy qurish Jizzax viloyatida ham o'sib borgan. Xususan, 2012-yilda Jizzax viloyatida 444 ta va 2013-yilda 550 ta namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilgan bo'lsa, 2014-yilda bunday turdagi uy-joylarning miqdori 627 taga yetgan. Ularning maydoni mos ravishda oshib borgan bo'lib, ular 2012-yilda 60 162 metr kvadrat, 2013 yilda 73 566 metr kvadrat hamda 2014-yilda 84 018 metr kvadratni tashkil etgan **[6-B. 9]**.

Boshqa tomondan, tumanlar kesimida bu ko'rsatkichlar turlicha bo'lgan. Jumladan, 2012-2014-yillar oralig'ida Jizzax tumani, Zarbdor tumani va Paxtakor tumanida namunaviy loyihalar asosida qurilgan uy-joylar soni oshgan bo'lsa, qolgan tumanlarda bu turdagi uylarni qurishda o'zgarish yuz bermagan yoki pasaygan.

Andijon viloyatida 2009-2014-yillar davomida 3 992 ta uy-joy barpo etilgan. Qashqadaryo viloyatida mazkur yillar oralig'ida 4732 ta namunaviy loyihalar asosida uylar qurilgan bo'lsa, Buxoro viloyatida 3354 ta turar-joy barpo etilgan. 2014-yilda Izboskan tumanidagi Qo'shko'prik mavzesida namunaviy loyiha asosida qurilgan uyga ko'chib o'tgan Ma'rufjon Komilov ushbu uylarni quyidagicha ta'riflaydi: "Kasbim shifokor bo'lgani uchun inson salomatligi, ayniqsa, bolalarning sog'lig'i hamda ruhiyatiga turar-joy, undagi shart-sharoitlar ta'siri katta ekanligidan xabardorman. Shu jihatdan olib qaraganda, uylar har tomonlama puxta o'ylanib, loyihalashtirilgan. Hatto xonalarga quyosh nurining tushishi, havo almashishi ham e'tibordan chetda qolmagan. "Qishloq-qurilishbank"ning imtiyozli krediti tufayli uch xonali uyga ega bo'ldik. Qarang, bu yerdagi sharoit shahardagidan sirayam qolishmaydi. Oshxona, yuvinish xonalari ichkarida. Mehmonxona, bolalar, dam olish xonalari alohida-alohida. Xonalari keng, yorug', baland".

Qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida uylar qurilgan mavzelarda aholi uchun maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari ham qurilgan. Jumladan, 2009-yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob, Qamashi, G'uzor, Qarshi va Kasbi tumanlaridagi 5 ta turar-joy massivlarida 20 tadan jami 100 ta namunaviy uy-joylar qurilgan. Qishloq hududlarida ham yangi aholi punktlari yuzaga kelgan bo'lib, bu asosan o'sha yangi yerlarda yangi turar-joylarning qurilishi bilan bog'liq edi. Xususan, 2010-yilda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturiga asosan Qarshi tuman Kat qishloq fuqarolar yig'ini hududidan Yangi Xonobod aholi punkti qurilishi uchun 30,6 gektar yer maydoni ajratilgan va 1630 nafar aholiga mo'ljallangan mavze bosh rejasi ishlab chiqilgan. Yangi aholi punktida namunaviy uy-joylar, sartarosh uyi, etikdo'z uyi, dorixona, elektr uskunalari va tikuvchilik uyi, suratkash uyi, internet-kafe, 216 o'rinli maktab, 140 o'rinli bolalar bog'chasi, 12 o'rinli hammom hamda kichik bozor qurilgan [7-B.24-25].

Mazkur qurilgan uylarning qiymati quyidagi summani tashkil etgan. 2009-yil dasturi doirasida 42 ta qishloq tumanlarining 42 ta yer massivlarida loyiha qiymati 58,5 mlrd. so'mni tashkil etgan 847 ta uy-joylar qurilgan. 2010-yil dasturi doirasida 159 ta qishloq tumanlarining 215 ta yer massivlarida loyiha qiymati 472,6 mlrd. so'mni tashkil etgan 6800 ta uy-joylar qurilgan. 2011-yilda

159 ta qishloq tumanlarining 372 ta yer massivlarida loyiha qiymati 629 mlrd. soʻmni tashkil etgan 7400 ta uy-joylar qurilgan **[3-B.9]**.

2009-yilda Sirdaryo viloyatining qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida 60 ta, 2010-yilda 275 ta, 2011-yilda 310 ta, 2012-yilda 320 ta, 2013-yilda 430 ta va 2014-yilda 506 ta uylar qurilgan. 2015-yilda Sirdaryo viloyatining 8 tumanidagi massivlarda 550 ta namunaviy uy-joylar qurilgan.

Masalan, Guliston tumanining Mevazor va Ishonch massivlarida 140 ta turar-joy qurilgan. Ushbu uylarni qurish uchun viloyatning oʻzida qurilish materiallarini ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil etilgan va ular ushbu qurilish obyektlarini zarur materiallar bilan taʼminlab turgan. Xususan, 2014-yilda Boyovut tumanida kuniga 20 ming donadan gʻisht ishlab chiqaradigan 2 ta, Sayxunobod tumanida 1 ta, Guliston tumanida 2 ta gʻisht zavodi, Guliston shahrida yiliga 8 ming dona beton-plita ishlab chiqaradigan 1 ta, cherepitsa ishlab chiqaradigan 2 ta, eshik-rom tayyorlaydigan 2 ta, Sayxunobod va Sirdaryo tumanlarida eshik-rom tayyorlaydigan 2 ta, Yangiyer shahrida cherepitsa ishlab chiqaradigan 2 ta korxona ishlab turgan **[3-B.13]**.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi “2017-2021- yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar boʻyicha arzon uy-joylar qurish dasturi toʻgʻrisida”gi qarorining qabul qilinishi qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishiga yangicha yondashuvlarni olib keldi. Ushbu hujjat besh yillik davrga moʻljallangan qishloq joylarda arzon uylar qurishning koʻlamli Dasturini amalga oshirishni nazarda tutgan. Dasturda qishloq joylarda narx parametrlari va shinamliligiga koʻra yakka tartibdagi uy-joylar namunalarining uchta eng arzon turlarini qoʻshimcha ravishda barpo etish nazarda tutilgan. Birinchi turi ikki va uch qavatli koʻp kvartirali uylarni barpo etishni oʻz ichiga olgan. Bunday uylarda umumiy maydoni 42,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 72,5 million soʻm, xoʻjalik imoratlari hisobga olingan holda 85,0 million soʻm boʻlgan ikki xonali kvartiralar qurish rejalashtirilgan. Uch xonali kvartiralarining maydoni 52,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 88,5 million soʻm, xoʻjalik imoratlari hisobga olingan holda 100,7 million soʻm boʻlgan. Ikkinchi turiga muvofiq aholi zich joylashgan tumanlarda 2 sotix maydondagi yer uchastkasida barpo etiladigan bir qavatli ikki va uch xonali arzon uylar qurish koʻzda tutilgan. Bunday turdagi ikki xonali uylarning umumiy maydoni 53,0 kvadrat metr va taxminiy qiymati xoʻjalik imoratlari bilan birgalikda 101,5 million soʻm boʻlgan. Oʻz navbatida, uch xonali uylarning umumiy maydoni 63,5 kvadrat metr boʻlgan va barcha xarajatlari 118,7 million soʻm etib belgilangan. Uchinchi uy turi 4 sotix maydondagi yer uchastkasida barpo etiladigan umumiy maydoni 115,0 kvadrat metr boʻlgan ikki qavatli toʻrt xonali uylar qurish nazarda tutilgan. Bunda koʻrsatib oʻtilgan uylarning taxminiy qiymati 181,8 million

soʻmni tashkil etgan. Dasturni moliyalashtirish uchun 2017-yil hisobiga 2 trillion 121,5 milliard soʻm yoʻnaltirilgan. Qisqacha aytganda, Dastur doirasida 2017-yilda 15 mingta yangi uy va kvartira qurilishi moʻljallangan boʻlib, shundan 4608 tasi birinchi turdagi, 3739 tasi ikkinchi turdagi, 3672 tasi uchinchi turdagi uylarni hamda 0,06 gektar maydonga quriladigan 2981 ta bir qavatli uylarni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, 2010-2021-yillarda qishloq hududlarida uy-joy qurish rivojlanib borgan. Mazkur ishlar, asosan, hukumat qarorlari asosida amaliyotga tatbiq etilgan. Boshqacha aytganda, 2010-yilga qishloq hududlarida uylar asosan aholi tomonidan qurilgan boʻlsa, mazkur yildan keyin aholi tayyor turar-joylarni sotib olish imkoniga ega boʻldi. Mazkur uylar, asosan, kredit asosida aholiga sotilgan. Statistik maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, yildan yilga qishloq hududlarida turar-joylar soni oshib borgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Shonazarov Sh. Qishloq joylarining zamonaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan islohatlar // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 1. – B. 7.

2.Xolxodjaev M., Shaxobiddinov S. Qishloq aholisi uchun uy-joylarning namunaviy loyihalarining II Respublika koʻrgazmasi // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 5-6. – B. 16.

3.Shonazarov Sh. Qishloq joylarining zamonaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan islohotlar // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 1. – B. 7

4.Xoshimbekov K. Qishloqlarimizning bugungi koʻrki // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 2. – B. 7.

5.Xoshimbekov K. Qishloqlarimizning bugungi koʻrki // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 2. – B. 7.

6.Jizzax viloyati pasporti. Jizzax. 2015. B. 9. / Jizzax viloyati hokimligi joriy arxivi

7.Qurbonov Sh. Qashqadaryo viloyati qishloq aholi punktlarida 2010 yilda amalga oshirilayotgan turar-joy massivlarining qurilishi // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 5-6. – B. 24-25.

8.Xoshimbekov K. Namunaviy loyihalar asosida qishloq joylarda uy-joylarning qurilishini tashkillashtirish // “Oʻzbekiston arxitekturasini va qurilishi”jurnali. – 2010. – № 5-6. – B. 9.

9.Bekmurodov B. Munavvar goʻshalarda yashayotgan baxtiyor odamlar // Qishloq hayoti. – 2015. – № 13.

17.Oblomurodov N. Uy-joy qurilishiga investisiyalarni jalb etishning yangi imkoniyatlari // Xalqaro moliya va hisob. – 2017. – № 5. – B. 2-3.



## TARIX

### MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA MATBUOTNING RIVOJLANISHIGA OID MULOHAZALAR



**Palvanova Tuxtajon,  
Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
davlat universiteti  
tayanch doktoranti.**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Bugun insoniylik jamiyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi axborot hisoblanadi. Matbuot ana shu kuchning bosh tashuvchisi va yo‘naltiruvchisidir. Vaholanki, axborot jamiyatga aynan matbuot orqali kirib keladi, shakllanadi va omma onggiga singadi. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida mustaqillik yillaridagi matbuotning rivojlanish jarayoni xususida mulohazalar taqdim etiladi.

**Аннотация:** В современном мире основной движущей силой человеческого общества является информация. Печать выступает главным носителем и направляющей этой силы. Именно через средства массовой информации информация проникает в общество, формируется и укореняется в общественном сознании. В данной статье представлены размышления о процессе развития печатных средств массовой информации в Хорезмской области в годы независимости.

**Annotation:** Today, information is considered the main driving force of human society. The press serves as the primary carrier and guiding instrument of this force. Indeed, information enters society, takes shape, and becomes embedded in public consciousness precisely through the press. This article presents reflections on the process of development of the press in the Khorezm region during the years of independence.

**Kalit so‘zlar:** Matbuot, to‘rtinchi hokimiyat, toshbosma, Otajon Abdalov, “Inqilob quyoshi”, “Xorazm haqiqati”, “Bog‘ot sadosi”, “Gurlan hayoti”, “Yangi Urganch”, “Urganch haqiqati”, “Hayot ko‘zgusi”, “Hazoraspnoma”, “Xiva tongi”, “Xonqa hayoti”, “Shovot istiqboli”, “Yangiariq ovozi”, “Yangibozor ko‘zgusi”, “Xorazm ma‘rifati”.

**Ключевые слова:** Печать, четвертая власть, литография, Отажон Абдалов, “Inqilob quyoshi”, “Xorazm haqiqati”, “Bog‘ot sadosi”, “Gurlan hayoti”, “Yangi Urganch”, “Urganch haqiqati”, “Hayot ko‘zgusi”, “Hazoraspnoma”, “Xiva tongi”, “Xonqa hayoti”, “Shovot istiqboli”, “Yangiariq ovozi”, “Yangibozor ko‘zgusi”, “Xorazm ma‘rifati”.

**Key words:** Press, fourth estate, lithography, Otajon Abdalov, “Inqilob quyoshi”, “Xorazm haqiqati”, “Bog‘ot sadosi”, “Gurlan hayoti”, “Yangi Urganch”, “Urganch

*haqiqati”, “Hayot ko‘zgusi”, “Hazoraspnoma”, “Xiva tongi”, “Xonqa hayoti”, “Shovot istiqboli”, “Yangiariq ovozi”, “Yangibozor ko‘zgusi”, “Xorazm ma‘rifati”.*

Tarixan matbuot jamiyatda “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida e‘tirof etilgan. Bugun esa u bundan ham ortiqroq — ijtimoiy ongning shakllantiruvchi markazga aylandi. Qaysi masala dolzarb bo‘lishi, qaysi muammo muhokama markaziga chiqishi, qaysi hodisa chetda qolishi ko‘p jihatdan matbuot tanloviga bog‘liq. Shu ma‘noda matbuot axborotni nafaqat yetkazadi, balki jamiyat harakat yo‘nalishini ham belgilaydi. Matbuot – barcha bosma mahsulotlarni o‘zida ifodalasa ham, tor ma‘noda davriy nashrlarni, asosan, gazeta va jurnallarni anglatadi.

Jahon tarixida ilk matbuot nashrlari XV asrning o‘rtalaridan Yevropada paydo bo‘la boshlagan. Keyingi asrlar mobaynida matbuot ommaviy muloqotning, bilim va g‘oyalar tarqatishning asosiy vositasiga aylana bordi. Dastlabki bosma nashrlar kitob, risola va varaqalardan iborat bo‘lgan, XVII asrning boshlarida gazetalar, keyinroq esa jurnallar tashkil topdi. XIX asrning o‘rtalarida matbuot agentliklari vujudga kelgan. XX asrda ommaviy axborotning radioeshittirish va televideniya, XXI asrda internet singari turlarining paydo bo‘lishi va taraqqiy qilishiga qaramay, matbuot hamon kishilik jamiyatidagi o‘z o‘rni va mavqeini tobora kengaytirib, zamonaviy texnologiyalarga moslashgan holda, yangi shakllarda rivojlantirib bormoqda.

O‘zbekiston hududida vaqtli matbuot nashrlari Yevropa yoki Osiyodagi ko‘pchilik mamlakatlaridagiga nisbatan ancha kech tashkil topdi [Ўзбекистон Республикаси: Энциклопедияю Тахрир ҳайъати: М.Аминов ва (масъул муҳаррир) ва бошқ. – Т: Қомуслар бош тахририяти, 1997. 488 б. (656)]. Vaholanki, XIX asrning 70-yillaridayoq Markaziy Osiyoda ilk toshbosma (litografiya) Xivada faoliyat boshlagandi. Yurtimizda chiqa boshlagan vaqtli nashrlardan to‘ng‘ichi sifatida qayd etadiganimiz “Туркестанские ведомости” hamda “Туркистон вилоятининг газети” mustamlakachi Chor hukumatining tashabbusi bilan yuzaga kelgan.

1907-yilda chiqqan “Taraqqiy” gazetasi o‘zbek tilida chiqqan birinchi jurnaldir. Ushbu gazetaning ilk soni nashr yuzini ko‘rgan 27-iyun O‘zbekistonda matbuot kuni sifatida nishonlaniladi.

Bevosita Xorazmda esa matbuotning asosi 1920-yil 8-martda qo‘yilgan. Shu kundan “Inqilob quyoshi” gazetasi chiqa boshlagan va uning birinchi bosh muharriri Bekchon Rahmon hisoblanadi [Xorazm matbuoti, matbaachilik, noshirlik: tarixi va buguni: Publitsistik maqolalar/ - Xorazm, Ogahiy nashriyoti, 2025. 34-b. (308)]. Xorazmda mazkur gazetaning chiqishi uchun zarur uskuna – Shvetsariyaning Jeneva shahrida ishlab chiqarilgan [Xorazm matbuoti,

matbaachilik, nashirlik: tarixi va buguni: Publitsistik maqolalar/ - Xorazm, Ogahiy nashriyoti, 2025. 17-b. (308)] Ma'lumki, toshbosma, 1874-yil Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan keltirilgan edi. Dastlab, badiiy asarlar nashr qilingan mazkur toshbosma Xorazm xalq sovet respublikasi tuzilgan 1920-yildan so'ng "Inqilob quyoshi" gazetasini bosish uchun ishlatila boshlandi.

Shu tariqa Xorazmda sovet andozasida matbuot shakllanadi. "Inqilob quyoshi"dan tashqari 1920-yil oktyabridan "ПОСТА" (Rossiya telegraf agentligi gazetasi), "Xorazm sho'rolar jumhuriyatining qaror va buyruqlari" (Byulleten-gazeta), 1921-yil 6-iyuldan "Известия Полномочного Преставительства РСФСР в ХХСР", "Qizil yoshlar ovozi", "Hunarmandlar cho'kichi", "Yordam" va "Ishchi tovushi" gazetalari, "Qizil Xorazm", "Maorif", "Qopqon" (hajviy), "Turkman eli" jurnallari nashr etila boshlanadi.

Viloyatning asosiy gazetasi "Inqilob quyoshi" 1928-yil 1-iyulga qadar Xivada, shundan so'ng Urganchdagi bosmaxonada bosiladi. 1939-yil 1-yanvardan "Inqilob quyoshi" "Xorazm haqiqati" nomi bilan chiqa boshladi. 1930-yillarda Xorazm viloyatidagi bir qator tuman va shaharlarda hududiy nashrlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1931-yil "Gurlan hayoti", "Xonqa hayoti", "Xiva tongi", 1932-yil "Shovot hayoti", 1935-yil "Hazoraspnoma", 1936-yil "Yangiariq ovozi", 1941-yil "Hayot ko'zguzi" (Qo'shko'pir tumani rasmiy nashri sifatida), 1955-yil "Yangibozor ko'zgusi" (dastlab "Paxtakorlar ovozi" nomi bilan), 1958-yil "Urganch haqiqati" (dastlab "Paxtakorlar ovozi", keyinchalik "Oktyabr bayrog'i" nomi bilan), "Bog'ot sadosi" singari o'z faoliyatini boshlagan gazetarlar Xorazm viloyatining bugungi matbuoti uchun zamin hozirlagan hududiy nashrlar edi.

Ushbu nashrlar O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin ham faoliyatini davom ettirib, mustaqillik yillaridagi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qurilish davrini yoritib bordilar. 1996-yilda Xorazm viloyatida 20 ta gazeta faoliyat yuritgan. Ularning 18 tasi davlat tasarrufida, 1 tasi jamoat, 1 tasi turli tashkiliy shakllarda tuzilgan edi. 192 [O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopediyasi. Tahrir hayati: M.Aminov va (mas'ul muharrir) va boshq. – T: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 491 b. (656)]. Keying yillarda hududiy nashrlar qatoriga "Yangi Urganch" (2001, dastlab "Urganch oqshomi" nomi bilan), "Xorazm iste'dodi" (1998), "Huquqiy himoya" (2010), "Xorazm ma'rifati" (2010), "Xorazm tibbiyoti-Медицина Хорезма" (2010), "Ezgu so'z" (2016), "Urganch universiteti" (2023) gazetalari qo'shildi. Biroq viloyatda jurnallar 2000-yildan so'nggina samarali faoliyat yurita boshladi. Xususan, 2001-yil Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti muassisligidagi "Ilm sarchashmalari", 2006-yildan "Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi",

2018-yildan “To‘maris avlodi” (2009-2018-yillarda gazeta sifatida) jurnallari faoliyat yurita boshlagan.

Barchamizga sir emas, bugungi kunga kelib global internet tarmog‘ining jadal rivojlanishi natijasida elektron nashrlar, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan bloggerlar ham ommaviy axborot vositasi sifatida bosma nashrlarning ulkan raqobatchisiga aylangan. Bu esa ko‘plab bosma nashrlarning faoliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Xususan, nashrlarning obuna ko‘rsatgichlari tushib, davriylikda ham barqarorlik ko‘rsata olmay qoldi.

Misol uchun, “Xorazm haqiqati” gazetasining 2005-yildagi haftalik nashr adadi 3443, 2019-yil 3500 dona [ Qadamboyev Sh. 1991-2024-yillarda Xorazm viloyati matbuoti faoliyatida samarali mexanizmning yo‘lga qo‘yilishi. TAMADDUN NURI, 2025-yil, 5-son, 110-113 b.] ni tashkil etgani holda, 2025-yil may oyiga kelib bu ko‘rsatgich 1602 donani tashkil etdi. Viloyatning asosiy rasmiy nashri sanalgan “Xorazm haqiqati” gazetasining bunday holga kelishida albatta ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri katta. “Bog‘ot sadosi”, “Gurlan hayoti”, “Yangi Urganch”, “Urganch haqiqati”, “Hayot ko‘zgusi”, “Hazoraspnoma”, “Xiva tongi”, “Xonqa hayoti”, “Shovot istiqboli”, “Yangiariq ovozi”, “Yangibozor ko‘zgusi”, “Xorazm ma‘rifati” kabi viloyat va hududiy nashrlarning adadlari esa bir necha yuzni tashkil etib, aksariyati 2024-yil davomida bir necha sonlarini nashr ham qila olmagan.

Bugungi kunda viloyatda 21 ta bosma 193 nashrlar, 3 ta telekanal, 2 ta radiokanal faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, eng e‘tiborli jihati 29 nafar subyekt tomonidan Youtube platformasi va Instagram, Telegram hamda Facebook ijtimoiy tarmoqlarida 74 ta bloglar yuritilmoqda. Taqqoslaydigan bo‘lsak, viloyat miqyosidagi barcha nashrlarning umumiy adadi 10 ming nusxaga yetmayotgan bir paytda, mazkur bloglarning kuzatuvchilari soni umumiy miqyosda 7 mln.dan ortib ketadi.

Bu ko‘rsatgichlarning asosiy sabablari nimada? Avvalo, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan matbuot siyosati bilan bevosita bog‘liq. Dastlab, mamlakatda ko‘plab nodavlat bosma ommaviy axborot vositalari paydo bo‘ldi. Biroq, keyinchalik media tizimini demokratlashtirish jarayoni sekinlashdi. Mustaqil jurnalistlar iqtisodiy bosimdan tortib jinoiy javobgarlikka qadar bir qator muammolarga duch kelishdi [<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/4698/9012> ]. Bu esa matbuotning erkin va mustaqil faoliyatiga to‘siq bo‘ldi. Natijada, davlat nashrlari hukumatning ko‘magi bilangina faoliyat ko‘rsatib kelayotgan edi.

2016-yildan so‘ng ommaviy axborot vositlarining erkinligi borasida bir qator yirik qadamlar qo‘yilishi yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ijtimoiy tarmoqlarda

mustaqil ommaviy axborot vositasi sifatida blogerlar faoliyatining rivojlanishiga olib keldi. Jamiyat bosma nashrlardan ko‘ra, tezkor va qulay bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlardan axborot qabul qilishga odatlandi. Bu esa busiz ham hukumat ko‘magida yashayotgan bosma nashrlarning ahvolini yanada og‘irlashdi. Bu jarayon butun Respublikamiz singari Xorazm viloyatiga ham xos jarayon edi.

Bundan tashqari, bosma nashrlarning muharrirlari sifatida faoliyat yuritayotgan ijodkorlarning zamonaviy texnologiyalar bilan moslasha olmayotgani, yosh va zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni tizimga faol jalb qilinmayotgani mazkur muammolarning mavjud bo‘lishini yana bir necha yil ta‘minlaydi, deb taxmin qilish mumkin.

Ayrim bosma nashrlarning o‘z faoliyatini modernizatsiya qilishga urinayotganiga ham guvoh bo‘lamiz. Viloyatdagi bir qator gazetalar o‘z faoliyatini электрон сайт 194 shaklda davom etishga harakat etmoqdalar. Jumladan, “Xorazm haqiqati” tahririyatining telegramda ham o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi, “Xorazm ma‘rifati” gazetasi [www.marifatyogdusi.uz](http://www.marifatyogdusi.uz) yoki [www.kuzatuvchi.uz](http://www.kuzatuvchi.uz) saytlari orqali faoliyatini yo‘lga qo‘ygani mazkur urinishlarga misol bo‘la oladi. Biroq bu urinishlar bosma nashrlarning rivojlanishi emas, shunchaki, faoliyat ko‘rsatishga omil bo‘lmoqda, deyish mumkin.

XX asrda yurtimizga kirib kelgan vaqtli matbuot garchi sekin taraqqiyotga erishgan bo‘lsada, mustaqillik yillarida uning rivojiga obyektiv va subyektiv sabablar tufayli to‘siqlar vujudga keldi. Bugungi kunga kelib esa, Respublikamizda bo‘lgani kabi Xorazm viloyatida ham matbuot sohasining rivoji bevosita ijtimoiy tarmoqlar, internetdagi turli platformalar bilan bog‘liq kechar ekan, bosma ommaviy axborot vositalarining taqdiri tizimning mutlaqo zamonaviy ko‘rinishda shakllanishini taqozo etadi.

Bunda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchida, barcha bosma nashrlar mahalliy davlat organlari ta‘minoti va ko‘magidan mutlaqo chiqarilishi, xususiylashtirilishi;

Ikkinchidan, bosma nashrlar faoliyatini zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar mazmun-mohiyatiga moslashtirishi, jamiyatning katta qismi auditoriyasi to‘plangan Instagram, telegram, youtube tarmoq va platformalarida o‘z o‘rnini yaratishi;

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini nodavlat tashkilotlar tomonidan moliyalashtirish tizimining yaratilishi, bunda turli xalqaro grandlar, homiylik mablag‘lariga e‘tibor qaratish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, bosma ommaviy axborot vositalari jamiyatning barcha qatlam va toifalariga mos shaklda axborot yetkazish choralarini ko‘rishi, zamon bilan hamnafas ravishda axborot texnologiyalariga



qisqa muddatda moslashishini davrning o'zi zaruratga aylantirmoqda. Bundan tegishli xulosa qilmagan nashrlar faoliyati to'xtashi tabiiy. Yangi talablarga moslashgan nashrlar esa o'zining yangi davrini boshlash uchun hamma imkoniyatlarga ega bo'la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopediya. Tahrir hay'ati: M.Aminov (mas'ul muharrir) va boshq. – T: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 656 b.
2. Xorazm matbuoti, matbaachilik, noshirlik: tarixi va buguni: Publitsistik maqolalar/ - Xorazm, Ogahiy nashriyoti, 2025. 308-b.
3. O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopediyayu Tahrir hayati: M.Aminov va (mas'ul muharrir) va boshq. – T: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 656 b.
4. Qadamboyev Sh. 1991-2024-yillarda Xorazm viloyati matbuoti faoliyatida samarali mexanizmning yo'lga qo'yilishi. TAMADDUN NURI/THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691 2025-yil, 5-son (68) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 110-113 b.
5. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/4698/9012>

## TARIX

### XORAZMDA O‘ZBEK XONLIGINING BARPO ETILISHI.



**Komron Ilxamov,  
Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
Davlat Universiteti  
talabasi.**

**UO‘K 94(575)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazmda o‘zbek xonligining tashkil topishi, Mo‘g‘ullar davrida bo‘lib tashlangan, Temuriylar davrida Samarqand, Xurosonga bo‘ysungan Xorazm xalqi, Shaybonixon vafotidan so‘ng ozodlik uchun kurash haqida so‘z boradi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается создание Узбекского ханства в Хорезме, народ Хорезма, разделённый в монгольскую эпоху и подчинённый Самарканду и Хорасану в эпоху Тимуридов, а также борьба за свободу после смерти Шайбани-хана.

**Annotation:** This article examines the creation of the Uzbek Khanate in Khorezm, the people of Khorezm, divided during the Mongol era and subjugated to Samarkand and Khorasan during the Timurid era, and the struggle for freedom after the death of Shaybani Khan.

**Kalit so‘zlar:** Vazir, Movarounnahr, Xorazm, Xiva, Munis, Abulg‘ozi, ozodlik, Elbars.

**Ключевые слова:** Визирь, Моваруннахр, Хорезм, Хива, мунисы, Абулгази, свобода, Эльбарс.

**Key words:** Vizier, Movarunnahr, Khorezm, Khiva, munis, Abulgazi, freedom, Elbars.

Mo‘g‘ullar davrida bo‘lib tashlangan, Temuriylar davrida goh Samarqand, goho Xurosonga bo‘ysungan Xorazm ahli ko‘chmanchi o‘zbeklar (1505) va Eron qizilboshlari (1510) bosqiniga duch kelib, Shaybonixon vafotidan so‘ng tez orada ozodlik uchun kurashni boshladi[1].

Xorazm vohasi va uning atroflaridagi hududlarda xalq ozodlik harakati 1511 yilda boshlandi. Vazir shahri ulamolari madad so‘rab Abul Mansur Elbarsxon ibn Berke sulton o‘g‘liga murojaat qildilar. O‘zbeklarning shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan aholi kechasi qizilboshlarni o‘ldira boshladilar. G‘alaba haqida Abulg‘ozi shunday yozadi: “Ulug‘ to‘y qilib, o‘zbek va sart barchasi yig‘ilib, ittifoq bilan tarix to‘qqiz yuz o‘n birda va qo‘y yilinda Elbarsxonni xon ko‘tardilar”[2]. Vazirga qaram Yangi shaharga Bilbars, Tirsakka esa yana bir o‘zbek hokim etib tayinlandi. Elbars va Bilbars Jo‘jining beshinchi o‘g‘li Shaybonning vorisi Arabshoh avlodlaridan bo‘lganligi bois ularning xonlik sulolasi Arabshohlar deb ham nom oldi. Elbarsxon Urganchni egallagach, Dashtda qolgan Yodgorxon avlodlariga xabar yubordi. Bir oz vaqtdan keyin Abulaqxonning bir o‘g‘li va Amnakxonning olti o‘g‘li o‘z tarafdorlari bilan Xorazmga etib keldilar. Ularning yordamiga tayangan Elbarsxon qisqa fursat ichida Xiva, Hazorasp va Kat shaharlarini qo‘lga kiritdi. Keyinchalik u inisi Bilbars qo‘shinlari bilan birgalikda Xurosonning Mahnacha va Durun

hududlariga, shuningdek turkmanlarning Mang‘ishloq kabi joylariga tez-tez yurishlar uyushtirib turdi. Shu tariqa Elbarsxon hukmronligi davrida davlatning siyosiy hududlari shakllanib, janubda Xuroson, shimolda Orol dengizi, g‘arbda Kaspiy dengizi va sharqda Buxoro xonligi bilan chegaralangan. Xorazmga ko‘chib kelib joylasha boshlagan o‘zbek urug‘-qabilalari vakillari turk-mo‘g‘ul an‘analariga tayangan boshqaruv tizimini joriy etib, xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsata boshladilar. Shu davrda o‘z hududlarini kengaytirish hamda daromadliroq mulklarni qo‘lga kiritishga intilayotgan o‘zbek sultonlari o‘rtasidagi raqobat kuchaydi. Bunga esa udel-mulk tizimining salbiy tomonlari sabab bo‘lib, u sultonlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashning avj olishiga olib keldi.

Akademik Ya.G‘ulomov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, boshqaruvning udel tizimi birlashishga yordam berish o‘rniga Xorazmdek hosildor mamlakat xo‘jaligining tushkinlikka uchrashiga olib kelgan edi[3].

1516 – yilga kelib Elbarsxon vafot etgach, uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt va mansab uchun kurash boshlanadi. Shu davrda Yodgorxonning nabiralari ichida Berkening o‘g‘li Sultonhoji eng katta yoshli hisoblangan. Shu sababli uni Vazir shahriga olib kelib, xon sifatida taxtga ko‘taradilar.

Lekin Sultonhojining qo‘shini kam bo‘lgani sababli u atrofdagi dushmanlariga jiddiy zarba bera olmaydi. U vafot etgandan keyin esa taxtga Hasanquli chiqadi. Yangi xon davrida xonlik markazi avvalgidek Vazirda emas, balki Urganch shahrida joylashadi. Shu vaqtgacha Urganchda ark mavjud bo‘lmagan. Keyinchalik Eshsulton nomli amaldor shahar uchun ark qurdirgan. Oradan biroz vaqt o‘tgach, barcha o‘zbek sultonlari Urganchga xujum uyushtirib, qamal qildilar. “Urganch ulug‘ shahar,— deb yozgandi Abulg‘ozi. — Tez-o‘q qahatlik bo‘la qoldi. Bir eshakning kallasi qirq-ellik tanga bo‘ldi, topilmadi”[4]. Munis va Ogahiy asarlarida keltirilishicha 1522 yilda So‘fiyonxon vafot qilgach, Urganchdagi xon taxtiga Buchg‘axonni keltirib o‘tqazdilar. Uning davrida Buxoro xonligi lashkarlarining Eron hududlariga ko‘plab yurish qilganligi sababli Eron shohi Tahmosp Buchg‘axon bilan yaqin qarindosh tutinish uchun uning akasi So‘fiyonning Oyshabegi ismli bo‘yi etgan qiziga uylandi. Bu Eron va Xorazm o‘rtasidagi munosabatni yaxshiladi[5].

Xorazm xonligiga asos solingan tarixiy sana haqida taniqli olimlar o‘z fikrlarini bildirganlar. Xususan, akademik V.V.Bartold “Xorazm xonligiga asos solinishi, aftidan 1511 yilga to‘g‘ri keladi”[6], — deb yozgandi. Akademik Ya.G‘ulomov esa “Elbarsxonning Xorazmshox qilib tayinlanishiga Shayboniyxonning o‘limidan keyin muvaffaq bo‘lindi va bu voqea 1511 yoki 1512 yilda sodir bo‘lgan deb qaralishi lozim”,— deb ta’kidlagandi. Xiva

shahrining xonlik markaziga aylangan sanasi haqida turlicha fikr va xulosalarni asoslashga intiladilar.

Ushbu masalaga birinchilar qatorida e'tibor qaratgan olimlardan biri akademik Ya.G'ulomov hisoblanadi. U fan nomzodi vaqtida, ya'ni 1941 yilda nashr qildirgan maqolasida Munis Xorazmiyning Do'stxon "Poytaxt shahar Xivada birinchi bo'lib taxtga o'tirgan kishi"<sup>2</sup> degan fikrlariga tayangan holda "1556 yilda Do'stxon Bo'chg'axon o'g'li Xiva shahrini o'zining poytaxti qildi"<sup>3</sup>, — deb yozgandi. Ushbu xulosaning shakllanishiga balki Abulg'azi Bahodirxonning "Bo'chg'axonning o'g'lonlari Esh, Do'st va Buram Hevaq, Hazorasp va Katda bo'ldi. Do'stni xon ko'tardilar. Faqir va nihol kishi erdi. ...Esh sultonning xotiri uchun akasi Do'stni xon qildilar", — degan so'zlari ham ta'sir o'tkazgan bo'lsa ajab emas.

Xiva shahri va uning atrofidagi erlar Polvonyop arig'i orqali suv bilan ta'minlangani sababli bu hududda xon saroyi hamda boshqa mustahkam binolar qurilishi davom ettirildi. Shaharda hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari tobora rivojlana boshladi. 1616 yilda Arab Muhammadxon Xorazm xonligi poytaxti Gurganchdan Xivaga ko'chirilgani munosabati bilan katta madrasa qurdirdi. Xorazm vohasida xalq ozodlik harakati kuchaygan bir davrda shakllangan xonlikning mustahkamlanishi juda murakkab siyosiy sharoitga to'g'ri kelgan. Yangi davlatni boshqargan arboblardan va ularning avlodlari o'rtasidagi doimiy ixtiloflar kuchayib borayotgan bir paytda, Movarounnahrda eng qudratli davlat sifatida tan olingan Buxoro xonligi bilan munosabatlar ham ancha taranglashgan. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarga sabab bo'lib, minglab odamlarning hayotiga fojiali ta'sir ko'rsatgan.

Xorazmga ko'chib kelib, soni tobora ko'payib borayotgan o'zbek urug'lari o'rtasidagi ziddiyatlar mahalliy aholi — sartlar va turkmanlar o'rtasidagi munosabatlarga ham salbiy ta'sir qilgan. Amudaryo irmoqlari atrofida joylashgan o'troq aholi dehqonchilik bilan shug'ullanib, bog'lar va bug'doyzorlar barpo etgan bo'lsa, asosan chorvachilik bilan kun kechirgan ko'chmanchilarning turmush tarzi, urf-odatlar va hayot kechirish usuli yangi etnik muhitning shakllanishiga turtki bergan.

Xiva xonligining dastlabki qariyb bir asrlik davrida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish jarayonida muayyan boshqaruv tajribasi to'plandi. Shu tajribaga tayangan holda Xorazm vohasi va unga tutash hududlarda markazlashgan boshqaruvni kuchaytirish hamda davlatchilik asoslarini mustahkamlash uchun zarur sharoit vujudga kela boshladi. Bu jarayon, avvalo, yirik va nufuzli davlat arboblarning siyosiy sahnaga chiqishi orqali namoyon bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. — Toshkent Fan, 1960. – B. 6.
- [2]. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. — Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 121.
- [3] Гулямов Я. История орошения Хорезма ... – С. 190-191.
- [4] Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. — Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.125.
- [5]. Фирдавс ал-Икбал. Сочинение Муниса и Агахи. // МИТТ.— Т. ИИ. – С. 325
- [6]. Бартолд В.В. Очерк истории туркменского народа // Сочинение. — Т. ИИ. —Ч. И. — М.: Наука, 1963. –С. 596



**TARIX****IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA  
MADANIYAT SOHALARI FAOLIYATIGA TEGISHLI  
MAQOLALARNI GAZETA SAHIFALARIDA YORITILISHI.**

**Jumaniyazova Firuza  
Jumanazarovna,  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi Ijtimoiy-  
gumanitar fanlar  
bo'limi katta ilmiy  
xodimi, tarix fanlari  
bo'yicha falsafa doktori  
(PhD).**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatida madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli bo'lgan maqolalarni gazeta sahifalarida yoritilishi, ushbu materiallarni mehnatkashlarga yetkazishda viloyat davriy matbuotining ahamiyati, teatrlar repertuarlari e'lonlari, san'atkorlarning front orti dasturlari, shoirlarning vatan uchun kurashga chorlovchi she'rlari davriy nashrlar sahifalarida berilgan maqolalarni tahlil qilish orqali yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется освещение в газетах материалов, касающихся деятельности культурной сферы Хорезмского региона во время Второй мировой войны, значение региональной периодической прессы в донесении этих материалов до рабочих, анонсы театрального репертуара, фронтовые программы артистов и стихи поэтов, призывающие к борьбе за Родину, на основе анализа статей, опубликованных в периодических изданиях.

**Annotation:** the article analyzes the coverage of articles related to the activities of cultural spheres in the Khorezm region during the Second World War in the pages of newspapers, the importance of the regional periodical press in bringing these materials to the workers, theater repertoire announcements, front-line programs of artists, and poets' poems calling for the fight for the homeland by analyzing the articles published in the pages of periodicals.

**Kalit so'zlar:** davriy matbuot, Xorazm haqiqati, teatr repertuari, truppa, aktyor, aktrisa, kolxoz teatrlari, shoir, san'atkor, front orti dasturlari..

**Ключевые слова:** периодическая пресса, Хорезмская правда, театральный репертуар, труппа, актёр, актриса, театры колхозов, поэт, артист, фронтовые программы..

**Key words:** periodical press, Khorezm truth, theater repertoire, troupe, actor, actress, collective farm theaters, poet, artist, front-line programs.

Ikkinchi jahon urushi davrida viloyatda madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni yoritishda viloyat davriy matbuotining ahamiyati juda katta bo'ldi. Urush yillariga kelib radio va gazetalar urush frontlarida va front ortida bo'layotgan voqealarni aholiga yetkazib berayotgan edi. Bu davrga kelib

madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli materiallarni aks ettiruvchi maqolalar gazetalar ruknlarida berilib borildi.

Urushning mashaqqatli yillarida viloyat madaniy hayotida teatr, musiqa va raqs san'ati, she'riyatning o'rni alohida bo'lib, aholini ruhiyatini ko'tarishda, ularni g'alabaga bo'lgan ishonchini orttirishda, shuningdek, frontda askarlarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etishda, front orti qiyinchiliklarini yengishda asosiy vosita bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatida madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli maqolalarni gazeta sahifalarida yoritilishiga oid bir qancha qisqa ma'lumotlar keltirilgan maqolalar nashr qilindi. Ularda asosan teatr truppalari, san'atkorlarning front va front orti mehnatkashlari uchun uyushtirilgan ko'ngilochar dasturlari keltirilgan materiallar yoritildi. Jumladan, D. Bekchonova ma'sul muharrirligida chop qilingan "Xorazm matbuoti, matbaachilik, noshirlik: tarixi va buguni" nomli maqollar to'plamidan iborat monografiyada viloyat va tuman gazetalar faoliyati va ularning nomlarini yillar davomida o'zgarib borishi kabi masalalar berilgan bo'lsa, tadqiqotchi D. Atamurotovaning maqolalarida gazeta ishi, gazetalarda chop qilingan maqolalar bo'yicha qisqacha materiallar berilgan edi[1, b.83-94].

1941-1945-yillarda Xorazm viloyatida madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli bo'lgan materiallarni yoritish bo'yicha viloyatda chop qilingan gazetalar va ularning ruknlarida keltirilgan maqolalar tarixiy-qiyosiy tahlil metoddan foydalangan holda o'rganildi.

Ikkinchi jahon urushi davriga kelib viloyatda bir qancha teatr truppalari tashkil qilindi. Ushbu truppalar urush bo'layotgan hududlarga borib o'z san'atlarini askarlarga taqdim qilgan bo'lsa, kichik kichik yangi tashkil qilingan teatr jamoalari esa front ortida ishlayotgan mehnatkash aholiga respublika bo'ylab turli tomoshalarni tashkil qilishdi.

Urush yillarida teart truppalarining repertuarlari viloyatda nashr qilinayotgan ikkita viloyat va yettita tuman gazetalar ruknlarida e'lon qilinib borildi. Bundan

tashqari shoirlarning she'rlari, san'atkorlar va raqqosalarning hayoti va faoliyatiga oid bo'lgan materiallar ham gazeta sahifalarida berib borildi.

Ikkinchi jahon urushi yillariga kelib viloyat davriy matbuoti ham o'z faoliyati jarayonini davr talabiga moslagan holda front va front orti hayotini yoritishga qaratgan edi. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda viloyat gazetasidagi maqolalar arab va lotin grafikasiga asoslangan yozuvda chop qilingan. 1939-yildan boshlab esa gazetalaridagi materiallar kirill alifbosi asosida o'zbek va rus tillarida chop qilingan [2, b.225]. Tuman gazetalaridagi materiallar esa kirill alifbosida o'zbek tilida nashr qilingan.

Gazetaning oldingi varag'ida harakatdagi armiya haqida ma'lumotlar, qahramonlarning foto suratlari, ikkinchi varaqda urushga ketgan erkaklar o'rnini egallagan xotin-qizlarning kasb o'rganishga jalb qilinganligi, artellardagi ish faoliyati, traktorchilik, hamshiralik va o'qituvchilik kurslarida tahsil olayotgan xotin-qizlar to'g'risida doimiy ravishda materiallar berib borilgan. Ayrim paytlarda gazetaning birinchi varag'ida front orti yangiliklari ham yoritilgan. Gazetalarda beriladigan maqolalar mavsum bilan ham bog'liq bo'lgan. Masalan, bahor payti ekin ekish, yer shudgorlash kabi masalalar yoritilgan bo'lsa, kuzda paxta yig'im-terimiga ko'proq e'tibor qaratilgan maqolalar berilgan, qishda esa yerni shudgorlash, go'nglash, bahorga ekish uchun tayyorlash kabi materiallarga e'tibor qaratilgan[2, b.226].

Urushning dastlabki yillarida viloyatda mavjud teatrlar qayta tashkil etilgan. 1940-yilga kelib, viloyatda ikkita Gurlan va Xonqa tumanlarida tumanlararo teatrlar tuzilgan[3, b.3]. Mavjud teatrlarning aktyor va aktrisalari respublika bo'ylab gastrol safarlari uyushtirib turishgan. Ularda yangi iste'dodlar o'z faoliyati olib borishgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm haqiqati gazetasida madaniy hayotni aks ettiruvchi o'n bitta maqola berildi. R. Boyjonovanning "O'singiz, olg'a bosingiz" nomli maqolasida 1940-yilda o'z faoliyatini qayta tashkil etgan Xorazm viloyati musiqali – drama teatri faoliyati aks ettirildi[4]. B.Do'smatovning "San'at xodimlari ko'klam xizmatida", "Kolxozda konsert" [5], A.Nurillaning

“Nurxon” – Xorazm viloyati musiqa – drama teatri[6], Rabinovichning “Mudofaa kino festevali: Xorazm viloyati[7], E.Rahimning “Agitkonsert brigadasi paxtakorlarga samarali xizmat qilmoqda”, “Tomoshabinlarga xurmatsizlik”, “Tohir va Zuhra”[8], “V.Fayozovning “O‘z san’atimiz bilan xizmat qilamiz”, “Xotin – qizlar ansambli Urganchda” [9], M.Xudoyberganovning “Qurbon Umarov” nomli maqolalarida urush yillarida Xorazm viloyati teatr jamoasi faoliyati, repertuarlari, sahnalashtirilgan asarlar va ijrochi aktyorlar haqida ma’lumotlar yoritib borildi [10].

1941-yilda viloyat davlat musiqali – drama teatrida “Farxod va Shirin”, “Maysaraning ishi”, “Arshin mol-olon” pesalari, 1942-yilda “Qo‘chqor Turdiev”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Front” pesalari, “Qurbon Umarov”, “Xolisxon” postanovkalari tomoshabinlarga taqdim qilindi[11].

1943-yilga kelib viloyat gazetasida kinoteatrda qanday filmlar qo‘yilayotgani e’loni berib borilgan. Bu davrga kelib viloyatda kinoteatrlar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan. Tumanlarda kinoteatrlar yo‘qligi sababli ko‘chma kino orqali ovozsiz filmlar namoyish qilingan. 1944-yilda “Nasriddin Buxoroda” nomli film namoyish etilgan. 1945-yilda esa “Jaloliddin”, “Ko‘k dastro‘mol” pesalari, “Nasriddin Afandi” komediyasi namoyish qilingan[12].

Urush yillarida shoirlar ijodi ham davriy matbuot materiallarida berib borilgan edi. Shoirlardan E.Rahim, Qurbon ota Ismoilov, R.Zufariy, Q.Kamoliy, Q.Nazariy, O.Sherjonov, Partav, Q.Qurbonniyozovlarning urushga qarshi vatanparvarlik ruhidagi she’rlari gazetalarda nashr etildi[13]. Ushbu she’rlarda vatan madhi, frontlardagi askarlarning jasoratlari, front ortidagi mehnatkashlarning g‘alaba sari olg‘a intilishi, paxta planlarining bajarilishi va shu kabi urush davrining dolzarb masalalar yoritildi. Gazeta sahifalarida viloyatdagi har bir ijodkor shoirning she’ri berib borildi. Shuningdek, shoirlar front orti birigadalari tarkibida ham san’atkorlar bilan birga xizmat qilishdi. Jumladan, Qurbon ota Ismoilovning deklomatsiyalaridan “Gitler govarit”, “Мы otvechaem”,

“Bo‘yningga sirtmoq solamiz” kabilar juda mashxur bo‘lgan. Qurbon ota Ismoilov zo‘r ishtiyoq bilan mehnatkashlarga deklomatsiyalarni aytib bergan.

Urush yillarida o‘zbek adabiyoti, ayniqsa xalq og‘zaki ijodi ancha rivojlandi. Shu davrda yangi xalq qo‘shiqlari yaratildi. Jumladan, “Inim kelur shod bo‘lib”, “Gitler degan bir bo‘ri”, “Gitlerga nafrat”, “Qiz va yigit maktubi” kabilar gazetalar sahifalaridan o‘rin oldi. Urush yillarida mehnatkash xalq ommasiga agitatorlar orqali har kuni gazeta sahifalaridagi maqolalar o‘qib eshittirilar edi. Bu ularga ma‘naviy ozuqa va ko‘tarinki ruh baxshida etar edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida davriy matbuotning o‘rni shu darajada ahamiyatga ega bo‘ldiki, gazetalar tarhibotchilik funksiyasini bajaribgina qolmay, front va front ortidagi aholi o‘rtasida vositachi hamda mehnatkashlarni g‘alaba sari shaxdam qadam tashlashlariga kuch berdi.

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati madaniy hayotini yoritishda davriy matbuotning o‘rni va ahamiyati katta bo‘ldi. Davriy matbuot sahifalarida e‘lonlar, artistlarning respublika bo‘ylab qilgan gastrollari, teatrlarda sahnalashtirilgan asarlar va aktyorlar, ko‘chma teatr jamoalari, ko‘chma kinoteatrlar faoliyatini yoritishga alohida e‘tibor berildi. Bu esa o‘z navbatida mahalliy aholini g‘alabaga bo‘lgan intilishini kuchaytirdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida viloyatda chop qilingan to‘qqizta gazetalar front va front ortidagi mehnatkashlarga ma‘naviy ozuqa berishga xizmat qildi. Gazetalar sahifalarida urush frontlari va front ortida bo‘layotgan kundalik voqeahodisalar kunma-kun, sanama sana yoritib borildi. Bu esa o‘z navbatida mehnatkash aholini ruhlantirib, urushda qozonilgan g‘alabani ta‘minlashga xizmat qildi.

#### **Adabiyotlar ro‘yhati.**

1. Bekchonova D. Xorazm matbuoti, matbaachilik, noshirlik: tarixi va buguni. – Xorazm. Ogahiy nashriyoti. 2025. – B.83-94.

2. Jumaniyazova F.J. Xorazmliklarning front orti hayotini yoritishda “Xorazm haqiqati” gazetasining o‘rni // TAMADDUN NURI /THE LIGHT OF



CIVILIZATION ISSN 2181-8258IF-9.347DOI10.69691. 2025-yil,4-son (67)

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 225-228-b.

3. Xorezmskaya pravda. Kolxozno-sovхозnie teatri v 1940 godu. №20. 25 yanvarya 1941 g. – S. 3.
4. Xorazm haqiqati. 1942 yil 1-yanvar.
5. Xorazm haqiqati. 1942 yil 2-dekabr.
6. Xorazm haqiqati. 1944 yil 19-fevral.
7. Xorazm haqiqati. 1942 yil 17-yanvar.
8. Xorazm haqiqati. 1944 yil 7-iyun.
9. Xorazm haqiqati. 1942 yil 19-aprel.
10. Xorazm haqiqati. 1942 yil 30-iyun.
11. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-622, op-1, d-17, v-154
12. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-346, op-1, d-17, v-154
13. Xorazm viloyati davlat arxivi. F-622, op-, d-17, v-116

**TARIX****XORAZMDA TARIXIY JARAYONLAR VA DAVLATCHILIKKA  
OID MULOHAZALAR (1917–1924-YILLAR)**

**Rajabova Dinora  
Shavkatovna,  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi katta ilmiy  
xodimi, PhD.**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Maqolada 1917–1924 yillarda Xorazmda yuz bergan ijtimoiy siyosiy hamda iqtisodiy jarayonlar tarixshunoslik va arxiv manbalari asosida tahlil qilinadi. Xiva xonligi hokimiyat institutlarining transformatsiyasi, “Yosh xivaliklar” harakati faoliyati, tashqi siyosiy omil va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining shakllanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Аннотация:** В статье на основе широкого круга историографических и архивных источников анализируются социально политические и экономические процессы в Хорезме в 1917–1924 гг. Особое внимание уделяется трансформации институтов ханской власти, деятельности младохивинского движения, роли внешнего фактора и специфике формирования Хорезмской Народной Советской Республики (ХНСР).

**Annotation:** The article examines socio political and economic developments in Khorezm during the revolutions and the Civil War of 1917–1924, drawing on historiographical studies and archival materials. Particular attention is paid to the transformation of the khanate institutions, the activities of the Young Khivans movement, external political influence, and the establishment of the Khorezm People's Soviet Republic (KPSR).

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Xiva xonligi, 1917 yil inqiloblari, fuqarolar urushi, XXSR, yosh xivaliklar, sovetlashtirish.

**Ключевые слова:** Хорезм, Хивинское ханство, революции 1917 года, Гражданская война, ХНСР, младохивинцы, советизация Средней Азии.

**Key words:** Khorezm, Khiva Khanate, Russian revolutions of 1917, Civil War, Khorezm People's Soviet Republic, Sovietization, Central Asia.

1917–1924-yillar Xorazm tarixida an'anaviy xonlik davlatchiligidan sovet tizimiga kiritilgan yangi shakldagi siyosiy tashkilotga o'tishni anglatuvchi burilish davri bo'ldi. Inqilobiy voqealar va Fuqarolar urushi siyosiy kuchlar nisbatini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini va iqtisodiy munosabatlar xarakterini tubdan o'zgartirib yubordi.

Tadqiqotning dolzarbligi O'rta Osiyoni sovetlashtirish jarayonida mintaqaviy omillarning rolini qayta anglash zarurati bilan belgilanadi. Markazdan farqli o'laroq, Xorazmdagi inqilobiy o'zgarishlar kuchli an'anaviy institutlar, diniy ta'sir va xon hokimiyatining nisbiy avtonomiyasi sharoitida kechdi.

Tarixshunosligi: Birinchi bosqich (1920–1950-yillar) sovet mualliflarining mehnatlari bilan ifodalanadi. Ularda Xorazmdagi voqealar asosan sinfiy kurash va Qizil Armiyaning «ozodlik missiyasi» konsepsiyasi doirasida talqin qilingan. Bunday yondashuv O‘zbekiston xalqlari tarixi bo‘yicha umumlashtiruvchi nashrlar uchun xos bo‘lib, unda inqilobiy voqealar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining qonuniy yakuni sifatida qaralgan [5].

Ikkinchi bosqich (1960–1980-yillar) manbalar bazasining kengayishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning yanada muvozanatli tahlil qilinishi bilan bog‘liq. Xiva xonligi va Xorazm tarixini o‘rganishga V. V. Bartold salmoqli hissa qo‘shgan. U mintaqani murakkab hokimiyat tizimiga va barqaror an‘anaviy institutlarga ega bo‘lgan alohida tarixiy-madaniy makon sifatida ko‘rib chiqqan [3]. Uning xulosalari XX asr boshlarigacha xon hokimiyatining barqarorlik sabablarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Tarixshunoslikning zamonaviy bosqichi (1990-yillardan boshlab) sovet merosini qayta baholash va fanlararo yondashuvlardan faol foydalanish bilan tavsiflanadi. S. N. Abashin sovet ma‘muriy amaliyotlarining O‘rta Osiyo an‘anaviy jamiyati bilan o‘zaro ta‘siriga e‘tibor qaratib, ko‘plab islohotlarning moslashuvchan xarakterga ega ekanligini ta‘kidlaydi [1]. A. Xolidning ishlarida Xorazm va unga tutash hududlardagi inqilobiy jarayonlar milliy davlatchilik qurilishi va imperiyaviy meros kontekstida tahlil qilinadi, bu esa sovetlashtirishni murakkab va noaniq jarayon sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi [7].

Shunday qilib, zamonaviy tarixshunoslik bir tomonlama baholardan voz kechmoqda va 1917–1924-yillardagi Xorazm voqealarini ichki islohotchilik moyilliklari hamda tashqi siyosiy ta‘sirlarning o‘zaro ta‘siri natijasi sifatida o‘rganmoqda.

Tadqiqotning manbalar bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA)ning nashr etilmagan materiallari, birinchi navbatda, Xiva xonligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hokimiyat organlari faoliyatini aks ettiruvchi fondlar hujjatlari tashkil etadi. Xususan, Muvaqqat inqilobiy qo‘mita qarorlari, mahalliy boshqaruv organlarining yozishmalari va RSFSR vakillarining hisobotlaridan foydalanilgan.

Masalan, 1920-yildagi arxiv hujjatlaridan birida «Xorazmda hokimiyat almashinuvi mahalliy zodagonlar va ruhoniylarning qarshiligi bilan bog‘liq jiddiy qiyinchiliklar ostida kechgani» qayd etilgan [10].

Boshqa bir manbada esa «yangi boshqaruv organlari aholi bilan ochiq nizolardan qochish uchun mahalliy urf-odatlar va normalarni hisobga olishga majbur bo‘lganliklari» ta‘kidlangan [9].

Tadqiqotning metodologik asosini tarixizm va ilmiy xolislik tamoyillari, shuningdek, inqilobiy jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi qiyosiy-tarixiy va muammoli-xronologik metodlar tashkil etadi.

1917-yilgi Fevral inqilobi xon hokimiyatiga qarshi muxolif kuchlarning, birinchi navbatda, xon hokimiyatini cheklash va islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lgan "Yosh xivaliklar"ning faollashuviga turtki berdi. 1917 yil 25 oktabrdagi siyosiy voqelik bolsheviklar g'oyalarining ta'sirini kuchaytirdi, biroq ularning mahalliy sharoitlarga moslashuvi qiyin kechdi.

Xiva xonligida ichki siyosiy kurash keskinlashgan davrda Asfandiyorxon turkman qabilalariga qarshi kurashda rus hokimiyatidan yordam olishga harakat qildi. Biroq, shahar Junaydxon tomonidan egallangan vaqtda tashqi yordam poytaxtga yetib kelishga ulgurmagan edi. Vaqt yutish va jonini saqlab qolish maqsadida Asfandiyorxon Junaydxonga o'zining qutqarilishi evaziga katta miqdorda pul taklif qildi. Junaydxon xonni tirik qoldirishga rozi bo'ldi, biroq ayni paytda uni «to'g'ri yo'ldan ozdirganlikda» ayblagan vazirlarini jazolashga qaror qildi.

Jazolanishi kerak bo'lgan shaxslar ro'yxatiga Abdullajon Mirzaboshi, Muhammad Vafo karvonboshi va Ashir maxram kiritilgan edi. Ashir maxram qochib qolishga muvaffaq bo'lgani sababli, Asfandiyorxon uning o'rniga boshqa bir maxram — Qurbonberganini jazolashni taklif qildi. Uchala vazir otga mindirilib, Kumyaska darvozasi tomon olib ketildi va u yerda yechintirilib, otib tashlandi. Ushbu voqealarni shaxsan kuzatgan Abdulla Baltaevning guvohligiga ko'ra, bu qotillik haqiqatan ham sodir bo'lgan [4].

Mazkur epizod an'anaviy davlatchilik inqirozi davrida Xiva xonligidagi siyosiy bosim va muxolif shaxslarni yo'q qilish usullarini ochib beradi hamda hokimiyat uchun kurash ma'muriy elita vakillariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik bilan hamrohlik qilganini ko'rsatadi.

Xiva xonligidagi vaziyat ham murakkab edi. Asfandiyorxon mamlakatdagi keskinlashgan siyosiy vaziyat oldida o'z hokimiyatining zaifligini his etib, 1918-yil 22-yanvarda Junaydxonga xonlikni birgalikda boshqarish va bolsheviklarga qarshi kurash olib borishni taklif qildi. Junaydxon 1917-yil sentyabrda Erondan Xivaga qaytib kelgan edi [2]. Junaydxon poytaxtga yetib kelgach, Asfandiyorxon uni qo'shinlar qo'mondoni (sardori karim) etib tayinladi va mamlakatdagi barcha hokimiyatni to'laligicha unga topshirdi [8]. Biroq Asfandiyorxon taxtda uzoq o'tirmadi. Ko'p o'tmay, u Junaydxonning buyrug'i bilan bir necha yaqin odamlari bilan birga o'ldirildi. Junaydxon taxtga o'tirmadi, aksincha, an'anaga sodiq qolgan holda, taxtga (marhum xonning akasi) Said Abdullaxonni o'tqazdi, o'zi esa mamlakatning haqiqiy hukmdori bo'lib qolaverdi. Turkiston Muxtor Respublikasi, xususan, uning Amudaryo bo'limi bilan Junaydxon o'rtasidagi

qurolli to‘qnashuvlar muttasil kuchayib bordi. Turkiston Muxtor Respublikasi va uning Amudaryo bo‘limi Xiva xonligining ichki ishlariga muntazam aralashib, u yerga Naumov, Leyggold, Konoplyov va boshqalar boshchiligidagi jazo otryadlarini yuborib turdilar, ular mamlakatning tinch aholisini taladilar [6].

Tavsiflangan voqealar 1917–1918-yillardagi inqilobiy jarayonlar sharoitida Xiva xonligi an’anaviy davlatchiligining inqirozini yaqqol aks ettiradi. Asfandiyorxon tomonidan butun hokimiyatning Junaydxonga topshirilishi xon hokimiyatining zaifligidan va mavjud institutlarning yangi siyosiy chaqiriqlarga mustaqil javob bera olmasligidan dalolat beradi. Xon taxtining rasman saqlab qolingan holda Asfandiyorxonning o‘ldirilishi monarxiya tizimining hokimiyatning tashqi atributlarini saqlab qolgan, ammo haqiqiy boshqaruvni yo‘qotgan fiktiv (soxta) institutga aylanganligini ko‘rsatadi 8. Turkiston Muxtor Respublikasi va uning Amudaryo bo‘limining doimiy aralashuvi ichki vaziyatning beqarorlashuvini tezlashtirdi va Xiva xonligining qolgan suverenitetiga putur yetkazdi, bu esa siyosiy kurashning radikallashuviga hamda Xorazmda an’anaviy davlatchilikning keyinchalik demontaj (tugatilish) qilinishi uchun zamin tayyorlashga xizmat qildi 6.

Umuman olganda, 1917–1918-yillardagi voqealarni ichki tarkibiy ziddiyatlar va tashqi bosimning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan Xorazm an’anaviy davlatchiligi inqilobiy inqirozining asosiy bosqichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Xorazmdagi inqilobiy o‘zgarishlar nomutanosis xarakterga ega bo‘lgan. Sovet hokimiyati mahalliy urf-odatlar va elitarni hisobga olishga majbur bo‘ldi, bu esa Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) siyosiy institutlarining o‘ziga xosligini belgilab berdi. Shu bilan birga, davom etayotgan qarshilik va iqtisodiy qiyinchiliklar mintaqaning sovet tizimiga to‘liq integratsiya qilinmaganligidan dalolat beradi.

1917–1924-yillardagi inqilobiy voqealar va Fuqarolar urushi Xorazm mintaqasi tarixiy taraqqiyot yo‘lini tubdan o‘zgartirib yuborgan hal qiluvchi burilish nuqtasi bo‘ldi. Xiva xonligi an’anaviy davlatchiligining inqirozi, hokimiyatning markazsizlashuvi va siyosiy elitalar o‘rtasidagi keskin kurash sharoitida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining (XXSR) barpo etilishi xonlik boshqaruv tizimining demontaj qilinishida asosiy bosqich vazifasini o‘tadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sovet modelidagi boshqaruv shakllarining joriy etilishi oddiy va bir qolipdagi jarayon bo‘lmagan. U mahalliy an’anaviy institutlar, kuchli diniy ta’sir va mintaqaviy o‘ziga xosliklar bilan to‘qnashuvda kechdi. Sovet hokimiyati o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun dastlabki bosqichlarda mahalliy urf-odatlar hamda mavjud elitalar bilan



hisoblashishga majbur bo'ldi, bu esa XXSR davrida shakllangan siyosiy institutlarning o'ziga xos, o'tish davriga xos xususiyatlarini belgilab berdi.

Biroq, bu o'zgarishlar mintaqa hayotida chuqur ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Iqtisodiy qiyinchiliklar, tashqi siyosiy bosimlar va quruq ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan siyosat hududning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Natijada, an'anaviy jamiyat asoslari yemirilishi bilan birga, mintaqaning sovet tizimiga to'liq integratsiyasi ham uzoq va murakkab kechdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абашин С. Н. Советская власть и традиционное общество в Средней Азии. — Москва: РОССПЭН, 2010. — 368 с.
2. «Асхабад». 1917. 22 сентябрь.
3. Бартольд В. В. Сочинения: в 9 т. Т. IX. — Москва: Наука, 1977. — 712 с.
4. Балтаев А. Рукопись. Тетрадь 51, личный архив О.Абдуллаева, лист-2; Абдуллаев Комил. Нақшларга битилган умр: (Абдулла Балтаевнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти). — Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995. — 48 б.
5. История народов Узбекистана: в 3 т. Т. 3. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. — 640 с.
6. Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? Вторжение? Событие в Хивинском ханстве (1919-1920гг.) – Нукус, 1997. С 3-4.
7. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. — Ithaca; London: Cornell University Press, 2015. — 392 p.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. Т. III. Т. 1967, С 277-278.
9. ЦГА РУз. Ф. 1. Оп. 3. Д. 58. Л. 12
10. ЦГА РУз. Ф. 17. Оп. 1. Д. 24.

## TARIX

### ILK SAK- MASSAGET KO'CHMANCHI XALQLARINING TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI.

**Abdullayeva Mohira,  
Urganch davlat  
universiteti Tarix  
mutaxassisligi  
magistranti.**

**UO'K 94(575)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'rta Osiyodagi ilk ko'chmanchi xalqlar – sak va massaget qabilalarining tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini tahlil qiladi. Maqolada qadimgi yozma manbalar (Gerodot, Strabon, Arrian, Avesto, fors bitiklari) hamda arxeologik dalillar asosida sak va massagetlarning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi, oilaviy munosabatlari va harbiy boshqaruvi yoritilgan. Etimologik tahlillar ularning kuchli, ishbilarmon va qudratli xususiyatlarini ko'rsatadi.

**Аннотация:** Статья посвящена историческому, социальному и культурному анализу первых кочевых народов Центральной Азии — саков и массагетов. В работе на основе древних письменных источников (Геродот, Страбон, Арриан, Авеста, персидские надписи) и археологических данных рассматриваются образ жизни, социальное устройство, семейные отношения и военная деятельность саков и массагетов. Этимологический анализ подтверждает их сильные, деятельные и могущественные качества.

**Annotation:** This article analyzes the historical, social, and cultural aspects of the first nomadic peoples of Central Asia - the Saka and Massagetae. Based on ancient written sources (Herodotus, Strabo, Arrian, Avesta, Persian inscriptions) and archaeological evidence, the study examines their lifestyle, social structure, family relations, and military activities. Etymological analysis highlights their strength, industriousness, and power.

**Kalit so'zlar:** saka, massagetlar, Rigveda, tarixiy manbalar, ijtimoiy tuzum, madaniyat, arxeologiya.

**Ключевые слова:** скифы, массагеты, Ригведа, исторические источники, социальное устройство, культура, археология.

**Key words:** Saka, massagetae, Rigveda, historical sources, social structure, culture, archaeology.

Insoniyat tarixida ko'chmanchi xalqlar alohida o'rin egallagan bo'lib, bunda dasht va cho'l hududlarida yashab, o'ziga xos turmush tarzi, harbiy san'ati, madaniyati hamda ijtimoiy tuzumi bilan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ilk sak-massaget ko'chmanchi qabilalari O'rta Osiyo hududlarida shakllanib, qadimgi davr tarixida sezirarli iz qoldirgan.

Sak va massagetlar haqidagi ma'lumotlar asosan qadimgi yozma manbalarda uchraydi. Misol tariqasida, yunon tarixchisi Gerodot mashhur asari – “Tarix”, Strabon, Arrian, Pompey Trog kabi tarixchilar -massagetlar turmushi, urf-odatları va ularning Kir II bilan bo'lgan janglari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, saklar haqida qadimgi fors bitiklari, xususan Doro I ning Behistun yozuvlarida ham muhim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu manbalar orqali ilk sak-massaget qabilalarining siyosiy hayoti, harbiy yurishlari, diniy qarashlari va ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumotlar mavjud.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – ilk sak-massaget ko'chmanchi xalqlarining tarixiy manbalarda aks etishini tahlil qilish, yozma va arxeologik dalillar asosida ularning tarixiy qiyofasini yoritib berishdan iboratdir.

Wilhelm Geiger, Josef Markwart, Genrik Samuel Nyberg va Vasily Abayevlar “Avesto”da uchraydigan “tur” – bu O'rta Osiyo sak qabilalaridan biri degan yakuniy to'xtamga kelishgan. V.I. Abayevning fikricha, “danay turlari” – bu Sirdaryo bo'yi saklaridir [6]. Saklar haqida ma'lumotlarni qadimgi fors manbalarida ham uchratamiz. Gerodotning ta'kidlashicha: “Saklar – bular skiflar”dir (VII; 64).

Sak so'zining etimologiyasi haqida turli g'oyalar mavjud. Bu borada Harold Walter Bailey 1958-yilda tanqidiy fikr bildirib, “sak”ning dastlabki ma'nosi yo'qolganini, saka-sak shaklida “kuchli”, “ishbilarmon (uddaburon)” degan ma'noga ega ekanini ta'kidlaydi. “Rigveda”da keltirilgan su-śāka so'zining ma'nosi “erlar”, “yigitlar”, ya'ni saklar – “kuchli yigitlar, kuchli bahodirlar” degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, Saka so'zini hayvon nomlari bilan bog'lash, masalan, ossetincha sak-sāka – “bug'u” yoki švan – “it” degan talqinlarni mutlaqo noto'g'ri deb hisoblaydi va sak so'zining ma'nosini “harakatlanmoq” deb izohlaydi.

Mustaqillikka erishilgach, ko'chmanchi sak va massaget qabilalari tarixini o'rganishga bo'lgan qarashlar sezilarli darajada o'zgarish yuz berdi. Qadimgi Baqtriya bilan bir vaqtda quyi Amudaryo va Orol havzalarida Amirobod, Quysisoy, Tagisken kabi madaniy markazlar mavjud bo'lgan. Ko'chmanchi

xalqlardan meros qolgan ushbu yodgorliklar sak va massaget xalqlarining moddiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. O'rta Osiyo ko'chmanchilari – sak va massagetlar xalqlarining qisman Baqtriya bilan madaniy aloqalarga ega bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu aloqalarning izlari ayniqsa harbiy qurollar va aslahalar shaklida o'xshashliklar mavjud.

Ko'chmanchi qabilalarning qadimiy nomlari O'rta Osiyoga oid yozma manbalarda aniq ifodalangan. Avestoda turlar “tez chopar otlardek” (Yasht XVII) deb ta'riflanadi. Bundan tashqari, Yasht V da danaylar (dānu) haqida hikoya qilinadi. Antik davr manbalarida O'rta Osiyo qabilalariga nisbatan “saklar” nomi qo'llanilgan, ayrim hollarda ular “skiflar” deb ham yuritilgan. Xitoy manbalarida saklar **sai** deb nomlangan, Tan sulolasi davrida esa bu nom **sek** tarzida talaffuz qilingan [7]. Hindcha (sanskritcha) shakli **saka** bo'lib, bu etnonim etimologik jihatdan sanskrit tilidagi “kuchli, har narsaga qodir, ishbilarmon va qudratli” ma'nolarini beradi [8].

Diodor (II, 43) shunday yozadi: “Skiflar qabilasi keng tarqalgan bo'lib, ajoyib podshohlarga ega bo'lgan; ularning ayrimlari saklar nomi bilan atalgan, boshqalari massagetlar, yana ba'zilar esa arimaspalar va shunga o'xshash ko'plab nomlarga ega bo'lgan”.

Markaziy Osiyo ilk ko'chmanchilarining oilaviy munosabatlari va ijtimoiy tabaqalanishi masalalari Avestoda hamda antik davr tarixchilari, jumladan Gerodot asarlarida o'z aksini topgan [9].

I.V. Pyankov ma'lumotlariga ko'ra, antik davr tarixchilari O'rta Osiyo ko'chmanchilarini quyidagicha tasavvur etganlar: O'rta Osiyoning g'arbida cho'l va dasht hududlarida “Massaget” (“Derbik”) qabilalari, sharqida tog' va dasht hududlarida “Sak” qabilalari, Tanais (Sirdaryo) bo'ylari va uning narigi tomonida esa “Dai”lar istiqomat qilgan [9].

Gerodot: “Massagetlar oddiy kishilar bo'lib, forslarning to'kin-sochin hayotidan bexabar”, deb yozgan bo'lsa, Arrian “...o'ta qashshoq holda yashaydilar, kambag'al va xalqparvar kishilar, yagona yutug'i yoy va o'q, ovqati

go'sht va sut, kiyimlari teridan, hukmdorlari ham, oddiy kishilari ham teng, mehmondo'st, tinchlikparvar va ozoddir", deydi [9].

Sak qabilalari to'g'risida ham shunga o'xshash ma'lumotlar mavjud. "Qishloq va shaharlari yo'q. Aravada yashashadi, faqat chorvachilik bilan shug'ullanadi", deb ta'rif beriladi. Ktesiy esa saklarning dehqonchilik bilan ham shug'ullangani va oz bo'lsa-da, shaharlari mavjud bo'lganini yozgan.

O'rta Osiyo ko'chmanchilari haqida Gerodot shunday yozadi: "Massagetlar son jihatdan ko'p va jangovar xalq bo'lib, sharqda, Araks daryosining narigi qirg'og'ida yashaydi. Araksda Lesbosga teng ko'plab orollar bor. Orollarning aholisi turli ildizlarni iste'mol qiladi. Bularni yozda yeyishadi, qishda esa ayrim daraxt mevalari bilan tirikchilik qilishadi. Bu mevalarni ham yoz pishig'ida terib, g'amlashadi"[10].

Strabon esa quyidagi ma'lumotni qoldirgan: "Massagettlarning bir qismi tog'larda, bir qismi tekisliklarda, uchinchi qismi daryolar hosil qiladigan botqoqliklarda, to'rtinchi qismi esa botqoqlikdagi orollarda yashaydi. Kumush ularda yo'q, temir, mis va oltin esa serob. Orollarda yashovchi massagetlar ekin-tikin qilmagani sababli ildiz va mevalar bilan oziqlanadi, ularni siqib sharbatini ichadi. Botqoqlikdagilar baliq bilan, tog'da yashovchilar yovvoyi meva daraxtlari va go'sht bilan, tekislikda yashovchilar esa yerlari bo'la turib unga ishlov bermaydi, chorva va baliq go'shti bilan oziqlanadi" [11].

O'rta Osiyo ilk ko'chmanchi xalqlari – sak va massaget qabilalari – hududiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan mintaqaga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi yozma manbalar va arxeologik dalillar ularning turmush tarzi, harbiy qobiliyati va ijtimoiy tuzumini ochib beradi. Sak va massagetlar chorvachilik va ildiz-meva bilan oziqlangan, tinchlikparvar, mehmondo'st va ijtimoiy jihatdan teng jamiyatni tashkil qilgan. Etimologik tadqiqotlar ularning kuchli va ishbilarmon sifatlarini tasdiqlaydi, madaniy aloqalar esa material va harbiy madaniyat o'xshashliklarini ko'rsatadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda sak va massaget qabilalarining tarixiy obrazini yanada aniqlashtirish uchun yozma manbalar bilan birga arxeologik va



antropologik tadqiqotlarni integratsiyalash, shuningdek, ularning hududiy migratsiya va madaniy aloqalarini raqamli xaritalash usullari yordamida tahlil qilishni tavsiya etish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бернштам А.Н. "Основные этапы истории культуры Семиречья и Тянь-Шаня,-СА,1949,XI Бернштам А.Н. Труды Семиреченской археологической экспедиции "Чуйская долина". Сост . под рук .А. Н. Бернштам . М -Л., 1950 МИА.
2. Черников С.С. Роль андроновской культуры в истории Средной Азии и Казахстана,-КСИЭ, 1957, т. XXVI. Черников С.С. Восточный Казахстан в эпоху бронзы, М.-Л., 1960 МИА, № 88.
3. Акишев К. А., Кушаев Г.А . Древняя культура саков и усуней долины реки Или ,Алма-Ата , 1963.
4. Кадырбаев М.К. Некоторые итоги и перспективы изучения археологии раннежелезного века Казахстана,-сб. "Новое в археологии Казахстана", Алма-Ата, 1968.
5. Смирнов К.Ф. Савроматы. Ранняя история и культура сарматов, М., 1964.
6. Абаев В.И .Скифский быт и реформа Зороастра, -АОг, XXIV, 1956, №.1
7. Диодор. Кутубхона , II. 43.
8. Konow S. Kharoshthi inscription with the exceptions of those of Aśoka. Ed.by. Stein Konow, Calkutta, 1929(Corpus Inscriptions Indicarum, vol II, pt, I ).
9. Пьянков И.В. Общественный строй ранних кочевников Средней Азии по данным античных авторов. Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. ТД. Ноябрь 1975. Ленинград, 1975. - С. 84-85.
10. Геродот. Тарих, I. 201, 203, 204, 205.
11. Страбон. География, XI, 8, 6-8.

**IQTISODIYOT****MINTAQADA TADBIRKORLIK FAOLIYATI ORQALI SANOAT  
TARMOG‘IDA ISHCHI KUCHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI  
MODELLASHTIRISH**

**Abror Xayitboyev, Abu  
Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi.**

**UO‘K 332(614)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqada tadbirkorlik faoliyati orqali sanoat tarmog‘ida ishchi kuchi samaradorligini oshirishni modellashtirish masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, mintaqada tadbirkorlik faoliyati orqali sanoat tarmog‘ida ishchi kuchi samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы моделирования повышения производительности труда в промышленном секторе посредством предпринимательской деятельности в регионе. Также представлены предложения и рекомендации по повышению производительности труда в промышленном секторе посредством предпринимательской деятельности в регионе.

**Annotation:** This article examines the issues of modeling the improvement of labor productivity in the industrial sector through entrepreneurial activity in the region. It also presents proposals and recommendations for improving labor productivity in the industrial sector through entrepreneurial activity in the region.

**Kalit so‘zlar:** Mintaqa, tadbirkorlik, sanoat, ishchi kuchi, samaradorlik, modellashtirish.

**Ключевые слова:** Регион, предпринимательство, промышленность, труд, производительность, моделирование.

**Key words:** Region, entrepreneurship, industry, labor, productivity, modeling.

Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik muhim o‘ringa ega. Jumladan, ushbu soha sanoat rivojining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, barqaror o‘shish va ish bilan bandlikni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, xususiyl mulkni rag‘batlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu o‘z navbatida Xorazm viloyatida ham kichik sanoat korxonalarining faolligini oshirishga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga va mehnat unumdorligini yuksaltirishga imkoniyat yaratmoqda. Bunda yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o‘shishi bilan sanoat mahsulotlari hajmining o‘shishi, sanoat sohasida bandlar soni o‘shishi, tashqi savdo aylanmasining o‘shishi, eksportning o‘shishi, importning o‘shishi o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil amalga oshiriladi.

Mintaqada tadbirkorlik faoliyati orqali sanoat tarmog'ida ishchi kuchi samaradorligini oshirishni modellashtirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda mamlakat xususiy sektorida ishchi kuchiga bo'lgan talabning holati va uning bandlikni ta'minlashdagi roli va uni tahlil etishning ob'ektiv sabablari yoritilgan [1]. Yana bir tadqiqotlarda esa sanoatni joylashtirish, sanoat shtandorti to'g'risidagi asarida sanoat korxonalarini joylashtirishda xom ashyo va yoqilg'i, ishchi kuchi va transport omillariga katta e'tibor qaratish lozimligi asoslangan [2]. Boshqa xil tadqiqotlarda esa sanoat korxonalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda bank-moliya tashkilotlarining hissasi yuqori bo'lib, bunda davlatning maxsus jamg'armalaridan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning o'rni zarurligi asoslangan [3]. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, mintaqada sanoat tarmog'ida ishchi kuchi samaradorligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining soni va faolligi ortishi ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, texnologik yangilanishga va mehnat unumdorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xorazm viloyatida 2010-2024 yillar davomida kichik biznesning sanoat sohasidagi ulushi, ishlab chiqarish hajmi, ish bilan bandlik darajasi va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarida o'zgarishlar yuz beradi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida sanoat sohasida kichik biznesning mavqei, uning iqtisodiy faoliyatdagi rolini ochib beramiz. Shuni alohida ta'kidlaymizki, kichik biznesning tegishli ko'rsatkichlari viloyatda 2010-2024 yillar davomida tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lgan.

Xorazm viloyati sanoat tarmog'ida kichik biznes va tadbirkorlikning faolligi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va mehnat unumdorligi tadqiqot davrida sezilarli o'zgargan. Jumladan, 2010-2013 yillarda kichik biznesning sanoatdagi ulushi 30,0 foizdan 36,8 foizgacha o'sgan bo'lib, bu davrda xususiy sektorning sanoatdagi mavqei mustahkamlangan. Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari hajmi 188,6 mlrd.so'mdan 312,6 mlrd.so'mgacha oshib, viloyat sanoatiga tegishli qo'shilgan qiymatdagi kichik biznesning hissasi ortgan. Biroq 2014 yildan boshlab kichik biznesning sanoatdagi ulushi ko'rsatkichi keskin pasayish tendensiyasini ifodalagan. Ya'ni, 2014 yilda 29,7 foiz bo'lgan ko'rsatkich 2022 yilda 16,0 foizgacha qisqargan. 2023-2024 yillarda qisman tiklanish qayd etilgan bo'lib, 21 foiz atrofida kattalikni aks ettirmoqda (1-jadval).

## 1-jadval

**Xorazm viloyatida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining sanoat sohasidagi faollik darajasi [4]**

| Yillar   | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat mahsulotlari hajmi, taqqoslama narxlarda, mlrd.so‘ m | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘ sish | Kichik biznesda bandlar soni, ming kishi | Kichik biznes-ning sanoat sohasida bandlar soni, ming kishi | Kichik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi, mln.so‘ m | Kichik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o‘ sish sur’ ati |
|----------|-------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| 2010     | 30,0                                                        | 188,6                                                                                                 | 114,1                                                                             | 473,2                                    | 47,3                                                        | 3,98                                                            | 107,9                                                                 |
| 2011     | 32,7                                                        | 234,1                                                                                                 | 124,2                                                                             | 492,7                                    | 49,3                                                        | 4,75                                                            | 119,3                                                                 |
| 2012     | 34,6                                                        | 263,6                                                                                                 | 112,6                                                                             | 514,7                                    | 51,5                                                        | 5,12                                                            | 107,8                                                                 |
| 2013     | 36,8                                                        | 312,6                                                                                                 | 118,6                                                                             | 523,0                                    | 52,3                                                        | 5,98                                                            | 116,7                                                                 |
| 2014     | 29,7                                                        | 306,5                                                                                                 | 98,1                                                                              | 538,8                                    | 53,9                                                        | 5,69                                                            | 95,2                                                                  |
| 2015     | 38,9                                                        | 506,6                                                                                                 | 165,3                                                                             | 574,2                                    | 57,4                                                        | 8,82                                                            | 155,1                                                                 |
| 2016     | 47,7                                                        | 578,4                                                                                                 | 114,2                                                                             | 589,2                                    | 58,9                                                        | 9,82                                                            | 111,3                                                                 |
| 2017     | 42,1                                                        | 603,9                                                                                                 | 104,4                                                                             | 604,6                                    | 60,5                                                        | 9,99                                                            | 101,8                                                                 |
| 2018     | 37,1                                                        | 573,4                                                                                                 | 95,0                                                                              | 573,7                                    | 57,4                                                        | 10,00                                                           | 100,1                                                                 |
| 2019     | 30,2                                                        | 502,3                                                                                                 | 87,6                                                                              | 592,1                                    | 59,2                                                        | 8,48                                                            | 84,9                                                                  |
| 2020     | 29,5                                                        | 521,0                                                                                                 | 103,7                                                                             | 568,1                                    | 56,8                                                        | 9,17                                                            | 108,1                                                                 |
| 2021     | 22,0                                                        | 455,3                                                                                                 | 87,4                                                                              | 574,6                                    | 57,5                                                        | 7,92                                                            | 86,4                                                                  |
| 2022     | 16,0                                                        | 380,7                                                                                                 | 83,6                                                                              | 579,3                                    | 57,9                                                        | 6,57                                                            | 82,9                                                                  |
| 2023     | 16,3                                                        | 412,7                                                                                                 | 108,4                                                                             | 615,8                                    | 61,6                                                        | 6,70                                                            | 102,0                                                                 |
| 2024     | 21,0                                                        | 568,9                                                                                                 | 137,9                                                                             | 618,1                                    | 61,8                                                        | 9,20                                                            | 137,3                                                                 |
| O‘rtacha | 31,0                                                        | 427,2                                                                                                 | 110,3                                                                             | 562,1                                    | 56,2                                                        | 7,5                                                             | 107,8                                                                 |

Xorazm viloyatida kichik biznesning sanoat mahsulotlari hajmi 2010 yildagi 188,6 mlrd so‘mdan 2024 yilda 568,9 mlrd so‘mgacha yetgan. Ayniqsa, 2015 yilda 165,3 foizlik yuqori o‘shish qayd etilgan. Buning asosiy sababai

investitsiya va kreditlash amaliyotini kengayganligi bilan bog'liq. Xorazm viloyatida kichik biznesning ishchi kuchi samaradorligi ko'rsatkichida ikki bosqichli dinamika kuzatilmoqda. 2010-2017 yillarda unumdorlik 3,98 mln.so'mdan 9,99 mln.so'mgacha o'sgan. Lekin, 2018-2023 yillarda samaradorlik 10,00 mln.so'mdan 6,57 mln.so'mgacha pasaygan. Ammo 2024 yilda tiklanish jarayoni qayd etilgan va samaradorlik 9,20 mln.so'mga teng bo'lgan.

Viloyatning ish bilan bandlik ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. Kichik biznes sohasidagi umumiy bandlar 470–620 ming kishi atrofida bo'lib, shundan 47-62 ming kishi sanoat sohasida band bo'lganlarni tashkil qilmoqda. Bu holat sanoatda kichik biznesning bandlikka qo'shayotgan hissasi taxminan 9-10 foizni tashkil etayotganligini ko'rsatadi. Demak, xulosa qilib aytsak, Xorazm viloyati sanoatida asosiy ishlab chiqarish hajmi yirik biznesga tegishli bo'lib, kelajakda kichik biznes ulushini oshirish, shu asosda uning sohadagi bandlar hamda ishchi kuchi samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xorazm viloyati sanoat tarmog'ida yirik biznes sub'ektlari yuqori ulushga ega hisoblanadi. Yirik biznes sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, mehnat samaradorligi va ish bilan bandlik bo'yicha ham yetakchi. Jumladan, yirik biznesning sanoat mahsulotlari hajmi 2010-2024 yillarda ijobiy o'sib, 2010 yildagi 440 mlrd.so'mdan 2024 yilda 2140 mlrd. so'mgacha o'sgan va natijada 4,8 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2014, 2017-2019 va 2021 yillarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (3.1.2-jadval). Bu holatni sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarning shakllanganligi hamda barqaror faoliyati yo'lga qo'yilganligi bilan asoslaymiz. Lekin, 2016 yilda sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati 79,7 foiz bo'lib, o'tgan yilga nisbatan pasaygan. Ushbu holat viloyat sanoatining yetakchi tarmog'i mashinasozlik sanoatiga tegishli bozordagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, mahsulotlar realizatsiyasi yetarli darajada amalga oshmagan.

Shu bilan birga, yirik biznesda band bo'lganlar umumiy soni tahlil davrida 133,5 ming kishidan 161,4 ming kishiga ko'paygan. Sanoat sohasida bevosita ish bilan band bo'lganlar soni atigi 13,3 ming kishidan 16,1 ming kishigacha o'sgan. Demak, yirik biznes sohasida yangi ish o'rinlarini kengaytirish jarayoni past sur'atlarga egaligidan daolat beradi. Fikrimizcha, bu jarayon yirik biznes sohasida kapital intensivligining o'sib borayotganligidan dalolat bermoqda. Bu holat, ishchi kuchi samaradorligiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shunday



bo'lsada, sohadagi ishchi kuchi bandligini oshirish umumiy mintaqa samaradorligini oshirishda ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yirik biznesning sanoat ishlab chiqarish bo'yicha mehnat samaradorligi tadqiqot davrida 32,97 mln.so'mdan 132,63 mln.so'mgacha o'sib, 4 baravarga oshgan. Shunday bo'lsada, uning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati ham ijobiy o'zgarib, tadqiqot davrida o'rtacha 111,2 foizga o'sgan. Lekin, 2016 yilda mehnat unumdorligi 51,09 mln.so'mga tushib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 78,2 foizni tashkil etgan. Bu holat yuqoridagi tahlillarda aytib o'tganimizdek ishlab chiqarish hajmining qisqarishi bilan bog'liq. Demak, Xorazm viloyatida yirik biznesning sanoat sohasidagi ulushini oshirish, uning mehnat unumdorligini ijobiy o'sish sur'ati davomiyligini ta'minlash uchun texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, sohada xorijiy investitsiyalar ko'lamini oshirish hamda ishchi kuchi malakasini oshirish zarur (2-jadval).

## 2-jadval

### Xorazm viloyatida yirik biznesning sanoat sohasidagi faollik darajasi

[4]

| Yillar | Yirik biznesning sanoat mahsulotlari hajmi, taqqoslama narxlarida, mlrd.so' m | Yirik biznesning sanoat mahsulotlari o' sish sur' ati | Yirik biznesda bandlar soni, ming kishi | Yirik biznesning sanoat sohasida bandlar soni, ming kishi | Yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi, mln.so' m | Yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi sur' ati |
|--------|-------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 2010   | 440,0                                                                         | 114,1                                                 | 133,5                                   | 13,3                                                      | 32,97                                                          | 107,9                                                        |
| 2011   | 481,9                                                                         | 109,5                                                 | 132,5                                   | 13,3                                                      | 36,36                                                          | 110,3                                                        |
| 2012   | 498,2                                                                         | 103,4                                                 | 128,7                                   | 12,9                                                      | 38,72                                                          | 106,5                                                        |
| 2013   | 536,8                                                                         | 107,7                                                 | 137,4                                   | 13,7                                                      | 39,08                                                          | 100,9                                                        |
| 2014   | 725,5                                                                         | 135,1                                                 | 139,8                                   | 14,0                                                      | 51,90                                                          | 132,8                                                        |
| 2015   | 795,8                                                                         | 109,7                                                 | 121,8                                   | 12,2                                                      | 65,33                                                          | 125,9                                                        |
| 2016   | 634,1                                                                         | 79,7                                                  | 124,1                                   | 12,4                                                      | 51,09                                                          | 78,2                                                         |
| 2017   | 830,5                                                                         | 131,0                                                 | 124,7                                   | 12,5                                                      | 66,60                                                          | 130,3                                                        |
| 2018   | 974,3                                                                         | 117,3                                                 | 138,1                                   | 13,8                                                      | 70,55                                                          | 105,9                                                        |
| 2019   | 1162,2                                                                        | 119,3                                                 | 144,4                                   | 14,4                                                      | 80,51                                                          | 114,1                                                        |

|             |        |       |       |      |        |       |
|-------------|--------|-------|-------|------|--------|-------|
| <b>2020</b> | 1245,0 | 107,1 | 148,3 | 14,8 | 83,96  | 104,3 |
| <b>2021</b> | 1614,4 | 129,7 | 151,8 | 15,2 | 106,34 | 126,7 |
| <b>2022</b> | 1998,8 | 123,8 | 162,5 | 16,2 | 123,04 | 115,7 |
| <b>2023</b> | 2119,1 | 106,0 | 160,7 | 16,1 | 131,84 | 107,2 |
| <b>2024</b> | 2140,1 | 101,0 | 161,4 | 16,1 | 132,63 | 100,6 |
| O'rtacha    | 1079,8 | 113,0 | 140,6 | 14,1 | 74,1   | 111,2 |

Xorazm viloyatida kichik biznesning sanoat tarmog'idagi mehnat unumdorligi o'sish sur'ati va omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni tadqiq qildik. Tahlil natijalariga ko'ra, mehnat unumdorligining o'sishi sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan yuqori darajada bog'liq bo'lib, korrelyatsiya koeffitsienti 0,9857 ga teng bo'lgan. Bu mehnat unumdorligining asosiy omili sifatida ishlab chiqarish hajmining kengayishi muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, sanoatning asosiy xom ashyo bazasi hisoblangan qishloq xo'jaligi o'sishi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik past, ammo ijobiy (0,1348). Chunki, kichik biznesning sanoatga oid sub'ektlari faoliyati qishloq xo'jaligini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Eksport o'sish sur'ati bilan mehnat unumdorligi o'rtasida salbiy bog'liqlik (-0,271) mavjud. Bu holat kichik biznesning eksportbop mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtirokini pastligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, import o'sishi bilan mehnat unumdorligi o'rtasida musbat (0,227) korrelyatsiya aniqlandi. Buning asosiy sababi sanoat sohasidagi kichik biznes uchun zaruriy texnologiya va uskunalar import sifatida jalb etilayotganligi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Xorazm viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi mehnat unumdorligi hamda omillari o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari [4]

| Ko'rsatkich nomi | Kichik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o'sish sur'ati | Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati | Qishloq xo'jaligini o'sishi | Eksportning o'sish sur'ati | Importning o'sish sur'ati | Kichik biznes sub'ektlar soni o'sish sur'ati | Kichik biznesda band bo'lganlar o'sish |
|------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-----------------------------|----------------------------|---------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------|
|------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-----------------------------|----------------------------|---------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------|

|                                                                     |          |          |         |        |        |        |   |
|---------------------------------------------------------------------|----------|----------|---------|--------|--------|--------|---|
| Kichik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o'sish sur'ati | 1        |          |         |        |        |        |   |
| Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati  | 0,985732 | 1        |         |        |        |        |   |
| Qishloq xo'jaligini o'sishi                                         | 0,134822 | 0,1996   | 1       |        |        |        |   |
| Eksportning o'sish sur'ati                                          | -0,27118 | -0,33219 | -0,3544 | 1      |        |        |   |
| Importning o'sish sur'ati                                           | 0,227048 | 0,205183 | -0,0372 | 0,2254 | 1      |        |   |
| Kichik biznes sub'ektlar soni o'sish sur'ati                        | -0,44652 | -0,45115 | -0,0900 | 0,4153 | 0,518  | 1      |   |
| Kichik biznesda band bo'lganlar o'sish sur'ati                      | 0,25838  | 0,412516 | 0,4878  | -0,434 | -0,012 | -0,225 | 1 |

Shuni alohida ta'kidlaymizki, kichik biznes sub'ektlari soni o'sishi odatda miqdoriy jihatdan ijobiy holat hisoblansada, ishlab chiqarish natijadorligiga har doim ham birdek ta'sir qilmaydi. Shu bois, ushbu ko'rsatkichning mehnat unumdorligiga ta'siri salbiy (-0,4465) korrelyatsiya koeffitsientini ifodalamoqda. Kichik biznesda ish bilan bandlar soni o'sishi esa mehnat unumdorligi bilan musbat (0,258), lekin past darajadagi korrelyatsiyaga ega. Bu esa, sohada yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining o'rtacha mehnat unumdorligi o'zgarmasligidan dalolat beradi.

Demak, korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra Xorazm viloyatida kichik biznesning sanoat sohasidagi mehnat unumdorligi asosan sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan kuchli bog'langan bo'lib, bu tarmoqda qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarini chuqurlashtirish va kengaytirishni talab qilmoqda.

Yuqoridagi korrelyatsion tahlil natijalariga asoslanib regression tahlilni ham amalga oshiramiz. Bunda, dastlab Xorazm viloyatida sanoat tarmog'idagi kichik

biznes va tadbirkorlikning muhim drayveri sifatida ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. Jumladan, tahlil jarayonida kichik biznesning mehnat unumdorligi o'sish sur'ati (Y) kichik biznesda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati (X) bilan bog'liqligini ekonometrik jihatdan baholadik va natijada quyidagi modelni ishlab chiqdik:

$$Y=8,78+0,897X \quad (1)$$

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, sanoat sohasidagi kichik biznes ishlab chiqarishining 1 foizga o'sishi soha mehnat unumdorligini 0,9 (0,8973) foizga oshishini ta'minlamoqda. Shuningdek, o'zgaruvchining statistik jihatdan ahamiyatliligi ham ekonometrik tahlil talablariga mos keladi ( $p < 0,001$ ).

Shu bilan birga, modelning umumiy statistik va ekonometrik jihatdan ahamiyatliligi ham ijobiy bo'lib, asosiy talablarga javob beradi. Jumladan,  $R=0,9857$  - sanoat o'sish sur'ati va mehnat unumdorligi o'sish sur'ati o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. Shuningdek, model statistik jihatdan ahamiyatli ( $F=445,83$ ,  $p < 0,001$ ). Demak, viloyatda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda sohaning sanoatdagi ulushini kengaytirishimiz zarur. Bunda, mintaqadagi xom ashyo resurslarga muvofiqlikda kichik sanoat zonalarini kengaytirish hamda imtiyozli ishlab chiqarish kreditlarini, ayniqsa xorijiy liniyalar hisobidan ular hajmini oshirishimiz zarur.

Yuqoridagi tahlilda tanlab olingan omilning ishonchliligi va ta'sirchanlik koeffitsientini to'liq ochib berish uchun qo'shimcha boshqa bir qator ekzogen ko'rsatkichlarni ham kiritamiz. Bunda, quyidagi omillarni kichik biznes mehnat samaradorligi bilan ta'sirini tahlil qilamiz:

X1 - kichik biznes va tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati;

X2 - qishloq xo'jaligi o'sish sur'ati;

X3 - eksportning o'sish sur'ati;

X4 - importning o'sish sur'ati;

X5 - kichik biznes sub'ektlari sonining o'sish sur'ati;

X6 - kichik biznesda ish bilan bandlar soni o'sish sur'ati.

Mazkur ko'rsatkichlar hisobiga kichik biznesning mehnat samaradorligi o'sish sur'ati (Y) bog'liqligini ko'p omilli regression modelini ishlab chiqdik:

$$Y=109,16+0,9445X_1+0,1026X_2+0,0070X_3+0,0123X_4-0,0724X_5-1,0852X_6 \quad (2)$$

Natijada, kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining 1 foizga o'sishi mehnat samaradorligini 0,94 foizga, qishloq xo'jaligining 1 foizga o'sishi kichik biznesning mehnat samaradorligini 0,10 foizga, eksportning 1 foizga o'sishi kichik biznes mehnat samaradorligini 0,007 foizga, importning 1 foizga o'sishi kichik biznesni mehnat samaradorligini 0,012 foizga o'sishini ta'minlamoqda. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlari sonini 1 foizga o'sishi kichik biznesning mehnat samaradorligini 0,07 foizga, kichik biznesdagi bandlarning sonini 1 foizga o'sishi kichik biznesning mehnat samaradorligini 1,085 foizga qisqarishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, model statistik ahamiyatlilik va ekonometrik talablarga javob beradi. Jumladan, mustaqil o'zgaruvchilar bilan mehnat unumdorligi o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud ( $R=0,9995$ ). Model statistik jihatdan ahamiyatli ( $F=1231,94$ ,  $p<0,001$ ), hamda standart xatolik 0,84 ga teng bo'lib, ishonchli sanaladi. Yuqorida kichik biznesning sanoatdagi ulushi, uning samaradorlik jihatlarini qarab o'tdik. Shunday bo'lsada, tahlillar davomida sanoat ishlab chiqarishdagi kichik biznesning ulushi nisbatan past ekanligini aniqladik. Shu bois, Xorazm viloyati sanoati va uning tadbirkorlik bo'yicha ta'siri, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini tahlil etishda yirik biznesga ham alohida e'tibor qaratdik.

Natijada, yirik biznesning mehnat samaradorligi sohaning sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan yuqori ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lgan ( $r=0,8986$ ). Shu bilan birga, tashqi savdo aylanmasining o'sishi ( $r=0,0222$ ), eksportning o'sishi ( $r=0,047$ ), importning o'sishi ( $r=0,074$ ) nisbatan past va



sezilarsiz, lekin ijobiy korrelyatsiyani aks ettirmoqda. Shunday bo'lsada, yirik biznesning sanoat sohasidagi bandlar soni o'sishi bilan mehnat samaradorligini o'sishi teskari bog'liqlikka ega ( $r=-0,216$ ) (4-jadval).

4-jadval

**Xorazm viloyatida yirik biznesning sanoat tarmog'idagi mehnat unumdorligi va uning omillari o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari [4]**

| Ko'rsatkich nomi                                                   | Yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o'sish sur'ati | Yirik biznesning sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati | Yirik biznesning sanoat sohasida bandlar o'sish sur'ati | Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati | Eksportning o'sish sur'ati | Importning o'sish sur'ati |
|--------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------|----------------------------|---------------------------|
| Yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o'sish sur'ati | 1                                                                  |                                                     |                                                         |                                           |                            |                           |
| Yirik biznesning sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati                | 0,898577                                                           | 1                                                   |                                                         |                                           |                            |                           |
| Yirik biznesning sanoat sohasida bandlar o'sish sur'ati            | -0,21606                                                           | 0,222442                                            | 1                                                       |                                           |                            |                           |
| Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati                          | 0,022219                                                           | -0,01074                                            | -0,04252                                                | 1                                         |                            |                           |
| Eksportning o'sish sur'ati                                         | 0,04707                                                            | 0,177821                                            | 0,294705                                                | 0,636511                                  | 1                          |                           |
| Importning o'sish sur'ati                                          | 0,074954                                                           | -0,0947                                             | -0,32917                                                | 0,875213                                  | 0,225401                   | 1                         |

Demak, yirik biznesning mehnat samaradorligi sanoat mahsulotlari hajmi o'zgarishi bilan belgilanayotganligi, tashqi savdo faoliyati esa nisbatan past bog'liqlikka egaligini aniqladik. Shuningdek, yirik biznesda ish bilan bandlarning

salbiy bog‘langanligi, mehnat samaradorligini bir xil tendensiyalarga egaligini aks ettirmoqda.

Yirik biznes sanoat tarmog‘ida mehnat unumdorligining yuqoridagi korrelyatsion bog‘liqliklari asosida regressiya tahlilni amalga oshiramiz. Regression tahlilda quyidagi omillarni tanlab oldik va ular asosida modelni ishlab chiqdik:

$$Y=118,68+0,9963X_1-1,1832X_2 \quad (3)$$

Bunda: Y - yirik biznesning sanoat sohasida mehnat unumdorligi o‘shish sur‘ati;

X<sub>1</sub> - yirik biznesning sanoat mahsulotlari hajmining o‘shish sur‘ati;

X<sub>2</sub> - yirik biznesning sanoat sohasida ish bilan band bo‘lganlar soni o‘shish sur‘ati.

Tadqiqotlarimiz asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shishi yuqori ijobiy ta’sirga egaligini aniqladik. Jumladan, yirik sanoat korxonalarida sanoat mahsuloti hajmining 1 foizga o‘shishi ishchi kuchi samaradorligini 0,996 foizga ijobiy hamda ish bilan bandlar sonining 1 foizga o‘zgarishi ishchi kuchi samaradorligini 1,183 foizga salbiy o‘zgarishini ta’minlamoqda.

Shuningdek, har ikkala omilning P-qiymati  $0,000 < 0,001$  bo‘lib, yuqori ishonchlilikka ega hisoblanadi. Modelning iqtisodiy-statistik ahamiyati ham yuqori bo‘lib quyidagilarga ega: yirik biznesning sanoatdagi holati mustaqil o‘zgaruvchilari bilan ishchi kuchi samaradorligi ( $R=0,9947$ ) yuqori bog‘liqlikka ega; modelning statistik ahamiyatliligi yuqori va mavjud ( $F=562,79$ ,  $p < 0,001$ ); standart xatolik past va natijalar ishonchli ( $=1,55$ ).

**Xulosa.** Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘ining kichik va yirik biznes samaradorligini iqtisodiy-statistik usullar asosida tadqiq qilganimizda ishlab chiqarishning o‘shishi yuqori ijobiy ta’sirga ega bo‘lmoqda. Bu mintaqada sanoat siyosatini qo‘shilgan qiymatni kengaytirishga yo‘naltirishni talab qiladi. Shu bilan birga, har ikkala biznes turida ham sanoat faoliyatidagi ish bilan bandlar o‘zgarishi samaradorlikka salbiy ta’sirga ega va teskari bog‘liqlikni

ifodalamoqda. Shu bois, ushbu sohadagi kapitalintensivlikni oshirishga, eksport ko‘lamini kengaytirishga hamda texnologiyalar transferini rivojlantirishga e’tibor qaratishimiz zarur. Yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida viloyat va uning hududlaridagi sanoat faoliyati rivojlanib, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi orati va umumiy holda mintaqa iqtisodiy barqarorligi ta’minlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1· Oltayev Sh.S. Mamlakat xususiy sektorida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning holati va uning bandlikni ta’minlashdagi roli. // Journal of marketing, business and management, 2025, Volume3, Issue11 (April). - 4 b.

2· Egamberdiyev F.T., Jo‘rayev Sh.S. Sanoatni rivojlantirishning hududiy tarkibini takomillashtirish muammolari. // «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar» mavzusidagi onlayn halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - T.: 2021. - 107 b.

3· Karimov M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, №2 (13) 95, Aprel-iyun, 2021. - 94 b.

4. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari

**IQTISODIYOT****MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI JORIY  
QILISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI**

**Boltayev Mag‘rurbek,  
Abu Rayhon Beruniy  
nomidagi Urganch  
davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi.**

**UO‘K 338.2:614**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqada sog‘liqni saqlash tizimini joriy qilish masalalari va uni amalga oshirishning innovatsion yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini joriy qilishning innovatsion yo‘nalishlaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosalar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы внедрения системы здравоохранения в регионе и инновационные направления ее реализации. Также приводятся выводы об эффективном использовании инновационных направлений для внедрения системы здравоохранения.

**Annotation:** This article discusses the issues of implementing a healthcare system in the region and innovative directions for its implementation. It also provides conclusions on the effective use of innovative directions for implementing a healthcare system.

**Kalit so‘zlar:** Mintaqa, sog‘liqni saqlash, tizim, sog‘liqni saqlash tizimi, innovatsion yo‘nalishlar.

**Ключевые слова:** Регион, здравоохранение, система, система здравоохранения, инновационные направления.

**Key words:** Region, healthcare, system, healthcare system, innovative directions.

Zamonaviy jamiyatda sog‘liqni saqlash tizimi aholi salomatligini ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada global miqyosda tibbiyot sohasida innovatsion texnologiyalar, raqamli yechimlar va yangi boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi sog‘liqni saqlash tizimining mazmunan yangilanishiga olib kelmoqda. Shularga asosan, mintaqalar kesimida sog‘liqni saqlash tizimini innovatsion asosda joriy qilish aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, mintaqada sog‘liqni saqlash tizimini joriy qilishning innovatsion yo‘nalishlarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Sogʻliqni saqlash sohasida innovatsiya tibbiy xizmatlar koʻrsatish, boshqaruv, diagnostika va davolash jarayonlariga yangi texnologiyalar, usullar va tashkiliy yechimlarni joriy etish majmuini oʻz ichiga oladi. Chunki, innovatsiyalar tibbiy asbob-uskunalarni yangilash va xizmatlar modelini tubdan takomillashtirishni oʻz ichiga oladi. Sogʻliqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sogʻliqni saqlash tizimida va alohida tibbiy tashkilotlar darajasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, statistik tibbiy maʼlumotlarni toʻplash va qayta ishlashni optimallashtirish uchun zarurdir [1]. Shuningdek, har bir davolangan holat va har bir kasalxona oʻrni uchun ajratilgan davlat mablagʻlaridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va majburiy tibbiy sugʻurtani joriy etishni tezlashtirish zarur boʻlishi mumkin. Sogʻliqni saqlash xizmatlarining narxi yangi texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga oʻsib bormoqda va har qanday mamlakatning iqtisodiy oʻsishi aholining sogʻliqni saqlashga sarflagan xarajatlari bilan belgilanadi [2]. Aholining oʻsishi sogʻliqni saqlash xizmatlari xarajatlarning umumiy oʻsishiga olib keladi.

Innovatsion yondashuvlar tibbiy xizmatlar sifatining oshishi, inson omilining kamayishi, xarajatlarni optimallashtirish va aholining tibbiy xizmatlarga boʻlgan ishonchini oshirish kabi ustunliklarni taʼminlaydi. Bundan tashqari, tibbiy amaliyotga innovatsiyalarni joriy etish jarayonlari yuqori darajadagi tartibga solish nazorati, katta investitsiyalarga ehtiyoj va uzoq muddatli ishlab chiqish va sinov sikllari bilan tavsiflanadi. Oilaga yoʻnaltirilgan madaniyatni hisobga olgan holda, bu yondashuv faqat bemorning individual masʼuliyatiga qaratilgan Gʻarb analoglariga nisbatan ancha yaxshi natijalarni koʻrsatmoqda [3]. Sogʻliqni saqlash sohasida bir nechta turli xil yangiliklar mavjud boʻlib, ular infratuzilma va sektor faoliyatining oʻzgarishiga olib keldi. Natijada, jahon boʻylab raqamli sogʻliqni saqlash faoliyati tezlashdi va mintaqaviy sogʻliqni saqlash ekotizimiga taʼsir koʻrsatdi [4]. Bu borada sogʻliqni saqlash sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish samaradorligi koʻrib chiqiladi.



Ya'ni, sohada raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, sohada xalqaro hamkorlik misollari muhokama qilingan [5].

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash tizimi joriy etilishi xizmatlar hajmi ortishi va infratuzilma va xizmatlar turlarini kengaytirish bilan tavsiflanadi. Sog'liqni saqlash xizmatlarining iqtisodiy hajmi o'zgarishi va o'sish sur'atlari (495,4 mlrd. so'm) hudud aholisi uchun tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabni ko'rsatadi. Shifoxonalar va tibbiy tashkilotlar tarmog'i viloyatda sog'liqni saqlash infratuzilmasining shakllanishi va xizmatlarning joylarda ko'rsatilishi bilan namoyon bo'ladi. Personal bilan ta'minlanganlik esa tibbiy kadrlar mavjudligi sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat va samaradorligi uchun asosiy resurs ekanligini asoslaydi. Sog'liqni saqlash xizmatlarining o'sishi umumiy xizmatlar bozorida ham ahamiyatli ulushni egallaydi. Ushbu holat mintaqalarda tibbiy xizmatlar infrastrukturasini va xizmatlarning iqtisodiy o'sishi bilan ushbu sohani yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ishora qiladi.

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash tizimi joriy etilishi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy dinamikaga ega. Hududda xizmatlar hajmi va tibbiy infratuzilma, shifokorlar bilan ta'minlanganlik darajasi o'sib bormoqda, bu esa aholi uchun tibbiy xizmatlarning sifat va qamrovini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yuqori malakali tibbiy kadrlar, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va xizmatlarning raqamlashtirilishi sog'liqni saqlash tizimini yanada samarali amalga oshirish uchun ustuvor yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqada raqamli sog'liqni saqlash innovatsiyalari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- elektron tibbiy axborot tizimlari. Mintaqada sog'liqni saqlash tizimini innovatsion joriy qilishda elektron tibbiy axborot tizimlari muhim o'rin tutadi. Elektron tibbiy karta, laboratoriya natijalarini raqamlashtirish va ma'lumotlarni yagona bazaga jamlash tibbiy xizmatlarni tezkor va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu tizim orqali bemor tarixi uzluksiz saqlanadi, tashxis qo'yish jarayoni tezlashadi va tibbiy xatolar ehtimoli kamayadi.

- telemeditsina xizmatlari. Telemeditsina sogʻliqni saqlash tizimidagi eng muhim innovatsion yoʻnalishlardan biri boʻlib hisoblanadi. Masofadan turib shifokor maslahati olish imkoniyati chekka hududlarda yashovchi aholi uchun zarur boʻladi. Telemeditsina yuqori malakali mutaxassislariga yetib borish imkoniyati, vaqt va moliyaviy xarajatlarni tejash va kasalliklarni erta aniqlash kabi afzalliklarni yaratadi.

Innovatsion tibbiy infratuzilmani rivojlantirish esa quyidagi yoʻnalishlarga asoslanadi:

- zamonaviy tibbiy uskunalar. Innovatsion tibbiy uskunalarini joriy etish mintaqada diagnostika va davolash sifatini sezilarli darajada oshiradi. Magnit-rezonans tomografiyasi, kompyuter tomografiyasi, laboratoriya avtomatlashtirilgan tizimlari shular jumlasiga kiradi.

- “aqlli shifoxonalar” konsepsiyasi. Ushbu konsepsiyasi tibbiy xizmatlarni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Bu orqali shifokorlar va bemorlar oʻrtasidagi aloqa yaxshilanadi hamda xizmat koʻrsatish jarayoni yanada optimallasadi.

Biroq, innovatsion boshqaruv mexanizmlari esa quyidagi yoʻnalishlar bilan namoyon boʻladi:

- davlat-xususiy sheriklik. Sogʻliqni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish innovatsiyalarni tezroq tatbiq etish imkonini beradi. Bu holatda xususiy sektor investitsiyalari zamonaviy klinikalar va xizmatlar rivojiga xizmat qiladi.

- natijaga yoʻnaltirilgan boshqaruv. Innovatsion boshqaruvda tibbiy xizmatlar samaradorligi aniq koʻrsatkichlar asosida baholanadi. Bu usul resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shular bilan birgalikda, innovatsion sogʻliqni saqlash tizimi malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlarsiz samarali ishlamaydi. Shu bois, tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, raqamli koʻnikmalarni oshirish muhim hisoblanadi.

Innovatsion kadrlar siyosati xalqaro tajriba almashuvi, onlayn ta'lim platformalari va doimiy malaka oshirish tizimi kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash tizimida innovatsion yo'nalishlardan yana biri profilaktika va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdir. Raqamli monitoring, mobil ilovalar va smart qurilmalar orqali aholi salomatligini nazorat qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu yo'nalish kasalliklarni oldini olish va sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash tizimini innovatsion joriy qilishda moliyalashtirishning yangi usullari muhim ahamiyatga ega. Tibbiy sug'urta, raqamli to'lov tizimlari va xalqaro grantlar sohaga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantiradi. Kelgusida esa mintaqada sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosida tashxis qo'yish, biotexnologiyalar, raqamli tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish va aholi salomatligini prognozlashtirish tizimlari kabi innovatsion yo'nalishlar ustuvor bo'ladi.

Mintaqaviy darajada innovatsion tibbiyotni joriy etish alohida ahamiyatga ega, chunki har bir hududning demografik holati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, tibbiy infratuzilmasi va kadrlar salohiyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois, innovatsion tibbiyot mintaqaning real imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

An'anaviy tibbiyot tizimi asosan kasallikni davolashga qaratilgan bo'lsa, innovatsion tibbiyot profilaktika, erta tashxis, shaxsiylashtirilgan davolash va raqamli monitoringni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Bu esa aholi salomatligini uzoq muddatli saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqada sog'liqni saqlash tizimini joriy qilishning innovatsion yo'nalishlari aholi salomatligini mustahkamlash va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv mexanizmlari va inson kapitaliga investitsiyalar sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu yo'nalishlarni izchil amalga oshirish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi innovatsion yo'nalishlarni izchil va

kompleks joriy etish esa mintaqada sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дергачёва Т. Стратегическое развитие и цифровые технологии в здравоохранении Республики Узбекистан. // Научные исследования и инновации в индустрии 4.0, 1(1), 2022. - с. 102.  
<https://doi.org/10.47689/4.v1i1.3513>
2. Мкртчян М.С. Тенденции развития инновационных технологий в сфере здравоохранения. // X - Международная студенческая научная конференция, Студенческий научный форум - 2018.  
<https://scienceforum.ru/2018/article/2018003600>
3. Григорьева Т.И. Управление инновационными проектами в здравоохранении. Дис. ... канд. экон. наук. / Т.И. Григорьева. - СПб., 2023. - с. 189.
4. <https://yourstory.com/2021/12/healthtech-startups-impacting-regional-healthcare-ecosystem>
5. Ивановский Б.Г. Инновации в здравоохранении: проблемы эффективности и внедрения. // Экономические и социальные проблемы России, 2021, №2. - с. 143.

## IQTISODIYOT

### TRANSPORT SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI



**Raxmatullayeva  
Sadokat, Urganch  
innovatsion universiteti  
Iqtisodiyot va axborot  
texnologiyalari  
kafedrasi o'qituvchisi,  
mustaqil izlanuvchi.**

**UO'K 332(614)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va ularni amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, transport sohasida raqamli marketingni samarali rivojlantirish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается необходимость развития цифрового маркетинга в транспортном секторе, его текущие возможности и региональные особенности внедрения. Также представлены выводы об эффективном развитии цифрового маркетинга в транспортном секторе.

**Annotation:** This article discusses the need for the development of digital marketing in the transport sector, its current opportunities and regional features of their implementation. It also presents conclusions on the effective development of digital marketing in the transport sector.

**Kalit so'zlar:** Transport, soha, marketing, raqamli marketing, mintaq, transport, tadqiqot.

**Ключевые слова:** Транспорт, сектор, маркетинг, цифровой маркетинг, регион, транспорт, исследование.

**Key words:** Transport, sector, marketing, digital marketing, region, transport, research.

Ma'lumki, raqamli marketing transport sohasida hududiy xususiyatlar va talablar asosida rivojlanib boradi. Bu sohada raqamli texnologiyalar orqali transport xizmatlari marketingi, xizmat sifati va mijozlar bilan samarali aloqalarni ta'minlash uchun qo'llaniladi. Ushbu mintaqaviy xususiyatlar transport infratuzilmasi, aholi zichligi, iqtisodiy salohiyat va raqobat muhiti bilan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish yo'lovchilar bilan aloqani kuchaytirib, xizmatlarni individuallashtirish, brend imidjini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda qo'llaniladi. Bu esa kompaniyalar ichki va tashqi raqobatbardoshligini yaxshilashda asosiy omilga aylanadi.

Transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarda transport xizmatlarini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning o'рни va raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari yoritilgan [1]. Yana bir tadqiqotlarda esa O'zbekistonda raqamli logistikani rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Ya'ni, unda raqamli logistikaning



rivojlanishi davlatga, aholiga va eng muhimi kompaniyalarga qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratishi asoslangan [2]. Boshqa bir tadqiqotlarga asosan, transport sanoatining raqamli transformatsiya jarayonidan sinergik ta'sir olish uchun transport va unga bog'liq ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish zarurligi asoslangan. Bu borada transport sohasida ilk bora ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirilgan. Unga asosan, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi doirasida transport xarajatlarini kamaytirish, transport-logistika xizmati darajasini oshirish, transport xizmatlarining xavfsizligi, mavjudligi va qulayligini oshirishga imkon beradigan raqamli texnologiyalar majmualari ishlab chiqilgan [3].

Yana boshqa xil tadqiqotlarga asosan, sanoat tarmoqlari bo'yicha raqamli platformalar mavjudligi yo'l yuklari bozoriga asoslangan biznes tushunchalarini ifodalab, yo'q yuklarini boshqarishni raqamlashtirishga imkon beradi. Unda yuklarini boshqarishni qo'llab-quvvatlashda raqamli platformalar ma'lumotlariga asoslangan xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ko'p qirrali va platforma tadqiqotlari transportni boshqarish tizimlari jarayonidan so'ng paydo bo'layotgan raqamli biznes tushunchalarini o'rganish imkoniyatini beradi [4]. Yana bir manbalarga ko'ra, transport korxonalari raqamli marketingning foyda olish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Ularning eski reklama infratuzilmasi asta-sekin raqamli infratuzilma bilan almashtiriladi. Bu borada transport rahbarlari ushbu o'zgarish dastlab qimmat bo'lishini biladilar, ammo bu raqamli marketingdan foyda olishning yagona yo'li bo'lib qaraladi [5]. Shunga asosan, iste'molchilar avtomobillarni o'rganish, kataloglarni ko'rib chiqish, xaridlarni amalga oshirish va sinov drayverlarini rejalashtirish uchun internetdan ko'proq foydalanadilar. Bu esa avtomobil biznesi raqamli marketing rejasini amalga oshirishdan foyda ko'rishini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish quyidagi unsurlardan tarkib topadi:

- iqtisodiy salohiyat. Bu bo'yicha har bir hududdagi transport sohasi iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shunga asosan, raqamli marketing investitsiya va texnologiyalarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

- aholi va migratsiya. Bu aholi soni va qishloq-shahar migratsiyasi transport xizmatlariga bo'lgan talabni belgilaydi. Mintaqaviy marketing strategiyasi ushbu talabni hisobga olishi kerak.

- raqobat muhiti. Unga ko'ra, yirik shaharlarda transport xizmatlari raqobatli bo'lgani uchun raqamli marketing samaradorligi yuqori bo'ladi. Kam raqobali mintaqalarda marketing qo'llanishi esa past samara beradi.

Shuningdek, transport sohasida raqamli marketingni qo'llash vositalariga esa quyidagilar kiradi:

- veb-sayt va mobil ilovalar. Bu yirik shaharlarda transport xizmatlarini onlayn bron qilish va mijoz fikrini yig'ish imkonini beradi.

- ijtimoiy tarmoqlar. Bu mijozlar bilan aloqa va reklama orqali xizmatlarni targ'ib qilishni ifodalaydi. Mintaqaviy tarmoqlar aholi yoshligi va internet foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi.

- elektron reklama va SEO. Bu mahalliy xizmatlarni reklama qilish va qidiruv tizimlarida yuqori reytingga erishishni anglatadi.

Yirik shaharlarda metro, avtobus va yo'l transporti infratuzilmasi keng rivojlangan. Bu esa raqamli marketing orqali mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Ammo, qishloq hududlarida infratuzilma cheklanganligi marketing strategiyasida aniq hududiy yondashuvni talab qiladi.

Fikrimizcha, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirishda hududiy marketing strategiyalari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- shahar markazlari uchun strategiyalar. Bu onlayn bron qilish, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng axborot tarqatish kabilarni o'z ichiga oladi.

- mintaqaviy va qishloq hududlari uchun strategiyalar. Bu bevosita SMS-xabarlar, mahalliy radio va afishalar hamda jamoat transportida reklama kabilardan iborat bo'ladi.

- eksport va xalqaro transport yo'nalishlari. Bu o'z ichiga sayyohlik va xalqaro yo'lovchi tashuvchilar uchun internet targ'ibot va onlayn bron tizimlaridan tarkib topadi.

- hududda raqamli marketing samaradorligini tahlil qilish uchun asosiy ko'rsatkichlarni belgilash. U o'z ichiga onlayn bronlar soni, veb-sayt trafigi va ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchi faolligi kabilardan tarkib topadi.

Shuningdek, mintaqalar orasida taqqoslash orqali marketing strategiyasini optimizatsiya qilish hamda mijoz fikri va talablarini hisobga olgan holda marketing faoliyatini qayta rejalashtirish ham amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishning afzalliklari quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- mijozlarga maqsadli va samarali reklama va xizmat ko'rsatish imkonini ta'minlash;
- investitsiyalarni samarali taqsimlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish;
- raqobatbardoshlikni oshirish va transport xizmatlari sifati hamda ishonchini yaxshilash;
- yangi texnologiyalar va mobil platformalarni mahalliy talablarga moslashtirish.

Tadqiqot natijalariga asosan, raqamli transportni boshqarish sohasida oqilona qarorlarni qabul qilish lozim. Bu raqamli platformalarni boshqaradigan va ma'lumotlarga asoslangan raqamli transport logistikasi bo'yicha tadqiqotlarni olib borishni ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish quyidagi mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'ladi

(1-rasm).

|                                                                                           |                      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
| Raqamli transformatsiyaning globallashuvi va logistika taqamli texnologiyalarning o'sishi | Raqamli logistika    |
| Biznesning raqamli transformatsiyasi                                                      | Raqamli iqtisodiyot  |
| Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi biznes-jarayon modellariga o'sish jarayoni      | Raqamli modellar     |
| Raqamli texnologiyalarni joriy etish                                                      | Raqamli infratuzilma |
| Jismoniy ob'ektlarni raqamli ob'ektlarga aylantirish jarayoni                             | Raqamli ma'lumot     |

### 1-rasm. Transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari

Ushbu 1-rasmga asosan, taklif etilgan sxema raqamli transformatsiya bosqichlari va u bilan bog'liq asosiy komponentlarni ko'rsatadi. Bu borada ushbu sxema asosida quyidagi umumiy tahlilni amalga oshiramiz:

- raqamli transformatsiyaning keng qamrovli jarayoni. Sxemada raqamli transformatsiya jarayoni birinchi bosqich, ya'ni jismoniy ob'ektlarni raqamli ob'ektlarga aylantirish orqali amalga oshirila boshlangan. Ushbu bosqich "raqamli ma'lumot" bilan bog'liq bo'lib, raqamli tizimlarni yaratish va obektlarni virtual formatga o'tkazishning asosini tashkil etadi.

- raqamli infratuzilma va texnologiyalarni joriy etish. Navbatdagi bosqichlar raqamli infratuzilmani yaratish va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratiladi. Ushbu bosqichlar "raqamli infratuzilma" va "raqamli modellar" komponentlari orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish va yangi biznes-modellarga moslashish imkonini beradi.

- biznesning raqamli transformatsiyasi: Sxemada biznes jarayonlarini raqamlashtirish jarayoni "raqamli iqtisodiyot" komponenti bilan bog'lanadi. Ushbu bosqich raqamli texnologiyalarni ishlatish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratiladi.

- global va logistika aspektlari. Bu borada yuqori bosqich "raqamli logistika" sifatida global transformatsiya va logistika jarayonlarining raqamlashtirilishi orqali resurslarni boshqarish, yetkazib berish zanjirini optimallashtirish va global bozor talablariga javob berish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, Ushbu sxema raqamli transformatsiya jarayonini sistematik tarzda bosqichma-bosqich ko'rsatadi. Xususan, jismoniy ob'ektlardan raqamli ma'lumotlar yaratish bilan birgalikda biznes jarayonlarini raqamlashtirish, yangi modellarni joriy etish va global logistika tizimini rivojlantirish kabi jarayonlardan tarkib topadi. Ushbu sxema shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya texnologiyalarni joriy etishni hamda biznes va iqtisodiy jarayonlarni butunlay integratsiyalashni talab qiladi.

Xulosa shuki, transport sohasida raqamli marketingni rivojlantirish mintaqaviy xususiyatlardan qat'iy nazar bosqichma-bosqich yo'nalishlarida amalga oshirilishi kerak. Bu borada hududning iqtisodiy salohiyati, aholi soni va transport infratuzilmasi marketing strategiyalariga to'g'ridan-to'g'ri shakllarda

ta'sir qiladi. Natijada, mintaqaviy yondashuv orqali transport xizmatlari samaradorligi va mijozlar qoniqishi oshirilishi mumkin. Shu orqali kompaniya yoki tashkilotlar raqobatbardoshligi oshadi, samaradorlik darajalari yaxshilanadi va global bozor talablariga moslashish jarayonlari tezlashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzaaxmadov D. Raqamli iqtisodiyot sharoitida transport xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari. // Journal of marketing, business and management, 2023. - 124 b.
2. Karriyeva Y.K., Karriyeva Sh.S., Karriyev K.S., Jorayeva F.J. O'zbekistonda raqamli logistikani rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2023, may-iyun (№00065). - 315 b.
3. Ахунова И.Б., Артамонова В.В., Гук Г.А. Анализ развития регионального рынка автомобильных грузоперевозок в условиях цифровой экономики. // Вестник Алтайской академии экономики и права, 2024, №4 (часть 1). - с. 12-17. URL: <https://vaael.ru/ru/article/view?id=3323> (дата обращения: 09.03.2026). DOI: <https://doi.org/10.17513/vaael.3323>
4. Heinbach C., Beinke J., Kammler F. et al. Data-driven forwarding: a typology of digital platforms for road freight transport management. Electron Markets 32, 807-828 (2022). <https://doi.org/10.1007/s12525-022-00540-4>
5. <https://www.digitechindia.co/blog/benefits-of-digital-marketing-in-the-automotive-and-transportation-sector>



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

# *INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT*

2-son, (37)  
2026-yil, Fevral.

|                            |               |
|----------------------------|---------------|
| Bosh muharrir v.v.b.:      | Sh.Ismoilov   |
| Bosh muharrir o‘rinbosari: | S.Samandarova |
| Mas’ul kotib:              | U.Bekmuhammad |
| Texnik muharrir:           | M.Jumaniyozov |
| Navbatchi:                 | S.Samandarova |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 15 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22